

PEDAGOGIK MAHORAT

5(1)
2024



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

5-son (2024-yil, may)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024, № 5

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY‘ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 5, 2024

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор

Янакиева Елка Кириллова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор

Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор

Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)

Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент

Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 5, 2024

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov

Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev

PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev

PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade

PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva

PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>QULIYEV Yorqin Karimovich</i>	Talabalarda korrupsiyaga qarshu xulq-atvorni shakllantirishda daxldorlik fazilatining o'rni	7
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
2.	<i>XAMIDOV Obidjon Xafizovich</i>	Uzluksiz amaliyot – kasbiy faoliyatni takomillshatirish garovi	14
3.	<i>АДИЗОВ Бахмуёр Рахмонович</i>	Педагогнинг касбий профессионаллигини такомиллаштириш йўллари	18
4.	<i>SIDDIKOVA Sadokat Gaforovna</i>	Approaches to the introduction of dual education in technical higher education	22
5.	<i>ABDULLAYEV Amrullo Nassulloyevich</i>	Oliy harbiy ta'lim muassasalari talabalarining shaxslilik sifatlarini tadqiq qilishning psixologik va ilmiy pedagogik asoslari	27
6.	<i>AKTAMOV Shohzod Ravshan o'g'li</i>	Liderlik xususiyatlari shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari	31
7.	<i>AXMATOVA Guli Xurram qizi</i>	Jamiyatda gender munosabatlarining rivojlanish tarixi	35
8.	<i>AZIZOV Obid Ergashjanovich</i>	Psixologik-pedagogik shart-sharoitlar asosida o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish	39
9.	<i>BEKKIYEVA Nargiza Rajabboyevna</i>	O'smir dunyoqarashi shakllanishida diniy tushunchalarning ijtimoiy-psixologik omillari	43
10.	<i>HAKIMOVA Fazolat Xoshimovna</i>	Maktabgacha yoshdagi bolalarda giperaktivlikning psixologik xususiyatlari	47
11.	<i>JO'RAYEV Atham Qoraqulovich</i>	Etnopsixologiya sohasidagi dastlabki tadqiqotlar	51
12.	<i>KUCHKARBAYEV Rustam Utkurovich, SAPARBAEV Tajibay, JO'RAYEV Husniddin Oltinboyevich</i>	Talabalarining kasbiy kompetentligini dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanib rivojlantirish imkoniyatlari	55
13.	<i>LATIPOVA Umida Yusufboyevna</i>	Talabalarda ijodiy faollik motivatsiyasini oshirishda psixologik trening dasturining ahamiyati	60
14.	<i>MAMAJONOVA Shahzoda Yoqubjon qizi</i>	Psixodiagnostika metodlarini psixometrika mezonlari va uning mazmun mohiyati asosida o'rganish	65
15.	<i>NAZAROV Tohir Toshpo'lotovich</i>	Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi ofitser-o'qituvchilarining ta'lim jarayonidagi pedagogik qobiliyati	70
16.	<i>RAMAZANOVA Feruza Xudoynazarovna</i>	Bo'lajak o'qituvchilarda kasbga e'tiqodni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	75
17.	<i>RAXIMOV Bobur Azimboyevich</i>	Oliy ta'lim pedagoglarining kasbiy taraqqiyotida psixologik omillarning o'rni	80
18.	<i>SHOMURODOV Ibrohim Xusanmurot o'g'li</i>	Ekstremal vaziyatlarda shaxs o'zini o'zi psixologik himoya qilish jarayonining nazariy-metodologik asoslari	84
19.	<i>SOBIROVA Sharofat Umedullayevna</i>	Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari	89
20.	<i>TAIROVA Madinabonu Baxtiyarovna</i>	Bo'lg'usi tarbiyachilar fasilitator sifati, kasbiy pedagogik kompetensiyasini shakllantirish omillari va tamoyillari	94
21.	<i>TOSHOVA Shaxnoza Tojinorovna</i>	Bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda giperaktiv bolalarning psixologik, ijtimoiy moslashuv xususiyatlarining o'rni	99
22.	<i>TURAKULOVA Feruza Mamadaliyevna</i>	Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	103

23.	САМАТОВА Муборак Каххоровна	Особенности развития оценочной компетенции образовательного процесса у будущих педагогов в условиях цифровизации	107
24.	СОДИҚОВА Гулбарно Одилжон қизи	Ўсмирларда мустақил қарор қабул қилишнинг диний-психологик хусусиятлари	111
25.	ХАМИДОВА Сабрина Абдувахоб қизи	Возможности формирования фасилитаторских компетенций у будущих учителей воспитания	116
26.	АТАЈОНОВА Anorgul Jumaniyazovna	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mediata‘lim asosida kognitiv faoliyatni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari	120
27.	RASULOVA Zilola Durdimurotovna	Bo‘lajak o‘qituvchilar kreativ kompetentligini rivojlantirishning qonuniyatlari va tamoyillari	124
28.	HASANOV Halim Ravshanovich	Fanlararo aloqalarning boshlang‘ich ta‘limdagi o‘rni	132
29.	QULIYEVA Shahnoza Halimovna	Ta‘lim oluvchilarning konstruksiyalash va modellashtirish kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish	136
30.	RAJABOV Otamurod Rayimberdi o‘g‘li	Yoshlarda informatsiya qabul qilish madaniyatini shakllantirish	142
31.	МАХМУДОВА Zulfiya Mehmonovna, XALILOVA Salomat Nasim qizi	Bo‘lajak amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	148
32.	G‘AYBULLAYEV Shonazar Mirboboyevich	Yoshlarga ta‘lim berishda muhim pedagogik yondashuvlar	152
33.	ДЖАЛИЛОВА Зарнигор Обидовна	Педагогические и психологические аспекты интегративного образования в контексте технологий искусственного интеллекта	156
34.	РАҲИМОВА Iroda Ravshanovna	Enhancing ideological immunity of student youth: theoretical foundations and methodological framework	160
35.	ХАКИМОВА Nargiza Suphanovna	Bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatini uzluksiz rivojlantirishda “Lifelong learning” konsepsiyasiga asoslanish	167
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНГ‘ИЧ ТА‘ЛИМ			
36.	ABDULLAYEVA Gulmira Abdullaevna	Boshlang‘ich sinf o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish texnologiyasining tashkiliy tuzilmalari	173
37.	НИМОYEVA Sarvarbegim Jamilovna	Boshlang‘ich sinf ona tili ta‘limida o‘quv-biluv topshiriqlari orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish	179
38.	ШЕРАЛИЕВА Насиба Алимкуловна	Методы эффективной организации уроков воспитания в начальной школе	183
39.	ЈАВВАРОВА Aziza Shixnazarovna	Boshlang‘ich ta‘limda xalq og‘zaki ijodini integratsiyalash usuli	187
40.	IBODOVA Sevarabonu To‘xtasinovna	Informatika va axborot texnologiyalari fanini takomillashtirilishi, uning huquqiy talablari va rivojlanishi	191
41.	POLVONOVA Charos Bahromqulovna	Tabiiy fanlarni o‘qitishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini innovatsion yondashuvlar asosida joy nomlari bilan tanishtirish	197
42.	RAXMANOVA Vazira Kaimovna	Innovatsion yondashuvlar asosida rus tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish	201
43.	KOSIMOVA Manzura Abdullayevna	Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida 4K moduli asosida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari	204
44.	ТEШАYEVA E‘zoza Rahim qizi	Мактабгача та‘лим самарадорлигида multimedia texnologiyasining o‘rni	208

DOLZARB MAVZU

TALABALARDA KORRUPSIYAGA QARSHU XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISHDA DAXLDORLIK FAZILATINING O’RNI

Quliyev Yorqin Karimovich,

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida o‘qituvchisi

Maqolada bugungi kunda talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishda daxldorlik fazilatining o‘rni tahlil qilindi. Talabalarni islohotlarga nisbatan daxldorlik fazilatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq qilish, bu orqali daxldorlik fazilatini shakllanish jarayonini ilmiy-amaliy tahlil qilish orqali mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish bo‘yicha maqsadli tavsiyalarni ishlab chiqish asosiy zaruriyatlardan biri bo‘lib qolmoqda.

***Kalit so‘zlar:** tashabbuskor jamiyat, daxldorlik, aloqadorlik, loqaydlik, befarqlik, beparvolik, mas’uliyatsizlik, boqimandalik, notayinlik, loqaydlik, egotsentrizm, eskapizm, daunshifting.*

РОЛЬ КАЧЕСТВА СОПРИЧАСТНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ АНТИКОРРУПЦИОННОГО ПОВЕДЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

В статье проанализирована роль и особенности качества сопричастности студентов для формирования антикоррупционного поведения. Исследование социально-психологических факторов формирования качества сопричастности студентов к реформам, посредством которого осуществляется научно-практический анализ процесса формирования качества сопричастности, остаётся одной из основных потребностей в разработке целевых рекомендаций по эффективной борьбе с идеологическими рисками.

***Ключевые слова:** инициативное общество, принадлежность, сопричастность, апатия, безразличие, невнимательность, безответственность, эгоизм, безразличие, эгоцентризм, эскапизм, дауншифтинг.*

THE ROLE OF THE QUALITY OF IMMUNITY IN THE FORMATION OF ANTI-CORRUPTION BEHAVIOR IN STUDENTS

The article analyzed the role of the quality of immunity in the study of the socio-psychological characteristics of the formation of behavior against corrupt situations in students today. It remains one of the main necessities to develop targeted recommendations for the effective fight against ideological risks by researching the socio-psychological factors of the formation of the quality of immunity in relation to the islahs of students, through which the scientific and practical analysis of the process of formation of the quality of immunity remains one of the main necessities.

***Keywords:** initiative society, immunity, complicity, indifference, negligence, neglect, irresponsibility, immortality, notoriety, indifference, egocentrism, escapism, daunshifting.*

Kirish. *Maqolamizning birinchi bosqichida mavzuga oid adabiyotlar, ilmiy ishlar va bir qator olimlarning izlanishlarida daxldorlik fazilatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari tahlil qilindi va asoslab berildi.*

G‘oyaviy, informatsion va mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda yurtdoshlarimizning hayotga ongli va obyektiv munosabatini shakllantirish, jamiyatning asosiy kushandasi bo‘lgan korrupsiyaga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorligini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyshta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda talabalarda korrupsion holatlarga qarshi xulq-atvorni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, ularni islohotlarga nisbatan daxldorlik fazilatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq qilish, bu orqali daxldorlik fazilatini shakllanish jarayonini ilmiy-

amaliy tahlil qilish hamda baholash, tayanch mezonlarini aniqlash orqali yoshlarimizning ongini zaharlab, ma'naviy *jihatdan* qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish bo'yicha maqsadli va manzilli tavsiyalarni ishlab chiqish zarurati oshib bormoqda. Bugungi kun islohotlarimiz Yangi O'zbekistonda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali “kuchli fuqarolik jamiyati”, “ma'rifatlilik jamiyat” va “tashabbuskor jamiyat”ni barpo etmoqda va jarayonning o'zi ham bugungi islohotlarning natijasidir. Ammo shuni unutmaslik kerakki, biz yuqorida sanab o'tgan jamiyatlarni shakllanishi o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi va u uzoq davom etadigan ijtimoiy jarayondir.

Fuqarolik jamiyatini qaror toptirish xalqimizning ma'naviy fazilatlarini yuksalishiga bog'liq. Biroq globallashuv sharoitida korrupsiya degan illat avj olmoqda va mazkur vaziyat terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes kabi tashqi va el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi ichki tahdidlarning paydo bo'layotgani ko'rsatmoqda.

Asosiy qism. Mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan shaxsning esa ma'naviy muxofazasi yanada mustahkamlanib boradi. Sababi unga ma'naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar zarar etkaza olmaydi. Shu bilan birga u ana shu xurujlarga qarshi kurashishni yaxshi o'rganib oladi. Loqayd, befarq, e'tiborsiz bo'lmaydi. Shu sababli fuqarolik jamiyatini barpo qilishda daxldorlik masalasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Endi biz globallashuv sharoitida daxldorlik fazilatining ijtimoiy-psixologik omillarini, mezonlarini nazariy tahlili qilishimiz uchun uning etimologiyasiga to'xtalamiz.

Bir qator olimlarning izlanishlarida daxldorlik fazilatining mezonlari tahlil qilindi. Jumladan, olimlarimiz o'z izlanishlarida daxldorlik: “aloqadorlik”, “taalluqli”, “sherik”, “mas'ullik”, “jonkuyarlilik”, “javobgarlik”, “halollik”, “haqqo'ylik”, “to'g'rilik”, “andisha”, “bag'rikenglik” kabi ma'nolarda kelishini e'tirof etishgan.

Ta'kidlash joizki, daxldorlik fazilatining ziddi – loqaydlik. U “befarqlik”, “beparvolik”, “e'tiborsizlik”, “mas'uliyatsizlik”, “boqimandalik”, “notayinlik” kabilarda namoyon bo'ladi. “Daxldorlik” tushunchasi umumiy leksik ma'noda “O'zbekim Dasturlari” tahririda “kimligiga qaramasdan”, “so'zida turmoq”, “tegishli bo'lish”, “e'tiborga, nazarga olish”, “yuz-xotir qilish, yuzidan o'tolmaslik”, “o'z ehtiromini tasdiqlamoq”, “o'zini hurmat qilmoq”, “hurmat qilmoq”, “har tomonlama hurmat qilish”, “hurmatda bo'lish” shakllarida, ingliz tilida esa bu tushuncha simplicity, participat so'zlari orqali “birga bajarish”, “ishtirok”, “ishtirok etish”, “qatnashchi” ma'nolarida keladi [10].

Daxldorlikka ko'pincha jinoyat huquqi sohasida ishlatiladigan so'z sifatida qaraladi. Ya'ni “jinoyatga daxldorlik” tushunchasi mavjud. Yoki bir narsaning boshqa narsaga, biror kishining boshqa kishiga nisbatan ta'sir ko'rsatishi daxl deyilishi ongimizga singib ketgan. Masalan, bir davlat ikkinchi davlatga, yoki bir kishining boshqa kishi hayotiga daxl qilishi kabi. Jinoyatdagi daxldorlikni tahlil qilsak ham, biz so'z yuritayotgan daxldorlik bilan “aloqador” ma'nosi bir-biriga yaqinligini anglashimiz mumkin. Ya'ni, biror bir jinoyat sodir bo'lgan bo'lsa, uni amalga oshirishda ishtirok etgan narsa yoki shaxs ana shu jinoyatga daxldor, aloqador, u yoki bu darajada ishtirok etgan, deb olinadi. Demak, u jinoyat sodir etishga daxldor ekanmi bunda daxldorlik salbiy ma'noda – illat sifatida ishlatilmoqda. Uning aksini oladigan bo'lsak, ya'ni o'sha jinoyatning oldini olishga daxldorlik qilgan (ishtirok etgan) kimsa deb oladigan bo'lsak, bunda daxldorlik tushunchasi ijobiy ma'noda, fazilatga aylanadi. Shu ma'noda, biz yoshlarimizda daxldorlikning umumiy yoki salbiy shaklini emas, balki ijobiy shakli – daxldorlik fazilatini shakllantirishni nazarda tutishimiz lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar va olimlarning izlanishlari o'rganilganda daxldorlik fazilatining ziddiga “loqaydlik”, “egotsentrizm”, “eskapizm”, “daunshifting” g'oyalarni targ'ib qiluvchi mafkuralarni kiritish mumkinligini ko'rsatdi. Insoniyat boshiga uzoq-yaqin tarixda qancha kulfat, kasofat tushgan bo'lsa, odamlarning o'z hayotiga, taqdiriga loqaydligi, beparvoligi sabab bo'lgan. Loqaydlik hodisasining mohiyati “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “loqayd” degan so'z arab tilidan olinib: ahamiyat, e'tibor bermaslik; beparvolik, qiziqmaslik, befarqlik ma'nolarida keladi [4].

Loqaydlikning ijtimoiy ildizi nimadan iborat? Loqayd, ya'ni qayd etmaslik, e'tibor bermaslik, daxldorlikni his etmaslik, o'zini chetga olish bugungi kunda keng tarqalayotgan ijtimoiy-ma'naviy illat bo'lib bormoqda. Bu esa, jamiyatning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda buzg'unchi ma'naviy-mafkuraviy oqimlarning suverenitetimizga bo'layotgan tahdidning oldini olish uchun o'z taqdiriga, atrof-muhitdagi voqea-hodisalarga beparvo va loqaydlikdan xalos bo'lish hamda bu voqea-hodisalarga shaxsiy daxldorlik hissi bilan yashash talab etiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev bu borada shunday deydi..... “Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”. **“Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”**, deydi

donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Eskapizm (inglizcha *escape-qochish*, yashirinish, zohidlik, tarkidunyochilik) yoki odamning kundalik hayotdan xayollar dunyosiga ketishi. Odamning real hayotdan qochishi, odamlar bilan kelisha olmasligi ko‘pincha yirik o‘zgarishlar, islohotlar davrida uchraydi. Eskapizm faol va passiv shakllarda uchraydi. Faol eskapizm odam kino ko‘rishga, o‘yinga ruju qo‘yishi, alkogol, narkotiklarga, meditatsiyaga berilishi bunga misol bo‘lishi mumkin. Passiv eskapizm esa odamning uzlatga chekinishi, odamlar orasida yashab turib, jamiyat qadriyatlariga, mamlakat hayotiga qiziqmay, muammolariga befarq, daxldorlik hissidan begona, o‘z xayollariga cho‘mib yashashi mumkin. Eskapizm “Odamlar orasida yashash – g‘urbatning o‘zi. Vatanim deb boshingni og‘ritma. O‘z xayollaring bilan yasha”, deb biz singdirayotgan daxldorlikni yuvib yuborishga intilayotir(4).

Daunshifting – (inglizcha *downshifting*, avtomobil tezligini pasaytirish, u yoki bu jarayonni sekinlashtirish, sustlashtirish). Termin “o‘zi uchun yashash”, “boshqalar bilan bog‘liq maqsadlarni rad etish” falsafasining maqsadini ifodalaydi. Daunshifterlar jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlardan yuz o‘giran, umum manfaatlaridan, jamiyat farovonligi, tinchligi kabi qadriyatlar uchun mehnat qilish o‘rniga o‘zi uchun yashashni ustun qo‘yadi. Bu esa korrupsion holatlarga olib kelish ehtimolini oshirib yuboradi. Daunshifting tushunchasi ilk bor 1994 yilda Nyu-yorkda chiqadigan Trends Research Institute v Gerald Celente haftanomasida paydo bo‘lib, keyinchalik Britaniya, Avstraliya va AQShda keng tarqalib ketdi [4].

Loqaydlik – dunyo bo‘ylab keng tarqalib borayotgan axloqiy-ma‘naviy illat. Yevropada uning egotsentrizm, daunshifting kabi ko‘rinishlari keng tarqalmoqda. Egotsentrizm (lot. ego - men va centrum - markaz) - shaxsning o‘z manfaatlarini (anglangan yoki anlanmagan holda) mutlaqlashtirib, boshqalarning fikri va qiziqishlarini pisand qilmaslik xususiyatidir. Egotsentrizm negizida insonning o‘z fikri mutlaq haqiqatligini, baholash mezoni yagonaligini e‘tirof qilib, unga muqobil qarashlar mavjud bo‘lishini tan olmaslik, bepisandlik hodisasi yotadi. Natijada shaxslar o‘rtasida korrupsiyaning turli xil turlarini yuzaga chiqarish ortib ketadi.

Olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, daunshifting mafkurasi va tushunchasi XX-XXI asrlarda G‘arbiy Yevropada paydo bo‘ldi. Keyinchalik Rossiyaga kirib keldi. Hozirgi kunda Rossiyada daunshifterlar hamjamiyati faoliyat yuritmoqda. Mafkuraviy jihatdan xippiga, falsafiy jihatdan nyu-eyj, buddizmga yaqin oqim bo‘lib hisoblanadi.

Yuqoridagi fikr va faktlardan ko‘rinib turibdiki, daxldorlik talaba shaxsining ma‘naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, voyaga etib kelayotgan barkamol avlod – talabalarning daxldorlik fazilatini shakllantirish va uning psixologik omillarini tadqiq qilish orqali uning rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash masalaga maxsus ijtimoiy-psixologik yondashuvni talab qiladi. O‘smirlarda daxldorlik fazilati shakllantirib borilsa, o‘z manfaatidan ko‘ra ko‘proq jamiyat manfaatini ko‘zda tutib ish tutish holatlari o‘rgatilsa hamda o‘smirlarda halollik hissi uqitirilib borilsa o‘ylaymizki, bunday etuk yoshlarda korrupsion holatlarga nisbatan o‘ziga xos nafrat paydo bo‘ladi va jamiyatimiz taraqqiyoti uchun yuksak po‘devorni barpo etishadi.

Demak, **daxldorlik** – insonga xos yuksak ma‘naviy fazilat. U shaxsning o‘z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas‘uliyat hissini anglatuvchi tuyg‘u, umumiy ish, nohaklikka, adolatsizlikka murosasizlik, yaxshi, bunyodkor ish va fikr, g‘oyalarga xayrixohligini faol namoyon qilish va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

Demak globallashuv sharoitida talabalarda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishda daxldorlik fazilatining ijtimoiy-psixologik omillari bo‘yicha nazariy o‘rganishlarimiz asosida shuni aytish mumkinki, daxldorlik fazilati odamning ijtimoiy mavjudot sifatidagi manfaatlaridan kelib chiqib, o‘z funksiyasini bajarishi yoki bajarmasligini hal qiluvchi ilk signal, tanlash nuqtasi bo‘lib, aynan mazkur funksiya uning psixologik tabiatidir.

Maqolamizning ikkinchi bosqichida adabiyotlar, ilmiy ishlar va bir qator olimlarning izlanishlarida "daxldorlik" tushunchasining zamonaviy yondashuvlari tahlil qilindi va asoslab berildi.

Bugungi kunda odamlar orasidagi loqaydlik tufayli tiklab bo‘lmas ofat, korrupsion holatlarga qarshi jim turish, jinoyat, halokatlar sodir bo‘layotgan ekan, daxldorlik fazilatini ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq qilish orqali mazkur fazilatni har bir o‘zbekistonlik yosh yigit-qizning kompetensiyaviy fazilatiga aylantirish o‘ta muhim ijtimoiy-psixologik zaruratga aylandi. Bu esa daxldorlik fazilati bilan bevosita va bilvosita bog‘lanuvchi tayanch sifatleri, xususiyatlari, mezonlarini va psixologik omillarini alohida o‘rganishni talab etadi.

Endi daxldorlik tushunchasining konsepsiyalarini ko‘rib chiqamiz.

“Daxldorlik” tushunchasining zamonaviy yondashuvlari

Psixologik kategoriya	Mualliflar	Izoh
Holat	L.I. Sokolova, Ye.S. Mimenko, S.V. Ponomarev	Talabaning qadriyatlari (uning maqsadlari, qarashlari, sadoqati) ning ta’lim tashkiloti qadriyatlari bilan mos kelishini aks ettiruvchi hissiy holat, natijada talaba o’z faoliyatini ta’lim tashkiloti manfaatlariga "bag‘ishlashga" qaratilgan motivlar tizimini shakllantiradi, talaba tashabbus ko‘rsatishga va qo‘shimcha harakatlar qilishga intiladi.
	E. Klinger	Atrof-muhit stimullari ongli ravishda hal qilinadigan va shaxs o‘z muhitini faol yaratishda ishtirok etadigan holat; bu dahldorlikning aksi bo‘lib, bunda shaxs atrof-muhit stimullarini yangi jihatlarini hisobga olmasdan avtomatik ravishda qayta ishlaydi.
	K.V. Sudakov	Energiya qo‘zg‘alishi, ichki motivatsiya, muvaffaqiyat motivatsiyasi va konsentratsiyani o‘z ichiga olgan sub’ektiv holat, bu shaxsning faoliyatni amalga oshirishga bo‘lgan harakatlariga hissa qo‘shadi.
	W.B. Schaufeli & A.B. Bakker, 2004	Har xil ruhiy jarayonlarga ta’sir qiluvchi barqaror hissiy, kognitiv va motivatsion holat, u biron bir muayyan ob’ektga, hodisaga, shaxsga yoki jamoa xatti-harakatiga e’tibor qaratmaydi, balki, insonning butun mehnatga munosabatini tavsiflaydi.
	A.B. Bakker, M.P. Leiter	Yuqori darajadagi energiya va uning ta’lim faoliyati bilan kuchli identifikatsiya qilish holati.
Munosabat	Suslov V.I., 2010	Shaxsning tashkilotga, uning boshqaruviga, mas’uliyatiga va mehnat sharoitlariga munosabati tashkilotning muvaffaqiyatiga chinakam qiziqish va o‘z vazifalarini bajarishda standart belgilangan me’yorlardan oshib ketish istagida namoyon bo‘ladi.
	Z.A. Semenova, T.P. Nesterova	Insonning o‘z ishiga bo‘lgan munosabatining eng yuqori namoyishi
Ustanovka (Attityud)	E. Chapman, 2003	Kundalik tadbirlarda ishtirok etish istagi
	R.A. Doljenko	Islahotlarga munosabatni aks ettiruvchi xulq-atvor munosabati
	T. Schwartz, 2015	Ta’lim olish jarayonida irodaviy sifatlardan foydalanish
	S.D. Saleh, J. Hosek, 2017	Attityud, ta’lim jarayonidagi qiyinchiliklar
	T. Karapetyan, 2008	Ijobiy kuchlarni keltirib chiqaradigan, hatto tashqi motivatsiya bo‘lmasa yoki motivatsion ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda ham talabaning faoliyatini boshqaradigan va uni maqsadlarga erishishda tirishqoq va qat’iyatli qiladigan munosabat
	S. Maddi, D.A. Leontev	Dahldorlik - shaxsda qiziqarli va foydali narsalarni topish uchun maksimal imkoniyatga ega bo‘lishdir
Identifikatsiya O‘z-o‘zini anglash	W.A. Kahn, 1990	Shaxsning jamiyatdagi o‘z rolini bajarishda aktivlik darajasi
	A.B. Bakker, M.P. Leiter	O‘z-o‘zini anglash darajasi - dahldorlik ko‘rsatkichi sifatida
	N.E. Paponova	Dahldorlik talabaning o‘zini anglashning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Uning o‘qishga bo‘lgan munosabatini, xatti-harakatlarini, muayyan sharoitlarda hamda ta’lim olish jarayonida uning xulq-atvori va reaksiyalarida aks ettiradi.
Diqqat	A.T. Kamzanova	Kognitiv-adaptiv jarayonlar ko‘rsatkichi (diqqat

konsentratsiyasi		konsentratsiyasi, o‘z-o‘zini idora qilish darajasi)
	M. Chiksentmixayi	Talabaning maksimal imkoniyatlarini ifodolovchi tizim
Faollik	D. Nyustrom, K. Devis	Talabalar o‘zlarini mehnatga bag‘ishlash, unga vaqt va kuch sarflash, uni hayotlarining ajralmas qismi sifatida qabul qilish darajasi
	A W. Astin, H. Coates, 2005	Jismoniy va aqliy energiyaning tajriba orttirish uchun sarflash jarayoni sifatida
	Huang, Chang	Faollik
	R. Thayer	Faollik va bosim
Faoliyat	V.M. Gonzalez Y Gonzalez	Muayyan maqsadga erishish uchun maqsadli harakatlar ierarxiasini oshirish
	M. McAllister	Shaxsning faoliyat jarayoninin kognitiv va emotsional holda boshqarish
	NSSE, 2007	Dahldorlik - faoliyatning asosi sifatida
	G. Matthews	Fiziologik va psixologik omillarning umumiy natijasi sifatida
	N.L.Solomanidina	Shaxsni individual va umumiy maqsadlarga erishishga imkon beradigan faoliyat bilan shug‘ullanishga sifatida.
	T.Yu. Bazarov, B.L. Yeremin	Insonni o‘z maqsadlariga erishishga imkon beradigan muayyan faoliyatga undovchi ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlarni (motivlarni) aks ettiruvchi tizim sifatida.
	O.B. Antonov	Shaxsni individual va umumiy maqsadlarga erishishida o‘zini va boshqalarni undash sifatida.
N.I. Shatalova	Talaba faoliyatini amalga oshirish orqali o‘z ehtiyojlarini qondirish jarayonini aks ettirish istagi sifatida	
Hissiyot	G. Latfullin, O. Gromova	Shaxsning chin dildan mehnat qilish layoqati va qo‘shimcha kuch sarflash istagi sifatida
	R. Thayer	Hissiy zo‘riqish sifatida
	Truss, 2006	Mehnatga bo‘lgan ishtiyoq sifatida
Shaxslilik xususiyatlari	M. Rothstein	Shaxsning tashqi olamga moslashish darajasi va ushbu muhitda shaxsiy etuklikka erishishi sifatida
	Muallif ta’rifi	Shaxsning atrof-muhit ta’sirlariga berilmasdan, unda qat’iylik, o‘z faoliyatini oxirigacha bajarish istagi

Dahldorlik to‘g‘risida turli xil fikrlarning mavjudligi tabiiydir, chunki, ushbu tushuncha nisbatan murakkab sanaladi. Shundan kelib chiqib, dahldorlik fenomenining bugungi kunda dolzarb muammo sifatida o‘rganilishini taqozo etadi.

Mavjud ta’riflarni tahlil qilib, biz dahldorlik tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishni lozim topdik. Dahldorlik bu kognitiv, motivatsion va semantik jarayonlarni aks ettiruvchi ko‘p o‘lchovli konstruktsiya bo‘lib, shaxsning faoliyatini amalga oshirishda sarflangan kuch va energiya darajasi sifatida qaraladi. Dahldorlik shaxsning faoliyatni amalga oshirishdagi faollik darajasi bilan belgilanadi va dinamizm bilan tavsiflanadi.

Dahldorlik ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega bo‘lib, ma’lum bir ijtimoiy sharoitda, shaxsning boshqa odamlar bilan o‘zaro ta’siri jarayonida shakllanadi. Dahldorlik har doim ijtimoiy o‘zaro ta’sirning natijasidir, uni ijtimoiy o‘zaro ta’sirdan tashqarida shakllantirish mumkin emas. Dahldorlikning shakllanish xususiyatini tahlil qilib shuni ta’kidlash kerakki, dahldorlik shaxsning ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular amalga oshirilmasligi mumkin.

Tadqiqotchi A.Bakker o‘z tadqiqotlarida shaxsdagi diqqat va yo‘nalganlik darajasini uning dahldorlik darajasi bilan bog‘laydi. Ushbu hodisani psixik faoliyatning yo‘naltirilishi va shaxs uchun ma’lum ahamiyatga ega bo‘lgan ob’ekt ustida to‘planishidan iborat bilish jarayonidir deb ta’kidlaydi. Yo‘naltirish deganda psixik faoliyatning tanlovchanlik tabiati, ob’ektni ixtiyoriy va beixtyoriy tanlash tushuniladi [9]. Dj.Meyer va N.Allen kabi tadqiqotchilar dahldorlikni insonlardagi hissiyot darajasi bilan bog‘laydi. Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo‘lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir [2]. Aks ettirish jarayoni

quyidagilarni qamrab oladi:

- a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;
- b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan ob'ektlarga sub'ekt sifatida qatnashishi;
- v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiluvchi munosabatlar va hokazo.

Biz xavf ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, dushman ustidan g'alaba qozonish yoki qiyinchilikni engish zavq uyg'otadi. Shularni hisobga olgan holda talabalarga islohotlarni ta'siri, ularni tushunish darajasi qo'zg'atuvchining kuchiga bog'liq degan fikrni ilgari surishadi. Bu esa sodir bo'layotgan o'zgarishlarni talaba hissiy holatiga qay darajada ta'sir etishiga bog'liqdir. Dahldorlik va emotsional zo'riqish: emotsional zo'riqish - bu shaxslararo munosabatlarda haddan tashqari hissiy zo'riqishga javoban paydo bo'lgan jismoniy va ruhiy charchoq holati tushuniladi. Dahldorlik hissi paytidagi zo'riqish tadqiqotchi K.Maslach fikricha ijobiy sanaladi. Chunki, talaba ushbu holatda yangi axborotlarni qabul qiladi va ularga tegishli reksiya ko'rsatishga harakat qiladi [6].

Tadqiqotchi E.Klinger dahldorlik va dahlsizlik tushunchalarini tadqiq etadi. Uning fikricha shaxsni ijtimoiy munosabatlarga adaptatsiya hosil qilishida ushbu ikki fenomenning ham o'rni beqiyosdir. Dahldorlik o'zaro ta'sirning yangi usullarini shakllantirishga imkon bersa, dahlsizlik esa shaxsdagi energiyani tejashga imkon beradi [6].

Mahalliy tadqiqotchilardan M.Quronov antikorrupsion xulq atvorni shakllantirishda ulardagi dahldorlik fazilatlariga urg'u beradi va uni quyidagicha izohlaydi. “Tabiat jamoa bo'lib yashashga sodiq. U ba'zida daxldorlikdan insonlarga ibrat beradi: Asalari uyasiga yaqin borib turgan odamning holi nima bo'lishini yaxshi bilamiz. Minglab asalarilar o'z uyasining daxlsizligi uchun himoyaga otiladi. O'ylab o'tirmasdan, o'zini fido qilib, unga yopishadi. Talaydi. “Faraz qiling, begonalar asalari uyasini buzib, asaldan xohlagancha olaversa-yu, asalarilar loqayd, chetdan qarab tursa, nima bo'ladi? Tabiatda asalari zoti nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketardi. Mafkuraviy g'animlarimiz bizning loqayd asalarilarga o'xshashimizni istaydi. Demak, Vatan mustaqil bo'lsa ham, farzandlari loqayd bo'lsa, bunday millatning kelajagi bo'lmas ekan”. Daxldorlik – odam bilan odamni, xalqini, Vatanini, olamni bog'laydigan rishta. U uxlayotgan odamni – uyg'otadi, yotganni – turg'izadi, turganni – yurgizadi, yurganni – yugurtiradi [9].

Tadqiqotchi falsafa fanlari doktori F.Nabiyevning ta'kidlashicha, fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida daxldorlik tarbiyasining ahamiyati juda muhim. Bunda asosiy e'tibor fuqarolar o'rtasidagi befarqlik kayfiyatini yo'qotishga, ular o'rtasidagi korrupsion holatlarni kamaytirish zarur, chunki fuqarolik jamiyatining mohiyati fuqarolar o'rtasidagi jipslik, birdamlikdan iborat, ya'ni bir fuqaroning ikkinchi bir fuqaro, jamiyat, Vatan, milliy g'oya taqdiriga befarq bo'lmasligidan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, “odamlarda fuqarolik ma'naviyati, daxldorlik fazilati shakllangan taqdiridagina fuqarolik jamiyatini qurish mumkin bo'ladi” deydi.

Tadqiqotchilar, M.Quronov, Q.Nazarov, Sh.To'rayevlar bugungi kunda yoshlar orasidagi daxldorlikni sustlashuviga sabab bo'layotgan asosiy omillar sifatida zamonaviy kompyuter texnologiyalari, korrupsion xatti-xarakatlar, “ommaviy madaniyat” kabilar yoshlarni real hayotdan chalg'itib, virtual olamga sho'ng'ib ketish, buning oqibatida ularda loqaydlik, e'tiborsizlik, dangasalik, ijtimoiy begonalashuv va sovuqqonlik kabi sifatlarni qayd qilishgan [4].

Tadqiqotchilar A.Xolbekov va S.Mamashokirovlar o'zlarining “G'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar” risolasida daxldorlik fazilatining falsafiy, pedagogik xususiyatlarini yoritib berishgan.

V.M.Karimova va M.Quronovlar o'zlarining “Milliy istiqloq g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari” nomli risolasida shaxs ma'naviyatining asosiy komponentlaridan biri bu uning daxldorlik fazilati ekanligi va mazkur daxldorlik fazilati oila, jamiyat, mamlakat barqarorlashuvida asosiy ijtimoiy psixologik omil ekanligini tahlil qilgan [9].

Tadqiqotchi A.Erkayev o'z izlanishlarida daxldorlik fazilati asosan mas'uliyat, burch, inson o'zini barcha narsalarga bog'liq sezishi kabi komponentlar bilan aloqasini tahlil qiladi va mazkur fazilatni rivojlantirilishi shaxslarda turli xil ma'naviy illatlardan himoya qiluvich tizim ekanligini qayd qilib o'tadi.

Tadqiqotchi U.Mahkamov ham o'z tadqiqotlarida milliy qadriyatlar tizimining asosi sifatida talabalardagi daxldorlik fazilatining o'rni va ahamiyati haqida to'xtalib o'tgan. Olim o'zining tadqiqotlarida qadriyatlar tizimining asosida shaxsda ma'lum bir darajadagi fazilatlar jamlanmasi shakllanishi kerakligi va mazkur holatda tizim bilvosita va bevosita ishlashi mumkinligini pedagogik jihatdan asoslab o'tad. Tadqiqotchi F.Ravshanov o'zining tadqiqotlarida shaxsni g'oyaviy tahdidlardan asrashning pedagogik, falsafiy jihatlarini uning daxldorlik fazilatini shakllanganlik darajasi bilan baholaydi.

Xulosa qilib aytish joizki, yuqoridagi xorijiy va mahalliy olimlarning daxldorlik haqidagi qarashlari, fikr mulohazalari o'smirlarda mazkur fazilatni rivojlantirish ishlarimizda aniq dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, olimlarning daxldorlik to'g'risidagi tadqiqotlari mazkur tushunchaning etimologik

xususiyatini aniqlashtirishimizga xizmat qildi. Dahldorlik darajasi shaxsdagi irodaviy sifatlar bilan bogʻliq. Irodaviy sifatlar toʻliq shakllangan oʻsmirlar korrupsion holatlarni yuzaga keltirmaydi, chunki insondagi bu sifat dahldorlik fazilati bilan chambarchas bogʻliq hisoblanadi. Ijtimoiy turmushda shaxsning irodaviy faoliyati oʻz oldiga qoʻygan anglangan, yaʼni inson oʻzi tushungan maqsadlarni bajarishdan, amalga oshirishdan, roʻyobga chiqarishdan iborat boʻladi.

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha 2021-2022 yillarga moʻljallangan davlat dasturi” Farmoni.
2. Решетников М.М. Психология коррупции. Утопия и антиутопия: Монография / Москва : Издательство Юрайт, 2024.
3. The Anti-Corruption Plain Language Guide, 2009, r. 14)
4. Oʻzbekim Dasturlari” elektron lugʻat dasturi.
5. Abashidze A. H. Korrupsiyaga qarshi kurashda Milliy va xalqaro choralar // xalqaro huquqshunos. 2007. № 2.
6. Ayrapetyan E. S. "Korrupsiyaga qarshi samarali mexanizm, uning elementlari va takomillashtirilishi" "Yosh olim", 3-son (50). 2013.
7. Кравцова М. В. Психологические особенности вовлеченности в решение когнитивных задач. –2011. – 150 с.
8. Юсупова С.М. «Факторы вовлеченности персонала в организации» Саратовский государственный университет им. Н.Г. Чернышевского, Саратов, Россия.
9. Quronov M. Ezgu gʻoyalar roʻyobi. – T.: Maʼnaviyat, 2011. – B.138.
10. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Tahrir hayʼati: T.Mirzayev va boshqalar. OʻzFA Til va adabiyot instituti. – T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 672 b. – B. 627.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

UZLUKSIZ AMALIYOT – KASBIY FAOLIYATNI TAKOMILLSHATIRISH GAROVI

Xamidov Obidjon Xafizovich,

Buxoro davlat universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Maqolada uzluksiz amaliyotni tashkil etishning maqsadi, vazifalari, kasbiy faoliyat xususida fikr bayon etilgan. Zamonaviy oliy ta’lim mezon va me’yorlariga to’g’ri keladigan ta’limga, xususan, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida malakaviy amaliyotni loyihalashtirish ta’lim sohasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Uzluksiz pedagogik amaliyot talabalarni tarbiyalashning samarali shakli sifatida maktab o’quvchilari bilan o’quv va sinfdan tashqari ishlarni olib borishda kasbiy va pedagogik ko’nikmalarni shakllantirishni ta’minlashga qaratilgan.

Kalit soʻzlar: ta’lim, kasbiy faoliyat, bilim, ko’nikma, amaliyot, ta’lim metodlari, ta’lim texnologiyalari.

НЕПРЕРЫВНАЯ ПРАКТИКА - ЗАЛОГ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В статье излагаются цели, задачи организации непрерывной практики, особенности профессиональной деятельности. Одним из актуальных вопросов, стоящих перед образовательной сферой, является проектирование квалификационной практики в сфере образования, в частности, в педагогических высших учебных заведениях, соответствующей современным критериям и нормам высшего образования. Непрерывная педагогическая практика как эффективная форма воспитания учащихся направлена на обеспечение формирования профессионально-педагогических умений и навыков при проведении учебно-внеклассной работы со школьниками.

Ключевые слова: образование, профессиональная деятельность, знания, умения, практика, методы обучения, образовательные технологии.

CONTINUOUS PRACTICE IS THE GUARANTEE OF PROFESSIONAL IMPROVEMENT

The article outlines the goals and objectives of the organization of continuous practice, and the specifics of professional activity. One of the urgent issues facing the educational sphere is the design of qualification practice in the field of education, in particular in pedagogical higher educational institutions, corresponding to modern criteria and standards of higher education. Continuous pedagogical practice as an effective form of educating students is aimed at ensuring the formation of professional and pedagogical skills during educational and extracurricular work with schoolchildren.

Keywords: education, professional activity, knowledge, skills, practice, teaching methods, educational technologies.

Кириш. Jahon ta’limotida taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omillardan biri – ta’lim va tarbiya ekanligi alohida ta’kidlanadi. Ta’lim sifatini ta’minlashdagi mavjud muammolarni bartaraf etishda amaliy jihatdan turli yondashuvlar, tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuvlarga oliy ta’lim mazmunini yangilash (darsliklar, o’quv va uslubiy qo’llanmalar), yangi o’quv va ilmiy manbalarni joriy etish, bitiruvchilarning amaliy va professional tayyorgarliklarini rivojlantirish (Bolonya va boshqalar) kabi jarayon va qoidalarni keltirish mumkin. Barqaror ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish uchun bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash – muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu pedagogik oliy ta’lim muassasalarida nazariy egallangan bilimlarni amaliyot bilan bog’lay oladigan talabalarni tayyorlashga bo’lgan ehtiyojlari bilan izohlanadi [1]. Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli vazifalarini hisobga olgan holda, talabalarni malakaviy amaliyotda integrativ ta’lim metodlari yordamida o’qitish orqali kompetentli, mehnat bozori talablariga javob bera oladigan boshlang’ich sinf o’qituvchilarni tayyorlash zaruratini taqozo qiladi.

Mamlakatimizda pedagogik oliy ta’lim muassasalarining malakaviy amaliyotni raqamlashtirishga, axborotlashtirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot uchun yuqori

malakali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni tayyorlash tizimini tashkil etish, o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan keng foydalanish, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ta‘lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Shu munosabat bilan amaliyotning umumiy vazifalari quyidagilardan iborat: universitetdagi nazariy fanlarni maktab ishi bilan aloqadorligini ta‘minlash; o‘quvchilarning o‘qish jarayonida olgan bilimlarini kengaytirish, mustahkamlash va tekshirish; o‘qituvchining malaka tavsiflari talablaridan kelib chiqqan holda fan o‘qituvchisi va sinf rahbari sifatida pedagogik ishlarni olib borishda asosiy kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish; maktab o‘quvchilarini ta‘lim va tarbiyalashning dolzarb masalalarini o‘rganishga talabalarning qiziqishini rivojlantirish; institut bitiruvchilarini o‘qituvchilik vazifalarini ijodiy amalga oshirishga tayyorlash. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning eng muhim va strategik vazifalaridan biri malakaviy amaliyotda ta‘lim metodlari va texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda malakaviy amaliyotni tashkil etish va o‘tkazishning shunday bir metodik tizimini yaratish lozimki, unda ta‘limning maqsadi, mazmuni, vazifasi va barcha komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qilishini ta‘minlanishi lozim.

Zamonaviy ta‘lim tizimini rivojlantirishda asosan nimalarga e‘tibor qaratish kerak: zarur bilimlarni mustaqil ravishda egallash qobiliyati, shu jumladan, o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani hal qilish va uni qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy hayotning ko‘plab sohalari to‘g‘risida muhim miqdordagi ma‘lumotlarni tahlil qila olish, so‘ngra olingan ma‘lumotlar asosida atrofda voqelikni o‘zgartirishga ijodiy yondashish qobiliyati shakllanishi lozim. Aynan ijodkor-mutaxassis shaxsni tarbiyalash oliy ta‘limning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri bo‘lib qoldi. Pedagogik amaliyot – bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda o‘quv pedagogik jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Pedagogik amaliyot namunaviy va ishchi o‘quv rejasiga mos ravishda amalga oshiriladi. Pedagogik amaliyotning mazmuni amaliyot turiga qarab, kafedrada ishlab chiqilgan dasturiga mos bo‘ladi. Pedagogik amaliyot o‘quv mashg‘ulotlaridan ajralgan holda tashkil etiladi. Uzluksiz pedagogik amaliyot talabalarni tarbiyalashning samarali shakli sifatida maktab o‘quvchilari bilan o‘quv va sinfdan tashqari ishlarni olib borishda kasbiy va pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishni ta‘minlashga qaratilgan. Shu munosabat bilan amaliyotning umumiy vazifalari quyidagilardan iborat: universitetdagi nazariy fanlarni maktab ishi bilan aloqadorligini ta‘minlash; o‘quvchilarning o‘qish jarayonida olgan bilimlarini kengaytirish, mustahkamlash va tekshirish; o‘qituvchining malaka tavsiflari talablaridan kelib chiqqan holda fan o‘qituvchisi va sinf rahbari sifatida pedagogik ishlarni olib borishda asosiy kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish; maktab o‘quvchilarini ta‘lim va tarbiyalashning dolzarb masalalarini o‘rganishga talabalarning qiziqishini rivojlantirish; institut bitiruvchilarini o‘qituvchilik vazifalarini ijodiy amalga oshirishga tayyorlash.

Asosiy qism. Uzluksiz malakaviy pedagogik amaliyotni 4+2 tartibida tashkil etish talabalarni tarbiyalashning samarali shakli sifatida maktab o‘quvchilari bilan o‘quv va sinfdan tashqari ishlarni olib borishda kasbiy va pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishni ta‘minlashga qaratilgan. Shu munosabat bilan malakaviy pedagogik amaliyotning umumiy vazifalari quyidagilardan iborat: 1) Oliy ta‘limdagi nazariy fanlarni maktab ishi bilan aloqadorligini ta‘minlash; 2) talabalarlarning bilim olish jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish, nazorat qilish va tekshirish; 4) o‘qituvchining malaka tavsiflari talablaridan kelib chiqqan holda fan o‘qituvchisi va sinf rahbari sifatida pedagogik ishlarni olib borishda asosiy kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish; 7) maktab o‘quvchilarini ta‘lim va tarbiyalashning dolzarb masalalarini o‘rganishga talabalarning qiziqishini rivojlantirish; 10) OTM bitiruvchilarining pedagogik vazifalarini ijodiy amalga oshirishga tayyorlash. Bo‘lajak o‘qituvchini uzluksiz erkin tarbiyalash jarayonida, shu jumladan, ta‘lim subyekting kognitiv mustaqilligini rivojlantirish orqali shakllantirish va yanada rivojlantirish bo‘yicha pedagogika fanining mavjud yangi istiqbollari kasbiy ta‘lim tizimining holati va uning rivojlanishining hozirgi bosqichida jamiyatimizda sodir bo‘layotgan jarayonlar o‘rtasidagi tafovut ushbu muammoni yengish uchun rivojlanish jarayoniga ega. Bo‘lajak o‘qituvchining uzluksiz pedagogik amaliyoti davomida: 1) o‘quvchi o‘zi tanlagan kasbni sevishi, ardoqlashi, kasbidan estetik bahra olishi, sadoqat ila ishlashi lozim; 2) o‘quvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetarli bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi; 3) kasbiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni puxta egallagan va amal qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan; 4) milliy-ma‘naviy tarbiyachilik xususiyatiga ega bo‘lgan pedagogik-psixologik asoslarga amal qilishi; 5) zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta‘lim va tarbiya jarayonida tatbiq eta olishi; 6) mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonida kasbiy mahorat va didaktik asoslarni chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi; 7) o‘quvchilarda erkin mustaqil fikrlay oladigan, vaziyatni mustaqil tahlil qila oladigan qobiliyatni shakllantira olish; 8) milliy-umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitilgan ta‘lim-tarbiyaviy bilim berish

mahoratiga ega bo'lmog'i lozim. Talabalarining pedagogik amaliyoti, oliy kasbiy ta'lim mutaxassisliklari asosiy o'quv dasturlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu barcha turdagi ta'lim muassasalarida o'quvchilarning nazariy tayyorgarligini, ularning amaliy faoliyati bilan o'qish yillari davomida izchil va ma'lum bir tizimda uyg'unlashtirish imkonini beradi. Uning maqsadi talabalar tomonidan turli xil pedagogik faoliyat turlarini amaliy rivojlantirish, zamonaviy o'qituvchining pedagogik madaniyati asoslarini o'zlashtirishdir. Pedagogik amaliyot talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi[6]. Amaliyot universitetga biriktirilgan tayanch umumta'lim maktablarida, litsey va gimnazialarda ta'lim muassasalari qoshidagi amaliyot to'g'risidagi shartnomalar asosida tashkil etiladi. Pedagogik amaliyot kasb-hunar ta'limining tarbiyaviy maqsad va vazifalarini amalga oshiradi, bo'lajak o'qituvchining pedagogik qobiliyatini tarbiyalaydi va rivojlantiradi, har bir kurs bo'yicha o'z vazifalari, mazmuni va tuzilishiga ega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz amaliyot jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini kompetentli yondashuv asosida amalga oshirishning pedagogikshart-sharoitlari turli xil tadqiqot va amaliy tadbirlar bilan to'ldirilib, modelning ishlashini ta'minladi-tajriba va nazorat guruhlari shakllantirish, anketa so'rovnomalarni tashkil etish, test; talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion vazifalarini hal etishga qaratilgan professor-o'qituvchilar guruhini shakllantirish; o'quv jarayoni jadvaliga o'zgartirishlar kiritish, uzluksiz amaliyotning vaqti va mazmunini muvofiqlashtirish; talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash maqsadida "kompetentli yondashuvga asoslangan pedagogik loyihalash" mavzusidagi seminar doirasida o'quv seminarini tashkil etish.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida uzluksiz amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish lozim. Pedagogik sharoitlarining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat: professor-o'qituvchining talaba faoliyatini boshqarishi; professor-o'qituvchi va talaba tomonidan kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonini birgalikda boshqarishi; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar tomonidan kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini mustaqil boshqarishi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz amaliyot jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlash davomida amaliy kasbiy muammoli masalalardan kengroq foydalanish maqsadida masalalarning aniqlashtirilgan tasnifi, ya'ni didaktik vazifalari bo'yicha, shuningdek, amaliy masalalarga qo'yiladigan: tayyorlovchi, mashq qilishga oid, izlanishga oid va ijodiy aniqlashtirilgan talablar asosida tatbiq etiladi.

Uzluksiz amaliyotlar talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va kelajakdagi kasbiy haqida tasavvurlarni uyg'otishda muhim o'rin tutadi. Uzluksiz amaliyot nazariy ta'lim jarayonida o'rganilgan umumkasbiy, maxsus bilimlar yoki tayanch kompetensiyalar asosida ish usullari va operatsiyalarini amaliy bajarish bo'yicha kasbiy kompetentlikni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida biz rivojlangan xorijiy tajribalar asosida uzluksiz amaliyotlarda yangi ish joyiga moslashish, amaliyotda ish jarayoniga bo'lgan motivatsiyani oshirish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan, xorijiy davlatlarda Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqobatbardoshligini ta'minlashda keng qo'llaniladigan "Muammoli ta'lim", "Case-study", "Loyihalash" va "Tadqiqotchilik" innovatsion ta'lim metodlarini umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish orqali uzluksiz amaliyotiga tatbiq etdik.

Muammoli ta'lim metodi ta'lim jarayonini olib borishda talabalar oldiga yechish uchun muammoni qo'yish orqali muammoli vaziyatni vujudga keltirish va mashg'ulot davomida uning yechimini topishga qaratiladi. Muammo o'qituvchi tomonidan yoki talabalar tomonidan qo'yilishi mumkin. Bu metodning afzalligi shundaki, talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan barcha ta'lim oluvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etib, ularning ichki kasbiy xulq-atvor kompetensiyasini rivojlantiradi.

Case study (case – aniq vaziyat, hodisa, *study* – o'qitish) metodi talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib uni yechishni o'rganadigan metod hisoblanadi. Bunda talaba muammoli vaziyatni o'rganib, xulosa chiqarish qabul qilish, undan qanday chiqib ketishni o'rganadilar. Bu metod talabalardan atroflichabilimga ega bo'lishni talab qiladi.

Loyihalash metodi o'quvchi (talaba)lar tomonidan individual, guruh yoki jamoatarzida aniq belgilangan vaqt oralig'ida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha axborotlarni yig'ish va tadqiq qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mashg'ulotlarda metoddan foydalanish o'quvchi (talaba)larda rejalashtirish, qaror qabul qilish, faoliyatni amalga oshirish, ma'lumotlarni qayta tekshirish, mavjud ma'lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarish, natijalarni baholash ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Metodni qo'llashda o'quvchi (talaba)lar mavzu bo'yicha yangi loyihalarni yarata olishlari lozim. Loyihalarni yaratishda taklif etilgan jarayonning mohiyati qisqa, aniqfikir, belgi, tasvirlar yordamida ifodalanishi talab etiladi.

Tadqiqotchilik metodi ta’lim oluvchilarni ma’lum mavzu doirasida ilmiy-texnik tadqiqot olib borish jarayonidagi mustaqil ijodiy kasbiy faoliyatga yo’naltiradi. Ta’limda tadqiqotchilik metodidan foydalanish kelajakda faol ilmiy-tadqiqot olib borishga va kashfiyotlar qilishga zamin yaratadi. Bu metoddan foydalangan holda tadqiqot ishlarini olib borish, olingan natijalarni tahlil qilish, tahlil qilingan natijalarning matematik modelini ishlab chiqish, algoritmini tuzish orqali ilmiy-tadqiqot samaradorligiga yetarlicha ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Xulosa. Uzluksiz amaliyotning maqsadlari quyidagilardan iborat: talabning tashkilot faoliyatida bevosita ishtirok etishi orqali auditoriya mashg’ulotlari, o’quv amaliyotlaridavomida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash; talaba tomonidan kasbiy kompetensiyalarni egallash; talabning hisobot yozishi uchun kerakli materiallarni to’plash.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. QHMMB: 06/19/5847/3887-son 09.10.2019 y. <https://lex.uz/docs/4545884>.
2. Олий ва ўрта махсус таълим, Халқ таълим ва Мактабгача таълим вазирликларининг 2019 йил 5 мартдаги 10-к/к-13-4-сон Қарорига илова // https://new.tdpu.uz/uploadfiles/6413_683_mpa_nizom.pdf
3. Педагогика таълим соҳаси талабаларининг малакавий педагогик амалиётини ташкил этиш тартиби тўғрисида Низом // <https://namspi.uz/files/5/Malakabiy%20amaliyot%20Nizomi.pdf>.

ПЕДАГОГНИНГ КАСБИЙ ПРОФЕССИОНАЛЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Адизов Бахтиёр Рахмонович,

*Бухоро давлат университети ҳузуридаги педагог
кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш
минтақавий маркази директори, п.ф.д., профессор*

Кириш. Дунё миқёсида ижтимоий интеграция, глобаллашув ва ахборотлаштириш тенденцияларининг кучайиб бориши барча турдаги таълим муассасалари, жумладан, олий таълимда фаолият олиб бораётган педагогларнинг касбий профессионаллигини ошириш масалаларига бугунги замонавий талаблар асосида янада жиддийроқ эътибор қаратишни тақозо этмоқда. 2030-йилгача белгиланган халқаро таълим концепциясида “Бутун ҳаёт давомида сифатли таълим олишга имконият яратиш” долзарб вазифа сифатида белгиланди.

Педагогнинг касбий профессионализи унинг қобилияти мезонлари ҳамда касбий фазилатлари (чуқур билимга эгаллиги ва педагогик фаолиятида унга асосланганлиги)га боғлиқ, яъни таълим жараёнини ривожлантириш, ўзгарувчан шароитларда таълим муассасасига мослашуви, инновацион фаолият, ниҳоят таълим жараёнининг самарали кечишига жиддий таъсир этувчи омиллардан биридир. Талабалар қобилиятларининг қай даражада намоён булиши ва имкониятларининг қандай очилишига талабалар ва ўқитувчи-педагог ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик шакллари, умуман олганда педагогнинг касбий профессионализига боғлиқ.

Ҳар қандай фаолиятда профессионализм (профессионал – бирор касб билан доимий шуғулланган одам, профессионализм – ўз касбини моҳирлик билан бажариш) – стандарт касбий муаммоларни ечишни билишдир.

Асосий қисм. Педагогнинг шахсининг педагогик қобилияти ва касбий жиҳатдан шаклланиши муаммолари бўйича ўтказилган педагогик-психологик тадқиқотларда “профессионализм” тушунчаси “шахснинг касб маҳорати” сифатида ўрганилади. Унинг таркибига педагогик фаолиятни амалга ошириш жараёнида шаклланган муҳим касбий сифатлар ҳамда шахсий касбий салоҳиятни ташкил этган педагогик қобилият ва маҳорат, интеллектуал, мотивацион, коммуникативлик, креативлик-ижодий, перцептив ҳамда шахс динамизми, яъни эмоционал-иродавий (иродавий таъсир ўтказиш ва мантикий ишонтира олиш) қобилиятлар комплекси киради.

Педагогнинг профессионаллик даражаси бир неча омиллар билан бевосита боғлиқ.

Биринчидан, педагогик фаолияти жараёнида индивидуал хусусиятларнинг мавжудлиги, уларни тузатиш ва такомиллаштириш, иккинчидан, педагогнинг ижтимоий-маданий муҳитга сингиши, таълим-тарбия жараёнида ижтимоий-маданий меъёрлари ва касбий маҳоратини намоён этиши.

Педагогнинг педагогик профессионализи, бинобарин, педагог фаолиятининг самарадорлиги, маълум кўрсаткичларга, масалан, педагогнинг нимага ва қандай қилиб ўргатишини қанчалик тушуниши, ҳам билиши, унинг билим даражаси ва педагогик салоҳияти, замонавий ўқитиш технологиясини қай даражада ўзлаштириб олгани, касбий педагогик маҳорати, таълим бериш ва тарбиялаш ҳамда шахсни ривожлантириш билан боғлиқ масалаларни қанчалик ҳал эта олиш педагогик қобилияти билан белгиланади.

Педагогнинг касбий педагогик профессионализи - педагогик маҳорати ва ўз касбий фаолиятини юқори савияда ташкил қила олишни таъминловчи, ўқитувчи-педагог шахс хусусиятларини йиғиндисидир. Шундай муҳим хусусиятларга ўқитувчи фаолиятининг инсонпарварликка йўналтирилганлиги, унинг касбий билимлари, педагогик қобилиятлари ва педагогик техникаси (ўз-ўзини бошқара олиш кўникма лари ва тингловчилар билан ўзаро ҳамкорлик қила олиш малакаси) киради. Бу педагогик маҳорат тизимидаги ўзини ташқи таъсирларсиз ривожлантира олиш хусусиятига эга тўртта ўзаро боғлиқ жиҳатлардир. Шундан келиб чиқиб таъкидлаш мумкинки, педагог профессионализи-бу шахс ва фаолият субъектининг мураккаб, кўп қиррали интеграл хусусиятлари мажмуаси бўлиб, унинг тузилмаси қуйидагилардан иборат: а) педагог профессионализини ташкил этувчи яхлит компонентлар; б) педагог фаолияти ва шахсига қўйилган меъёрий талаблар билан белгиланган умумий ёки типик хусусиятлар (меъёрий профессионализм). в) педагог субъект сифатида педагогик фаолият ва мулоқотда намоён бўлувчи индивидуал-психологик ва типологик хусусиятлари педагогик профессионализмнинг асосий таркибий қисмлари сифатида “касбий маҳорат”, “педагогик фаолият ва мулоқотнинг индивидуал услуги”, “педагогик

ижодкорлик”, “шахсий касбий салоҳият”ни белгилаш мумкин.

Педагогнинг касбий профессионалигини ривожлантиришда ўз устида ишлаш ва ўзини-ўзи ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Ўзини-ўзи ривожлантириш вазифалари ўзини-ўзи таҳлил қилиш ва ўзини-ўзи баҳолаш орқали аниқланади. Демак, ўзини-ўзи ривожлантириш-инсоннинг ўзини шахс сифатида тўла намоеън этишда йўналтирилган онгли фаолият. Ўзини ўзи ривожлантириш фаолиятнинг мақсадларини аниқ англаши ва унинг мавжудлигини, идеаллар ва шахсий йўналганликни назарда тутати.

Айнан инсониятнинг гўзал фазилатларини ўзида шакллантириш ҳар бир педагогнинг касбий профессионалигининг пойдеворини ташкил этади. Ушбу пойдеворга педагогнинг касбий профессионалиги ўзи устида ишлаш орқали ўсиб бориши мумкин.

Ўз устида ишлаш бу мутахассис томонидан ўзини ижтимоий ҳамда касбий жиҳатдан ривожлантириш, камолотга эришиш йўлида мақсадли, изчил, тизимли ҳаракатларнинг ташкил этиши тушунилади. Педагогнинг ўз устида ишлаши қуйидагиларда кўринади: касбий БКМни такомиллаштириб бориш; фаолиятга танқидий ва ижодий ёндашиш; касбий ва ижодий ҳамкорликка эришиш; ишчанлик қобилиятини ривожлантириш; салбий одатларни бартараф этиб бориш; ижобий сифатларни ўзлаштириш ва ҳоказо.

Педагогнинг ўз устида ишлаш босқичи узвий, тизимли шаклда олиб борилади, жумладан, биринчи босқичда ўз фаолиятини таҳлил қилиш асосида ютуқ ва камчиликларини аниқлайди, иккинчи босқичда эса, ютуқларини бойитиш ва камчиликларни бартараф этиш юзасидан аниқ қарор қабул қилади, учинчи босқичда қабул қилинган қарор бўйича амалий ҳаракатларни самарали ташкил этиш йўллари излайди, тўртинчи босқичда хато ва камчиликларни такрорламасликка интилади ва сўнгги бешинчи босқичда қабул қилинган қарорнинг изчил бажарилишини доимий назорат қилиб боради.

Педагогнинг қуйидаги амалий ҳаракатлари мутахассис сифатида унинг ўз устида ишлашини ифодалаб беради: аниқ мақсад, интилиш асосида педагогик жараёни такомиллаштириш; педагогик жараён самарадорлигини, ўзининг ишчанлик фаоллигини ошириш; изчил равишда янгиланиб бораётган педагогик билимларни ўзлаштириш; илғор технология, метод ҳамда воситалардан хабардор бўлиш; фаолиятига фан-техниканинг сўнгги янгилекларини самарали татбиқ этиш; касбий кўникма ва малакаларини такомиллаштириш; салбий педагогик низоларнинг олдини олиш, бартараф этиш чораларини излаш ва ҳоказо.

Педагогларнинг ўз устида ишлашида изчил, самарали ишлашларида фаолиятга лойиҳали ёндаша олишлари кўл келади. Уларнинг лойиҳали ёндашув асосида қуйидаги моделни шакллантира олишлари мақсадга мувофиқдир. Моделда ўз устида ишлаш босқичлари ва ҳар бир босқичда амалга ошириладиган вазифалар қайд этилади. Ҳар бир босқич учун белгиланган вазифаларнинг самарали ҳал этилиши навбатдаги босқичга ўтиш имконини беради. Маълум босқич вазифалари ҳал этилгач, педагог бу ҳолатни алоҳида бандда қайд этади:

Педагогнинг ўз устида ишлаш модели

Босқичлар	Уларда амалга ошириладиган вазифалар	Қайдлар
1-босқич		
2-босқич		
3-босқич		
4-босқич		
5-босқич		

Педагогнинг касбий профессионализмга эга бўлишида ўзини ўзи таҳлил қила олиши ҳам аҳамиятли саналади.

Педагогнинг касбий-педагогик профессионаликка эга бўлишида ўзини ўзи таҳлил қила олиши ҳам муҳим бўлиб, бу педагог томонидан касбий фаолиятда ташкил этиладиган ўз амалий ҳаракатлари моҳиятининг ўрганилиши саналади. Педагогнинг касбий-педагогик профессионалик сифатларига эга бўлишида уларнинг ўз-ўзини баҳолаш малакаларига эгалиги ҳам зарур ва бунинг натижасида у ўзини ўзи таҳлил қилади ҳамда касбий профессионалигини ҳолисона баҳолаш имкониятига эга бўлади. Моҳиятига кўра ўзини ўзи баҳолаш субъект учун шахсий имкониятларини ҳисоб-китоб қилиш, ўзига объектив баҳо бериш, ўзидан қониқишни таъминлайди. Ҳар қандай мутахассисда бўлгани каби педагогнинг ҳам ўзини ўзи самарали баҳолай олишига бир қатор омиллар таъсир

кўрсатади, жумладан, ўзини тушуниш (ўзи ҳақида аниқ маълумотларга эга бўлиш); шахс сифатида ўз кадр-қимматини англаш (ўзи тўғрисидаги ижобий маълумотларни тўплаш); ўзини-ўзи назорат қилиш (ўзи тўғрисидаги шахсий фикрнинг атрофдагилар томонидан унга берилаётган баҳога мос келиши) ва б.

Ўз-ўзини баҳолаш даражаси шахснинг ўз-ўзидан қониқиши ёки қониқмаслигини белгилаб беради. Бунда ўз-ўзини баҳолаш кўрсаткичлари шахс имкониятларига мос келиши лозим.

Ўзини ўзи ошириб ёки пасайтириб кўрсатиш ўз-ўзини баҳолаш кўрсаткичларининг нотўғри бўлишига олиб келади.

Кўплаб манбаларда шахс томонидан ўз-ўзини баҳолаш куйидаги формула асосида аниқланиши кўрсатилган: $\ddot{Y}\ddot{B} = \text{ютуклар} / \text{ўзини юқори баҳолашга интилиш}$ (ёки $\ddot{Y}\ddot{B} = \text{Ю} / \ddot{Y}\ddot{O}\ddot{B}\text{И}$). Формулага кўра, қандайдир ютукка эришгач, шахс томонидан ўзини ўзи юқори баҳолаш (ютуклар ҳиссасини ошириш) ёки ўзига нисбатан қўяётган талабларни пасайтириш рўй беради.

Бизнинг фикримизча, $\ddot{Y}\ddot{B}$ да холисликка эришишда куйидаги формула ҳам қўл келади: $\ddot{Y}\ddot{B} = \text{ютуклар} / \text{ўз-ўзини ривожлантириш вазифалари}$ (ёки $\ddot{Y}\ddot{B} = \text{Ю} / \ddot{Y}\ddot{P}\ddot{B}$). Ушбу формула билан ишлашда педагог куйидаги ўзини-ўзи баҳолаш моделига таяниб иш кўриши мумкин:

Ўзини-ўзи баҳолаш модели

№	Мавжуд ютуқлар	Ўз-ўзини ривожлантириш вазифалари
1.		
2.		
3.		
...		

Ушбу модел асосида ўз-ўзини баҳолаш ниҳоятда осон кечади. Борди-ю, эришилган ютуқлар сони ўз-ўзини ривожлантириш вазифаларига нисбатан кўп (1 дан катта) бўлса, у ҳолда педагог юқори даражада касбий профессионализмни намоён этади. Борди-ю, ютуқлар ва белгиланган ўзини ўзи ривожлантириш вазифалари ўзаро (1 га) тенг бўлса, у ҳолда у ўзида ўрта даражадаги касбий профессионализмни ифодалайди. Агарда, ютуқлар сони белгиланган ривожлантириш вазифаларидан кам (1 дан кичик ёки 0 га тенг) бўлса, у ҳолда педагогнинг касбий профессионализм даражаси паст ҳисобланади ва бу ҳолат педагогдан ўз касбий профессионализмни ривожлантиришга жиддий эътибор беришини талаб қилади.

Формулада “ўзини ўзи ривожлантириш вазифалари” жумласи қўлланилган экан, энг аввало, ўзини ўзи ривожлантириш нима эканлигини тушуниш олиш лозим.

Ўз-ўзини ривожлантириш педагогнинг ўзида касбий тажриба, малака ва маҳоратни такомиллаштириш йўлида аниқ мақсад ва пухта ўйланган вазифалар асосида мустақил равишда амалий ҳаракатларни ташкил этиши орқали амалга оширилади. Кўплаб тадқиқотчилар ўз-ўзини ривожлантиришнинг энг самарали усулларида бири сифатида махсус дастурларни ишлаб чиқиш ва татбиқ этишда деб билади, бу дастурлар педагогнинг индивидуал ривожланишига йўналтирилган бўлиши самарали натижаларни намоён қилади.

Индивидуал ривожланиш дастури (ИРД) – ҳар бир шахс ёки мутахассиснинг ўзида маълум сифат, БКМ, касбий профессионализмни шакллантириш ва ривожлантириш эҳтиёжлари асосида ишлаб чиқилган шахсий-амалий характердаги дастур. Ушбу дастурда касбий фаолиятни ташкил этиш учун зарур бўлган БКМ ҳамда касбий профессионализм сифатларини шакллантириш ва ривожлантириш муддатлари белгиланади.

Педагог томонидан ишлаб чиқиладиган “Индивидуал ривожланиш дастури” куйидаги таркибий элементлардан таркиб топади: педагогик билимлар; психологик билимлар; мутахассислик билимлари; дидактик малакалар; тарбиявий ишларни ташкил этиш малакалари; руҳиятнинг касбий аҳамиятга эга хусусиятлари ва шахсий сифатлар; ўз-ўзини ривожлантириш мақсадлари; ўз-ўзини ривожлантириш учун топшириқлар.

Хулоса. Педагогнинг касбий-педагогик профессионаллигини ривожлантириш мақсадига йўналтирилган бу каби индивидуал ривожланиш дастурлари педагогнинг ўзида маълум сифат, БКМ, касбий профессионализмни такомиллаштириш ва ривожлантириш эҳтиёжлари асосида ишлаб чиқилган бўлиши лозим. Ушбу дастурда касбий фаолиятни ташкил этиш учун зарур бўлган касбий профессионализмни шакллантириш ва ривожлантириш муддатлари белгиланиши мақсадга мувофиқ. Ҳар қандай педагог ўзи учун шахсий амалий характерга эга бўлган индивидуал ривожланиш

дастурларини ишлаб чиқа олиши, у асосида педагогик фаолиятни йўлга қўйиши зарур. Унинг индивидуал ривожланиш дастури индивидуал равишда ўзида касбий-педагогик профессионализмни такомиллаштириш ва ривожлантириш эҳтиёжларига таянган ҳолда ишлаб чиқилсагина юқори самарадорликка эришилади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони.
2. Ежак Е.В. Психологическое обеспечение профессионального развития педагога в условиях рисков современного образования. дисс... док. психол. наук. – Ростов-на-Дону.: 2017. - 315 с.
3. Муслимов Н.А. ва бошқалар. Педагогик компетентлик ва креатив асослари. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 120 б.
4. <http://bimm.uz> – Олий таълим тизими педагог ва раҳбар кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш бош илмий-методик маркази.

APPROACHES TO THE INTRODUCTION OF DUAL EDUCATION IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION

*Siddikova Sadokat Gaforovna,
Rector of Bukhara engineering technological institute,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*

In this article, the theoretical aspects of the development of the dual education system and foreign experiences, the development of the mechanism for the organization and implementation of dual education in the higher education system, the possibilities of introducing the dual education mechanism in the creation of innovative educational content are studied. Methodical recommendations were given, the curriculum and science programs were improved based on the requirements of dual education, and the method of formation of professional knowledge, skills and qualifications corresponding to the requirements of the labor market was scientifically justified and analysis of its application to the educational process is given.

Key ords: higher education, dual education, labor market, collaboration, production, analysis, process, qualification, skill, experience.

ПОДХОДЫ К ПРИМЕНЕНИЮ ДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ТЕХНИЧЕСКОМ ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

В данной статье рассмотрены теоретические аспекты развития и зарубежного опыта системы дуального образования, разработки механизма внедрения и реализации дуального образования в высшем образовании, возможности применения дуального образовательного механизма в создании инновационного образовательного контента, даны научно-методические рекомендации, даны профессиональные знания, соответствующие требованиям рынка труда, посредством совершенствования учебных планов и предметных программ на основе требований дуального образования., научно обосновано применение методики формирования умений и навыков в образовательном процессе, и дан анализ её применения в образовательном процессе.

Ключевые слова: высшее образование, дуальное образование, рынок труда, сотрудничество, производство, анализ, процесс, квалификация, навыки, опыт.

TEXNIK OLIY TA'LIMDA DUAL TA'LIMNI QO'LLASHGA YONDASHUVLAR

Mazkur maqolada dual ta'lim tizimining taraqqiyoti va xorijiy tajribalari nazariy jihatlari, oliy ta'limda dual ta'limni joriy etish va amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish, innovatsion ta'lim mazmunini yaratishda dual ta'lim mexanizmini qo'llash imkoniyatlari o'rganilib, ilmiy-uslubiy tavsiyalar berilgan, dual ta'lim talablari asosida o'quv reja va fan dasturlari takomillashtirilishi orqali mehnat bozori talablariga mos keladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi ta'lim jarayoniga tatbiq qilinganligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan va ta'lim jarayoniga tatbiq etilganligi yuzasidan tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, dual ta'lim, mehnat bozori, hamkorlik, ishlab chiqarish, tahlil, jarayon, malaka, ko'nikma, tajriba.

Introduction. The issue of dual education between educational institutions and manufacturing enterprises is one of the most pressing issues in society. Social partnership means the effective establishment of relations that are mutually beneficial, not only for the unilateral relations and interests of partners, but also for both parties.

The relationship between the individual, the state and society, science, continuing education and development, which form the basis of the National Program of Personnel Training of the Republic of Uzbekistan, also serves as a guide for the organization of the process of social cooperation. In determining the outcome of each new endeavor, it is important to plan ahead, compare the goal and the work done so far. At the same time, another aspect of the results of the work is the perception of the social cooperation of the persons involved in the activity. In this regard, the questionnaire was used to clarify the views of teachers and engineers-teachers of the Technical Higher Education Institution, operating in the system of technical-educational institutions, on the organization of social cooperation and some related cases [1]. Processing of

the results of the questionnaire allows you to organize the proposed research work and predict its results.

Methods. We analyzed the possibility of establishing social cooperation in a country, who benefits from it, its impact on the educational process, the state of local experience in social cooperation and the results of other indicators. Opinions of teachers and pedagogical engineers of educational institutions of the Republic on "Implementation of social cooperation" are given in Table 1 (results in percentage).

Table 1.

I	Opportunities for social partnership	There is a possibility	There is no possibility
		95,46	4,54
II	Interest due to social partnership	Educational institution	Production
		62,35	37,65
III	The impact of social partnership on the educational process	It has an effect	No effect
		100	-
IV	Status of local experiences on social partnership	Experiments are available	Experiments are not available
		77,18	22,82
V	Making changes to curricula and programs in the context of social partnership	need	not needed
		100	-
VI	Involvement of employers in the development and improvement of qualification requirements, curricula and programs	Condition	Not necessarily
		94,71	5,29

According to the results of the survey, 95.46% of teachers and pedagogical engineers who took part in the experiment confirmed the possibility of establishing social cooperation in the country, while 4.54% said that it was impossible. The relative balance of indicators indicates the need to reform the activities of technical education institutions, to change their activities in a market economy based on economic indicators and trends [2].

This situation also shows that it is possible to prepare the ground for the creation of environment direct participation of the trained specialists in the development, interaction between production and education. Analyzing the results, it is clear that both teachers and engineers-teachers are in favor of the organization of social cooperation in the system of higher education of the Republic, they do not have enough imagination in this regard (only 4.54% can not be organized) can be said to have confirmed. When comparing the results on the share of interests due to social cooperation, teachers and pedagogical engineers tended to provide some interesting information. In their view, the indicator of interest shows that social partnership is much more important than the benefit for the educational institution. 59.02% of teachers and engineers-teachers noted that social cooperation is beneficial for educational institutions, 31.92% for development and 9.08% for both parties.

The employees of the educational institution themselves are predicting that the educational institution will be more interested in it [3]. Based on these assumptions, if we ask some assumptions in advance, we can say that the benefits of social partnership for the educational institution will grow in terms of a number of indicators:

- the content of education changes leading to the harmonization of the training of qualified specialists with the development process;
- provision of qualified specialists with jobs in the educational institution;
- technical higher education institutions start to have funds due to the training of qualified specialists in manufacturing enterprises;
- the role of technical higher education institutions in society is growing; the quality of training of qualified specialists and the personal responsibility of teachers and pedagogical engineers, etc [5].



Results. The comments of educators and pedagogical engineers on the “Impact of social partnership on the educational process” challenged the higher scores. All of them noted that social cooperation has 100% positive impact on the educational process. Of course, such an indicator shows that the establishment of a link between education and the development of teachers and engineers-educators in educational institutions is the most appropriate way to date.

The responses to the situation with local experiences of social cooperation are quite surprising. This is because most teachers and pedagogical engineers have acknowledged that there is enough experience in this area in our country (77.18%) the deficit was that they were unaware of such experiences (22.82%). The results show that the system of technical higher education in the country has the potential to establish social cooperation between educational institutions and enterprises in two ways: firstly to rely on local experience and secondly, to gain experience in foreign experience. This leads to the idea that there is a basis for the implementation of social cooperation and it is only necessary to direct it in the right direction [4].

In response to the question "Amendments to curricula and programs in the context of social partnership", teachers and engineering teachers stated that 94.71% of teachers needed changes, and 5.29% said that they were not necessary [Table 2]. In fact, it is natural to make changes in the educational process, taking into account the circumstances.

Table 2.

I	Making changes to curricula and programs in the context of social partnership	Condition	Notnecessarily
		94,71	5,29
II	Involvement of employers in the development and improvement of qualification requirements, curricula and programs	100	-

On the contrary, it is clear that incompatibility with the environment, incompatibility of the content of education based on its requirements do not give positive results. For this reason, a large number of participants are able to give a fair opinion.

Table 3.

The ratio of theoretical and practical training		
1	50 hours-50 hours	9,08
2	40 hours-60 hours	77,28
3	30 hours-70 hours	13,64
Who does social partnership impose more responsibility on?		

1	To the student	13,21
2	To the teacher	57,22
3	To the manufacturing plant	13,21
4	To the student and the teacher	8,18
5	To the teacher and the production company	8,18

Discussion. This is even confirmed by their views on the proportion of hours devoted to theoretical and practical training. However, according to these indicators, there are several options for teachers and pedagogical engineers. A number of educators have suggested that the ratio of theoretical and practical training should be 50-50%, some 60-40%, and some 70-30% [Table 3]. It is good to have such differences of opinion, but it is more important that the practical exercises are more than the theoretical ones and they are coordinated.

To solve this problem, it is necessary to form a completely new system of relations - social partnership. Such relationships are established between educational institutions and enterprises, employers and trade unions, labor authorities (i.e. with all consumers of the products of educational institutions) [5].

The new system of relations will allow educational institutions to fully take into account the needs of employers, quickly adapt to changes in supply and demand in the labor market and, ultimately, to provide quality vocational training in specialties required by the labor market [7].

✓ establishing and strengthening ties with enterprises, labor bodies, local executive authorities provides educational institutions with the following opportunities:

✓ information about the labor market (what professions are needed in the labor market and in what quantities);

✓ taking into account the requirements of employers on the content of training (profession, qualifications);

✓ development of new curricula and programs to ensure the training of specialists who meet the requirements of employers, and changes to the old ones;

✓ have a wide range of opportunities to organize student internships;

✓ organization of short-term in-service training of teachers at production enterprises in order to acquaint students with the latest equipment, types of equipment and technological processes;

✓ expanding employment opportunities for graduates;

✓ initiate new joint commercial projects to replenish extra-budgetary funds of educational institutions (open short courses to improve the skills of employees of enterprises, construction of joint workshops, shops, customer service centers, etc.).

Conclusion. However, the fact that all participants in the system of social partnership are interested in its decision does not mean that the process will be smooth and without problems. There are many objective and subjective reasons that hinder this process [8]. These include not only in production, but also in the fact that educational institutions are not organized with employers, the relationship between education management and labor authorities is not at the required level, and so on.

At a time when market relations are decisive, the professional education of a citizen is the most important social protection for him. This requires the effective functioning of educational institutions. Only a system of educational institutions aimed at meeting the needs of the labor market, the specific needs of employers can function effectively. In other words, educational institutions are becoming a means of solving economic problems, ensuring the balance of supply and demand for qualified professionals who meet the needs of employers in the professions and have the necessary knowledge, skills and abilities.

References:

1. Абдураимов Ш.С. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлаш сифатини таъминлашда тармоқлараро интеграциянинг педагогик имкониятларини такомиллаштириш // Дисс. (PhD). – Тошкент, 2017. – 158 б.

2. Гребенщиков А.Г. Педагогические условия развития художественно-творческих способностей учащихся в системе непрерывного образования // Автореферат. – Елец, 2005. – 24 с.

3. Гранин Ю. Образование в контексте глобализации // Вестник образования в России. – 2004. – № 12. – С. 7–9.

4. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and

Solutions. Eastern European Scientific Journal, (2), 67-70..

5. Siddiqova S.G'. Ta'lim jarayoniga integrativ yondashuvning falsafiy va psixologik jihatlari. Educational Research in Universal Sciences. Multidisciplinary Scientific Journal. VOLUME 3.4 | 2024. – 275-282 p.

6. Солдатов Г.Т. Дидактическое обеспечение преемственности математической подготовки студентов в системе «колледж-вуз» // – М., РГБ, 2003. diss.rsl.ru.

7. Торопова Е.А. Современные проблемы науки и образования. Современные проблемы науки и образования // Электронный научный журнал. – Тошкент, 2012. – № 6. – С.45-58.

8. Филонова В.В. Вариативность методов определения уровня сформированности межкультурной компетенции // Вестник МГГУ им. М.А. Шолохова. Серия: Педагогика и психология. – 2013. – № 2. – С. 58–61.

9. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), – P. 258-261.

10. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12 Part II).– P. 44-49.

OLIV HARBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARING SHAXSLILIK SIFATLARINI TADQIQ QILISHNING PSIXOLOGIK VA ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

*Abdullayev Amrullo Nassulloyevich,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti dotsenti*

Harbiy ta'lim fakulteti talabalarining shaxslilik sifatlarini tadqiq qilishning ilmiy metodologik asoslari, milliy iftixor, o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanganligi va rivojlanganligini aniqlash uchun ta'lim-tarbiyani masalasi hali ham ko'plab professor-o'qituvchi va mutaxassislarining e'tiborini tortib kelmoqda. Hozirgi vaqtda ko'plab tadqiqotchilarning qiziqishi turli yoshdagilarda harbiy xizmatchilarni tarbiyalash masalasiga qaratilgan va bu qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulot jarayonlari pedagogik muloqotni o'zlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga hamda talabalarda imkon qadar, pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning sifat darajalarini yuqori darajada rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur maqolamiz mana shu muammolarning yechimiga bag'ishlangan bo'lib, maqolada harbiy ta'lim muassasalari talabalarining, pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning rivojlanganlik darajalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: xususiy metodologiya, shaxslararo idrok, pragmatik funksiyasi, stereotiplashtirish (qoliplashtirish) effekti, vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanganligi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ВОЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Научно-методическая основа исследования качеств личности студентов факультета военного образования, проблема воспитания, направленная на формирование и развитие национальной гордости, самосознания, патриотизма, до сих пор остаётся проблемой для многих преподавателей и привлекает внимание специалистов. В настоящее время интерес многих исследователей сосредоточен на проблеме воспитания военнослужащих разного возраста, а процессы обучения, направленные на развитие этих способностей, ориентированы на создание благоприятных условий для овладения педагогическим общением и формирование качественных факторов педагогического общения у студентов, помогающих развивать его на высоком уровне. Данная статья посвящена решению этих проблем, наряду с этим изучены уровни развития факторов педагогического общения курсантов военно-учебных заведений.

Ключевые слова: частная методика, межличностное восприятие, прагматическая функция, эффект стереотипизации, формирование патриотических чувств.

PSYCHOLOGICAL AND SCIENTIFIC PEDAGOGICAL BASIS OF RESEARCHING PERSONALITY QUALITIES OF STUDENTS OF HIGHER MILITARY EDUCATION INSTITUTIONS

The scientific methodological basis of researching the personality qualities of students of the Faculty of Military Education, the issue of education to determine the formation and development of national pride, self-awareness, patriotism is still a problem of many professors and specialists are attracting attention. Currently, the interest of many researchers is focused on the issue of education of military personnel at different ages, and educational processes aimed at developing these abilities are aimed at creating favorable conditions for mastering pedagogical communication and, as much as possible, the formation of quality factors of pedagogical communication in students helps to develop the levels at a high level. This article is dedicated to the solution of these problems, and the development levels of formation of pedagogical communication factors of students of military educational institutions are studied in the article.

Keywords: private methodology, interpersonal perception, pragmatic function, stereotyping effect, formation of patriotic feelings.

Kirish. Hozirgi zamonaviy fan nuqtayi nazarida «metodologiya» atamasi uchta turli darajadagi ilmiy yondashuv asosida anglanadi.

Umumiy metodologiya – tadqiqotchi tomonidan qabul qilinadigan umumiy falsafiy yondashuv, umumiy bilish usuli, umumiy anglash usuli. Umumiy metodologiya tadqiqot jarayonida anglangan yoki

anglanmagan tarzda qabul qilinadigan eng umumiy tamoyillarni shakllantiradi. Xususan, ijtimoiy psixologiya uchun jamiyat va shaxs, inson tabiati masalalarini tushunilishini aniqlash zarur. Umumiy metodologiya sifatida tadqiqotchi turli falsafiy tizimlarni qabul qilishi mumkin.

Harbiy ta’lim fakulteti talabalarining shaxslilik sifatleri tadqiqida ham biz, shaxs va jamiyat kategoriyalarini umumiy metodologik tamoyil sifatida asos qilib oldik.

Asosiy qism. Xususiy (yoki maxsus) metodologiya – ma’lum bir bilimlar sohasi qo’llanadigan metodologik tamoyillar majmuyidir. Xususiy metodologiya tadqiqotning o’ziga xos obyektiga nisbatan qo’llanadigan falsafiy tamoyillarning o’rganilishini taqozo etadi. Bu ham o’ziga xos bilish usuli, ammo bilimlar sohasining birmuncha tor doirasiga moslashtirilgan usuldir. Ijtimoiy psixologiyada uning ikki soha asosida kelib chiqishi bilan bog’liq holda maxsus metodologiya ham psixologiya, ham sotsiologiya tamoyillariga mos kelishi lozim. Misol tariqasida faoliyat tamoyilini ijtimoiy psixologiyada qanday qo’llanishini olish mumkin. Sotsiologiyada keng ma’nodagi faoliyat falsafiy tamoyili insonning jamiyatda hayot kechirishi usuli, insonlar faoliyati orqali yuzaga chiqadigan ijtimoiy qonuniyatlarning amalga oshirilishi sifatida qaraladi. Faoliyat yaratadi va individlarning, shu bilan birga butun jamiyatning hayot kechirishi shart – sharoitlarini o’zgartiradi. Aynan faoliyat orqali shaxs ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishadi. Psixologiyada esa faoliyat inson faolligining o’ziga xos turi, inson – sub’ekt tegishli tarzda ob’ektga nisbatan munosabatda bo’lishi, uni tasarruf etishi sifatida namoyon bo’ladigan subyekt – obyekt munosabati ko’rinishi sifatida qaraladi. Faoliyat davomida inson o’z qiziqishlarini qondiradi va shu asosda dunyoni o’zgartiradi. Shu bilan birga, kishi o’z ehtiyojlarini qondirishi jarayonida yangi ehtiyojlarning tug’ilishiga sabab bo’ladi. Shunday qilib, faoliyat davomida inson shaxsi rivojlanuvchi jarayon sifatida yuzaga chiqadi [33].

Muloqot psixologiyasida qo’llaniladigan kategoriyalardan yana biri mehnat guruhi psixologiyasidir.

Axloqiy – etik me’yorlar inson faolligining barcha shakllarini qamrab oladi, ular universaldir, ammo har bir sohada ushbu yozilmagan qonunlar o’ziga xos xususiyat kasb etadi. Bunday qoidalar to’plami odatda professional etika deb ataladi. Azaldan tibbiyot xodimlari, o’qituvchilar va boshqa kasb egalari uchun axloqiy qoidalar to’plami mavjud.

Professional etikaning muhim shakllaridan birini muloqot etikasi tashkil etadi, chunki, uning zamiridagi bosh omil inson omilidir.

G.M. Andreyevaning fikriga ko’ra, muomalaning eng muhim birligi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanchalik ahamiyat kasb etsa, u ham muomalada xuddi shunday muhim rol uynaydi. Muomala hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga keluvchi, shaxslararo muloqot rivojining ko’p qirrali jarayonidir. Jahon psixologiyasi fanida e’tirof etilganidek, muomala ushbu tarkiblardan tashkil topgan bo’ladi.

1. Kommunikativ (asosan bir tomonlama) axborot uzatish.

2. Interaktiv (ikki tomonlama o’zaro ta’sir).

3. Perseptiv (o’zaro bir-birini idrok qilish).

1. Muomala o’z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilaridan o’zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo’lib, u kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bulmish nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar.

2. Muomalaning ikkinchi tomoni muloqotga kirishuvchilarning o’zaro ta’siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so’z orqali fikr almashinuvi, balki xatti-harakati va xulq-atvori bilan ham ta’sir o’tkazish hamda ta’sirlanishdan iboratdir.

3. Muomalaning uchinchi tomoni shundan iboratki, bunda muloqotga kiruvchilarning (muloqotdoshlarning) o’zaro bir-birlarini idrok qilish jarayonida namoyon bo’ladi, insonning inson tomonidan idrok qilishi yuzaga keladi. Bu jarayonning eng zarur tomoni unda muloqotga kipishuvchi sheriklarning biri aqlli, farosatli, tajribali, saviyasi yuqori inson sifatida ikkinchisining ishonchini qozonganligi uchun uni idrok qilish juda muhim ekanligi anglanadi yoki bir-birlarini oldindan u bari bir hech narsani tushunmaydi, uzatilgan axborotni fahmlay olmaydi, degan taxminga suyangan ruhiy holat vujudga keladi [33, B. 79 – 174.].

Muomala ishtirokchilarining aloqaga kirishish jarayonida bir-birlariga nisbatan ular uchun u yoki bu darajada muhim bo’lgan muayyan maqsadlarni ko’zlashlari odatiy holdir, bu maqsadlar o’z mazmuniga ko’ra bir-biriga mos kelishi yoki bir –biridan farq qilishi mumkin. Mazkur maqsadlar – muomala ishtirokchilarida mavjud bo’lgan ma’lum motivlar ta’sirida yuzaga kelib, ularni amalga oshirish har bir insonda muomalaning obyekti va subyekti sifatlarini rivojlanishi davomida shakllanadigan turli xulq-atvor usullaridan doimiy foydalanishni taqozo qiladi.

O‘z shakli va turiga ko‘ra shaxslararo muloqot juda xilma-xildir. Bevosita va bilvosita muloqot, verbal (so‘z orqali) va noverbal (imo-ishora, mimika, xatti-harakatlar orqali) shakllarga ajratiladi.

O‘z vazifasiga ko‘ra muomala ko‘p funksiyalidir. Muomala funksiyalaridan 5 ta asosiysini ajratib ko‘rsatish mumkin [140, B. 94-96].

1. Muomalaning pragmatik funksiyasi. Birgalikdagi faoliyat jarayonidagi kishilarning o‘zaro hamkorligida amalga oshiriladi.

2. Muomalaning shakllantiruvchi funksiyasi. Insonning psixik qiyofasi shakllanishi va o‘zgarishi jarayonida yuzaga kelib, o‘zgaralar tajribasini qabul qilish, o‘zlashtirish, qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

3. Muomalaning tasdiqlovchi funksiyasi. Shaxslilik sifatlarida inson o‘z-o‘zini anglash, o‘zligini tasdiqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘z mavjudligini, qadr-qimmatini tasdiqlash xohishi insonni o‘zgalardan «tayanch nuqtasi» qidirishga undaydi.

4. Muomalaning shaxslararo munosabatlarni tashkil etish va ta‘minlash funksiyasi. O‘zga kishilarni idrok etish va ular bilan turli munosabatlarga kirishishni amalga oshirish. Har qanday kishi uchun o‘zgalarga baho berish ma‘lum emotsional (ijobiy yoki salbiy) munosabatlarni o‘rnatishda ko‘rinadi.

5. Muomalaning shaxs ichki dunyosi bilan bog‘liq funksiyasi. Kishining o‘z-o‘zi bilan (ichki yoki tashqi nutq vositasida, dialog tipida qurilgan) muloqoti.

Ko‘pgina hollarda, muomala deb ataluvchi insonlarning shaxslararo munosabatlari faoliyat bilan chambarchas bog‘liq holda uning amalga oshirilishining sharti sifatida yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, muomala xizmat qilayotgan faoliyat turi faoliyat qatnashchilari orasidagi muomala mazmuniga, shakliga, uning jarayoni oqimiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

Boshqa effekt – «izchillik effekti» bo‘lib, u ma‘lumotlar ziddiyatli bo‘lgan taqdirda inson qiyofasini va u to‘g‘risidagi tasavvurni shakllantirishga birinchi navbatda kelib tushgan ma‘lumotlar eng ko‘p ta‘sir etishida namoyon bo‘ladi. Agar bu tanish odamga daxldor bo‘lsa, aksincha, eng oxirgilari ko‘p ta‘sir ko‘rsatadi.

«Stereotiplashtirish (qoliplashtirish) effekti» idrok etilayotgan kishini muayyan ijtimoiy guruhga xos xislatlar unga ham deb qarashda namoyon bo‘ladi. Har birimizda muayyan ijtimoiy stereotiplar – o‘qituvchi, harbiy kishi, jinoyatchi kabi guruhlarning stereotiplari mavjud. Muayyan guruhning vakiliga duch kelganda, biz oldindan unga ushbu guruh vakillari bo‘lgan kishilarga xos muayyan xislatlarni unga ham deb qabul qilamiz. Ko‘pincha bunday stereotipdan xalos bo‘lish juda qiyin bo‘ladi [82].

Harbiy ta‘lim fakulteti talabalarining kasbiy mahoratini hamda ular zimmasiga yuklatilgan funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishini ko‘p jihatdan belgilab beruvchi muhim tarkibiy qism kasbiy muomala ko‘nikmalarini egallash va o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida fuqarolar bilan psixologik aloqa o‘rnata olish qobiliyatini shakllantirish bo‘lib hisoblanadi.

Psixologik aloqa o‘rnatish muloqotning kerakli yo‘nalishida rivojlanishini va belgilangan maqsadga erishilishini ta‘minlovchi sharoitlarni yaratishga qaratilgan, maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtiriladigan faoliyatdir. Psixologik aloqa o‘rnatishda muloqot rivojlanishi umumiy jarayonning bir qismini qamrab oluvchi bir necha bosqichlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- muloqotni oldindan rejalashtirish;
- aloqa o‘rnatishni osonlashtiruvchi tashqi sharoitlarni yaratish;
- tashqi kommunikativ xislatlarni namoyon etish;
- kelishuvlarni to‘plash;
- umumiy va neytral qiziqishlarni izlab topish;
- muomaladagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar;
- individual ta‘sir etish.

Muloqotni oldindan rejalashtirish. Psixologik aloqa o‘rnatish chog‘ida maqbul tarzda munosabatga erishish uchun harakatlarning avvaldan tuzilgan rejasiga ega bo‘lish, bo‘lg‘usi muloqotning qanday kechishini oldindan ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun muloqotga kirishish mo‘ljallanayotgan shaxs haqida dastlabki ma‘lumotlarga ega bo‘lish zarur. Masalan, uning muomalaga kirishuvchanlik xislatlari haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish lozim. Shaxs bilan aloqaga kirishishni osonlashtiradigan ochiqlik, qiziquvchanlik, kirishimlilik, xushmuomalalik, odoblilik kabi xislatlar ham mavjud. Shu bilan birgalikda, aloqa o‘rnatishni qiyinlashtiradigan ortiqcha asabiylik, jizzakilik, tajovvuzkorlik, shubhaga beriluvchanlik, alamzadalik kabi shaxsiy xislatlar mavjud. Muloqotni oldindan rejalashtirish chog‘ida yuqorida sanab o‘tilgan xislatlarning mavjudligini doimo inobatga olish zarur.

Aloqa o‘rnatishni osonlashtiruvchi tashqi sharoitlarni yaratish. Har bir muayyan vaziyatda tashqi sharoitlar shaxslilik sifatlarida muloqot qilish zarur bo‘lgan ijtimoiy rolga ideal ravishda mos kelishi kerak.

Hech narsa muloqotga xalaqit bermasligi, suhbatdoshingizni chalgʻitmasligi kerak. Vaziyat ishonchli suhbatga moyil boʻlishi lozim. Shaxslararo masofa, shaxsiy maydonlar haqida bilim va koʻnikmalarga ega boʻlish hamda ulardan shaxslilik sifatlarida unumli foydalanish zarur.

Kasbiy muloqot – xodimning muayyan qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etuvchi anchagina murakkab jarayon boʻlib, mazkur qobiliyatlarning rivojlantirilishi bojxona xodimi faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovi sifatida yuzaga chiqadi va bojxona tizimi samaradorligini oshirishga ijobiy taʼsir etadi.

Kommunikatsiya jarayonida odamlar haqida axborot olish, ularga baho berishda verbal kommunikatsiya – soʻz, ogʻzaki va yozma nutq keng qoʻllaniladi, ammo olimlarning taʼkidlashlaricha noverbal belgilar – mimika, vizual aloqa (koʻz kontakti), muomalaning masofa va vaqt oʻlchamlari, jestlar, tana harakatlarini oʻqiy olish samarali muloqotning muhim shartidir [55].

Xulosa. Shunday qilib biz yuqorida shaxslilik sifatlarini psixologik jihatdan tadqiq qilishning metodologik tomonlariga toʻxtalib oʻtdik. Unda asosiy eʼtiborimizni shu yoʻnalishda psixologiya fanida mavjud boʻlgan turli xil ilmiy qarashlar va yondashuvlarga qaratdik. Endi tadqiqot predmetini oʻrganishga safarbar etilgan psixologik metodlar tavsifini koʻrib chiqishga oʻtamiz.

Adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: Yozuvchi, 2002.- B.62.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.- 224 b.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy «Al Jomiʼ as-sahih». – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 4-jild.- 526 b.
4. Alisher Navoiy. Mahbub – ul – qulub. – Toshkent, 1983.- 138 b.
5. Amir Temur va Temuriylar madaniyati va sanʼati. – Toshkent: F. Fulom, 1996.- 88 b.
6. Aʼzamxoʻjayeva E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi: Dis. ... psixologiya fanlari nomzodi. – Toshkent, 2002.- 160 b.
7. Баротов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане: Автореф. дис. ... докт. психол. наук. – Ташкент, 1998.- 37 с.

LIDERLIK XUSUSIYATLARI SHAKLLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

*Aktamov Shohzod Ravshan o'g'li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

Maqolada liderlikning shakllanishi borasida ilmiy nazariy qarashlar, uning mazmun mohiyati, kelib chiqishi, yuzaga kelgan muammolarni hal eta olishda uning ahamiyati, liderga xos bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri - shaxsning vaziyatga muvofiq harakat qilish qobiliyati mavjud bo'lishi, biron-bir muammoli vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlar ekanligi, muammoni yechish bilan bog'liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o'zining ilg'orligi, bilan ajralib turishi borasida fikrlar bayon etilgan.

***Kalit so'zlar:** lider, yetakchi, muammo, ong, faoliyat, kasb, jamoa, nazariy qarashlar, guruh, ta'sir, qobiliyat, tushuncha.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИДЕРСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК

В статье изложены научно-теоретические взгляды на формирование лидерства, его сущность, происхождение, значение в решении возникших проблем, одним из основных аспектов, характеризующих лидера, является способность человека действовать в соответствии с поставленными задачами в ситуациях, связанных с решением проблем. Утверждается, что инициативность, изобретательность и умение преодолевать возникающие в ситуации трудности являются характерными качествами лидера, а лидера отличает превосходство над другими в сложной ситуации, связанной с решением какой-либо проблемы.

***Ключевые слова:** лидер, главенствующий, проблема, сознание, деятельность, профессия, коллектив, теоретические взгляды, группа, влияние, способность, понятие.*

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF THE FORMATION OF LEADERSHIP CHARACTERISTICS

The article contains scientific theoretical views on the formation of leadership, its essence, origin, its importance in solving the problems that have arisen, one of the main aspects characteristic of a leader is the ability of a person to act in accordance with the situation, any problem it is stated that initiative, ingenuity and skill in overcoming the difficulties that arise in the situation are characteristic qualities of a leader, and that a leader is distinguished by his superiority over others in a difficult situation related to solving a problem.

***Keywords:** leader, problem, consciousness, activity, profession, team, theoretical views, group, influence, ability, understanding.*

Kirish. Liderlik bu alohida shaxs, shu bilan birga, guruhga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati bo'lib, barchaning harakatlarini tashkilot maqsadlariga erishishga yo'naltiradi, inglizcha lider “rahbar; “qo'mondan, yo'l boshchi, yetakchi” deb tarjima qilinadi. Ma'lum muammoni yechishda guruh liderni ilgari suradi. Lidersiz hech bir guruh faoliyat ko'rsata olmaydi. Liderni ma'lum maqsad uchun kishilar guruhini birlashtira oladigan shaxs sifatida qarash mumkin. “Lider” tushunchasi “maqsad” tushunchasi bilangina ahamiyat kasb etadi. Lekin bu maqsadga o'zining harakatlari bilangina erishish liderlikka xos emas. Liderlikning tarkibiy qismlaridan biri liderga ergashuvchilarining mavjud bo'lishidir. Liderning asosiy vazifasi insonlarni o'zining orqasidan ergashtirgan holda yagona maqsad doirasidagi vazifalarni yechish uchun guruh a'zolari o'rtasida samarali munosabatlarni o'rnatishdir. Ya'ni lider- insonlardan iborat tizimini tartibga soluvchi element hisoblanadi. Umuman olganda, adabiyotda «lider» so'zini «yetakchi» atamasi bilan almashtirish hollari ko'p uchraydi. O'ylashimizcha, «yetakchi» atamasi «lider»ga xos bo'lgan psixologik tavsifni to'la ifodalay olmaydi. «Yetakchi» so'zi guruhga munosabat sifatida, uning a'zolariga ta'sir o'tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tashkil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo'lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlari borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri - shaxsning vaziyatga muvofiq harakat qilish qobiliyatidir. Biron-bir muammoli

vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlaridir. Muammoni yechish bilan bog'liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o'zining ilg'orligi, bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, o'zbek tilida aynan shu ikki ibora - «peihadam» va «yetakchi» so'zlari majmuasi lider mohiyatini to'la ifodalashi mumkin. Nazarimizda, «Yetakchi» so'zi shaxsning guruhni yetaklashga, boshchilik qilishga bo'lgan ishtiyoqi mavjudligidan kelib chiqadi. «Peshqadam» iborasi esa ma'lum fazilatlariga ega bo'lgan shaxs ketidan guruhning ergashishini, jamoaning o'z ixtiyoriga ko'ra o'zi ishongan odam borayotgan yo'lni tanlashini anglatadi. Aynan shu holat «lider» iborasiga nisbatan ham ishlatilishi zarur. Liderning bu xususiyati uning xissiy jozibadorligida, o'zgalarni o'ziga jalb etish fazilatida namoyon bo'ladi. Lider sifatleri ichida yaxshi va yomonlari ham bo'lishi mumkin, lekin guruh liderga ergashganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko'rsatmalariga amal qiladi. Maktabda bolalar yoshida xulqi maktab normalariga to'g'ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma'lum guruh ichida so'zsiz obro'ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilishlarni boshlab berdi va ular o'zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilishlarni boshlab berdi va ular o'zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o'ynaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. Yosh avlod ta'lim jarayonida o'zining o'qish faoliyatida ijobiy motivlarni to'la anglay olsagina, u kelajakda o'z oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilib, ijodiy maxsullar yarata oladi. Bu esa mustaqillikni qo'lga kiritgan Respublikamizning jahondagi ilg'or davlatlar qatoriga qo'shilishiga katta hissa bo'ladi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti o'zgaruvchan sharoitlarda mehnat qilishga layoqatli bo'lgan, yuqori malakali mahalliy kadrlarsiz O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tasavvur qilish qiyin. Nafaqat umumiy ma'lumotlar va tarbiyani, balki kadrlarning kasbiy yo'nalishi, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni o'z ichiga oladigan yagona uzluksiz milliy ta'lim tizimini yaratish vazifasi ilgari surilmoqda. Bunda, O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari, xalqning milliy psixologik turmush tarzi, ta'limdagi butun jahon tajribasining eng yaxshi yutuqlari har tomonlama e'tiborga olinishi lozim. Joriy etilayotgan tizimda mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalashda o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatini tubdan o'zgartirish, o'quv jarayonini insonparvarlashtirish muhimdir. Bu masala bevosita yoshlarning tafakkuriga, ongiga, ruhiyatiga ta'sir etish bilan amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Liderga xos bo'lgan fazilatlarini shakllantirish bo'yicha psixologiya fanida qator amaliy tadbirlar mavjud bo'lib, bu xil dasturlar interfaol ta'lim uslubiga asoslangan amaliy mashg'ulotlarda o'z aksini topadi. Shaxsning liderlik jihatlarini rivojlantiruvchi psixologik tadbirlarning metodologik asoslari bir muncha baxsli bo'lib, bu mavzuning puxta ishlab chiqilishi ushbu mashg'ulotlardan olinajak natija samarasini belgilaydi. Yaqin paytgacha psixologiya fanida shaxsning liderlik xislatlarini shakllantirish bo'yicha «Xislatlar nazariyasi» degan ta'limot yetakchi bo'lib kelgan. Bu ta'limotga binoan liderlikni ifodalovchi bir necha xislatlar mavjud va ushbu xislatlar majmuasi shaxsning o'zgalarga ta'sir etish qobiliyatini belgilaydi. Ammo, aniqlanishicha, xislatlarning shunchaki majmuasi shaxsni lider darajasiga ko'tara olmaydi va bu xislatlar soni bir necha o'ntalikdan iborat bo'lishi mumkin. Bu xislatlarni shakllantirish, ularni shaxs tuzilmasidagi boshqa tarkibiy jihatlar bilan muvofiqlashtirish va insonning ichki mazmun-moxiyatiga aylantirish o'ta murakkab masaladir. Shaxsning liderlik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondoshuvlaridan biri, insonda shakllangan qobiliyatga suyanishni va shu qobiliyatni imkon bergan vaziyatda namoyon etilishini taqozo etadi. Bunday yondoshuv «situativ liderlik» deb atalib, unda lider deb, tan olingan shaxsning umumiy maqsadga erishish yo'lida muammoli vaziyatda o'z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi. Bu nazariyaga binoan guruh doimo bir necha liderga ega bo'lishi mumkin va kezi kelganda har bir jamoa a'zosi muammoli vaziyatni xal etish borasida o'z qobiliyat va imkoniyatini namoyish eta oladi. Fikrimizcha, samarali faoliyat olib boruvchi rahbar o'z jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir xodim zarur vaziyatda o'z imkoniyatini ishga solish orqali muammoli vaziyatni xal etishda qatnashishi va boshqaruv jarayonida ishtirok etayotganini his qila olish. Buning uchun jamoa, har qanday vaziyatni hal etishda chuqur mas'uliyat his etuvchi va o'z ishining ustalari bo'lgan professional xodimlarga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, guruhda doimo shunday xodimlar topiladiki, ular paydo bo'luvchi ko'pgina muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, liderlik ko'p jihatdan shaxs tug'ma qobiliyalarining yetarli darajada

shakllanganligi bilan karakterlanadi. Yuqorida aytganimizdek, liderlikniing asosiy jihatlaridan biri - guruh manfaati gamxo'rligidir. Shuning uchun ham liderlik ta'rifidagi asosiy ma'no kasb etuvchi tomonlar bu - shaxsning ushbu vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh manfaati yo'lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin. Yetakchilik tushunchasini tahlil qilishda xilma-xil nazariyalar mavjud. Jumladan, A.Bagardus, F.Grinstayn, R.Stogdillarning xislatlar nazariyasi shular jumlasidan. Mazkur olimlar yetakchilarning aqli, kuch-quvvati, salomatligi va hokazolarga alohida e'tibor qaratadilar. Bu xislatlarga ega shaxsni ular yetakchi, deb hisoblashadi. Yana bir yondashuv - vaziyatli yetakchilik nazariyasi bo'lib, asoschilari: A.Taninbaun, A.Shmit, M.Fidler, A.Blonshar, E.Rum va boshqalar. Mazkur nazariyaga ko'ra, yetakchini asosan ma'lum bir vaziyat shakllantiradi.

Natijalar. Hozirda shaxs strukturasi ifodalovchi turlicha ta'riflar mavjud. Ulardan quyidagini aytish mumkin: shaxs ruhiyati, ichki dunyosi pastdan yuqoriga o'sib boruvchi piramida shaklida namoyon bo'ladi. Shaxsning ijtimoiy-psixologik strukturasi. Bunday piramidaning tarkibiy qismlarini qatlamlar deb qabul qilsak, yuqoridagi tarkib o'zidan pastdagi qatlamlardan tashkil topadi. Demak, ushbu tizimning birinchi pog'onasida turgan «xatti-harakat» deb ataluvchi qatlam birlamchi hisoblanadi, uning asosida shaxsning yuksak tarkibiy sifatleri shakllana boshlaydi. Yuqori pog'onada turuvchi tuzilmalarning sifati va ifodalanishi pastki o'rindagi qatlamlarning sifat, mohiyati bilan bevosita va uzviy bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, insonda avval pastki qatlamlar (xatti-harakat va ko'rsatma) shakllanadi, so'ngra ular qadriyatlarining shakllanishiga asos bo'ladi, qadriyatlar negizida esa insonning e'tiqodi shakllanadi, e'tiqodlar majmuasi insonning yuksak vazifalari orqali birlashadi. Endi piramidaning tarkibiy bo'laklari (qatlamlari) ustida to'xtalib o'tamiz. Unga ko'ra, yetakchi markaziy shaxs, guruh jarayonlari va munosabatlarning integratori sifatida ko'riladi. R.Stogdil tomonidan berilgan ijtimoiy hokimiyat hodisaning umumiy xarakteristikasi quydagicha: Hokimiyat ta'sir munosabatlarining shaklidir. Va, olim takidlaganidek, taqdiqot ma'lumotlarni tahlil qilib, biz ba'zi rahbarlar boshqalarga qaraganda ko'proq yetakchilik uchun har har qanday imkoniyatni aniq hokimiyat munosabatlariga aylantirishga intilishadi, degan hulosaga kelishimiz mumkin. Bazi tadqiqotchilar yetakchilikni xulq - atvor hodisa sifatida ko'rishga moyildirlar. Shunday qilib, Dj.Xemfill, yetakchilik - bu guruh faoliyatini boshqarishda ishtirok etuvchi shaxsning xatti-harakati deb takidlagan.

Guruhlardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, guruh a'zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlari o'z ichiga oladi. Bu borada „lider“ va „boshliq“ tushunchalari o'rtasidagi farqlar haqida gapirish lozim. B.D. Parigin bu ikki tushunchani farqlab shunday yozadi:

1) lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo'lgan hodisa bo'lsa, rahbarlikning haq-huquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin;

3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisadir;

4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yo'nalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi;

5) rahbaming liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va rag'batlantirish tizimiga ega bo'lib, shu asosda o'z xodimlariga ta'sirini o'tkazishi mumkin;

6) lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo'nalishda ko'plab rasmiy rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketishi qiyin;

7) liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amaiga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Muhokama qilinayotgan sohaning yetakchi mutaxassislaridan biri F.Fidlerning fikricha, yetakchilik xulq - atvori deganda, odatda, rahbarlarning o'z guruh a'zolari ishini boshqarish va muofiqlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan aniq harakatlar tushiniladi. E.Ollander ijtimoiy psixologiya bo'yicha fundamental ma'lumotlarning uchinchi Amerika nashrida yetakchilarning turli ta'riflarini tahlil qilgan ekan, ular haqida dominant tushuncha yetakchilikni lider va izdoshlar o'rtasida guruh, tashkiliy munosabatlarga erishish uchun ta'sir qilish jarayoni sifatida tushunish ekanligini ta'kidlaydi.

G.Yukl va D.Van Flit tashkiliy yetakchilikning keng ko'lamlari sharhida uning quyidagi tasirini o'z ichiga olgan jarayon sifatida ko'rishadi:

-rejalashtirilgan strategiyalarni amalga oshirish va maqsadlarga erishish:

-guruhni saqlash va u bilan tanishish:

-tashkiliy madaniyat:

Shunga o‘xshash nuqtayi nazar keyinchalik S.Gibb tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u yetakchilik rollarini farqlash jarayonining aspektlaridan biri ekanligini va boshqa har qanday rol xatti-harakati singari, shaxsiy xususiyatlari ijtimoiy munosabatlarining dinamik o‘zaro ta’siri funksiyasi sifatida harakat qiladi, deb ta’kidlagan.

Muhokama. Lider qattiqqo‘l rahbar sifatida emas, o‘z xodimlarini tinglaydigan, o‘z jamoasi bilan bir tanu bir jon bo‘lib harakatlanadigan, har jihatda jamoaga o‘rnak bo‘ladigan shaxs bo‘lishi kerak. Lider doimiy ravishda o‘z ustida ishlaydigan, shaxsiy xususiyatlari bilan ham o‘rnak bo‘ladigan, yordam berishdan charchamaydigan insondir. Bir so‘z bilan aytganda, o‘zini jamoaga va ishiga chin dildan bag‘ishlagan va sidqidildan vazifasini bajaradigan insondir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni takidlash kerakki, «lider» so‘zini faqat «yetakchi» atamasi bilan almashtirish liderlik holatining psixologik talqinini tor doiraga kiritib qo‘yadi. Ushbu mulohazadan kelib chiqqan holda tadqiqotimizda «lider» so‘zidan foydalanishni ma’qul deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, «lider» so‘zidagi izohiy ma’noni anglab olish, o‘zbek kitobxonlari uchun tanish holdir. Shaxsning liderlik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondahuvlaridan biri, insonda shakllangan qobiliyatga suyanishni va shu qobiliyatni imkon bergan vaziyatda namoyon etilishini taqozo etadi. Bunday yondashuv «situativ liderlik» deb atalib, unda lider deb, tan olingan shaxsning umumiy maqsadga erishish yo‘lida muammoli vaziyatda o‘z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi. Barcha ta’lim tizimida yoshlarning ijodiy iste’dodlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar:

1. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. – Toshkent “Yangi asr avlodi” 2007-y.
2. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. -T., 2003. –S. 48.
3. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi shariyoti, 2003. – B. 170.
4. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: “Ma’naviyat”, 2008 yil.
5. Karimov I.A Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. —T.: “O‘zbekiston”, 2009.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T., 2009. –B. 80.
7. Karimova V.M., Xayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Oliy o‘quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun//Prof. V.M.Karimovanning umumiy tahriri ostida. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B. 11, 58, 59.
8. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma T.: TDIU, 2007. - B. 30-31.

JAMIYATDA GENDER MUNOSABATLARINING RIVOJLANISH TARIXI

*Axmatova Guli Xurram qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi*

Ushbu maqolada gender tushunchasining rivojlanishi, gender tenglikning kelib chiqish tarixi, antik davr allomalarining yurtni boshqarishda ayol va erkak huquqlari, ular orasidagi ijobiy va salbiy jihatlar o'rganilgan. Shuningdek, ona va bola sog'lomligiga, ayollarning jamiyatda, oilada o'z o'rniga ega bo'lishi va gender tengligiga erishishi borasida chora- tadbirlarni qonun normativ hujjatlari orqali asoslanganligi, oilada ayol kishining vazifalari, farzand ko'rish yosh chegarasi, farzand tarbiyasida jamiyatning o'rni haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *gender, gender tenglik, Avesto, oila qurish yoshi, farzand ko'rish chegarasi, ayol va erkak huquqlari.*

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ОБЩЕСТВЕ

В данной статье изучаются развитие понятия гендера, история возникновения гендерного равенства, взгляды античных учёных на права женщин и мужчин в управлении страной, а также положительные и отрицательные стороны между ними. Приводятся меры по охране здоровья матери и ребёнка, правам женщин в обществе и семье и достижению гендерного равенства, основанные на нормативно-правовых актах, обязанностях женщины в семье, возрастном пределе рождения детей, роли общества в воспитании детей.

Ключевые слова: *гендер, гендерное равенство, Авеста, возраст для создания семьи, предел деторождения, права женщин и мужчин.*

HISTORY OF DEVELOPMENT OF GENDER RELATIONS IN SOCIETY

In this article, the development of the concept of gender, the history of the origin of gender equality, the rights of women and men in the management of the country of ancient scholars, and the positive and negative aspects between them are studied. Also, the measures regarding mother and child health, women's rights in society and family and achieving gender equality are based on laws and regulations, the duties of a woman in the family, the age limit for having children, the society's role in raising children information about the place is described.

Keywords: *gender, gender equality, Avesta, marriage age, childbearing limit, women's and men's rights.*

Kirish. Respublikamizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'raonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamlislohotlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, gender tengligi muammosini hal qilish nafaqat dolzarb, balki alohida ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi".

Shu bilan birgalikda, ma'lumki, O'zbekistonda 2030 - yilga qadar "gender tenglikka erishish" strategiyasi qabul qilingan. Ushbu hujjatda 2030 - yilgacha barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qaror qabul qilish bilan bog'liq barcha darajalarda ayollar to'liq va samarali ishtirok etishi va yetakchilik qilishi uchun teng imkoniyat yaratiladi. Bunda turli darajalarda Davlat dasturlari qabul qilinishi jarayonida gender tenglik tamoyiliga amal qilinishi masalasi ham e'tibordan chetda qolmagan.

So'nggi yillarda gender tenglikni joriy qilish nuqtai nazaridan ta'lim sohasida ham ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi O'RQ-562-sonli Qonunining 26-moddasida quyidagilar belgilab qo'yilgan.

Davlat ta'lim olish huquqini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi.

Davlat quyidagilarni kafolatlaydi:

xotin-qizlar va erkaklarning ta’lim olish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning barcha turlaridan foydalanishga, ta’lim va ilmiy jarayonni amalga oshirishda ishtirok etishga hamda madaniyatdan, madaniy qadriyatlar va merosdan foydalanishga doir teng huquq va imkoniyatlarini;

turli ta’lim dasturlariga gender mavzusini joriy etish orqali fuqarolarning genderga oid ma’rifatini oshirishga ko’maklashishni;

jinslardan birining ustunligi g’oyasiga asoslangan noto’g’ri tasavvurlardan xoli o’quv adabiyotlarini tayyorlash va chop etishni;

o’quv dasturlari va darsliklarni jins bo’yicha kamsitishga yo’l qo’ymaslik prinsipiga muvofiqlik yuzasidan muntazam ravishda monitoring qilishni;

gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlash masalalari bo’yicha aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan axborot-ma’rifiy tadbirlarni rag’batlantirish va har tomonlama qo’llab-quvvatlashni.

Ta’lim sohasidagi vakolatli organ ta’lim dasturlarini, ta’lim muassasalarining dasturlarini hamda rejalarini ularning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlash prinsiplariga muvofiqligi jihatidan ekspertizadan o’tkazishni ta’minlaydi.

Oliy ta’lim muassasalarining ta’lim dasturlari va malaka oshirish kurslari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash bo’yicha kursni o’z ichiga olishi kerak.

O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-intellektual hayotida tub o’zgarishlar sodir bo’layotgan hozirgi kunda o’quv jarayonini shaxsning gender tengligi va farqlari asosida tashkil etish masalasi ham pedagogik jarayon va tadqiqotlarning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Zero, qizlar va o’g’il bolalar o’rtasidagi ijtimoiy hamda o’quv munosabatlarini tartibga solish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki o’quv jarayonlari orqali istiqbolda jamiyatning erkak hamda ayol a’zolari orasidagi ijtimoiy munosabatlar qaror topadi.

Mavzuga oid manbalar tahlili. Gender tenglik, feminizim, androgen tushunchalarining davlat va oila boshqaruvidagi o’rni hozirgi zamon psixologiyasida dolzarb hisoblanadi. Jahonda oila, gender tenglik, oilaning etnopsixologik tuzilishi bo’yicha bir qancha olimlar o’z ilmiy izlanishlarini olib borgan. Xususan, Z.Freyd, K.Yung, R.Stoller, J.Lorber, T.Parsons, R.Beysl tomonidan gender tenglik, jins toifalari, oilaning o’zaro mustahkam bo’lishida ong va ongsizlikning gender xususiyatlari atroflicha o’rganilgan.

Gender tenglik uzoq o’tmishga ega siyosiy masala hisoblanib kelganligi bilan ham xarakterli hisoblanadi. Har bir tarixiy bosqich davrlarida ayollarning manfaatlari, ularning huquqlari jamiyatda u yoki bu masalalar yuzasidagina hal qilingan. Qadim zamonlardan oq ziyoli shaxslar, jamiyatshunoslar jamiyatda teng huquqliylik o’rnatilmaguncha farovonlik to’liq holga kelmasligini tushunib yetishgan. Qadim yunon olimlari Suqrot, Arastu, Aflotun o’z qarashlari, asarlarida: eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutgan, eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. Bundan tashqari, erkak va ayollar tengligi g’oyasini yunon olimlari ham o’z asarlarida qo’llagan holda: «Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi», - deb keltiradi.

Gender tenglik mamlakatimizga yangi kirib kelgan tushuncha bo’lishiga qaramay, uning rivojlanishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Antik davrning mashhur faylasuflaridan Aflotun o’zining «Bazm», «Davlat», «Qonunlar» asarlarida oila-nikoh, gender tenglik, davlat boshqaruvida ayollar va erkaklarning huquqiy masalalariga e’tibor qaratadi.

Gender munosabatlarni ifoda etishda Aflotun androgen haqidagi afsonalarga to’xtaladi. Erkak va ayollik xususiyatlariga ega mavjudotlar haqidagi afsonada aytilishicha, «Zevs insonlarning itoatsizligi uchun g’azablanadi va ularni ikki jinsga bo’lib yuboradi. Shunday qilib, erkak va ayol – bir butun insonning ikki qismidir va ular faqat birlashsagina yaxlitlikka, mukammallikka erishadi»[1]. Aflotunning oilani boshqarish haqidagi qonun qoidalari diqqatga sazovordir. Aflotun aholining davlat boshqaruvidagi o’rmini quyidagicha ifoda etgan. «Davlat tomonidan tuzilgan nikohlar manfaatdor tomonlar tomonidan e’tiroz bildirishga haqli emas; ular quvg’indagi shoirlarni ulug’lash uchun ishlatgan oddiy his-tuyg’ulardan emas, balki davlat oldidagi burchlari haqidagi fikrdan kelib chiqishi kerak»[7]. Ayollar 20 yoshdan 40 yoshgacha, erkaklar 25 yoshdan 50 yoshgacha farzandli bo’lishi kerakligi haqida ma’lumot bergan. Agarda aholi ko’payib ketish ehtimoli bo’lsa ularning ma’lum qismini kalloniyalarga ko’chirish g’oyalarini bildirib o’tgan. Uning qarashlarida ayollarga salbiy jihatdan ta’rif berilganligini ko’rishimiz mumkin. Masalan, erkakni ayolga bo’lgan munosabatini «Razil Afrodita», erkakning erkakga bo’lgan munosabatini esa «Samoviy Afrodita» sifatida ta’rif berib o’tgan. Afotunning ayollarga nisbatan ijobiy munosabatlari ham mavjud bo’lib, u ayollar davlat boshqaruv ishlarida erkaklar bilan teng huquqli ekanligi, davlat ishida, farzandlarni tarbiyalashda har

ikkalasi teng ekanligini aytib o‘tgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Antik davr faylasufi, matematik Pifagor o‘zining ilmiy g‘oyalarida jamiyatda ayol va erkak teng yaratilgani haqida bahs - mulohaza yuritadi. U ayolning tabiatan taqvodorlikka moyil ekanligiga ishongan. «Ayolning har bir yoshi xudoning nomini oladi: turmushga chiqmagan - Kora, kelin - nimfa, buvisi - Maya, onasi - Demeter. Va ayollar ko‘proq taqvodor bo‘lgani uchun ular xudolarga yaqinroqdirlar»[7]. Faylasufning fikricha, gender tengligiga erishish yo‘li erkaklar va ayollar uchun taqvodorlik, shuningdek, «buzilmagan birlik ruhi» orqali amalga oshishiga ishongan.

U ayollarni kamsitish yoki ularni erkaklar bilan to‘liq tenglashtirishga harakat qilmaydi balki, ayol va erkak tabiatan bir-biridan farq qiladi deb fikr bildirgan.

Markaziy Osiyoda gender tengligi bo‘yicha qadimgi manbalar ham mavjud bo‘lib, ushbu hududda keng tarqalgan «Zardushtiylik» dinida jamiyat va oila o‘zaro chambarchas bog‘liqligi keltirib o‘tilgan. Ushbu dinning muqaddas kitobi "Avesto"da oilada ota-onaning o‘rni, farzand tarbiyasidagi roli, ularga nisbatan hurmat va e‘zozda bo‘lishi keltirib o‘tilgan.

Avestoda oila masalasi yuqori o‘rinda turgan. Oilada er-xotin munosabatlari, voyaga yetayotgan qiz va yigitning vazifalari aniq ko‘rsatilib o‘tilgan. Oila qurish, juft tanlashda, oiladagi yoshi ulug‘lar bilan maslahatlashishi, yaxshi va yomonni farqlashi va o‘zi to‘g‘ri deb bilgan yo‘lni tezda tanlashi aytib o‘tilgan.

Yana shu narsaga katta e‘tibor berishganki, o‘sha davrda uylanmagan yigitlar va turmushga chiqmagan qizlar tarbiyasi bilan butun xalq shug‘ullanishgan. Oila muqaddasligini barcha oila qurishi va uni boshqarishi haqida Avestoda ezgulik xudosi Axuramazdaning oilasi bilan aks ettirilganligi kabi ma‘lumotlar keltirilgan.

«Sening otang ulug‘vor
Ma‘budlar xudosi ul,
Axuramazdning o‘zidir.
Onang Armaytispana,
Og‘alaring Sarosha.
Alp Rashnu va Mitra»[3].

Avestoning «Videvdot» qismida oila qurish, kelajak avlod qoldirish, oilani moddiy ta‘minlash va to‘plash, o‘ziga oilasiga uy-joy qurishi, mol - dunyo yig‘ishi Axuramazda tomonidan xitob qilganida namoyon bo‘ladi. Bu qismida oila butunligi, nikoh tadbirlari, er-xotin munosabatlari, majburiyatlari, nikohni bekor qilish sabablari va shartlari bayoni keltirilgan.

Shu bilan birgalikda oila qurish yoshi haqida ham fikrlar keltirib, bolalar 15 yoshni to‘ldirsa jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida qabul qilingan va jamiyatda siyosiy muammolarni hal qilishda ishtirok etishlariga ruxsat berilgan. Yigitlarga 15 yoshdan so‘ngina oila qurishga ruxsat berilgan bo‘lsa, qizlarga 12-13 yosh deb qabul qilingan. Qizlarning turmushga chiqishiga, asosan, jismonan yetukligi inobatga olingan.

Avestoda oilada rafiqa tanlash, oila a‘zolarining haq-huquqlari haqida, uy bekasining turlari haqida ham ma‘lumotlar keltirilgan. Jumladan turmushga chiqish va uy bekasi bo‘lishning besh turi ko‘rsatilgan:

«-Podshoh xotin
- Ayuqxotin, yani «yakkabonu»
- Chokar xotin
- Xudsar-o‘zboshimcha xotin
- Sittar xotin»[4].

Oilaviy munosabatlarda uy bekasining vazifalari ham aniq bildirilgan. «Avesto»da oilaning mustahkamligi borasida ham bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirish nazarga tutilgan bo‘lib, «zurriyodning pokizaligi, naslning sog‘lomligi xususida qayg‘urilib, bunga erishish yo‘li sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish, jamoat, oila, shaxsiy ozodalik, gigiyenaga rioya qilish, shuningdek, oila qurish jarayonida har jihatdan benuqson, sog‘lom kelinlar tanlash»[5] uqtirilgan va bunga amal qilish qat‘iy qilib belgilangan.

Tahlil va natijalar. Har bir davr o‘z rivojlanish tarixida ma‘lum ma‘noda iz qoldirib kelgan va hozirgi rivojlangan davlatlarga o‘z hissasini qo‘shgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan boshlab, oila uning mustahkamligi, ona va bola sog‘lomligiga, ayollarning jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi jamiyatda gender tengligiga erishish borasida chora tadbirlarni ishlab chiqmoqda. Dastlabki yillardan boshlab inson huquqlarini himoya qiladigan xalqaro hujjatlar BMTning «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» hamda «Bolalar huquqlari to‘g‘risida»gi Konvensiyalar asosida oila uning a‘zolarini himoya qilish, o‘z huquqlaridan foydalanish imkonini beruvchi milliy qonunchilik bazalari yaratildi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ayollarga e‘tiborli bo‘lish, ularning sog‘ligi, ijtmoiy himoyasiga e‘tibor qaratildi. Shu munosabat bilan 1998-yil «Oila yili», 1999-yil «Ayollar yili», 2001-yil «Onalar va bolalar» yili, 2016-yil «Sog‘lom bola va sog‘lom ona» yili deb e‘lon qilinishi fikrimizning isboti

sifatida keltirishimiz mumkin[2].

2023-yil 30- aprelda umum xalq ovoz berishi orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bir qancha o‘zgartirishlar kiritildi. Konstitutsiyasining XIV bobi «Oila, bolalar, yoshlar» deb nomlanib 76-80 – moddalarini oilani himoyasi, ota- ona, farzandlar va ularning muhofazasi, huquq va majburiyati bayoni keltirilgan[2].

Keyingi yillarda jamiyatda jinslarning o‘zaro teng nisbatini yaratish va saqlab qolish maqsadida bir qancha chora - tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiyasining X bob «Inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolati» to‘g‘risida bo‘lib, 58-moddasida «Xotin qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlar ta‘minlaydi»[6]deb yozib qo‘yilgan.

Davlatimiz tomonidan gender siyosatini rivojlantirish maqsadida 2019 - yil 2-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Xotin - qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi qonun yurtimizda gender tenglikni yaratishga qaratilgan normativ hujjatidan biri sifatida qabul qilindi.

Oilaning tinchligini ta‘minlash, nikoh masalalari, bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida quyidagicha keltirilgan: «Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an‘anaviy qadriyatlariga nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi»[6].

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalqni boshqarishda oila, nikoh tushunchalari, yigit va qizning oila qurish yoshi, gender o‘zaro teng munosabatlar yoki tengsizlik antik davr faylasuf olimlari g‘oyalari asosiy o‘rinaligi ko‘rinadi. Sharq va G‘arbda jamiyat boshqaruvida mehnatni jinslar o‘rtasida taqsimlash, oila yuritish qonun qoidalari, gender munosabatlari davlat boshqaruvidagi o‘rni orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Hozirgi jadal rivojlanayotgan texnika asrida gender munosabatlardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish muhimdir. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan qonun-normativ hujjatlarning imzolanishi yosh o‘tib kelayotgan avlodni o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib kasb tanlashlari, oila qurishlari va farzand tarbiyalashlariga imkon berishiga, gender munosabatlarni to‘g‘ri shakllantirishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov Botirjon Ravshanovich. «O‘zbek tilida gender tadqiqi». Andijon-2012.-11 b. <https://fayllar.org/magistr-darajasini-olish-uchun-tayyorlangan-dissertatsiya-ilmi.htm>
2. Axmatova G. X. (2023). «Gender tenglikning etnopsixologik xususiyatlari va uning mazmuni». Educational Research in Universal Sciences, 2 (16), 43-45. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4915>.
3. Авесто: Яшт китоби./ М. Исҳоқов таржимаси. Аши алқови (Орд яшт) - Т.; «Шарк», 2001-40 б.
4. Q.B.Toshaliyev. «Avestoda oila va jamiyat masalalari» magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Termiz-2011 26-27 b.
5. Irgasheva Marxabo «Avesto»da oila tarbiyasi. <https://znanio.ru/media/avestoda-oila-tarbiyasi-2798229>.
6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahriri. 30.04.2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
7. Гендерные аспекты философии Древней Греции. <https://vuzlit.com/1522755/platon#636>.

PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

*Azizov Obid Ergashjanovich,
Jizzax politexnika instituti dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
obidazizov8515@gmail.com*

Ushbu maqolada kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishda psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiya va kommunikativ qobiliyatning ahamiyati uni rivojlantirish bo‘yicha psixologik xususiyatlarning o‘rni, ulardan foydalanish texnikasi bo‘yicha bir qancha nazariy ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar:** kommunikativ qobiliyat, psixologik-pedagogik shart-sharoit, interaktiv metod hamda treninglar, o‘quvchi-ijtimoiy tarmoq, nutq, ZOOM.*

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ

В данной статье представлены некоторые теоретические сведения о психолого-педагогических условиях развития коммуникативных способностей, значении коммуникативной компетентности и коммуникативных способностей у студентов, роли психологических особенностей в её развитии, а также приёмах их использования.

***Ключевые слова:** коммуникативная способность, психолого-педагогические условия, интерактивный метод и обучение, студенчески-социальная сеть, речь, ZOOM.*

DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMMUNICATIVE SKILLS BASED ON PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL CONDITIONS

In this article, some theoretical information on the psychological and pedagogical conditions for the development of communicative ability, the importance of communicative competence and communicative ability in students, the role of psychological characteristics in its development, and the techniques of their use are presented.

***Keywords:** communicative ability, psychological-pedagogical conditions, interactive method and training, student-social network, speech, ZOOM.*

Kirish. Kommunikativ kompetensiya innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini pedagogik jarayonlar kechishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan va o‘qitishning yuqori sifat darajasiga erishishga imkon beradigan subyektiv hamda obyektiv talablar, asoslar, vositalar majmuasi sifatida talqin qilinadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan “pedagogik shart-sharoit” tushunchasi turlicha o‘quv faoliyatini optimallashtirishda o‘quvchilarning nuqtayi nazarlarini shakllantirish jarayonini samarali boshqarish uchun ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilariga imkoniyatlar beruvchi jarayonlar va munosabatlar majmuasi sifatida [1]; qo‘yilgan masalaning muvaffaqiyatli yechimini ta’minlovchi obyektiv imkoniyatlar majmuasi sifatida [2]; shaxsda axborot madaniyatini boshqarish jarayonini shakllantirish bo‘yicha faoliyat jarayoni bilan bog‘lanish uchun asos sifatida talqin etiladi [3].

Asosiy qism. Pedagogik shart-sharoitlar haqida joriy qilingan modelni amalga oshirishni ta’minlovchi interaktiv o‘qitish metodlari hamda innovatsion treninglar asosida o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik jarayonlar kechishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ishonchli tuzilgan pedagogik usullar va vositalar ko‘zda tutilgan.

O‘quvchilarida innovatsion yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni asoslashda quyidagi holatlar e’tiborga olindi:

- birinchidan, o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga o‘rgatib borish ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan hal etiladigan va muhokama qilinadigan o‘quv kasbiy masalalar yechimiga asoslangan o‘quv jarayonidagi amaliy komponentning roli, nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘lanishi kuchaytirildi;

- ikkinchidan, yuqori malakali bitiruvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning yashayotgan muhitni, inson hayoti va innovatsion xulq-atvorini o'zgartiruvchi omil sifatida kasbiy faoliyat qadriyatlarini egallashiga e'tibor qaratish kerak;

- uchinchidan, interaktiv o'qitish metodlari hamda innovatsion trening mashqlari orqali o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda qulay innovatsion ta'lim muhiti sharoitida amalga oshiriladigan yangi mazmunlarning paydo bo'lishi, muammoni hal qilishning ijodiy usullari asosida yaratuvchanlikning o'zaro ta'sirlashuvi amalga oshiriladi. Bu holat o'quvchilarni ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida faol pozitsiyada subyekt-subyekt o'zaro ta'sirlashuviga jalb etishni taqozo qiladi.

- to'rtinchidan, pedagogik-psixologik hamda didaktik sharoitlarning asoslanishi o'quvchilarni mustaqil individual faoliyatga yo'naltirishga imkon beradi.

- beshinchidan, nutq texnikasidan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida to'g'ri foydalana bilishi zamonaviy o'quvchining universal vositasi sifatida mustaqillikka, muammo yechimini tanlashga yordam beradi.

S.Panina, D.N.Kavtaradze [4], I.V.Kursheva [5] tadqiqotlarida interaktiv o'qitish metodlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan quyidagi pedagogik shart-sharoitlar ajratilgan: ishchanlikni oshirishga, birgalikdagi faoliyatni tashkil etishga imkon beruvchi qulay psixologik muhitni yaratish; zo'riqishni pasaytiradigan, ochiqlikni ta'minlaydigan insoniy muhitni yaratish; ta'lim oluvchilarning o'zaro ta'sirlashuvini ta'minlaydigan shaxslararo muloqotni tashkil etish; ta'lim oluvchilarning guruhli faoliyatini tashkil etish. Maqolani tayyorlashda ushbu pedagogik shart-sharoitlar hisobga olindi. O'rganishlar asosida ko'rib chiqilayotgan muammoga oid mamlakatimiz hamda xorijiy adabiyotlar tahlili professional ta'limning barcha bo'g'inlarida interaktiv metodlar hamda innovatsion treninglardan foydalanish asosida ta'lim oluvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha to'plangan tajribalarni o'rganish, kompetentli yo'naltirilgan professional ta'lim sharoitida interaktiv metodlar hamda innovatsion treninglardan foydalanish asosida pedagogika kollejlari o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning tadqiqotimizda ishlab chiqilgan modelini amalga oshirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlar e'tiborga olinganda samarali bo'ladi, degan farazni ilgari surishga imkon berdi va buning uchun quyidagi beshta o'zora bir-biri bilan bog'liq bo'lgan shart-sharoitlarni aniqladik:

- o'quv-ilmiy, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-ma'rifiy yo'nalishlarda suhbatlashish ko'nikmasi va qobiliyatini rivojlantirish, o'quv rejalarida o'qitish ko'zda tutilgan o'quv fanlari, o'quv guruhi ichki holati va pedagogika kollejida o'quv jarayoni sifatini oshirish uchun yaratiladigan ta'lim muhitini o'z ichiga olgan o'zaro ta'sirlashuv asosida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan axborot ta'lim muhitini yaratish;

- pedagogika kollejlari o'quvchilarini o'zaro munosabatlarda muloqotning nutq shakllaridan to'g'ri foydalana olishlari uchun kommunikativ kompetensiyalarning rivojlantirish qobiliyatini egallaganligini rag'batlantirish;

- kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda turli xil axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish;

- o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchilar o'rtasida o'zaro ta'sirlashuvining turli ko'rinishlarini tashkil etish;

- interaktiv metodlar hamda treninglarni o'qitishda zamonaviy o'qitish vositalari (maxsus o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalar, elektron o'quv kurslari boshqalar) dan foydalanish orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun mo'ljallangan o'quv jarayonining uslubiy ta'minotini yaratish;

interaktiv metod hamda treninglarni qo'llagan holda o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'minlovchi o'quv (kasbiy) muammolar asosida kommunikativ vaziyatlarni yaratish.

Buning uchun o'quvchilar nutq boyligiga ega bo'lishi, til bilish darajasini oshirib borishi, darsliklarni to'g'ri tahlil qila olish va undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o'rganishi kerak. Shu bilan birgalikda o'zlashtirilgan bilimlardan kundalik faoliyatda duch keladigan pedagogik muammolarni hal etishda o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, bu vazifalarni xal etish uchun esa pedagogika kolleji o'quvchilari o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish bilan birgalikda ularni kasbiy faoliyatida qo'llay oladigan holda tayyorlash darkor, bu esa o'qitish jarayonini innovatsion yondashuvga asoslangan holda tashkil etishni taqozo etadi.

O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani turli xil axborot manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali, bosqichma – bosqich amalga oshirib borish bo'yicha ham yetarli shart-sharoitlarning mavjudligi, muloqot jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bunda o'quvchilar o'qituvchilar tomonidan ko'rsatilgan axborotlarni o'zlashtirish bilan birgalikda, o'zlari mustaqil ravishda kerakli manbalarni topishga harakat qilishga o'rgatilib boriladi. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kommunikativ

kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradigan, bir-birlari bilan suhbatlashishga yoki bahs-munozoralarni olib borishga imkoniyat ochib beradigan, yechimi fikrni talab qiladigan bir qancha axboratlarni ko'rsatib berish yo'llari orqali qiziqishlari oshirib borilsa, yanada yaxshi natijalarga erishiladi. Berilayotgan axboratlar o'quvchilarning fikrlash doirasiga mos qilib tanlab olinsa, ularda qiyinchiliklarni tug'dirmasdan yechimini turli xil fikr-mulohazalari bilan isbotlab ko'rsatishga va o'zida yetarlicha ilhom topa olishga erishiladi. Dastlabki bosqichlardagi axboratlardan o'ziga yetarlicha xulosa chiqara bilgan o'quvchilar keyinchalik beriladigan topshiriqlarda qiynalmasdan fikr bildira oladigan va qolgan o'quvchilarga o'zining kommunikativ kompetensiyasi orqali ta'sir ko'rsata oladigan darajaga erishadi.

O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda «o'quvchi-ijtimoiy tarmoq» rejimida muloqot olib borish ham o'ziga xos muhim hisoblanadi. Bugungi axborot asri va pandemiya davrida masofaviy ta'lim tizimini shakllantirish dolzarb masalalardan bo'lib qoldi. Ko'pgina mamlakatlar ta'lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash uchun o'qish jarayoni zamonaviy AKTlarga asoslangan masofaviy ta'lim (MT) shaklini qo'llashadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida masofaviy o'qitish ta'lim-tarbiya berishdagi dolzarb, shuningdek, tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Masofaviy ta'lim uslubi o'qitishning yangicha zamonaviy shakli bo'lib, u o'quvchining mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o'rgatadi. Masofaviy ta'limning afzalligi shundaki, unda har kim o'ziga qulay vaqtda, qulay joyda, qulay muhitda bilim olishi mumkin. Shu tufayli ushbu tizim bugungi kunda dunyoda keng ommalashmoqda.

Hozirgi kunda amaliyotning uchta talabidan unumli va o'rinli foydalana olish bilim, tajriba va ko'nikmani taqozo etishi tayin. Ijtimoiy masofalanish, uyda qolish va masofadan ishlashga amal qilish asnosida ta'limning masofaviy imkoniyatlaridan foydalanishda ibrat bo'layotgan ta'lim muassasalari ham kundan kunga ko'payib borayotgani ahamiyatga molik.

Xulosa. Ta'lim to'g'risidagi qonunning mazmun-mohiyatidan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi kundagi o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlantirishda quydagilarga:

- zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish orqali maqsadli innovatsiya loyihalarini rivojlantirish yo'li bilan ilm-fanning o'qish va o'qitish amaliyoti bilan bog'liqligini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- ilg'or tajribalar hamda innovatsion pedagogik texnologiyani ishlab chiqish va amaliy faoliyatga tatbiq qilish uchun tajriba maydonchalarini shakllantirish asosida ilmiy tadqiqotlarning natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmini ro'yobga chiqarish;

- intellektual kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, yosh avlodning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

-ta'lim-tarbiyada, shuningdek, ilm-fanning barcha bosqichlaridagi integratsiyasini muvaqqat ijodiy jamoalar, o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmuilari hamda markazlarini rivojlantirishga ahamiyat berish lozim.

Adabiyotlar:

1. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании. Авторская версия / – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. - 21 б.

2. Harmer J. How to teach English. An introduction to the practice of English language teaching. Edinburg.: Gate Longman, 2000. -198 p.

3. Панина Т.С. Современные способы активизации обучения: Учеб.пособие для студ.высш.учеб.заведений -М.: Академия.- 2006. -176 с.

4. Курьшева И.В. Интерактивные методы обучения как фактор самореализации старшеклассников в учебной деятельности при изучении естественнонаучных дисциплин: автореф. дис. канд. пед. наук. - Н.Новгород, 2010. -20 с.

5. Ergashjanovich A. O. (2022). Methodology of organizing and conducting experimental works to determine the development of communicative competence of the students of the pedagogical college. // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(9), 151-157.

6. Азизов О. Э. (2023). Педагогика коллежида тахсил олаётган мактабгача таълим ташкилоти бўлажак тарбиячиларида коммуникатив компетенцияни ривожлантириш компонентлари. // Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 390-393.

7. Азизов О. (2022). Педагогика коллежи ўқувчиларининг коммуникатив компетенцияларини

шакллантириш ва ривожлантиришда инновацион ёндашув. // Innovations in primary education, (1).

8. Alikulov S. T., & Azizov O. E. (2021). The Structure and Content Of The System for the Formation of Communicative Competencies of Future Teachers. // Current Research Journal of Pedagogics, 2(06), 141-151.

9. Azizov O. (2021). Ўқувчилар каммуникатив компетенциясини “Санъат” фанларини ўқитиш жараёнида шакллантириш ва ривожлантириш. // Инновации в начальном образовании, 2(Архив№ 3).

10. Alikulov S. T. (2020). Mechanisms of implementation of interdisciplinary relationships between public education and vocational sciences. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 524-526)

11. Rajabov O. Ta’lim jarayonida iqtidorli o’quvchilar bilan ishlash dasturlarining afzalliklari // Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2023. – №. I.

12. Rajabov O. Practical development of methods of organization of talented students'contest // Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 470-478.

13. Yahshilikovich Y. J., Ibodullaevich, K. K., & Abdullaevna, F. K. (2021, October). International Views and Historical Aspects of the Fight Against Corruption. In “Online-conferences” platform (pp. 52-55).

14. Yahshilikovich Y. J., Ibodullaevich, K. K., & Mamatqobil, O. (2021, October). Development of Corruption in Society as a Social and Cultural Crisis. In “Online-conferences” platform (pp. 168-171).

15. Xidirov X. (2021). Ёшлар тарбияси - оила таянчи. // Журнал истории и общества, (2).

O‘SMIR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA DINIY TUSHUNCHALARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

*Bekkiyeva Nargiza Rajabboyevna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM mustaqil tadqiqotchisi*

Ushbu maqolada o‘smir yoshida diniy tushunchalarni shakllantirishda ijtimoiy omillarning psixologik o‘rni yoritilgan. Shuningdek, o‘smir yoshida diniy tushunchalarni shakllantirishda axloqiy sifatlarni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o‘smir ruhiyatiga singdirish, ta’lim-tarbiya imkoniyatlaridan foydalanish, yoshlarning ijtimoiy muhitini yaxshilab borish, ulardagi fiziologik o‘zgarishlarni, individual psixologik xususiyatlarni inobatga olish, mehnatga, sportga, to‘garak mashg‘ulotlariga jalb qilish, din, diniy tuyg‘u, diniy e’tiqod uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni kabi tushunchalarni o‘rganish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy va umuminsoniy qadriyatlar, soxta diniy axborotlar, din, ishonch, odob-axloq, o‘smir, barkamol shaxs, emansipatsiya, o‘smirlarda xulq-atvor, ijtimoiy-axloqiy kategoriya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РЕЛИГИОЗНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ ПОДРОСТКОВ

В данной статье выделена психологическая роль социальных факторов в формировании религиозных представлений у подростков. А также рассмотрено развитие нравственных качеств при формировании у подростков правильных религиозных представлений, привитии в психике подростков национальных и общечеловеческих ценностей, использовании воспитательно-воспитательных возможностей, совершенствовании социальной среды молодых людей, физиологических изменениях в них, индивидуально-психологическом учёте. Освещены характеристики, вовлечённость в работу, спорт, клубную деятельность, изучение таких понятий, как религия, религиозное чувство, религиозное убеждение, его место в жизни общества.

Ключевые слова: национальные и общечеловеческие ценности, ложная религиозная информация, религия, доверие, манеры, подросток, совершенная личность, эмансипация, поведение подростков, социально-этическая категория.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF RELIGIOUS CONCEPTS IN THE FORMATION OF ADOLESCENTS' WORLDVIEWS

The psychological role of social factors in the formation of religious concepts among adolescents is highlighted. Also, developing moral qualities in the formation of correct religious concepts in adolescents, instilling national and universal values into the psyche of adolescents, using educational opportunities, improving the social environment of young people, physiological changes in them, individual psychological consideration of characteristics, involvement in work, sports, club activities, study of concepts such as religion, religious feeling, religious belief, its place in the life of the society, are illuminated.

Keywords: national and universal values, false religious information, religion, trust, manners, teenager, perfect personality, emancipation, behavior in teenagers, socio-ethical category.

Kirish. Mamlakatimizda o‘smirlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini mazmunli tashkil etish, tarixiy madaniy merosimiz, umuminsoniy odob-axloq me’yorlarini tatbiq etgan holda ularni barkamol shaxs sifatida kamol toptirish, intellektual salohiyatli o‘smirlarni tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid manbalar tahlili. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev 2017- yil 29- dekabr kuni milliy kino san’ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag‘ishlangan nutqida diniy tushunchaga alohida to‘xtalib, “Elimizga to‘g‘ri islomni tarannum etish - juda katta tarbiya. Masjidlarda ham buni qo‘ysa bo‘ladi. Birinchidan ongimiz o‘zgaradi, ikkinchidan o‘zimizning ustimizda ishlash bilan atrofimizga muhit yaratib, boshqa illatdan olib, ijodga bag‘ishlaymiz”. Hozirgi zamon sharoiti o‘smir yoshlar dunyoqarashida, diniy tushunchalarning shakllanishida, ijtimoiy omillarning ta’siri sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatmoqda.

Bizningcha, bu borada olib borilayotgan ishlar yanada izchillikni talab etadi.

Oilada o‘smirlar tarbiyasi va uning xarakteridagi o‘ziga xoslik mavzusi O.Kont, T.Gobbs, Dj. Lokk, E.Dyurkgeym, Z.Freyd, M.Veber kabi klassik olimlar, shuningdek, V.Shtern, J.Piaje, A.S.Makarenko, T.F. Yefremova, S.M.Solovyov, o‘zbek olimlaridan N.M.Egamberdiyeva, O. Musurmonova, K.Xasanova, R.A.Umurzakova, K.U.Najmidinova tomonidan o‘rganilgan. V.M. Karimova, X.G.Sharafutdinova o‘smirlarning o‘ziga xosligi va ular bilan ishlashning pedagogik usullari borasida izlanishlar olib borishgan.

O‘smirlik yoshi dunyoqarash, e‘tiqod, nuqtayi nazar, pozitsiya, o‘zligini anglash, baholash va hokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi. Dunyoqarash subyektiv voqe‘likni baholovchi qarorlar to‘plamidir. Atrof-olamni anglashga harakat qilish natijasi o‘laroq kelib chiqadi. Dunyoqarash diniy, falsafiy, ilmiy bo‘lishi mumkin. Dunyoqarash-dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e‘tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog‘liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o‘z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘langan. Dunyoqarash insonning o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. [6].

Kichik maktab yoshidagi bola kattalarning ko‘rsatmalari yoki o‘zining tasodifiy, ixtiyorsiz orzu-istaklari bilan harakat qilsa, o‘smir o‘z faoliyatini muayyan prinsip, e‘tiqod va shaxsiy nuqtai nazar asosida tashkil qila boshlaydi. O‘smir shaxsining tarkib topishida axloq o‘ziga xos, ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘quvchilarning axloqiy tushunchalarni o‘zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi muhim rol o‘ynaydi. Umuminsoniy hislatlarni shakllantirish jarayoni, o‘quvchidagi ishonch, aqida, nuqtai nazarning qarama-qarshiliklariga duch keladi. Bu davrda o‘smirga shunchaki, shaxs faoliyatining mahsuli sifatida qarashimiz noto‘g‘ri chunki o‘smirlik davrining hech bir o‘zgarish xususiyati mavjud emas. O‘smir shaxsini tarkib topishida uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Chunki o‘smirda muayyan narsalarga munosabat shakllangan bo‘ladi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko‘nikmalarni egallash, kattalar xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada favqulodda holatlarga-katta yoshdagi odamlarning tutgan yo‘li va uslubini baholash ko‘nikmasi tarkib topa boshlaydi. O‘smir xulq-atvorini baholashda kattalarning qat‘iyatliliigi, prinsipiialligi sinchkov o‘quvchi tomonidan tahlil qilinadi.[1.186-187].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik yoshi dunyoqarash, e‘tiqod, o‘zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari, asosan, shakllanadigan davr hisoblanadi. O‘smir ulg‘aygan sari unda “Ideal Men”, “Axloqiy Men” va “Haqiqiy Men” singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e‘tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo‘lib qoladi. O‘smir o‘z faoliyatini muayyan prinsip, e‘tiqod va shaxsiy nuqtayi-nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O‘smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlardan ko‘rinadiki, o‘smirlarning ko‘pchiligi qat‘iyatlilik, kamtarlik, mag‘rurlik, samimiylilik, dilkashlik kabi ma‘naviy, ahloqiy tushunchalarni to‘g‘ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e‘tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. Ma‘lumki, o‘smirlik davrida o‘smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilari ayniqsa, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo‘nalishi keskin o‘zgaradi. O‘smirlik faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z ahamiyatini anglash bilan bog‘liq. Bularning barchasi butun dunyoga qarashlar tizimi sifatida dunyoqarashni shakllantirishdan ajralmasdir.

O‘smir o‘quvchi o‘z qiziqishlariga, dunyoqarashiga mos do‘st qidira boshlaydi. Agar o‘smir o‘z dunyosiga mos do‘st topolmasa, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch susayadi, o‘zini yolg‘iz his eta boshlaydi. Bunday vaqtda o‘smirlar orasida soxta yot g‘oyalar ta‘siriga tushib qolish ehtimoli paydo bo‘ladi. O‘smirning ota-onasidan va uni o‘rab turgan katta yoshlilardan tarbiya chog‘ida sabr-toqat, keng fe‘llik, mehr, rahm-shafqat talab qilinadi. Aksariyat ota-onalar o‘z farzandlari tarbiyasiga g‘amxo‘rlik, mehribonlik, sabr-toqat, mehr kabi xislatlar bilan yondashish o‘rniga, kuch, ayniqsa, jismoniy jazo usuli bilan ta‘sir o‘tkazadilar. O‘z navbatida, bu kabi xatti- harakatlar bolalarda doimiy xavotirli kutilmalar bilan yashashiga va agressiv xulq-atvorning shakllanishiga zamin bo‘ladi. Psixolog B. Mak Kartinning tushuntirishicha, odatda, kichkina qotillar «tartibsizlik va sukunat hukm surgan, bir-birining his-tuyg‘ulariga befarqlik, jismoniy zo‘ravonlik, bir-birini qo‘llamaslik va bir-birining taqdiri bilan qiziqmaslik bilan yonma-yon kelgan oilalarda» ulg‘ayadilar. Axir o‘smirning qalbi tarang tortilgan va lahzada uzilishi mumkin bo‘lgan torga o‘xshaydi. Faqatgina ishonch va o‘zaro yaqinlik o‘smirni qalbdan go‘zal qilib tarbiyalashga yordam beradi. Oila bola uchun ta‘lim-tarbiya o‘chog‘i ekan, uni toza qalbli, o‘z kuchiga va imkoniyatlariga ishonadigan va

bu imkoniyatlardan bemaolol foydalana oladigan qilib tarbiyalashi mumkin.[3].

Tadqiqot metodologiyasi. “A.I.Maliyev o‘z tadqiqotlarida o‘smirlar mulohazasini tadqiq qilish ularda axloqiy tushunchalar baravar tarkib topmasligini tadqiq qildi. U o‘smirlarni to‘rtta guruhga ajratadi:

1) xatti-harakatda o‘zlari anglagan ijodiy qoidalarga tayanib ish tutadigan so‘zi bilan ishi mos o‘smirlar;

2) axloqiy tushunchalari qiliqlariga mos keladigan o‘smirlar;

3) xatti-harakatlari axloqiy normalari haqidagi bilimlar bilan ajralib turadigan bilimlarga mos harakat qilmaydigan o‘smirlar;

4) o‘zlari biladigan axloqiy talablar bilan, kundalik xulq-atvorning aloqasini tushunmaydigan o‘smirlar” [2.151].

O‘smirlar yetarlicha diniy bilimlarga ega emasligi, ularning o‘zlari bilmagan holda turli yot g‘oyalar ta‘siriga tushib qolayotganligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Qachonki, ular diniy bilimga ega bo‘lsa, dinning asl mohiyati va mazmunini anglab yetsagina, har qanday jarayonga sabr va aql bilan yondashish kerakligi, eng og‘ir vaziyatlarda ham o‘zining xulq atvorini ijobiy tomonda ko‘rsatish kerakligini yaxshi anglab borib, turli islom niqobidagi g‘oyalarga nafrat bilan qaraydi.

Tabiiyki, savol tug‘iladi nega aynan o‘smirlar orasida soxta diniy tushunchalar qurboni bugungi kunda ko‘p kuzatilmoqda? Hammamizga ma‘lumki, XXI asr texnologiyalar asri hisoblanadi. Istalgan ma‘lumotni bir necha soniyalar ichida topish va undan foydalanish mumkin. Lekin buning salbiy tomoni bu o‘rgimchak to‘rini nazorat qilishning hech bir imkoni yo‘qligidadir.

Shuningdek, o‘smirlar orasida kuzatiladigan xulqi og‘ishgan, ijtimoiy normalarga rioya qilmaydigan, notinch va qarovsiz qolgan oila farzandlarini aniqlash, ular bilan individual tarzda ishlash, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish orqali qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordamlashish lozim. Ular o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabatlarni shakllantirish, mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash, insonlarga, yaqinlariga, uni o‘rab turgan atrof muhitga nisbatan mehr muhabbatni uyg‘otish, har tomonlama fikrlarini inobatga olgan holda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish kerak. Shundagina, sodir etilishi mumkin bo‘lgan turli jinoyatlar, huquqbuzarliklar va dinimizga yot bo‘lgan g‘oyalar ta‘siriga tushib qolishidek turli salbiy oqibatlar yuzaga kelish holatlarini oldini olishimiz mumkin. Bu kabi vazifalar ayni paytdadavlat va jamiyat, balki barchamizning oldimizdaturgan dolzarb masaladir.

Tahlil va natijalar. O‘smirlikning sof psixologik qiyofasi biologik omilga bog‘liq emasligi bir qancha olimlar tomonidan asoslab berilgan. Ayrim psixologlar o‘smirlik davriga ijtimoiy-axloqiy kategoriya sifatida qaraydi. Kategoriya yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib “izohlash”, “tushuntirish”, “ko‘rsatish” degan ma‘nolarni anglatadi. Axloqiy kategoriya jamiyat tomonidan shaxsga qo‘yiladigan talab tarzida namoyon bo‘ladi. U insonning axloqiy mohiyatini, odamlar bilan o‘zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarini belgilab beradi. Amerikalik psixolog R.Kulen o‘smirlik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qiladi. O‘smirlik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir degan g‘oyani ilgari suradi. R.Kulenning fikricha, o‘smirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy tamoyil mavjuddir. Ular emansipatsiya (lotincha emancipation-jabr-zulm, qaramlik, tutqunlikdan qutulish ya‘ni kattalar ta‘siridan qutulish), mustaqillikka erishish, hayot yo‘li va kasb tanlashga jiddiy munosabatda bo‘lishzarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o‘zlashtirishdan iboratdir. Uning fikricha bola yuqoridagi muammolarga e‘tibor bermas ekan, o‘smirlik davri qancha bo‘lishidan qat‘inazor u bolaligicha qolaveradi. R.Kulen o‘z nazariyasida biologik omillarni ham o‘smirlik davridagi psixologik o‘shni xususiyatlarni inobatga olmaydi, aksincha ularni batamom inkor etadi.[1.179].

Jamiyatda faoliyat yuritayotgan o‘smir ruhiyatidagi o‘zgarishlarni quyidagi bosqichlarda ko‘rish mumkin:

-kichik maktab yoshidan o‘rta maktabga yoshiga o‘tish bosqichi;

-yakka o‘qituvchi rahbarligidan turli fan o‘qituvchilar tasarrufiga o‘tish;

-muloqotdoirasining kengayib borishi;

-mustaqil va amaliy ishlarni ko‘proq bajarishi. [4.7].

Bu kabi o‘zgarishlar bolaning oilada, ijtimoiy hayotdagi o‘rnini o‘zgarishiga ham sabab bo‘ladi. O‘smirdagi jismoniy va aqliy imkoniyatlarining o‘sib borishi munosabati bilan o‘z imkoniyatlariga ishonish hissi yanada orta boshlaydi. Katta o‘smirlarga nisbatan kichik o‘smirlarda paydo bo‘ladigan nizoli holatlarni ulardagi fiziologik o‘zgarishlar bilan emas, balki uni o‘rab turgan atrof muhit, oila a‘zolarining unga munosabati, mahalla-ko‘y, ya‘ni ijtimoiy sharoitlar ta‘siri bilan bog‘lash zarur. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o‘zgartirish bilan, o‘smir ruhiyatidagi iqlimni, ya‘ni kichik o‘smirdagi salbiy xulq-atvor, qaysarlik, xatolarni tan olmaslik, kabi tabiiy hislatlarining oldini olishi mumkin.

Uzoq izlanishlar va hayot tajribalarishuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim axloqiy ijobiy tushunchalarni o‘smir noto‘g‘ri tushunib, shaxsning ba‘zi bir sifatlarini noto‘g‘ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o‘zini

namoyish qilishga harakat qiladigan, o‘zlarida salbiy xususiyatlarnishakllanishiga zamin yaratishini ko‘rsatdi. Hatto ular o‘zlarida shakllangan ijobiy hislatlarni yo‘qotishga ham harakat qiladilar. Pedagog va ota-onalarning asosiy vazifasi ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, adashishlariga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Din so‘zi-e‘tiqod ma‘nosini anglatadi. Har bir din diniy dunyoqarash diniy marosim, diniy tuyg‘u va sig‘inish obyektlarini o‘z ichiga oladi. Har qanday jamiyatda din ma‘lum ijtimoiy, ma‘naviy va ruhiy vazifalarni bajaradi. Uning ijtimoiy hayotga ta‘siri kuchlidir. Har bir din dindorlarini o‘z ta‘limoti doirasida saqlashga harakat qiladi. O‘z g‘oyalarini ilgari suradi. Dinni jamiyatning hukmron kuchlari davlat siyosati darajasiga ko‘targan, ya‘ni o‘z yo‘lida foydalanishga bo‘lgan kuchdir. Binobarin, din haqidagi tushuncha turlicha talqin qilinsada, umuman olganda din-ishonch tuyg‘usidir. Biror bir xalq yo‘qki, dinsiz, e‘tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz yashay oladigan. O‘z navbatida din jamiyatga ta‘sir qilmay qolmaydi. Din to‘g‘risidagi turli yot tushunchalarning ko‘payishi jamiyat rivojlanishida o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Ayniqsa, hayotda hali tajribasi yo‘q, o‘ziga xos psixofiziologik jarayonlarni boshidan o‘tkazayotgan o‘smirlar o‘zlari bilmagan holatda turli yot bo‘lgan diniy tushunchalar ta‘siriga berilmoqdalar. Bunday hollarda odatda ota-onalar o‘z farzandlariga to‘g‘ri diniy tarbiya berishlari, buning uchun avvalam bor o‘zlari ham dinning davlat, jamiyat, inson hayotidagi o‘rni haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim. Yuqoridagi fikrlarni ijtimoiy jihatdan tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘smir yoshlarimiz din to‘g‘risida yetarlicha ma‘lumotga ega emas. Ularning din to‘g‘risidagi bilim darajasi past. Har bir o‘smir dinning inson, jamiyat hayotidagi tutgan o‘rnini, mazmun mohiyatini tushunib yetgandagina turli islom niqobidagi ma‘naviy tubanlik yo‘liga kirgan g‘oyaviy kuchlarga nafrat bilan qaraydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bizningcha, o‘smir xulqidagi o‘zgarishlar tamomila fiziologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lmay, ijtimoiy turmush shart-sharoitlari bilan uzviy bog‘langan. O‘smir xulqiga ta‘sir o‘tkazish, ijtimoiy shart-sharoitlarni o‘zgartirishni taqozo etadi. Har bir muammoni yechish uchun, avvalo, oila muhitini o‘rganish, ularning ijtimoiy ruhiy holatini bilish, kelajakda yoshlar turli yot g‘oyalar ta‘siriga qo‘shilib qolmasligi uchun ularda sog‘lom psixologik immunitet hosil qilishimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. Ғозиев Э.Э. Онтогенез психологияси. Назарий-экспрементал таҳлил. Тошкент-2010. 286 б.
2. Ғозиев Е.Е. Онтогенез психологияси. Дарслик. Ташкент:”NIF MSH”, 2020, 288 б.
3. Abdullayeva M., Usmonova N. O‘smirlarda diniy-psixologik omillari va kasbiy o‘zligini anglashidagi xavotirlanishning psixologik xususiyatlari. “Ta‘lim sifati – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili” mavzusidagi konferensiya. 2023. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.615>
4. Узоқов Х., Ғозиев Э., Орипова Л. Оила ахлоқи ва одоби. Тошкент. - “Ўқитувчи”. - 1995.
5. Bekkiyeva N. “O‘smir yoshlarda soxta diniy axborotlarga tobelikning psixologik xususiyatlari va unga qarshi kurashish”. Zamonaviy o‘qituvchining uzluksiz kasbiy faoliyati: dolzarb masalalari va stretegik rejalar. Ilmiy–amaliy konferensiya. Qarshi, 2023. 689-693 b.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 7-noyabr 2014-yil.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GIPERAKTIVLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Hakimova Fazolat Xoshimovna,

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida o‘qituvchisi

Ushbu maqolada bolalarda uchraydigan giperaktivlik alomatlari, oddiy normal rivojlanishdagi bolalar bilan giperaktiv bolaning o‘rtasidagi farqlar, kelib chiqish sabablari va bunda psixolog, pedagog va ota - onalarning qanday yo‘l tutish kerakligi, bu holatni bartaraf etishda bolalar psixologi tomonidan olib boriladigan psixokorreksion ishlar, bu holatning nima uchun xavfli ekanligi va buni qanday bartaraf etish kerakligi aytib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar:** giperaktivlik, o‘jarlik, qaysarlik, agressivlik, injiqlik, sabrsizlik, negativizm, o‘yinqaroqlik, e‘tiborsizlik, impulsivlik, doimiy asabiylik, jahldorlik, norozilik, isyon, isterika, shumlik, o‘ta yuqori harakatchanlik, aktivlik, tez unutib qo‘yish, diqqat tarqoqligi, intizomsizlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГИПЕРАКТИВНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

В этой статье рассказывается о симптомах гиперактивности, которые проявляются у детей, о различиях между детьми с нормальным развитием и гиперактивным ребёнком, о причинах их возникновения и о том, как при этом следует действовать психологу, педагогу и родителям, о психокоррекционной работе, проводимой детским психологом по преодолению этого состояния, о том, чем опасно это состояние и как его преодолеть.

***Ключевые слова:** гиперактивность, упрямство, строптивость, агрессивность, капризность, нетерпение, негативизм, игривость, невнимательность, импульсивность, постоянная нервозность, вспыльчивость, недовольство, бунт, истерика, сумасшествие, сверхвысокая подвижность, активность, забывчивость, рассеянность внимания, недисциплинированность.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF HYPERACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN

This article tells about the symptoms of hyperactivity that children experience, the differences between children and a hyperactive child in normal development, the causes of origin and how to proceed in this, psychocorrectional work carried out by a child psychologist in overcoming this condition, why this condition is dangerous and how to eliminate it.

***Keywords:** hyperactivity, stubbornness, aggressiveness, whim, impatience, negativism, playfulness, neglect, impulsivity, constant asbianism, gaiety, discontent, rebellion, hysterics, extreme mobility, activism, quick oblivion, attention dispersion, indiscipline.*

Kirish. Hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Biz uchun bolalarimizning ma’naviyati, bilimi, sog‘ligi asosiy masaladir. Bolalar bizning kelajagimiz, maktabgacha ta’lim sistemasi esa ertangi kunga zamindir” deb o‘z strategik chiqishlarida aytib o‘tganlar. Shu munosabat bilan bugungi kunda bolalarni har tomonlama yetuk ya’niki ham ma’nan, ham ruhan, ham jismonan barkamol shaxs bo‘lib kamol topishida tubdan islohotlar olib borilyapti.

Bolaning rivojlanishi murakkab taraqqiyot davrini o‘z ichiga olib, bu jarayonda bola bir yosh bosqichidan boshqa yosh bosqichiga o‘tish davrida o‘zida turli xil psixologik og‘ishlarni yoki xususiyatlarni namoyon qilishi mumkin. Bunday holatlarda ba’zida pedagog va ota - onalar anglamasdan bolaga noto‘g‘ri munosabatda bo‘lishi mumkin.

Odatda, bola 3 yoshga to‘lgandan so‘ng unda “men”lik va xarakter shakllana boshlaydi. Ularda harakatchanlik, o‘yinqaroqlik, injiqlik, isterika holatlari, qaysarlik, yig‘loqilik, o‘jarlik, o‘zboshimchalik, agressivlik, xayolparastlik, negativizm, serharakatchanlik kabi xususiyatlar paydo bo‘la boshlaydi. Boladagi bu kabi xususiyatlarni geparaktivlik va rivojlanishdagi normal holat bilan adashtirib qo‘yishlari mumkin. Agar bola vaqt -vaqti bilan uy vazifasini unutib qo‘ysa, dars paytida xayol sursa yoki tushlikda injiqlik qilib xarxasha qilsa, bu normal holat, chunki bolalar juda faol. Ammo tinchlanish vaqti kelganida, odatda ularni to‘xtatish mumkin. Bir oz vaqtdan so‘ng u to‘p bilan yuguradi va boshqa faoliyatga ham o‘tishi mumkin. Ammo ba’zi bolalar bir joyda o‘tira olmaydilar: ular doimo biron bir narsalardan yoki holatlardan bezovtalanadilar, norozilik bildiradilar, aylanadilar, narsalarni ushlaydilar va uzoq vaqt davomida ularni turli yo‘llar bilan tinchlantirishga harakat qilgandan keyin ham “o‘zlarini yomon tutishadi”. Bu diqqat

giperaktivligi buzilishi kabi holat mavjudligini ko'rsatishi mumkin. Diqqat yetishmasligi giperaktivligi buzilishi (DYGB) - surunkali e'tiborsizlik, impulsivlik va haddan tashqari faollik bilan nevrologik patologiya hisoblanadi. Bolalikda, odatda 7 yoshdan oldin boshlanadi. Bu holat juda keng tarqalgan, giperaktiv bolalar umumiy aholining taxminan 5% ni tashkil qiladi. O'g'il bolalar DYGB ga qizlarga qaraganda ko'proq moyil bo'ladi. Giperaktivlik bu shunchaki faollik emas. Hayajonlanganlik va o'ta sezgirlik holatlari DYGB bo'lgan bolaning nazorati ostida bo'lmaydi, bu intizomning yetishmasligidan ham emas. Bunday bolalar ko'pincha o'zlarini tinchlantirishni xohlashadi, lekin buni qila olmaydilar. Pedagoglar va ota-onalar ko'pincha bunday holatlarda bolalaridan nolishadi, ularga ko'p tanbeh berishadi va odatda shumtaka, urushqoq deb atashadi, dangasalik va intizomsizlik uchun tanqid qilishadi. Aslida, bu bolalar mutaxassisning yordamiga muhtoj, chunki giperaktivlik bolaning psixologik rivojlanishida qiyinchiliklarga, ijtimoiy disfunktsiyaga va o'z-o'zini boshqara olmaslik muammolariga olib keladi. Agar bola doimiy harakatda bo'lsa va diqqatni jamlay olmasa, unda ota-onalar DYGB bor-yoqligi haqida o'ylashlari kerak. O'z vaqtida bunday bolalarni bolalar psixologiya va nevrologiya ko'rigidan o'tkazish kerak.

Asosiy qism. Xo'sh, Giperaktiv bolalarda biz qanday belgi va holatlarni ko'rishimiz mumkin.

Diqqat yetishmovchiligi, odatda, 3 yoshdan boshlab seziladi. Giperaktiv bolalarning kayfiyati beqaror, tez jahldorlik, tajovuzkorlik kuzatiladi, bu ko'pincha boshqalar bilan nizolarga olib keladi. Bola tengdoshlari jamoasida qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, ular u bilan muloqot qilishdan bosh tortadilar, bu uning janjal va o'ynashga qodir emasligi bilan izohlanadi. Giperaktiv bolalarning xatti-harakatlari haddan tashqari harakatchanlik, yuqori hissiylik, bezovtalik bilan tavsiflanadi. Bunday bola boshqarib bo'lmaydigan, kattalarning taqiqlari va cheklovlariga javob bermaydi, har qanday vaziyatda u xuddi shunday faol harakat qiladi: u aylanadi, yuguradi, shovqin qiladi (uyda, do'konda, bolalar bog'chasida, ko'chada). Tez va ko'p gapiradi, kattalarni to'xtatadi, ko'p savollar beradi, lekin kamdan-kam hollarda javoblarni tinglaydi. Unga bir narsaga e'tibor qaratish qiyin, u odatda boshlagan ishini yoki o'yinini oxiriga yetkazmaydi. Ko'pincha bolalar o'rtasida nizolarni keltirib chiqaradi, uning tajovuzkorligini nazorat qilmaydi - itaradi, jang qiladi va hokazo.

Giperaktiv bolalarda holatlar yengil, o'rtacha yoki og'ir bo'lishi mumkin. Agar o'z vaqtida tuzatish amalga oshirilmagan bo'lsa, unda ular balog'at yoshida davom etishi mumkin. DYGBning asosiy belgilari e'tiborsizlik, giperaktivlik va impulsivlikdir.

Bolaning e'tiborsizligi quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Diqqat konsentratsiya bilan bog'liq muammolar, osonlikcha chalg'iydi, na o'yin, na o'quv vazifalarini to'liq bajar olmaydi;
2. Tafsilotlarga e'tibor bermaydi, doimiy xatolarga yo'l qo'yadi;
3. Kattalarning gaplariga quloq solmaydi;
4. Unga berilgan vazifalarni bajarishda qiyinchiliklar mavjud;
5. Diqqat va e'tibor talab qiladigan vazifalardan qochadi va yoqtirmaydi;
6. Doimiy ravishda qalam, o'yinchoqlar va boshqa narsalarni yo'qotadi;
7. Uy vazifalari kabi muhim masalalarni unutadi.

Bolada impulsivlik va giperaktivlik bilan belgilar quyidagicha bo'ladi:

1. Bir joyda o'tirmaydi, tebranadi, burishadi;
2. Dars paytida yoki boshqa muhim sharoitlarda sinfda o'zini xotirjam tuta olmaydi;
3. Bir vaqtning o'zida bir nechta narsalarni ushlaydi, bir-biridan ikkinchisiga o'tadi;
4. Doimiy harakatda;
5. Noto'g'ri joylarda yugurish va ko'tarilish;
6. Jimgina o'ynay olmaydi va dam ololmaydi;
7. Haddan tashqari so'zlamol va o'yinqaroq, ko'pincha kattalarni bezovta qiladi;
8. Boshqa odamlarning harakatlarini to'xtatadi, suhbatlarga aralashish uchun shaxsiy makonga bostirib kiradi, boshqa bolalarning o'yinlarini buzadi;
9. O'ylamasdan harakat qiladi;
10. Kuchli his-tuyg'ularni jilovlay olmaydi, tez-tez g'azablanish va jahldorlikka moyil bo'ladi.

Ko'pgina bolalar tabiiy ravishda yetarlicha faol bo'lishsa-da, diqqat va giperaktivlik buzilishi bo'lgan bolalar hech qachon dam olishmaydi. Ular harakatsiz o'tirishga majbur bo'lganda ham, bu ular uchun deyarli mumkin emas, keyin ular oyoqlarini urishadi, barmoqlarini urishadi, boshlarini aylantiradilar va hokazo. DYGB bo'lgan bolalarning impulsivligi o'z-o'zini boshqara olmaslik muammolariga olib keladi. “Sabr qiling” va “bir oz kuting” kabi so'rovlarni bajarish ular uchun boshqa bolalarga qaraganda ancha qiyin bo'ladi.

DYGBning uchta asosiy turi mavjud:

1. Diqqat yetishmasligi ustunligi bilan: giperaktivlik, asosan, e'tiborsizlik va chalg'itish bilan tavsiflanadi;

2. Giperaktivlik va impulsivlikning ustunligi bilan: beparvolik va chalg'itmasdan impulsiv va giperaktiv xatti-harakatlar bilan tavsiflanadi;

3. Ikkala turning kombinatsiyasi bo'lgan va statistik jihatdan boshqalarga qaraganda tez-tez uchraydigan aralash tur.

Diqqat giperaktivligi buzilishini odatdagi xatti-harakatlardan ajratish qiyin bo'lishi mumkin. Tashxis qo'yish uchun giperaktiv boladagi holatlarning belgilari 6 oy yoki undan ko'proq vaqt davomida kuzatilishi kerak. Bunday bolaning xatti-harakati ularning yosh guruhidagi ko'pchilik bolalarning xatti-harakatlariga mos kelmasligi kerak. Masalan, barcha uch yoshli bolalar sho'x va o'yingaroq bo'lishi mumkin. Shuni ham yodda tutish kerakki, barcha bolalar har xil. Agar bolalarda giperaktivlik belgilari tez-tez va har qanday vaziyatda-uyda, maktabda va o'yin paytida kuzatilsa, unda ehtiyot bo'lish vaqti keldi.

Bolalarda giperaktivlikning sabablariga keladigan bo'lsak, sindromning aniq sababi to'liq aniqlanmagan, ammo buni bir necha omillarning kombinatsiyasi deb o'ylashadi:

1. Genetik moyillik: giperaktiv bolalarda irsiy moyillik sabablarining namoyon bo'lishi yaxshi kuzatilgan. Agar qarindoshlaridan biriga DYGB tashxisi qo'yilgan bo'lsa, boshqa oila a'zosida ham kasallik rivojlanish ehtimoli umumiy aholining 4-6 foiziga nisbatan 25-35 foizni tashkil qiladi.

2. Homiladorlik va tug'ruq paytida muammolar: abort qilish xavfi, erta tug'ilish, og'ir toksikoz, onaning yuqumli yoki surunkali kasalliklari, homiladorlik paytida spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish va boshqalar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, giperaktiv bolada 80% dan ko'proq ushbu holatlarning sabablari va oqibatlari uchraydi.

3. Markaziy asab tizimining ishlash xususiyatlari, miyaning shikastlanishi va muvozanatining o'zgarishi DYGB bilan og'rigan odamlarda bu holatning darajasi past ekanligi aniqlandi. Shuningdek, miyaning pozitron emissiya tomografiyasi DYGB bo'lgan bolalarda miya metabolizmi diqqat, ijtimoiy hukm va harakatni boshqaradigan sohalarida pastroq ekanligini ko'rsatadi.

4. Noqulay ekologik va ijtimoiy muhit.

5. Noto'g'ri ovqatlanish.

Giperaktivlikning paydo bo'lishiga sabablar bir-biri bilan birgalikda ta'sir qiladi. Yagona omilni ajratib bo'lmaydi, ammo AQSh va Evropada olib borilgan tadqiqotlar giperaktivlikning buzilishining paydo bo'lishi 80% genetikaga bog'liq deb taxmin qilishga imkon beradi. Ammo giperaktivlik bilan birinchi darajali sabablar genetik omillar bo'lsa ham, ushbu patologiyaning to'liq klinik ko'rinishini rivojlantirish uchun atrof-muhit ta'siri zarur.

Bolalarda giperaktivlikni davolashda e'tiborsizlik, giperaktivlik va impulsivlik DYGBning oqibatimi yoki yo'qmi, bu alomatlar e'tiborga olinmasa, ko'plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Diqqatni jamlay olmaydigan va o'zini tuta olmaydigan bolalar hamma joyda hayotdagi qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa butun oilaning umidsizliklari va stresslariga olib keladi. Bolalarda giperaktivlik sindromini davolash vaziyatga qarab farq qilishi mumkin. Odatda, quyidagi yondashuvlar yoki ularning kombinatsiyasi qo'llaniladi:

1. Psixoterapiya: turli xil psixoterapevtik usullar bolaga fikrlashni tuzatish va vaziyatga munosabatni o'zgartirish orqali xulq-atvor muammolarini yengishga imkon beradi. Giperaktivlik va impulsivlikni qaysi yo'nalishga yo'naltirish yaxshiroq degan savol tug'iladi. Bolalikdagi giperaktivlik bilan psixoterapiya mashg'ulotlari bilan davolash bolaning o'zi uchun ham, ota-onalar uchun ham amalga oshiriladi. Yaqin qarindoshlarga o'z harakatlarini qanday qilib to'g'ri tuzish va bolaga xatti-harakatlarini to'g'rilashga yordam berish o'rgatiladi. Psixoterapiya asosiy muammoni hal qilishdan tashqari, bolalar va ota-onalarga yordam va motivatsiya beradi.

2. Maxsus mashqlar yordamida pedagogik va neyropsikologik tuzatish.

3. Dori-darmonlar: bolada giperaktivlikni davolash ba'zi hollarda farmakoterapiyani kiritishni talab qilishi mumkin. Yumshoq, yaxshi o'rganilgan dorilar kichik dozalarda qo'llaniladi.

4. Turmush tarzini tuzatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilmoqda va ota-onalar o'qitilmoqda.

Giperaktiv bola uchun davolanish DYGBning ko'plab alomatlarini sezilarli darajada yengillashtiradi, ammo patologiyani darhol bartaraf etmaydi. Har bir holat uchun eng mos keladigan narsani aniqlash uchun vaqt kerak bo'lishi mumkin. Agar bola giperaktiv, beparvo bo'lsa, ota-onalar uni tinglash, topshiriqni bajarish yoki shunchaki tinch o'tirish uchun juda ko'p energiya talab qiladi. Natijada, hatto oddiy kundalik narsalar ham charchaydi, bu kayfiyat va oilaviy muhitga salbiy ta'sir qiladi. Yaxshiyamki, psixologiya va psixoterapiya bolaga o'z qobiliyatidan maksimal darajada foydalanishga yordam berish bilan birga vaziyatni nazorat qilishni tiklashga imkon beradigan bosqichlarni biladi.

Maktab yoshidagi bolalarda giperaktivlik mavjud bo‘lganda, davolanish ayniqsa, zarur, chunki(×) aks holda bu holat boshqa odamlarning doimiy tanqidiga, ta’lim olishda qiyinchiliklar, tengdoshlar bilan muloqot qilish va o‘z-o‘zini tan olish muammolari, shikastlanish va baxtsiz hodisalar ehtimoli oshishi, alkogol va giyohvandlik xavfi kabi oqibatlariga olib kelishi mumkin.

E’tibor, faollik va o‘zini - o‘zi boshqarish asta-sekin o‘sib boradi. Bolalar bu ko‘nikmalarni ota-onalar va o‘qituvchilar yordamida olishadi. Agar ularning yetishmasligi maktabda, uyda va do‘stlar bilan muloqotda muammolarga olib kelsa, bu muammoga aylanadi.

Giperaktiv bolalar kimlar?

Jismoniy faollik, harakatchanlik, qiziquvchanlik-bu bolaning normal rivojlanishining xususiyatlari. Ammo bu fazilatlar patologik darajaga yetgan bolalar guruhi mavjud. Bunday bolalar giperaktiv deb ataladi, ya’ni o‘ta harakatchan.

Hozirgi vaqtda bu muammo nafaqat psixologik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega, chunki psixomotor bezovtalik, asabiylikning kuchayishi bunday bolalarning jamiyatdagi hayotga moslashishiga, maktab o‘quv dasturini o‘zlashtirishga xalaqit beradi. Giperaktiv bolani tarbiyalash bitta ota-ona va butun oila uchun katta psixologik yukdir, shuning uchun iloji boricha bolaga uning faoliyati va rivojlanishida yordam beradigan tanishlar va yordamchilar doirasini kengaytirish muhimdir.

Xulosa. DYGBni haddan tashqari harakatchan bola bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Ba’zida juda faol bola yomon tarbiya yoki stressli holatning natijasidir (ota-onaning ajralishi, yaqin kishining o‘limi va boshqalar). Giperaktivlik sindromi haqida bunday deyish mumkin emas. Ushbu holat Markaziy asab tizimidagi turli xil psixofiziologik o‘zgarishlar, shuningdek, boshqa kasalliklar, masalan, allergiya va boshqa holatlarda yuzaga keladi.

Bunday holarlarda ota-onalardan talab qilinadigan narsa bu bolaning o‘ynash, yugurish, shovqin qilish uchun tabiiy ehtiyojini cheklash befoyda. Faol harakatlarni qat’iy shaklda ta’qiqlamang, bolaga baqirmang - baland ovozdan hayajon faqat kuchayadi. Uning qaytarib bo‘lmaydigan energiyasini konstruktiv kanalga yo‘naltirish, uni boshqa faoliyatga o‘tkazish, iloji bo‘lsa, unga faol harakat qilishni taklif qilish yaxshiroqdir: unga biror narsa olib kelish, idishlarni yuvishga, gullarni sug‘orishga yordam berish so‘ralsa foydadan holi bo‘lmaydi. Bolani tinchlantirish uchun uning qo‘lidan ushlang, boshini silang, quchoqlang. Uni har bir vazminlik uchun maqtang, har safar u boshlagan ishini oxirigacha yetkazishga muvaffaq bo‘ldi. Agar bola o‘zini “yomon” tutgan bo‘lsa, har qanday holatda ham kechirim so‘rashini talab qilmang. Bunday bolani tarbiyalashning asosiy vazifasi uni impulslari va impulslarini ushlab turishga o‘rgatish emas, balki uni o‘zini boshqarishga o‘rgatishdir. Shuning uchun hayajon va faollik va dam olishni almashtirishga imkon beradigan har qanday o‘yinlar foydalidir. Bunday bolalar uchun toza havoda faol harakatlar, suv, qum va boshqa har qanday mayda materiallar bilan mashg‘ulotlar juda foydali. Bola uchun rejim muhim, ammo ba’zida uning faoliyatini almashtirish qiyin bo‘lishini tushunish kerak, shuning uchun rejim momentlari mavjud bo‘lishi kerak, ammo juda qattiq bo‘lmasligi kerak. Bunday bolaga nisbatan hukm va tanqidlardan saqlaning, chunki bu uning allaqachon past darajadagi qadr-qimmatini pasaytiradi va xavotirni kuchaytiradi, bu esa giperaktiv simptomlarni kuchaytiradi. Bola bunday bo‘lishida aybdor emas, shuning uchun uni tanbeh berish va jazolash befoyda. O‘smirlik davrida ko‘plab bolalarda giperaktivlik belgilari yo‘qoladi, ammo bola hali maktabda o‘qimagan, bu yerda bunday xatti-harakatlar unga va boshqa bolalarning o‘quv jarayoniga katta xalaqit beradi. Shuning uchun, iloji bo‘lsa, bola uchun maktabni oldindan tanlashga arziydi, bu yerda sinfdagi bolalar soni 12-14 kishidan oshmaydi.

Shuni esda tutish kerakki, o‘z — o‘zini tartibga solish-bu bolaga alohida qiyinchilik bilan beriladigan xususiyatdir. Shuning uchun, bolani doimo nazorat qilish yoki tortib olish foydali emas, buni faqat u buni o‘zi qila olmaydigan holatlarda qilish kerak. Yuqorida aytib o‘tilganidek, bolaning psixologik rivojlanishi murakkab taraqqiyot davrini o‘z ichiga olib bu jarayonda bolada turli psixologik og‘ishlarni kuzatishimiz mumkin. Shuning uchun bolalar doimiy bolalar psixologi va nervpatologi ko‘rigidan o‘tib turishi kerak va bunday holatlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog va psixologlari, ota-onalar sinchkov bo‘lib, bolalarga befarq bo‘lmasliklari kerak.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy Taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. - Toshkent, “Uzbekiston”, 2019 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”- Toshkent, “Uzbekiston”, 2018 y.
3. G‘oziyev E. G‘. “Yosh davrlar psixologiyasi”- Toshkent, “Uzbekiston”, 2010 y.
4. Barotov Sh.R. “Psixologik xizmat” – Toshkent, “Uzbekiston”, 2018 y.

ETNOPSIXOLOGIYA SOHASIDAGI DASTLABKI TADQIQOTLAR

Jo‘rayev Atham Qoraqulovich,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Psixologiya fani o‘qituvchisi

Ushbu maqolada turli xalqlar psixologiyasida etnopsixologiya sohasiga oid dastlabki bilimlarning, jahon psixologiyasida o‘rganilganlik tarixi, jamiyat, xalqning turmush tarziga, o‘zaro munosabatlari va etnik xususiyatlariga mos kelajak ijtimoiy g‘oyalari bilan sug‘orilgan yangi urf-odat, an‘ana va marosimlarga keng yo‘l ochib, turmushga singdirib borish zarur ekanligi haqida ilmiy mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *Shaxslararo munosabat, kross madaniy munosabatlar tahlili, milliy qadriyat, millatlararo totuvlik, etnopsixologik tadqiqot, etnik xarakter.*

ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ЭТНОПСИХОЛОГИИ

В данной статье говорится о том, что первичные знания в области этнопсихологии в психологии разных народов, история изучения в мировой психологии, новые традиции, обычаи и обряды, обременённые социальными идеями, соответствующими образу жизни общества, народа, их взаимоотношениям и этническим особенностям, должны открывать широкие пути к жизни.

Ключевые слова: *межличностное отношение, кросс-культурные отношения, национальная ценность, межнациональное согласие, этнопсихологическое исследование, этнический характер.*

PRELIMINARY RESEARCH IN THE FIELD OF ETHNOPSICOLOGY

This article, discusses the history of the preliminary knowledge of ethnopsychology in the psychology of different peoples, the history of world psychology. It is necessary to open a wide path to new customs, traditions and rituals, which are infused with future social ideas, and suitable for the lifestyle, mutual relations and ethnic characteristics of the society.

Keywords: *interpersonal relationship, analysis of cross-cultural relations, national value, interethnic harmony, ethnopsychological research, ethnic character.*

Kirish. Har qanday ilm sohasining fan sifatida shakllanishi odamlar ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shubhasiz, bu holat etnologiyaga ham talluqlidir. Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yashab o‘tgan barcha etnoslar o‘ziga xos turmush tarzi, urf-odat va an‘analari bilan bir-biridan ajralib turganlar. O‘tgan ming yilliklar mobaynida tarix fanida yig‘ilgan bilimlar shundan dalolat beradiki, yer sharida garchi turfa xil rasm-rusumlar va urf-odatlariga ega xalqlar yashashlariga qaramay, ularning barchasi tabiatning uzviy bir qismi sifatida rivojlanganlar va aynan tabiiy-geografik hamda xo‘jalik munosabatlari bilan bog‘liq holdagi o‘ziga xos etnomadaniy an‘analarga tayanganlar. Shaxslararo munosabatlar etnopsixologiyasida milliy birlik tuyg‘usini mustahkamlanishi bugungi juda tezkor va o‘zgaruvchan, tahlilali zamonda tinch, osuda va insoniy qadriyatlarni asrab yashash imkonini ta‘minlaydi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2017- yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ham xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish deb nomlangan yo‘nalishida o‘zaro milliy va etnik munosabatlarni, qo‘shni davlatlar bilan ijobiy hamkorlikka asoslanilgan aloqalarni kuchaytirish, baynalminal qadriyatlarni asrash kabi o‘zbek millati turmush tarziga xos jihatlarga e‘tibor qaratilgan[1].

Metodologik asosi. Etnologiya qadimiy fan Uning zamonaviy yevropacha nazariy asoslari xalqlar to‘g‘risidagi mustaqil fan sifatida XIX asr o‘rtalarida shakllangan. Buning o‘ziga xos sabablari mavjud. Avvalo, bu davrda dunyo qit‘alari orasida iqtisodiy, madaniy aloqalar jadallashuvi yuz bergan. Boshqa tomondan, bu davrda mustamlakachilik siyosati kuchaya boshlagan. Chunonchi, yangi-yangi mustamlakalarga ega bo‘lish hamda istilochi davlatlarning o‘z mustamlakalarini osonlik bilan boshqarishga intilishlari u yerlarda yashovchi mahalliy xalqlar to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlarga ega bo‘lishni talab qilar edi. Qolaversa, buyuk geografik kashfiyotlar natijasida dunyoning turli mintaqalari orasida etnomadaniy taraqqiyotdagi o‘zaro farqlar, boshqa ellarda yashovchi etnik guruhlarining o‘ziga xos etnopsixologiyasi va ularning etnik o‘zlikni anglash mexanizmi, tarixning ma‘lum davrlarida u yoki bu xalqning tutgan o‘rni,

sivilizatsiyalar va madaniyatlar taraqqiyoti hamda tanazzulida etnik omilning o‘rni kabi muammolarning kun tartibiga qo‘yilishiga sabab bo‘lgan. Yuqorida ta’kidlangan muammolar va savollarning yechimi sifatida fanda qator yangi nazariyalar va konsepsiyalar yaratilgan. Bu esa, o‘z navbatida etnologiyaning dastlabki ilmiy maktablari va yo‘nalishlari paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Keyinchalik mazkur ilmiy maktablar va yo‘nalishlar asosida xalqlar to‘g‘risidagi maxsus fan etnologiya shakllangan. Etnologiya fanining nomi ham boshqa ko‘plab ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi yunoncha etnos (xalq) va logos (fan) so‘zlaridan olingan bo‘lib, “xalq to‘g‘risidagi” fan degan ma’noni bildiradi. “Etnos” so‘zi ilk bora qadimgi yunon tilidagi manbalarda uchraydi. Taxminan miloddan avvalgi VI-V asrlarda bu atama kelib chiqishi yunon bo‘lmagan urug‘ va qabilalarga nisbatan qo‘llanilgan. Aynan shu ma’nodan mazkur ibora rim madaniyati va lotin tilida ham ishlatilgan.[6]. Ma’lumki, jahon fanida xalqlar va millatlar psixologiyasiga bag‘ishlangan birinchi ilmiy tadqiqotlarni nemis klassik olimi Vilgelm Vundt boshlab bergan edi. Uning tadqiqotlaridagi “xalq” tushunchasi aslida etnik uyushma, millat ma’nosida tushuntirilgan edi. Uning fikricha, etnik guruhlar psixologiyasini o‘rganish uchun ularning tilini, odatlarini va ana shu xalqlarda keng tarqalgan afsonalar, aqidalar, fikrlash tarzlari, hayot tarzi va tutimlarni hamda boshqa ong tizimlarini o‘rganish kerak. Shunisi diqqatga sazovorki, Vundtdan keyingi davrda o‘tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri bizning o‘lkamizda o‘tkazilgan bo‘lib, uni psixolog A.R.Luriya amalga oshirgan edi.[3].

Bu eksperimental tadqiqot bo‘lib, uni o‘tkazishdan asosiy maqsad L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy yondashuv g‘oyasini tekshirish edi. Luriya boshchiligidagi olimlar guruhi revolyutsiya bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston sharoitida turmush tarzining o‘zgarishi bilan o‘zbek xalqi psixologiyasining ham o‘zgarganligini isbot qilmoqchi bo‘lganlar. Asosiy maqsad bilish jarayonlarining o‘zgarganligini isbot qilish bo‘lsa ham tadqiqotchilar o‘z-o‘zini anglash va o‘z xulq atvorini tahlil qilish borasida ham uyda o‘tiradigan ayollar, endigina savod olish maqsadida savodxonlik kurslarida o‘qiyotgan xotin-qizlar hamda pedagogika bilim yurtlarida ta’lim olayotgan talabalar o‘rtasida farq bor yo‘qligini tekshirishdi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, A.R.Luriyaning asosiy maqsadi milliy psixologik xususiyatlarni o‘rganishda tarixiylik tamoyiliga tayanish lozimligini isbotlash hamda milliy psixologiyaning hayot tarziga, shaxsning jamiyatda shaxslararo munosabatlari tizimida tutgan o‘rniga bevosita bog‘liqligini isbot qilish edi. Birinchi dastlabki tadqiqotlar qator metodologik kamchiliklardan xoli bo‘lmasada, uning muayyan ilmiy va amaliy ahamiyati ham bor ediki, unda birinchi marta milliy psixologiyani o‘rganishga yordam beruvchi metodlar va metodologik tamoyillar sinovdan o‘tkazildi,[4]. Aytish joizki haqiqatdan ham bu tadqiqotda to‘plangan ma’lumotlar va ilmiy xulosalar bilan bugungi kungi xolatni to‘lig‘icha ifodalamaydi, qolaversa, bu kontsepsiyaning o‘zi necha bor qayta ishlovni talab qildi, lekin milliy psixologiya bo‘yicha o‘tkazilgan kross, ya’ni, qiyosiy tadqiqot sifatida uning baribir etnopsixologiya uchun ahamiyati kattadir. A.Luriya ushbu tadqiqotida qo‘llangan piktogramma usuli, ya’ni, “so‘z portretlari”ni tahlilidan foydalangan, o‘z-o‘zini analiz qilish metodlarini hozirgi zamonaviy tadqiqotlarda ham faqat yangicha metodologik printsiplar asosida qo‘llash mumkin.

Yu.V.Bromley etnik guruhlar psixologiyasida ikki tomonini farq qiladi:

- Psixik asos – etnik xarakter, temperament, milliy an’analar va odatlardan iborat barqaror qism;
- Hissiyot sohasi etnik yoki milliy his-kechinmalarini o‘z ichiga olgan dinamik qism.

Xuddi har bir shaxs ongida turlicha stereotiplar, ya’ni o‘rnashib qolgan obrazlar, psixologik tamg‘alar bo‘lganidek, har bir oila, yaqin oshna-og‘aynilar va o‘ziga o‘xshash shaxslar bilan muloqot jarayonida u yoki bu millat vakilida ham o‘z millatiga xos bo‘lgan sifatlar haqida stereotiplar paydo bo‘lib, ular ongida o‘rnashib boradi,[8]. Bunday stereotiplar o‘z millatiga va boshqa xalqlarga nisbatan bo‘lib, boshqalar haqidagi tasavvurlar ancha sodda, yuzaki, mazmunan tor bo‘ladi. Shunday tasavvurlar asosida boshqa millatlarga nisbatan yoqtirish (simpatiya) yoki yoqtirmaslik (antipatiya) va befarqlik munosabatlari shakllanadi,[5]. O‘z millati haqidagi tasavvur va stereotiplar esa milliy etnopsentrizm hissini shakllantiradiki, shu his tufayli shu milliy guruh vakillarida boshqa millatlarga nisbatan irratsional munosabatlar paydo bo‘lishi, bu esa milliy antogonizm va milliy adovatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zbekiston hududidagi dastlabki etnografik tadqiqotlar. O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqi etnografiyasi haqidagi dastlabki ma’lumotlar arxeologik yodgorliklar, ilk yozma manbalar va turli qadimiy tarixga oid materiallardan ma’lum. Qadimgi davrlarda va O‘rta asrlarda Amudaryo va Sirdaryo bo‘ylarida yashagan xalqlar etnologiyasini o‘rganishda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesta”, qadimgi turkiy bitiklar va so‘g‘diy yozuvlar, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”, Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” hamda “Nasabnomayi o‘zbek”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarai turk”«, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” kabi asarlari katta ahamiyatga ega. Insoniyat tarixining o‘tgan

davri mobavnida tadqiqotchilar tom onidan sivilizatsiyalar va turli-tuman madaniyatlar taraqqiyotiga oid juda boy va sermahsul materiallar yig'ilganiga hamda bu borada ilm ahli orasida ko'plab bahs-munozaralar bo'lib o'tganiga qaramay hanuzgacha fanda madaniyat terminining yagona, mukammal ta'rifi mavjud emas. O'z navbatida, shuni ham qayd etish kerakki, mazkur holat aytarli darajada ajablanarli ham emas. Chunki, ijtimoiy fanlar tizimida tabiiy fanlardagidek doimo ham yagona tizim doirasida mujassamlashgan qarashlar bo'lavermaydi. Qolaversa, «madaniyat» terminining o'zi ham turli daraja va shakldagi voqeliklarni aks ettiruvchi ko'plab fenomenlardan tashkil topgan. Shu bois mazkur fenomenlarni yagona bir shaklda bayon qilish jiddiy ish hisoblanadi. Uzoq yillar mobaynida xalq turmush tarzi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan ko'plab olimlar tomonidan madaniyat atamasiga ta'rifu tavsiflar berilgan bo'lib, ko'pincha madaniyat deyilganda “insoniyat faoliyati davomida yaratilgan barcha yutuqlar tushuniladi”. Odatda, “madaniyat” iborasi odamlar turmush tarzi bilan bog'liq tarzda izohlanadi. Madaniyat atamasi lotincha «cultura» so'zidan olingan bolib, u dastlab qishloq xo'jalik ekinlari yoki uy parrandalari va hayvonlarni madaniylashtirish jarayoniga nisbatan qo'llangan. Etnik madaniyat Odatda, biror kishi hayoti davomida bir ijtimoiy guruhdan boshqasiga, bir davlatdan ikkinchisiga o'tib yashashi mumkin, lekin har qanday holatda ham u o'zining etnik mansubligidan voz kechmaydi. Bu esa o'z navbatida uni o'ziga xos tarzda idrok etishga va ma'lum bir me'yoriy o'lchov asosida hayot faoliyatini yuritishga majbur etadi. Shu boisdan ham moslashuvchi mexanizmning muhim qismi etnik madaniyat hisoblanadi. Etnik madaniyat etnosga xos madaniy xususiyatlar majmuyidan tashkil topgan. Etnik madaniyat kelib chiqish asosi shakllanishining muhim alomatlari va ma'lum bir umumiy qiziqishlar doirasida birlashgan kishilar guruhining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Bunday ehtiyojlar shunisi bilan muhimki, ularda umumjamoaviy qiziqishlar aks etadi va mazmunan ushbu jamoa a'zolarining individual qiziqishlaridan kelib chiqadi. O'z navbatida, bu ko'rinishdagi ehtiyojlar o'ziga xos alohida shaxslararo qiziqishlarni namoyon etadi va ehtiyojlar butun jamoaning umumiy harakatlari asosidagina qondirilishi mumkin. Etnologik, tarixiy, sotsiologik va madaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarda jamoaning hayot faoliyati alohida ajralib turadi. Har qanday jamoa ma'lum bir tabiiy-tarixiy sharoitda, makon va zamonda yashaydi.

Millatlararo adovat va milliy etnosenrizmning o'ziga xos turi borasida davlatimiz birinchi rahbari Islom Karimov o'zining “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli tarixiy asarlari juda teran fikrlarni bayon etganlar. Asarda ta'kidlanganidek, “O'zbekiston aholisining ko'p millatliligi o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi va ma'naviy qayta tiklanishining o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo'r kuch bo'lib xizmat qilmoqda. Bu respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda”. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning jamiki yurtimizda istiqomat qilayotgan yuzdan ziyod millat va elatlarning manfaatlarini bir xil himoya qilish, ular o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni kuchaytirishga qaratilgan dono siyosati tufayli, bugungi kunda barcha o'zbekistonliklar shu yurt, shu Vatan ravnaqi yo'lida bir xil kurashish bilan birgalikda o'z milliy qadriyatlarini, madaniyatini, san'ati, yashash tarzini hurmat qilishga, uning eng jozibali va tarbiyaviy nuqtai nazardan noyob an'alarini davom ettirish, namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ldilar,[2]. Zero, davlatimiz birinchi rahbari ta'kidlaganlaridek, “Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin – insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi, Yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo'lmog'i kerak.” Demak, mustaqil yurtimizda millatlararo va elatlar ichidagi o'zaro aloqalar muammolari strategik ahamiyatli bo'lib, bu o'z navbatida olimlar, xususan, etnopsixologlar oldiga millatlararo do'stlikni va bahamjihatlikni takomillashtirishga yo'naltirilgan fundamental va tadbiqiy ishlarni amalga oshirish, natijalari bilan yurtimizda tinchlik va totuvlikni barqarorlashtirishga hissa qo'shish vazifasini qo'yadi,[7].

Xulosa qilib shuni aytamizki, yurtimizda va jahonda oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan talabalarimizda umummilliy qadriyatlarni shakllantirish, o'zaro bir-biriga bo'lgan ma'naviy va madaniy munosabatlarni tiklash va ularni ijtimoiy muhitga keng targ'ib etishda, millatimizning urf-odat u an'alarini, targ'ib qilish bugungi talabalar jamoasida shakllantirish oliy maqsadimizdir. Bu borada, bir qancha kasb egalari, jumladan, etnografik, ijtimoiy psixologlar va mafkurachilar oldida turgan muammolardan biri millat vakillarida milliy g'ururni sof ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o'rganish, uning yoshlarda mafkuraviy immunitetning shakllanishidagi rolga aloqador psixologik mexanizmlarni tadqiq etishni ko'ndalang qilib qo'yadi. Yurtimizda mustaqillik yillarida yaratilgan ulkan imkoniyatlar bois o'zbek millatining bolasi san'at, madaniyat, sport, fan sohasida bugun butun dunyoni lol qiluvchi yutuqlarga erishmoqdaki, bunda kitoblarda, sport maydonlarida va katta sahnalardagi imkoniyatlardan tashqari,

o‘zbeklarga xos halollik, shijoat, millati, oilasi, mahallasi sha’ni uchun kurash, g‘urur, tirishqoqlik kabi noyob sifatlar ham katta rol o‘ynamoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997.
3. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений Г.М. Андреева.- 5-е изд., испр. и доп. М.: Аспект Пресс,2003
4. Бромлей Ю.В. Этнос и этнография. – М.: Наука, 1973
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik.- T., 2012
6. Turayeva D.R., Sharapova S.D., Mamanova S. Etnopsixologiya. - O'quv qo'llanma. - Guliston 2022 y.
7. G‘oziyev E.G‘. “Ontogenez psixologiyasi”, o‘quv qo‘llanma T: NIF MSH 2020.
9. Xolturayev A.P. O‘quv faoliyatida natijaga erishishda ta’sir etuvchi psixologik omillar // Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. - № 3, 2023. – B. 22-24.(19.00.00. № 11).
10. Xolturayev A.P. The importana individual psychological charos teristics in the performnce of adolescents study activity // Academic International Conference on milti-desciplinary studics and education 2023.09.22 Pages 170–172. <http://aidlix.com/index.php/us/article/view/1867>.

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH IMKONİYATLARI

Kuchkarbayev Rustam Utkurovich,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
r.kuchkarbaev@gmail.com

Saparbaev Tajibay,
S.S.Seyfulin nomidagi Qozog'iston
agrotexnika universiteti “Fizika va kimyo” kafedrasida o'qituvchisi, p.f.n.
s.tajibay@mail.ru

Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich,
Buxoro davlat universiteti Fizika-
matematika fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor
h.o.jurayev@buxdu.uz,
Husni_1982@mail.ru

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari texnika yo'nalishida bo'lajak muhandislarni loyihaviy – konstruktorlik, ishlab chiqarish va tashkiliy-boshqaruv faoliyatlariga kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bo'lajak mutaxassislariga nafaqat reproduktiv vazifalar, balki kompetentsiyaga yo'naltirilgan vazifalar ham taklif etiladi, ularning maqsadi turli xil hayotiy vaziyatlarda olingan bilimlarni qo'llash qobiliyatiga qaratilgan asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: mutaxassis, kompetentsiya, orientatsiya, shakllantirish, texnika, moslashish, fikrlash, motivatsiya, mezon, tahlil, dars, usul, maktab, ta'lim, vazifa, qiziqish, tabiiy.

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОГРАММНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ

В данной статье речь идёт о развитии компетенций будущих инженеров высших учебных заведений в области инжиниринга в проектно-строительной, производственной и организационно-управленческой деятельности. Будущим специалистам предлагаются не только репродуктивные задачи, но и компетентностно-ориентированные задачи, целью которых является развитие базовых компетенций, направленных на умение применять полученные знания в различных жизненных ситуациях.

Ключевые слова: специалист, компетентность, направленность, формирование, техника, адаптация, мышление, мотивация, критерий, анализ, урок, метод, школа, воспитание, задача, интерес, естественность.

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS USING EDUCATIONAL SOFTWARE TOOLS

This article is about developing the competencies of future engineers of higher educational institutions in the field of engineering in design, construction, production and organizational and management activities. Future specialists are offered not only reproductive tasks, but also competency-oriented tasks, the purpose of which is to develop basic competencies aimed at the ability to apply acquired knowledge in various life situations.

Keywords: specialist, competence, focus, formation, technique, adaptation, thinking, motivation, criterion, analysis, lesson, method, school, education, task, interest, naturalness.

Kirish. Xalqaro tajribalarga ko'ra, texnika sohasidagi bo'lajak mutaxasislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ularning kasbiy motivatsiya, ixtirochilik va boshqarish, axborotlarni izlab topish va ularga ishlov berish, o'z-o'zini faollashtirish kabi muhim sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirishda intellektual axborot resurslarining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. Shuning uchun texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarni loyihaviy – konstruktorlik, ishlab chiqarish va tashkiliy-boshqaruv faoliyatlariga kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy elektron vositalarning yangi avlodini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish, talabalarning mustaqil bilim olishi uchun dasturiy

ta’lim vositalari asosida o’qitish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ta’limning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar. O’zbekiston muhandislik ta’limi tizimining bugungi kunda rivojlangan tizimlardan biri hisoblanadi. Muhandislik ta’limi mamlakatning texnik va muhandislik, ilmiy kadrlarini kasbiy tayyorgarligining yuqori darajasi asosiy ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy-texnik xodimlar va muhandis kadrlar tayyorlash mamlakat uchun muhim rol o’ynaydi, chunki taraqqiyotning ilmiy texnologik rivojlanishi o’tgan asrning eng muhim kashfiyoti va yutuqlari bilan bevosita bog’liqdir. Jahon yetakchilari–ilmiy yutuqlarni jamlay oladigan hamda yuqori darajadagi intellektual salohiyatga ega va shu orqali jamiyatning milliy boyligini oshiradigan mamlakatlar va davlatlardir.

O’quv mashg’ulotlarda dasturiy ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali yuqori natija yoki samaradorlikka erishish mumkin. O’quv mashg’ulotlarini samarali tashkil qilishda kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o’quv-uslubiy materiallar va elektron o’quv adabiyotlaridan foydalanishdan asosiy ko’zlangan maqsad zamonaviy dasturiy ta’lim muhitini shakllantirish, dasturiy ta’lim vositalarini qo’llash orqali o’quv jarayonining sifati, samaradorligi va natijadorligini oshirishdan iborat.

Ta’lim yo’nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi – talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish va zamonaviy loyihalash prinsiplari, energiyatejamkor binolarni yaratish, innovatsion konstruktiv yechimlar, qurilish me’yorlari va qoidalari, tarixiy shaharlarning genezisi va transformatsiyasi, arxitektura yodgorliklarining tipologik yechimlari, arxitekturaviy shakllarni uyg’unlashtirish va bezash, yodgorliklardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish, zamonaviy shaharsozlik va landshaftechimlari, transport tarmog’i muammolarini samarali yechish yo’llarini ishlab chiqish bo’yicha hamda ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko’nikma hosil qilishdan iborat.

Interyer va jihozlash fani bo’yicha talabalar quyidagi bilim va ko’nikmalarni egallaydi:

- Loyihalash faoliyati ma’nosi, loyiha vazifasini berish, loyiha dasturi bilan tanishtirish, guruh xonalari va asosiy elementlarga bo’lgan talablarni shakllantirish, loyiha – qidiruv ishiga taklif berish; illustratsiya dasturlari bilan tanishtirish, loyiha holati bilan tanishtirish, SHNK, QMQ va boshqa me’yoriy hujjatlarni, maxsus adabiyotlarni ko’rsatish; loyihalarni bosqichlarini tushuntirish;

- Interyer loyiha obyektlari haqida yangi g’oyalar to’g’risida ma’lumotlari, soha arxitekturasini ilmiy rivoji, ishlab chiqarish jarayoni xususiyati, zamonaviy texnologik jarayon;

- loyiha obyekti joyi bilan tanishtirish, atrof-muhiti, bino va inshoot qavatini, iqlimiy sharoiti bilan tanishtirish;

- O’xshash obyektga borib ko’rish, birlamchi ijodiy vazifaning boshlang’ich tahlili, interyer loyiha maqsad va talabi; interyer loyiha tahlili natijasida obyektning konseptual sxemalari, interyer loyiha g’oyasini sintez ishlab chiqish;

- Tashqi muhit bilan bog’liq yaxlit muhitli tuzilmani ishlab chiqish, interyer loyiha modelini ishlab chiqish, interyer loyiha modeli holatini, sifatinı mezon asosida baholash, texnologik, texnik, ekologik, shaharsozlik, badiiy – obrazli, iqtisodiy, loyiha variantlarini samaradorlik asosida taqqoslash; har bir eskizni analitik – sintez nuqtai nazardan qarash;

- Shakl-shamoil, hajmiy-muhitli kompozitsiya, obyektidagi zarurlik qonuniyati, asosida konstruktivlik, maqsadga muvofiqlik va badiiy ma’nodorlik, funktsionallik;

- Obyektning konseptual sxemasini qidirish, g’oyaning perspektiv yo’nalishini ochib berish, interyer loyiha maqsadini yechishda sistemali fikrlash, interyer loyiha modeliga ta’sir yetuvchi uslubiy materiallarni o’rganish, interyer loyiha materiali namunasi bilan tanishtirish, loyiha albomlarini ko’rish, chet el va mamlakat doirasida ishlab chiqilgan interyer loyiha tajriba namunalarini o’rganish;

- Ma’lumotlarni audiovizual texnik vositalarda o’quv kinofilmi, slaydlarni ko’rsatish, arxitekturaviy loyihaviy omillar, assotsiatsiya, shakl o’zgartirish – kombinatorlik; eskiz g’oyani birinchi klauzuraga tayyorlash, berilgan vazifa bo’yicha klauzurani o’tkazish, ijodiy konseptual fikrlarni klauzurada shakllantirish, eskiz – g’oya ustida ishlashni tugatish;

- Eskizdan loyihalash jarayoniga o’tish, interyer loyiha obyektini tashqi muhit bilan bog’lash, asosiy va ikkinchi darajadagi funksional xonalarni tartibga solish, obyektning tashqi va ichki muhit tuzilmalarini konstruktiv fikrlarni arxitekturaviy – nafis shakllar bilan bog’lash; konstruksiyani modulli yaxlit o’lchamga keltirish, intererda yorug’lik rejimini komfort sharoitiga keltirish, qulay ko’rinish, akustika va mikroiklim sharoiti bo’lishini ta’minlash, konstruktiv estetik yaxlit shaklga keltirish;

- Kompozitsion fikrni obyektning badiiy ta’sirchanligida ko’rsatish, shakl va nisbat hamohanglikni namoyon etish; interyer loyihani qalamda va grafik bajarish, xona interyeri tarhi, devor tarzi, qirg’imni va har

bir elementini hisobga olinib grafikada ijro etish, loyiha holatini eskiz, qalamda va grafik bajarilishini berilgan vaqtda tekshirish;


- Grafik vosita loyiha mavzusiga va badiiy namoyon etilishiga mos bo‘lish, g‘oyani ko‘rsatish.

Hozirgi kunda intellektual mehnat bozorida raqobat yuqoriligini hisobga olib, bozor talabini qondirish va muhandislik sohasida mutaxassislarni tayyorlash darajasini oshirish muammolari yuzaga keladi.

Texnika oliy ta‘lim muassasalarida ushbu muammoni hal etish ta‘lim siyosatini amalga oshirish orqali bajarilishi mumkin. Ushbu siyosat raqobatbardosh va ijtimoiy himoyalangan mutaxassislarni tayyorlash darajasini oshirishga, ularning kasbiy qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Biz buning natijasida doimo o‘zgarib turadigan zamonaviy sharoitda vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan har tomonlama yetuk muhandislarni olishimiz mumkin.

Bugungi kunda jamiyatni axborotlashtirish global muaamolardan biri ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, zamonaviy jamiyat rivojlanishining boshqa tendensiyalari bilan taqqoslaganda axborotlashtirish birinchi o‘ringa chiqadi.

Bugungi kundagi yangi zamonaviy dasturiy ta‘lim vositalari hamda axborot texnologiyalarini joriy etishning keskin ortishi insoniyat hayoti uchun yangi axborot muhiti, ya‘ni dasturiy ta‘lim vositalarni bir necha guruhlariga ajratadi.



1-rasm. Didaktik ta‘lim vositalari turlari

Texnika oliy ta‘lim muassasalarining o‘ziga xos jihatlari shundaki, tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy faoliyati bevosita muntazam takomillashib borayotgan texnika va texnologiyalardan foydalangan holda murakkab masallarni yechishga, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo‘naltiriladi. Shu boisdan oliy texnik ta‘lim paradigmasi tubdan farqlanadi: maqsadi, mazmuni, boshqarish prinsipi yangilanayotgan ishlab chiqarish tizimiga egiluvchan tarzda moslashib borishi talab etiladi.

Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanishi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlari va qobiliyatlari, kasbiy bilim va ko‘nikmalarining o‘sishi, shakllanishi, ta‘lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi mehnatda o‘z amaliy tadbirini topishi kerak ekanligini e‘tirof etadi, biroq asosiy omil sifatida – kasbiy faoliyatida o‘z imkoniyatlarini ijodiy namoyon qilishiga olib keluvchi shaxsning o‘z ichki hislarini yangicha qura olishi, yashash tarzi hamda o‘z ichki dunyosini faol tarzda o‘zgartira olishi qaraladi.

Oliy ta‘limning asosiy maqsad va vazifalaridan biri talabalarni axborot jamiyatidagi doimiy

o‘zgaruvchan sharoitga tayyorlash, mustaqil faoliyatga umumkasbiy tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Hozirgi kunda barcha sohalarida axborot texnologiyalarining joriy etilishi axborotni, shu jumladan, texnik axborotni yaratish va taqdim etish vositalarini almashtirishga olib keldi. Endilikda sanoatning barcha tarmoqlarida konstruktorlik va texnologiya hujjatlarni shakllantirish va tahrirlash integratsiyalashgan kompyuter yordamida loyihalashtirish tizimlarida (CAD/CAM/CAE) amalga oshiriladi. CAD (Computer Aided Design) – loyihalashni avtomatlashtirish tizimi, CAM (Computer Aided Manufacturing) – ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan tayyorlash tizimi, CAE (Computer Aided Engineering) – tahlilni avtomatlashtirish tizimi.

Dasturiy ta’lim vositalari asosida loyihalash tizimlari doimiy ravishda takomillashib bormoqda va ta’lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchilarini tayyorlashdagi asosiy vazifasi talabalarda nafaqat an’anaviy bilim va ko‘nikmalarni balki, maxsus amaliy dasturlar bilan ishlash sohasida ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Nafaqat o‘z qo‘nikmalarini amalda qo‘llashga tayyorlikni, ushbu fan bo‘yicha o‘z malakalarini oshirishga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishga tayyorlikni o‘z ichiga olgan axborot kompetensiyalarini shakllantirish ham mumkin.

Bunday holatlarda talaba hamda professor-o‘qituvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan psixologik to‘siqlarni bartaraf etish asosiy muammo hisoblanadi. Shuning uchun o‘qitishning innovatsion usullariga o‘tish evolutsiyon xarakterga ega bo‘lishi kerak. Axborot texnologiyalari mashinasozlik texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Muayyan yo‘nalishni asosiy yo‘nalish sifatida qaralishi uchun asosiy ikki shartni bajara olishi kerak. Birinchidan, yo‘nalish boshqa ko‘plab sohalar tomonidan talabga ega bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, fan va texnika yo‘nalish fan va texnikaning rivojlangan yutug‘i orqali imkoniyatlarini amalga oshira olishi kerak. Bularning barchasi axborot texnologiyalari bilan hamnafas. Bundan tashqari axborotlashtirish, ishlab chiqarishni intellektuallashtirish muhandising moddiy ahamiyatini oshiradi. Ishlab chiqarishni axborotlashtirish yangi muhandislar hamda mutaxassisliklarni paydo bo‘lishiga olib keladi.

Global raqobat vaqtida mahalliy sanoat axborot texnologiyalarining barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda dizayn va texnologik, operatsion va boshqaruv vazifalarini hal qila oladigan muhandis kadrlarni talab qiladi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni dasturiy ta’lim vositalari asosida o‘qitishni quyidagi turlarida qo‘llash imkoniyatlari aniqlandi:

- ochiq darslar, telekonferensiyalar, audiokonferensiyalar;
- kompyuter dasturlaridan foydalanib virtual laboratoriya ishlarini o‘tkazishda;
- o‘rganilgan o‘quv materialini mustahkamlash, nazorat qilish va tekshirishda;
- yangi sohaga oid nazariy ma’lumotlarni o‘rganish va bayon etishda;
- talabalarning mustaqil ishlarida;
- amaliy mashg‘ulotlarda.

Hozirgi kunda intellektual mehnat bozorida raqobat yuqoriligini hisobga olib, bozor talabini qondirish va muhandislik sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash darajasini oshirish muammolari yuzaga keladi.

Xulosa. Bugungi rivojlanish davrida ta’lim oluvchilar o‘z ustida mukammal ishlashi, bilim va malakasini oshirishi lozim bo‘ladi, chunki bugungi kunda bozor iqtisodiyoti mutaxassislarga yuqori talablar qo‘yiladi. Bitiruvchi talaba o‘qishni bitirgandan so‘ng aniq mutaxassisligi bo‘yicha kafolatlangan ish joyiga ega bo‘lishi kerak va kelajakda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetuk mutaxassis, har tomonlama raqobatbardosh bo‘lishi, ham bilim jihatdan, ham shaxs sifatida kompetentli bo‘lib yetishishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Abdurashidov K.S., Xabilov B.A., Toychiyev N.J., Raximboyev A.G. Qurilish mexanikasi. — T., 2000.
2. Анализ причин аварий и повреждений строительных конструкций. — М.: «Стройиздат», 1973.
3. Asqarov B. Qurilish konstruksiyalari. — T., 1995.
4. Атлас деревянных конструкций. Г.Гётц и др., пер. с нем. - М.: «Стройиздат», 1985.
5. Игошев, Б.М. Системно-интегративная организация подготовки профессионально мобильных педагогов: ав-тореф. дис. ... д-ра пед. наук / Б.М.Игошев. - М.,2008. -42с.
6. Новиков, А. М. Постиндустриальное образование. / А.М.Новиков. - М.: Эгвес, 2008. - 136с.

7. Амирова, Л.А. Развитие профессиональной мобильности педагога в системе дополнительного образования: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. /Л.А.Амирова. - Уфа, 2009. - 52с.
8. Горюнова, Л. В. Профессиональная мобильность специалиста как проблема развивающегося образования России: автореф. дис.... д-ра пед. наук / Л.В.Горюнова. -Ростов-на-Дону, 2006. - 44 с.
9. Juraev Kh. Ways of using educational materials on alternative energy sources at natural lessons// European science review. – Austria, 2018. № 1-2. –Pp. 177-180.
10. Jo'rayev H.O., Quliyeva Sh.H. va boshq. Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon Zamin Ziyo, 2015. – 240 б.
11. Qahhorov S.Q., Juraev H.O. Modeling of heat-physical processes in solar dryers//Journal of Critical reviews. –Kuala Lumpur, 2020. № 7. – Pp. 9–15.
12. Khazratov F., Juraev Kh. Methods of creation and organization of work, technology for creating auto-navigation maps [Электронный ресурс]: URL: <http://www.jcreview.com/?mno=9704>

TALABALARDA IJODIY FAOLLIK MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK TRENING DASTURINING AHAMIYATI

*Latipova Umida Yusufboyevna,
Urganch davlat universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida dotsent v.b
ulatipova933@gmail.com*

Mazkur maqolada talabalarda ijodiy faollik motivatsiyasini rivojlantirishda, ijtimoiy psixologik trening dasturidan foydalanishning, ilmiy nazariy, ilmiy uslubiy asoslarini yaratishning psixologik talqini borasidagi yondashuvlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: talaba, trening, kreativlik, shaxs, muammo, pedagog, psixolog, o‘zgarish, mashg‘ulot.

ЗНАЧЕНИЕ ПРОГРАММЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В ПОВЫШЕНИИ МОТИВАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ

В данной статье представлены подходы к психологической интерпретации использования программ социально-психологического тренинга, созданию научных теоретико-методических основ развития мотивации творческой деятельности у студентов.

Ключевые слова: студент, обучение, творчество, личность, проблема, педагог, психолог, изменение, обучение.

THE IMPORTANCE OF THE PSYCHOLOGICAL TRAINING PROGRAM IN INCREASING THE MOTIVATION OF CREATIVE ACTIVITY IN STUDENTS

In this article, there are approaches to the psychological interpretation of the use of the social psychological training program, the creation of scientific theoretical and methodological bases for the development of creative activity motivation in students.

Keywords: student, learning, creativity, personality, problem, teacher, psychologist, change, learning.

Kirish. Bugungi kunda ijodiy tafakkur qila oldigan mutaxassislarni tayyorlash masalasi juda dolzarbdir. Bu ish yangi o‘qitish texnologiyalari, shakllari, usullari yordamida mustaqillik, tashabusskorlikni namoyon etuvchi, kreativ fikrlay oladigan shaxslarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Zero, bilim olishga, ta‘lim sohasida malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan an‘anaviy ta‘lim zamonaviy talablardan ortda qolmoqda. Ta‘lim negizida, nafaqat o‘quv fanlari bo‘lishi, balki tafakkur va faoliyat usularini shakllantiruvchi dasturlar turishi shart. Ijodiy hulq-atvorni rivojlantirishning muhim shakllaridan biri ijtimoiy-psixologik treningdir. Uni ko‘llash miqyosi nihoyatda keng: texnik soha, ta‘lim, tibbiyot, hodimlarining malakasini oshirishda, ayniqsa, keng qo‘llanmoqda. Jumladan, ijtimoiy-psixologik trening yuqori samarali darajada o‘rta mahsus va oliy ta‘lim sohasida ta‘lim jarayonida qo‘llanilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (literature review). “Ijtimoiy-psixologik” trening atamasi bir qancha ilmiy talqinlarga ega. Masalan, Y.N. Emelyanovanning ko‘rsatishicha, trening “ijtimoiy-psixologik voqeliklarni o‘rganish uchun “model” bo‘lib hizmat qiladi”. L.A. Petrovskaya ijtimoiy-psixologik treningni «psixologik ta‘sir vositasi» sifatida ko‘rib chiqib, bilim olish va uni, ijtimoiy ustanovkalarni Shaxslararo munosabatlar sohasida malaka va ko‘nikmalarni orttirish va rivojlantirishga yo‘naltirish nuqtayi nazaridan tushintiradi [1].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bizning tadqiqotimiz S.I.Makshanovning trening haqidagi qarashlariga asoslangan bo‘lib, u treningni “insonni, guruhni va tashkilotni ko‘p-funksional usul bilan maqsadga muvofiq o‘zgartirish” deb tushintiradi. Y.N. Emelyanovanning tadqiqotlarida ijtimoiy-psixologik trening “ta‘lim olish yoki faoliyatning har qanday murakkab shaklini egallash uchun qobiliyatlarni rivojlantiruvchi usullar majmuidir” deb talqin etish bizning g‘oyamizga yaqindir. Har ikkala holatda ham kalit so‘z “o‘zgarish” so‘zi hisoblanadi. Bizning tahminimizcha, to‘g‘ri tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik trening shaxsning faqat ijobiy o‘zgarishlariga, kommunikativ malakalar, hamda trening barcha ishtirokchilarida ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga ko‘mak beradi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy psixologik treningdan o‘z faoliyatida keng miqyosda psixologlar va pedagoglar, bolalar, talabalar, mutahassislar, tashkilot va korxonalar rahbarlari bilan ishlashda foydalanishadi[2].

Psixologik korreksiya oliygoh talabalaridagi ijodiy faollik, shaxslilik xususiyatlar rivojlanishida to‘siq bo‘layotgan ma‘lum bir psixik buzilishlarni tuzatish sifatida yoki talaba qobiliyatlarini rivojlantirish borasida ish olib borish, uning shaxsini shakllantirishga ko‘maklashish ma‘nosida tushuniladi. Shu munosabat bilan talabalarga psixologik xizmatni tashkil etish borasida ish olib borayotgan mutaxassislarining deyarli ko‘pchiligi shuni e‘tirof etadilarki, psixologik korreksiya psixologik diagnostik-korreksion va diagnostik-rivojlantiruvchi faoliyatining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

E‘tirof etiladiki, talabalar bilan psixokorreksion va rivojlantiruvchi ishlar dasturini ishlab chiqish psixokorreksion bosqichdan avvalgi kompleks psixodiagnostika natijalariga bevosita tayangan holda olib borilishi kerak [3].

Biroq psixokorreksion ish xususiyati, uning shakllari va metodlarini ko‘rib chiqmasdan turib uning muhimligi va ahamiyatini ko‘rsatishning o‘zi etarli emas. Trening ingliz tilidan olingan bo‘lib, “mashq qilish”, “takrorlash” ma‘nolarini bildiradi. Psixologik trening xaqida gap ketganda, bu atama ko‘pchilik tomonidan “muammolar yechimi topiladigan mashg‘ulot” sifatida qabul qilinadi. Aslini olganda trening mashg‘ulotlari kishilarning muammolarini hal qilmaydi, balki shu muammolarning asosini tahlili qila olish uchun lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni hosil qiladi. Boshqacha aytganda, TRENING – Shaxsda mavjud yoki vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida turli xil o‘yin va mashqlar orqali o‘tkaziladigan mashg‘ulot hisoblanadi. Psixolog olimlardan A.V.Petrovskiy, A.Xorash tomonidan trening nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqilgan. Bu ikki olim, asosan, treningni amalga oshirishda rolli o‘yinlar va guruhliy bahs metodidan, shuningdek, ishbilarmonlik, ya‘ni innovatsion o‘yinlardan ham foydalanganlar. Guruhlarda turli muammoli vaziyatlar tashkil qilinib, guruh a‘zolarining soni 7-15 kishini tashkil etadi. Shu vaziyatlarda guruh a‘zolari ma‘lum rollar bajaradilar. Trening jarayonida, asosan, xulq-atvor treningi asosiy o‘rinni egallaydi. Shaxsning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati mashg‘ulot jarayonida atrof-muhitning ta‘siri natijasi bilan bevosita xulq-atvorining o‘zgarishiga olib keladi. Trening turli tiplarda o‘tkazilishi mumkin. Masalan: hissiyot treningi, video trening, perseptiv trening, bilish jarayonlarini, intellektual sifatlarni rivojlantiruvchi treninglar. Xuddi shu nuqtayi nazardan talaba-yoshlarda kreativlik sifatlarni art-terapiya vositalari orqali shakllantirishda ham biz maxsus kompleks trening dasturlaridan foydalandik. Ushbu kompleks trening dasturlarimizning maqsad vazifasi quyidagilardan iborat.

Treningga ta‘rif berish yoki uni tushuntirishda turli mualliflar tomonidan turlicha yondashuvlar keltirilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati trening mashg‘ulotlari o‘yin va mashqlar orqali amalga oshirilishiga va trening jarayonida ko‘nikma va malakalar hosil etilishiga e‘tibor qaratganlar.

Jumladan, O.Gorbushina, trening – bu shaxsni o‘zgartirishga qaratilgan hissiyotlarga boy bo‘lgan mashg‘ulotdir, deb ta‘riflaydi.

Shundan kelib chiqqan hoda treningning maqsadi va vazifalariga ham aniqlik kiritib olish mumkin. O‘tkaziladigan psixologik treninglarning maqsadi quyidagicha bo‘lishi kuzatiladi:

Shaxsda muloqotchanlik ko‘nikmalarini hosil qilish;

Hayotdagi qarama-qarshiliklarni to‘g‘ri tushuna olish va tahlil qilishga o‘rgatish;

Shaxsning ichki holati (ruhiyati)ni o‘zgartirishga erishish;

Shaxs kamoloti uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni hosil qilish;

Favqulotda vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish ko‘nikmasini hosil qilish.

Trening mobaynida ta‘lim berish shakllaridan asosiylari rasmiy o‘yinlar, guruhliy muhokamalar, “aqliy hujumning” har-xil turlari, amaliy vaziyatlarning tahlil qilish usullaridir [4],[5],[6],[7]. Ijtimoiy-psixologik trening jarayonida asosiy ta‘sir etish omili psixologdan chiqayotgan ma‘lumot emas, balki guruh, guruh dinamikasi jarayonlaridir. Shuning uchun ijtimoiy-psixologik trening doirasida ta‘sir qilishning asosiy usullari “dialog emas, balki guruhliy muhokama va rolli o‘yinlar” hisoblanadi.

Treningdan avval quyidagi savollarni o‘z oldiga qo‘yish maqsadga muvofiq: trening ishtirokchilarining samarali faoliyatini qanday tashkil etish lozim? Nimalarga e‘tibor qaratish, qanday g‘oyalar, tamoyillar ta‘limning asosida bo‘lishi lozim?

Bizningcha, trening guruhining ishlash tartibini quyidagi tamoyillarga asoslanib tashkil etish kerak:

Birinchiidan, bu – faollik tamoyili. Treningning barcha ishtirokchilari guruh faoliyatiga kirishishlari shart. Trening samaradorligi negizida ishtirokchilarning faol harakatlari yotadi. Barcha ushbu jarayonga kirishgan bo‘lishlari lozim. Faqatgina faol qatnashish orqali ishtirokchilar dunyoni bilib, o‘zlari uchun avval anglanmagan, bilmagan narsalarni ochish imkoniga ega bo‘ladi. Trening shakli uning ishtirokchilariga nafaqat harakatga istagan paytda kirisha olishi, balki erkin harakatlanishi, muloqot jarayonida o‘z rollarini o‘zgartirish, guruhning barcha a‘zolari bilan faol o‘zaro ta‘sirida bo‘lish imkonini beradi.

Ikkinchiidan, ijodiylik – tamoyili. Ijodiylik ruhida atrofda barcha narsa yo‘g‘rilgan bo‘lishi kerak.

Trening jarayonida trening ishtirokchilari o‘z salohiyatlarini namoyon qilib, ma’lum qonuniyatlarini anglashadi va yangi kreativ g‘oyalarni ishlab chiqishadi.

Uchinchidan, xulq-atvorni obyektivlash (anglash) tamoyilini ta’kidlash kerak. Trening o‘tkazish jarayonida pedagog ishtirokchilarni impulsiv bosqichdan anglangan bosqichga o‘tkazish imkoniyatini beruvchi muhit yaratishga harakat qiladi. Aynan qaytar aloqa ushbu jarayonning bosh vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun trenerning eng muhim vazifasi – guruhda samarali qaytuvchi aloqa uchun sharoit yaratib berishdir. Yana bir omilga e’tibor qaratish lozimki, qaytuvchi aloqa ham ijobiy, ham salbiy (korreksiyalashtiruvchi) bo‘lishi mumkin. Qaytar aloqaning ikkala turi ishtirokchilarga faqat ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, trener uchun erishish shart bo‘lgan marradir.

Va nihoyat, tengsheriklik (subyekt-subyektili) muloqot tamoyili. Teng sheriklik muloqotda o‘zaro ta’sirning barcha ishtirokchilari qiziqishlari, his-tuyg‘ulari, hissiyotlari, kechinmalari inobatga olinib, har bir shaxs qadri tan olinadi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishda, guruhda samimiylik va ochiqlik, ishonch va qabul qilish muhiti vujudga kelib, guruh ishtirokchilariga erkin so‘zlash, harakat qilish, xato qilishdan qo‘rqmaslik imkoni beriladi. Ushbu tamoyil tor doirada trening ishtirokchilarining ijodiy nuqtai-nazar tamoyili bilan bog‘liq. Yuqorida qayd etilgan tamoyilarni amalga oshirish – trening guruhining samarali faoliyati garovidir.

Talabalarni bo‘ljak kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri, ularda erkin fikrlay olish, murakkab vazifalarga noan’anaviy echimlar topish, qo‘yilgan maqsadlarni samarali echish qobiliyatlari kreativlik deb nomlanadi. Kreativlik darajasini ijodiy jarayonning sur’ati belgilab beradi. Kreativlik har qanday faoliyat turida namoyon bo‘lib, u Shaxsni yahlitligicha yoki uning alohida qobiliyatlarini tavsiflaydi. Ijodiyotning vujudga kelishida birinchi qadam sifatida nafaqat mavjud bilimlar, balki mavjud bo‘lgan yorliqlarni (stereotiplarni) qayta tashunishga yo‘naltirilgan yangi g‘oyalarga sezgirlik ham xizmat qiladi.

Ijodiy tafakkurning rivojlanishiga turtki beruvchi shartlar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- yakunlanmagan vaziyatlar (aniq berilgan va nazorat qilinuvchi vaziyatlardan farqli);
- savollarga ruhsat berish va rag‘batlantirish;
- keyingi faoliyat uchun usullari va qo‘llanmalarni yaratish;
- mulohazalarda mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash, qabul qilingan qarorlarga mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish;
- mustaqil kuzatuvlarga, ishlanmalarga va umumlashmalarga urg‘u berish [8].

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida bevosita psixologik trening dasturidan oldingi va keyingi natijalar tahlilini keltirib o‘tamiz. Bunda 1-2 kurs talabalari hamda 3-4 kurs talabalarining holatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Endi 5-Faktorli ijodiy faollik metodikasi bo‘yicha 1-2 va 3-4 kurs talabalaridan olingan empirik natijalarning qiyosiy-statistik tahlillarini ko‘rib chiqamiz. “Yangilik hissi” mezonini 1-2 kurs talabalarida tajriba guruhida (n=205) eksperimentdan oldin 16,33%, eksperimentdan keyin esa bu ko‘rsatkich 18,75% ni tashkil qildi. Nazorat guruhida eksperimentdan oldin 18,06%, eksperimentdan keyin esa bu ko‘rsatkich 18,02% ga tushganini ko‘rish mumkin.

3-4 kurs talabalarida bu mezon bo‘yicha natija quyidagicha aks etdi. Ya’ni (n=165) tajriba guruhida eksperimentdan oldin 17,73%, eksperimentdan keyin esa bu ko‘rsatkich 16,73% ga tushganini ko‘rish mumkin. Nazorat guruhida esa eksperimentdan oldin 18,06%, eksperimentdan keyin esa bu ko‘rsatkich 14,62 % ga teng bo‘ldi. Bundan ko‘rinib turibdiki, talabalarda yangilikka intilish va uni o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoq yuqori ekan. Trening dasturidan keyin bu qobiliyat bo‘yicha talabalarda o‘zgarish kuzatildi. Shuningdek, “Tanqidiylik” mezonini bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich kuzatildi. 1-2 kurs talabalarida tajriba guruhida (n=205) eksperimentdan oldin 20,18%, eksperimentdan keyin esa bu ko‘rsatkich 23,0,5% ni tashkil qildi. Nazorat guruhida eksperimentdan oldin 17, 26%, eksperimentdan keyin esa bu ko‘rsatkich 17, 23 % ga tushganini ko‘rish mumkin.

3-4 kurs talabalarida bu mezon bo‘yicha (n=165) tajriba guruhida eksperimentdan oldin 18,77%, eksperimentdan keyin esa bu ko‘rsatkich 21,72% ga tushganini ko‘rish mumkin. Nazorat guruhida esa eksperimentdan oldin 17, 43%, eksperimentdan keyin esa bu ko‘rsatkich 17,23 % ga teng bo‘ldi.

Demak, talabalarda fikrlashning rivojlanish bosqichlari normal rivojlangan bo‘lib, ularda analiz qilish, o‘z-o‘zini baholashga bo‘lgan munosabat etarlicha shakllangan ekan.

“Obyektning tuzilishini o‘zgartirish qobiliyati” mezonini natijalariga ko‘ra, esa 1-2 kurs talabalarida tajriba guruhida (n=205) eksperimentdan oldin 15, 44%, eksperimentdan keyin esa bu ko‘rsatkich 21,23% ga oshdi. Nazorat guruhida eksperimentdan oldin 12,53%, eksperimentdan keyin esa bu ko‘rsatkich 12,49% ga

tushganini ko‘rish mumkin. 3-4 kurs talabalarida bu mezon bo‘yicha natija quyidagicha aks etdi.

5-Faktorli ijodiy faollik metodikasi bo‘yicha 1-2 va 3-4 bosqich talabalaridan olingan empirik natijalarning qiyosiy-statistik ko‘rinishi (n=370)

Ko‘rsatkich-lar	1-2 kurs (n=205)					3-4 kurs (n=165)			
	Tajriba guruhi	student mezoni	Nazorat guruhi	student mezoni	Tajriba guruhi	student mezoni	Nazorat guruhi	student mezoni	
“Yangilik hissi”	Eks.ol din	16,33	0,004 *	18,06	0,94 4	17,73	0,043 *	15,42	0,574
	Eks.ke yin	18,75		18,02		16,73		14,62	
“Tanqidiylik” mezoni	Eks.ol din	20,18	0,003 *	17,26	0,83 5	18,77	0,004 *	17,43	0,845
	Eks.ke yin	23,05		17,13		21,72		17,23	
“Obyektning tuzilishini o‘zgartirish qobiliyati” mezoni	Eks.ol din	15,44	,023*	12,53	0,95 3	15,55	0,005 *	18,83	0,526
	Eks.ke yin	17,23		12,49		17,65		18,17	
“Ijodkorlikka yo‘nalganlik” mezoni	Eks.ol din	15,73	0,000 *	13,83	0,98 1	17,15	0,001 *	13,5	0,712
	Eks.ke yin	21,23		14,23		21,15		12,17	
“O‘z-o‘zini baholash (nazorat so‘rovnomasi)” mezoni	Eks.ol din	16,4	0,002 *	14,1	0,49 8	12,6	0,002 *	14,9	0,157
	Eks.ke yin	18,7		14,8		15,7		15,2	

Demak, talaba-yoshlarimizda ijodiy faollik motivatsiyasini shakllantirish bu pedagoglarning, oilaning, umuman, jamiyatning oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Darhaqiqat, yoshlarimiz uchun o‘z manfaat va qiziqishlarini yangilikka intilish bilan boyitish orqali ma’naviy yetuk insonlarni tarbiyalashimiz muhim[9].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqorida qayd etilgan kreativlikni rivojlanish sharoitlari ijtimoiy-psixologik trening davomida tatbiq etiladi. Pedagog, avvalombor, ijod uchun qulay sharoitlar yaratishi, muvofiq muhitni tashkil etishi kerak. Ushbu jarayonda kreativlik treningining maqsadi sablarni tushunish, turli ijtimoiy vaziyatlar dinamikasini va sabablarini tahlil qilish, shu bilan bir qatorda, shaxslaro o‘zaro ta’sirning turli vaziyatlarida noan’anaviy, ijodiy qarorlarni qabul qila olishga undashdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Петровская Л. А. Теоретические и методические проблемы социально-психологического тренинга. - М: Изд-во Моск. Ун-та, 1982. – С. 116.
2. Гарабажий В.А Студенческое творчество в системе организационной культуры современного вуза. – дис.канд.социол.наук.-Тюмень,2011.с. 26-35.
3. 169. Усмонова Э.З. Психокоррекция познавательных процессов.Ўқув қўлланма. - Т.: 2011 й. – Б. 288-306.
4. Петровский А. В., Петровский В. А. Индивид и его потребность быть личностью // Вопросы философии. 1982. -№ 3. – С. 63.
5. Рубинштейн С.Л. К вопросу о языке, речи и мышлении // Вопросы языкознания. 1957. № 2. - С. 42–49.

6. Фетискин Н.П., Козлов В.В., Мануйлов Г.М. Диагностика уровня невербальной креативности/ Социально-психологическая диагностика развития личности и малых групп. – М., 2002. – С. 69-71.

7. Шарафутдинова Х.Г. Узлуксиз таълим тизимида аклий қобилият диагностикаси ва психокоррекцияси: Псих. фан. ном. ... дис. – Т.: ТДПУ, 2009, – 198 б.

8. Фарукшина Ф.Г Развитие творческого мышления будущего учителя при компьютерном обучении. - дис. канд. психол. наук. – Казань, 2002.

9. Latipova U. Talabalarda ijodiy faollik motivatsiyasi namoyon bo‘lishining psixologik mezonlari // TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 193-195.

PSIXODIAGNOSTIKA METODLARINI PSIXOMETRIKA MEZONLARI VA UNING MAZMUN MOHIYATI ASOSIDA O’RGANISH

*Mamajonova Shahzoda Yoqubjon qizi,
Tashkent International University of Education
xalqaro universiteti o’qituvchisi*

Maqolada psixodiagnostika metodikalarining psixometriya mezonlari uning mohiyati fanda qo’llanilishi, psixologiyada hodisalarni o’lchash - bu obyekt yoki obyektlar to’plamining ma’lum bir xususiyatga ega bo’lish darajasini aniqlashdan iborat jarayon bo’lishi, agar o’lchov insonga xos xususiyat yoki xususiyatga tegishli bo’lsa, unda bu xususiyat unga turli darajada xos bo’lishi tabiiydir ekanligi borasida atroflicha fikrlar keltirilgan. Bundan tashqari o’lchov - bu shaxs yoki shaxslar guruhining xususiyatlarini uning xususiyatlaridan biriga nisbatan kontinuumga (miqyosga) joylashtirish usuli bo’lishi, o’lchov asosan miqdoriy jarayon bo’lib, hodisalarga, obyektlarga raqamli qiymatlarni berishdan iboratligi hodisalarga raqamli qiymatlarni belgilash qoidalari o’lchovning foydaliligini aniqlashi bayon etilgan.

***Kalit so’zlar:** psixometriya, psixodiagnostika, ong, psixik jarayonlar, g’oya, dalil, o’lchov, tadqiqot, matematika, qiziqarli, muammo, fakt, qiziqarli, amaliy.*

ИЗУЧЕНИЕ МЕТОДОВ ПСИХОДИАГНОСТИКИ НА ОСНОВЕ ПСИХОМЕТРИЧЕСКИХ КРИТЕРИЙ И ЕГО СОДЕРЖАТЕЛЬНОЙ СУЩНОСТИ

В статье идёт речь о том, что критерии психометрии психодиагностических методов используются в науке, измерение явлений в психологии – это процесс определения степени, в которой объект или совокупность объектов обладает определённой характеристикой, если измерение является характерной характеристикой объекта. человека или если оно связано с каким-либо признаком, то существуют косвенные мнения о том, что этот признак естественно быть свойственен ему в той или иной степени. Кроме того, говорится о том, что измерение — это метод размещения характеристик отдельного человека или группы людей на континууме (шкале) относительно одной из его характеристик. Утверждается, что измерение представляет собой преимущественно количественный процесс и заключается в присвоении числовых значений событиям, объектам, а правила присвоения числовых значений событиям определяют полезность измерения.

***Ключевые слова:** психометрия, психодиагностика, сознание, психические процессы, идея, свидетельство, измерение, исследование, математика, интересный, проблема, факт, практический.*

STUDY OF PSYCHODIAGNOSTIC METHODS BASED ON PSYCHOMETRIC CRITERIA AND ITS MEANINGFUL ESSENCE

The article deals with the fact that the criteria of psychometrics psychodiagnostic methods are used in science, the measurement of phenomena in psychology is the process of determining the degree to which an object or a set of objects possesses a certain characteristic, if the measurement is a characteristic feature of the object. of a person or if it is associated with a trait, there are indirect opinions that this trait is naturally characteristic of him to a greater or lesser degree. In addition, it is stated that measurement is a method of placing the characteristics of an individual or a group of people on a continuum (scale) relative to one of its characteristics. It is argued that measurement is predominantly a quantitative process and consists of assigning numerical values to events, objects, and the rules for assigning numerical values to events determine the usefulness of the measurement.

***Keywords:** psychometrics, psychodiagnostics, consciousness, mental processes, idea, evidence, measurement, research, mathematics, interesting, problem, fact, interesting, practical.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017- yil 29- avgustdagi PQ-3245-son “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorini bajarish yuzasidan hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda axborot va jamoat xavfsizligi, shuningdek, huquq-tartibotni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish, Davlat axborot tizimlari va resurslari, shuningdek,

internet tarmogʻi milliy segmentining axborot xavfsizligini taʼminlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqish qarorlarining qabul qilinishi yurtimizda axborot manbaalariga boʻlgan qaramliklarni oldini olish va axborot xavfsizligini taʼminlashga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Miromonovich oʻzining 2016-yildagi ijtimoiy-qitiosodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vaʼzirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maʼruzasida. Taʼlim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, taʼlimning yangi zamonaviy usullarini joriy etish sohasidagi ishlari tanqidiy tahlil etildi

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Psixometriya (yunoncha metron - oʻlchov) - dastlab: psixik jarayonlarning vaqtinchalik xususiyatlarini oʻlchash jarayoni bilan bogʻliq holda tadqiq etilgan. "Psixometriya" tushunchasi birinchi marta XVII asrning birinchi yarmida Nemis faylasufi V.Volf tomonidan qoʻllanilgan. Psixologiyada oʻlchov haqida birinchi boʻlib gapirgan odam V.Volf boʻlib, u "zavqning kattaligini biz anglagan mukammallik bilan va diqqatning kattaligini - biz qila oladigan dalillarning davomiyligi bilan oʻlchash mumkin" deb hisoblagan." Xuddi shu asrda psixometriya haqidagi bu gʻoya faylasuflar, tabiatshunoslar, matematiklar tomonidan noaniq ifodalangan. Estoniyalik psixolog K. Ramul eksperimental psixologik tadqiqotlar toifasiga aniq mos keladigan, XVIII asrga oid tadqiqotlardan dalolat beruvchi bir qator qiziqarli faktlarni toʻpladi. Psixologik oʻlchashning birinchi va bundan tashqari amaliy muammolaridan biriga misol sifatida biz "shaxsiy tenglama" muammosini keltirishimiz mumkin.[1.23b]

XVIII asrda oʻlchovni har qanday fanning yagona maqsadi boʻlmas-da, eng muhimi, degan qarash eksperimental psixologiyaning boshlanishi va uning ilmiy tadqiqotning maxsus sohasi sifatida chinakam shakllana boshlagan davrining leytmotivi boʻldi. Birinchi psixologik laboratoriyalardan biri tashkilotchisi F.Galton oʻshanda shunday deb yozgan edi: "Psixometriya turli shaxslardagi reaksiya vaqtini aniqlash kabi aql operatsiyalarini oʻlchov va son bilan qoplash sanʼatini anglatadi. Baʼzi bilim sohalari oʻlchov va raqamga boʻysunadi, ular ilm maqomi va qadr-qimmatiga ega boʻlolmaydilar".

Psixologiyadagi birinchi oʻlchovlardan biri reaksiya vaqtini oʻlchash edi. Shuning uchun dastlab psixometriya psixik jarayonlarning vaqtinchalik xususiyatlarini oʻlchash sifatida tushunilgan. Keyinchalik, tabiat fanlari modeli va oʻxshashligi asosida qurilgan psixologik eksperimentning rivojlanishi bilan psixik hodisalarni miqdoriy aniqlash bilan bogʻliq barcha narsalar psixometriyaga tegishli boʻla boshlaydi. Bugungi kunda ham juda keng tarqalgan bu tushuncha bilan psixometriya psixologik oʻlchovlarning butun spektrini oʻz ichiga oladi - psixofizikdan shaxsiyigacha.

Psixologiyada hodisalarni oʻlchash - bu obyekt yoki obyektlar toʻplamining maʼlum bir xususiyatga ega boʻlish darajasini aniqlashdan iborat jarayon. Agar oʻlchov insonga xos xususiyat yoki xususiyatga tegishli boʻlsa, unda bu xususiyat unga turli darajada xos boʻlishi tabiiydir. Shunday qilib, oʻlchov - bu shaxs yoki shaxslar guruhining xususiyatlarini uning xususiyatlaridan biriga nisbatan kontinuumga (miqyosga) joylashtirish usuli. Oʻlchov asosan miqdoriy jarayon boʻlib, hodisalarga, obyektlarga raqamli qiymatlarni berishdan iborat. Hodisalarga raqamli qiymatlarni belgilash qoidalari oʻlchovning foydaliligini aniqlaydi. Misol uchun, agar biz psixologik jihatdan normal boʻlgan har qanday odamga 0 ni, psixologik buzilishi boʻlgan har qanday odamga 1 qoʻysak, keyin maʼlum bir namunani oʻrganib chiqqandan soʻng, ushbu toifalarning har biriga kiradigan odamlar sonini hisoblashingiz mumkin. Shunga qaramay, koʻrib chiqilayotgan oʻlchov usuli faqat "hamma" yoki "hech narsa" turiga bogʻliqligini ifodalashga imkon beradi, lekin normallik darajasini, uning davomiyligini va hokazolarni tavsiflashga imkon bermaydi. Buning uchun koʻp sonli gradatsiyaga ega boʻlgan shkaladan foydalanish kerak, masalan, 1 dan 10 gacha boʻlgan shkala, unga differensial tajribada olingan maʼlumotlar joylashtirilishi kerak.[2.8b]

Har bir oʻlchov faqat tavsiflovchi protsedura bilan bogʻliq boʻlishi kerak va hech qachon oʻlchanayotgan miqdor haqida faqat hukm, yaʼni taxmin boʻlmasligi kerak. Oʻlchov, baholashdan farqli oʻlaroq, empirik fakt haqida tavsiflovchi hukmdir. Oʻlchovga asoslangan qatʼiy kuzatish oʻzboshimchalik bilan baholash oʻrnini bosganda, psixologiya ilmiy boʻldi. Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida psixologiya jismoniy usullarga murojaat qildi va shu tariqa psixologiyaning ilk sohalaridan biri psixofizika vujudga keldi. Tadqiqotning ahamiyati qoʻllaniladigan oʻlchash usullari darajasiga va tadqiqotning oʻzini loyihalashga bogʻliq. Tadqiqot uchun tanlangan usul oʻrganilayotgan mavzuga mos keladimi yoki yoʻqligini tekshirish kerak va u koʻrib chiqilayotgan oʻzgaruvchilarning tegishli oʻlchovini taʼminlaydi.

Psixologiyadagi oʻlchovlar psixologik hodisalarning miqdoriy ifodasini aniqlash uchun protseduralardir. Ushbu protseduralarda turli xil oʻlchovlar qoʻllaniladi, ular psixologik elementlar bilan baʼzi bir yozishmalarga qoʻyiladigan pozitsiyalar toʻplamidir. 1946- yilda amerikalik psixolog va psixofizik

S.Stivens tomonidan taklif qilingan shkalalar tasnifida quyidagi shkalalar ajratiladi: munosabatlar, interval, tartib va nominal.[3.157b]

Har qanday psixologik o'lchov vositasini yaratish muayyan talablarga rioya qilishni talab qiladi. Ushbu talablar o'lchash metodologiyasining to'g'riligi, ishonchliligi va yetarliligi, uning yordami bilan olingan natijalarning taqqoslanishi bilan bog'liq. Ushbu talablarga rioya qilish maxsus matematik va statistik protseduralarni qo'llash orqali belgilanadi. Matematik va statistik apparatni takomillashtirish, uning rivojlanishi, birinchi navbatda, psixologik testlarni loyihalash bilan bog'liq. Psixologik masalalarni yechish jarayonida bir qancha zamonaviy statistik usullar yaratilganligi buni tasdiqlaydi. Shunday qilib, psixometriya asosan psixologik testlarda ishlab chiqilgan, shuning uchun ba'zi ishlarda ular aniqlanganligi ajablanarli emas. Shunday qilib, asosan testning rivojlanishi tufayli 20-30-yillarda psixometriya yoki psixologik masshtablash (psixologik o'lchov) eksperimental psixologiyaning chuqurligida ham, o'lchash vositalari sifatida psixodiagnostika usullarini asoslashda zamonaviy statistik protseduralarni ishlab chiqish jarayonida ham rivojlangan. Psixologik tadqiqot sohasi sifatida psixologik o'lchov mustaqil maqsadga ega - psixologik o'lchovlar ko'rsatkichlarini qurish va asoslash, ular orqali "psixologik ob'ektlar" ga buyurtma berish mumkin. Muayyan ruhiy xususiyatlarning odamlarning ma'lum bir namunasi ichida taqsimlanishi bunday "ob'ektlar" ga misoldir. Psixodiagnostik muammolarni hal qilish doirasida olingan o'lchov protseduralarining o'ziga xosligi qisqacha bir mavzuning xususiyatlarini boshqa odamlarning xususiyatlari bilan bog'liqligi orqali ifodalashga urinishgacha qisqartirilishi mumkin.

Natijalar. Shunday qilib, psixodiagnostika kabi sohada psixometriyadan foydalanishning xususiyatlari odamlarni bir-biri bilan solishtirishga asoslangan o'lchov tarozilarini qurish; Bunday miqyosdagi nuqtani ko'rsatish, psixologik xususiyatning miqdoriy ifodasiga muvofiq bir sub'ektning boshqalarga nisbatan pozitsiyasini belgilashdir.

XX asrda psixometriyaning jadal rivojlanishi. Psixometrlar tomonidan ma'lumotlarni tahlil qilishning zamonaviy statistik va statistik bo'lmagan usullarining umumiy ilmiy arsenaliga katta hissa qo'shishiga olib keldi.

Bunday ma'lumotlarga misol sifatida korrelyatsiya, faktorial, klasterli tahlil, ko'p o'lchovli masshtablash va hokazolarning ko'p turlarini keltirish mumkin.

Hozirgi vaqtda psixometriya ko'pincha psixologiyada o'lchov bilan bog'liq masalalarning butun majmuasi sifatida tushuniladi. Ushbu tushunchada psixometriya psixofizikani ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda psixometriya psixik hodisalarni o'lchash nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan psixologiya sohasidir.

Psixometrik protseduralarning eng muhim xususiyati ularning standartlashuvidir, bu tadqiqotning mumkin bo'lgan eng doimiy tashqi sharoitlarda amalga oshirilishini anglatadi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, individual xususiyatlarning turli shkalalari quriladi va ma'lum bir metodologiyaning (test) ishonchliligi va asosligi to'g'risida xulosa chiqariladi. So'nggi yillarda vaziyatning o'zgaruvchilarini ham, sub'ektlarning individual xususiyatlarini ham hisobga oladigan psixometrik protseduralar va modellarni yaratish tendentsiyasi mavjud. Biroq, tadqiqotning umumiy psixologik va differensial psixologik yo'nalishlarini chinakam birlashtirish hali amalga oshirilmagan.

Psixometriya - bu aqliy xususiyatlarni o'lchashning ma'lum usullarini, xususan, psixologik testlarni qurish usullarini ilmiy asoslash va tavsifini o'z ichiga olgan texnologik ilmiy fan. Psixometriya testologiyaning alohida holatidir.[4.154b]

Psixometriya psixologik o'lchovning matematik modellarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi (Thurstone modeli, ko'p o'lchovli masshtablash modeli, yashirin belgilar modeli), haqiqiylik, ishonchlilik va boshqa aniqlangan psixologik xususiyatlar mezonlari bo'yicha eksperimental tekshirishni tartibga soladi.

Psixometriya - aqliy jarayonlarning aqliy xususiyatlari va parametrlarini raqamli yoki kvazsonik (darajali, toifali) shaklda ifodalashga imkon beradigan empirik ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashni tashkil etishning nazariy va matematik modellari va protsessual va uslubiy qoidalari to'plami.

Bugungi kunda psixometriya eng katta darajada psixofizika va differensial psixologiya kabi psixologiya sohaslarida rivojlangan. Ushbu sohalarga ko'ra psixometriyani "umumiy" va "differensial" ga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi, qo'zg'atuvchining ba'zi xossalari (masalan, yorug'lik, tovush intensivligi) va ma'lum bir kuchning mos keladigan hissi (yorqinlik, hajm va boshqalar) o'rtasidagi raqamli muvofiqlikni o'rnatadi.

Differensial psixometriya odamlar o'rtasidagi individual psixologik farqlarni aniqlaydi. Psixometriyaning ushbu ikkinchi sohasida psixologik o'lchov sifatining asosiy mezonlari ishlab chiqilgan - psixologik testlarning ishonchlilik, haqiqiylik, reprezentativlik kabi xususiyatlari. Differensial psixologiya sohasida psixometriya psixodiagnostikani o'lchashning texnologik asosidir.

Hozirgi vaqtda kognitiv jarayonlar psixologiyasi, psixolingvistika va shaxs psixologiyasi kesishgan joyda tadqiqotning yangi yo'nalishi shakllandi (va shakllanishda davom etmoqda) - eksperimental psixosemantika. Eksperimental psixosemantikaning predmeti sub'ektiv ma'no tizimlari, asosiy usuli - ko'p o'lchovli masshtablash - subyektiv semantik bo'shliqlarni qurish.

Eksperimental psixosemantikada psixologiyada matematik usullardan foydalanishning ma'lum bir prinsipi amaliyotda amalga oshiriladi. Ko'p o'lchovli bo'shliqlar va grafiklar tili empirik qiymat tizimlarini tavsiflash uchun namunaviy vositalarni taqdim etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu til operativ - empirizm tili - va nazariya tilining o'rnini bosa olmaydi.

Psixometriyani psixologik metrologiya deb hisoblash mumkin, u "psixologiyada o'lchov bilan bog'liq barcha masalalarni" qamrab oladi. Shuning uchun, masshtablash ushbu "savollar doirasi" ga kiritilgani ajablanarli emas. Ammo psixometriya o'lchov bilan bog'liqligini aniqlamaydi. Bundan tashqari, masala psixometrik fanning o'zi va uning mavzusini talqin qilishning xilma-xilligi bilan aralashiriladi. Masalan, psixometriya psixodiagnostika kontekstida ko'rib chiqiladi. "Ko'pincha "psixometriya" va "psixologik eksperiment" atamaları sinonim sifatida ishlatiladi ... Psixometriyaning psixologiyaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik statistika ekanligi juda mashhur ... Psixometriyani barqaror tushunish: psixodiagnostikaning matematik apparati. ... Psixometriya - bu aqliy hodisalarni o'rganishda matematik modellardan foydalanish haqidagi fan".

Psixologik o'lchovlarning birinchi usullari (ya'ni psixologik yoki subyektiv shkalalarni qurish usullari) psixofizika deb ataladigan psixologiya bo'limida ishlab chiqilgan. Psixofiziklarning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifasi stimulyatsiyaning jismoniy parametrlari bizning his-tuyg'ularimizning tegishli subyektiv baholari bilan qanday bog'liqligini aniqlash edi (Boring, 1950). Bu aloqani bilish, ya'ni $R=f(S)$ tipidagi funktsiyaga ega bo'lib, bu yerda S - qo'zg'atuvchining fizik parametrining qiymati va R - subyektiv reaksiyaning qiymati, har qanday narsaga mos keladigan sezgini bashorat qilish oddiy hisoblash masalasidir.

Psixofizik funktsiya ikki turdagi raqamli qiymatlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatadi, bir tomondan bu stimolni jismoniy o'lchash shkalasi, boshqa tomondan, bu stimulg'a psixologik yoki sub'ektiv reaksiya qiymatlari. Ko'rinib turibdiki, hisob-kitoblarning aniqligi to'g'ridan-to'g'ri ulanish funktsiyasiga bog'liq, ya'ni qattiqroq yoki noaniqroq bo'lishi haqida. Ammo psixofizik funktsiyaning o'zi, shkala sifatida, o'z navbatida, R va S dastlabki o'lchovlari nima bo'lishiga bog'liq. Masalan, agar R va S o'lchovlari nisbat shkalasini bersa, u holda funktsiya proporsional bog'liqlikni o'rnatishi mumkin va agar faqat tartibli shkala bo'lsa, ular orasidagi natijaviy munosabatlar, masalan, monotonlikni o'rnatish bilan cheklanadi, lekin bundan ortiq emas. Shunday qilib, psixologik tarozilarni qurish uchun qanday turdagi o'lchovlar o'tkazilganligi muhim ahamiyatga ega, shuningdek, reaksiyalar uchun ham ahamiyatli. Ammo jismoniy o'lchovlar tadqiqotchilar tomonidan juda yaxshi ma'lum va ishonchli bo'lsa-da, psixologik o'lchovlar hatto psixologlar orasida ham kamroq mashhur, shuning uchun biz sub'ektiv mashtablash bilan bog'liq o'lchov tamoyillarini batafsil qayd etamiz. Subyektiv o'lchovlar berilgan reaksiyalar to'plamidan elementlarga raqamlar berish tartibiga asoslanadi. Ushbu atribut ma'lum qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Qoidalar shundan iboratki, raqamlar uchun o'rnatilgan muayyan munosabatlar reaksiyalar to'plamida ham amalga oshiriladi. Berilgan reaksiyalar to'plami uchun qanday aloqalar o'rnatilishi mumkinligiga qarab, tegishli o'lchov shkalasi ham tuziladi.

Subyektiv o'lchovlar uchun umumiy qabul qilingan tasnifga ko'ra, odatda to'rtta asosiy o'lchov turlari ko'rib chiqiladi:

1. Ismlar shkalasi yoki tasniflash shkalasi yagona munosabatga - ekvivalentlik munosabatiga asoslanadi. Shkala bo'yicha bo'linmalar tasniflash asosidagi mezonlarni tavsiflaydi. Shaxsning ma'lum bir mezon bo'yicha har qanday qo'zg'atuvchini ma'lum bir sinfga tegishli yoki tegishli emasligini baholash qobiliyati shunchalik ravshanki, turli darajadagi murakkablikdagi reaksiyalar uchun nomlar shkalasini yaratish imkoniyati odatda e'tirozlarni keltirib chiqarmaydi.

2. Tartib shkalasi bir vaqtning o'zida ikkita munosabat - ekvivalentlik va tartib asosida quriladi. Tabiiyki, barcha obyektlardan uzoqda, subyektiv ravishda tartib munosabatlariga bo'ysunish mumkin. Masalan, qaysi biri kattaroq ekanligini darhol aytish juda qiyin - aylana yoki uchburchak, lekin agar siz ushbu obyektlardagi maydon kabi xususiyatni ajratib ko'rsatsangiz, bu obyektlar uchun tartib munosabatlarini o'rnatish ancha oson. Obyektlarni individual xususiyatlariga ko'ra bunday tartiblash turli baho shkalalarini tayyorlashda keng qo'llaniladi.

3. Intervallar shkalasi. Ushbu turdagi masshtab ikki juft qo'zg'atuvchi o'rtasidagi juft farqlarning tengligini o'rnatish, boshqacha aytganda, subyektiv intervallarning tengligini aniqlash uchun qo'shimcha qobiliyatni talab qiladi. Bunday o'lchovni qurish imkoniyati mavjud raqamli tizimlarning ko'pgina xususiyatlari subyektiv baholashlar asosida olingan raqamlarga tegishli bo'lishiga imkon beradi. Reaksiyalar

uchun intervallar shkalasini qurish allaqachon psixologiyadagi muhim yutuqdir. Ammo, boshqa tomondan, odam har doim intervallar miqyosiga mos keladigan taxminlarni amalga oshirishi mumkinligi intuitiv ravishda aniq emas. Darhaqiqat, agar subyektiv baholashlar jismoniy o'lchanadigan xususiyatga mos kelmasa, unda taxmin qilingan stimullarning intervalli shkalaga mos kelishini qanday aniqlash mumkinligi aniq emas.

4. Munosabatlar miqyosi, yuqorida sanab o'tilgan operatsiyalarga qo'shimcha ravishda: ekvivalentlik, farqlarni tartibga solish va taqqoslash, obyektlar uchun juft munosabatlarni solishtirish mumkin bo'lganda olinadi. Bu reaksiyaning mutlaq qiymatini baholash qobiliyatiga bog'liq va masalan, Kelvin harorat shkalasidagi kabi shkalada nol nuqtasi mavjudligini talab qiladi.

Muhokama. Oxirgi ikkita o'lchovni "kuchli" deb atash mumkin, ya'ni bunday o'lchovlar natijalariga ko'ra aniqroq, psixofizik funksiyalarni qurish mumkin, ularga nisbatan nozikroq statistik apparatni qo'llash mumkin, bu birinchi ikki turdagi o'lchovlarga nisbatan amalga oshirilmaydi. Barcha jismoniy o'lchovlar odatda "kuchli" tarozilarga olib kelishi kichik ahamiyatga ega edi. Shuning uchun psixofiziklar uchun intervallar va nisbatlar shkalalarini tuzishning uslubiy protseduralari boshqalarga qaraganda kattaroq ahamiyatga ega edi. Birinchi ikkita o'lchov metrik bo'lmagan, ikkinchi ikkitasi - metrik deb ataladi. Shunga ko'ra, psixologiya psixologik o'lchovlarga ikkita yondashuv haqida gapiradi: metrik (ko'proq) va metrik bo'lmagan (kamroq).

O'rganish ob'ektlariga qarab, psixologik masshtablash ikki xil bo'ladi: psixofizik yoki psixometrik.

Psixofizik masshtablash mos keladigan jismoniy o'lchov birliklari bilan fizik korrelyatsiyaga ega bo'lgan obyektlarning (hodisalar) subyektiv (psixologik) xususiyatlarini o'lchash uchun shkalalarni yaratishdan iborat. Masalan, tovushning subyektiv xususiyatlari (balandligi, tembri) jismoniy tovush tebranishlarining parametrlari: amplituda (desibellarda), chastota (gertsda), spektr (komponentlar ohanglari va konvert bo'yicha). Shunday qilib, psixofizik masshtablash jismoniy qo'zg'alish va aqliy reaksiyaning kattaligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga, shuningdek, ushbu reaksiyani obyektiv o'lchov birliklarida ifodalashga imkon beradi. Natijada, barcha darajadagi o'lchovlarning har qanday bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri shkalalari olinadi: nomlar shkalasi, tartib, intervallar va nisbatlar.

Xulosa. Psixometrik masshtablash jismoniy korrelyatsiyaga ega bo'lmagan obyektlarning (hodisalar) subyektiv xususiyatlarini o'lchash uchun shkalalarni qurishdan iborat. Masalan, shaxsiy xususiyatlar, rassomlarning mashhurligi, jamoaning birlashishi, tasvirlarning ifodaliligi va boshqalar. Psixometrik masshtablash bilvosita (obyektiv) masshtablashning ayrim usullari yordamida amalga oshiriladi. Natijada, qabul qilinadigan o'zgarishlarning tipologiyasiga ko'ra, odatda tartibli shkalalarga, kamroq vaqt oralig'i shkalalariga tegishli bo'lgan hukmlar shkalasi olinadi. Ikkinchi holda, respondentlarning fikrlari (javoblari, reytinglari) o'zgaruvchanligi ko'rsatkichlari o'lchov birligi sifatida ishlaydi. Eng xarakterli va keng tarqalgan psixometrik shkalalar reyting shkalalari va ularga asoslangan munosabat shkalalaridir. Psixometrik masshtablash ko'pgina psixologik testlarni, shuningdek, ijtimoiy psixologiya (sotsiometrik usullar) va amaliy psixologik fanlarda o'lchash usullarini ishlab chiqishda asos bo'ladi. Psixometrik miqyoslash protsedurasi asosidagi mulohazalar jismoniy hissiy stimulyatsiya uchun ham qo'llanilishi mumkinligi sababli, bu protseduralar psixofizik qaramlikni aniqlash uchun ham qo'llanilishi mumkin, ammo bu holda olingan shkalalar obyektiv o'lchov birliklariga ega bo'lmaydi.

Adabiyotlar:

1. Зароченцев К.Д., Худяков А.И. Основы психометрии. 2006 г 23-с.
2. Абрамова Г.С. Введение в практическую психодиагностику. Брест, 2003г 8-с.
3. Общая психодиагностика / Под ред. А.А. Бодалева, В.В. Столин. - М.: Издательство МГУ, 2007 г 154-с.
4. Бодалев А.А., Столин В.А. Общая психодиагностика. СПб., 2000. -154 с.
5. Бурлачук Л. Психодиагностика: Учебник для вузов, 2005. -300 с.
6. Вассерман Л.И., Дюк В.А., Иовлев Б.В., Червинская К.Р. Психологическая диагностика и новые информационные технологии. - СПб. - 2007. - 203 с.
7. Гайда В.К., Захаров В.П. Психологический тест. Л., 2002 г.-298 с.
8. G'oziyev E.G'. Psixologiya. -T., O'zMU «Universitet», 2003.-35 b.
9. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. - T.: O'qituvchi, 2010.-11 b.

**CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI
OFITSER-O'QITUVCHILARINING TA'LIM JARAYONIDAGI PEDAGOGIK QOBILIYATI**

*Nazarov Tohir Toshpo'lotovich,
Buxoro davlat pedagogika institutining Harbiy ta'lim fakulteti
Maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi, dotsent
nazarovtohir560@gmail.com*

Maqolada chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi ofitser-o'qituvchilarining ta'lim jarayonidagi pedagogik qobiliyati yoritiladi. Qobilyat insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyati, kreyativ ijodkorligi, talanti va boshqa fazilatlarini o'z ichiga oladi. Shaxsning qobiliyatlari bilim va ko'nikmalarni egallash uchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki yo'qmi, bularning hammasi, juda ko'p sharoitlarga bog'liqdir. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namoyon bo'ladi. Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi, o'qituvchining kommunikativ madaniyati hamda pedagogik boshqaruv mahorati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: qobiliyat, bilim, kreativ, muloqot, nutq, ijodkorlik, ta'lim, ko'nikma, faoliyat, kasbiy mahorat, malaka, tahsil oluvchi, pedagog, psixologik xususiyat, maqsad, natija.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ ОФИЦЕРОВ-ПЕДАГОГОВ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

В статье описываются педагогические умения офицеров военного образования досрочной службы в образовательном процессе. Способности включают характеристику психологического и физиологического строения человека, творческих способностей, таланта и других качеств. Способности человека – это лишь возможность приобретения знаний и умений. Приобретаются ли эти знания и навыки или нет, зависит от многих обстоятельств. Способности не проявляются в самих знаниях, умениях, навыках, а проявляются в динамике их приобретения, то есть, другими словами, в том, насколько быстро происходит процесс приобретения знаний и умений, важных для этой деятельности, в различных условиях и обстоятельствах, проявляется в глубокой, светлой и прочной реализации. Обсуждаются виды педагогических умений и их описание, коммуникативная культура учителя и навыки педагогического управления.

Ключевые слова: способности, знания, креативный, общение, речь, творчество, образование, умение, деятельность, профессиональное мастерство, квалификация, студент, педагог, психологическая характеристика, цель, результат.

**PEDAGOGICAL ABILITIES OF OFFICER-TEACHERS IN THE EDUCATIONAL
PROCESS OF PRE-CONSCRIPTION MILITARY EDUCATION DIRECTION**

The article describes the pedagogical skills of pre-service military education officers in the educational process. Ability includes a characteristic of a person's psychological and physiological structure, creativity, talent and other qualities. A person's abilities are only an opportunity to acquire knowledge and skills. Whether these knowledge and skills are acquired or not depends on many circumstances. Abilities do not appear in the knowledge, skills, skills themselves, but are manifested in the dynamics of their acquisition, that is, in other words, how fast and how quickly the process of acquiring knowledge and skills important for this activity in different conditions and manifests in your deep, light and solid realization. Types of pedagogical skills and their description, teacher's communicative culture and pedagogical management skills are discussed.

Keywords: ability, knowledge, creative, communication, speech, creativity, education, skill, activity, professional skill, qualification, student, pedagogue, psychological characteristic, goal, result.

Kirish. Mashg'ulot jarayonida talabalar bilish faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog'liq

bo‘ladi. Ularning eng asosiylaridan biri talabalarni o‘z faniga qiziqitira olishdir. Olimlar ta’kidlaganidek, faqat qiziqishgina psixik jarayonlar va ularning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va iroda kabi funksiyalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida talabani bilishga oid qiziqishlari ko‘p qirrali qiyofalarda namoyon bo‘ladi: talabani harakatchan va qiziquvchanligi, talabani ayrim o‘quv faoliyatiga, shuningdek, umuman, o‘qishga bo‘lgan motivlari, talaba shaxsining o‘ziga xos belgilari va uning yo‘nalishini qaror topishi ana shular jumlasidandir.

Talaba o‘zini davriga xos tabiiy faolligi, biror bir aqliy qiziqish bilan qamrab olinmasa, uni qaysi tomon boshlab ketishini oldindan aytish qiyindir. Shuning uchun ham K.D.Ushinskiy “zo‘rlash va majburlashga asoslangan o‘qitish” o‘quvchi (talaba) ning aqliy rivojlanishiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmasligini alohida ta’kidlab o‘tgan edi. Shuni ta’kidlash lozimki, qiziqishlar va motivlar talabalar o‘quv faoliyatlarining shakllanish darajasiga qarab shaxsning shakllantiruvchi (talabani nazariy fikri, o‘qish faoliyatini talaba shaxsi uchun ahamiyati) dastlabki omillar bilan o‘zaro murakkab munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Talabalarning o‘qishga (bilishga) bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish shartlari qanday? Mohir o‘qituvchi ularni darsda talabalarda shakllantirish uchun nima qilishi kerak? O‘quv faoliyatini faollashtirish va o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarni doimo rivojlantirib borish uchun nima qilish kerak?

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishida mohir ofitser-o‘qituvchi talabalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirish va doimo rivojlantirib borish uchun quyidagilarga amal qilishi muhimdir: talabalarni bilishga intilishini, fanga umuman olganda aqliy mehnatga qiziqishlarini rivojlantirish o‘quv jarayonini shunday tashkil etilishini ta’minlaydiki, unda talaba faol harakat qiladi, mustaqil izlanish va yangi omillarni “kashf etish” ga, muammoli vaziyatlarni o‘zi hal etishga intiladi. O‘quv faoliyati boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo‘lgandagina, qiziqarli bo‘ladi. Bir xil usulda axborot berish va bir xil usuldagi harakatlar tez orada zerikishni vujudga keltiradi. Fanga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishda bu fanni va uning ayrim qismlarini o‘rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini talabalarga anglatish juda zarurdir. O‘tilayotgan material oldingi material bilan qanchalik ko‘proq bog‘lab tushuntirilsa, u talabalarga shunchalik qiziqarliroq tuyuladi. O‘quv materialini talabalarni qiziqtiradigan narsalar bilan bog‘lab tushuntirish ham, ularni darsga qiziqtirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘rtacha qiyinlikdagi o‘quv materiali ham talabalarda qiziqish uyg‘otmaydi. O‘quv materiali bir oz qiyinroq, lekin talabalar kuchi yetadigan bo‘lishi kerak. Talabalar bajargan ishlarni tez-tez tekshirish ham ularni fanga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi. O‘quv materialining aniqligi, hissiyotga boyligi, o‘qituvchining zavqlanib gapirishi ham talabaga, uni fanga bo‘lgan qiziqishini ortishiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Ayrim hollarda o‘qishga qiziqitiruvchi metodlardan, boshqa hollarda esa burch va javobgarlikni his etishni rag‘batlantiruvchi metodlarga ko‘proq e’tibor berish tavsiya etiladi. Tajribali o‘qituvchilar o‘tilayotgan mavzuni xalq xo‘jaligi masalalarini hal etishdagi ahamiyatiga oid qiziqarli misollar keltiradilar, didaktik o‘yinlardan, talabalar faolligini rag‘batlantiruvchi turli usullardan foydalanadilar. Lekin talaba faoliyatida hamma narsani ravshan va qiziqarli holda tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham o‘qituvchi talabalarda paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni yengish uchun o‘ziga iroda va qat’iylilikni ham tarkib topshirishi zarur.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo, ta’lim va tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o‘z talabalarini turli o‘quv faoliyatiga jalb qiladi. Bu bilan talabalarda muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar va xulqni shakllantiradi.

Lekin aynan bir xil metod bilan ishlagan turli o‘qituvchilarning erishgan natijalari ham turlicha bo‘lishi aniqlangan. Buning ustiga, sinovdan o‘tkazilgan metodlardan foydalangan bo‘lsalarda, ayrim o‘qituvchilar, hatto, eng quyi darajadagi o‘zlashtirish natijalariga ham erisha olmaganlar. Bunday o‘qituvchilar: “Hamma narsani metodik tavsiya asosida bajardim, nima uchun bolalar mavqe solish, qaysarlikni va dars tayyorlamaslikni yana davom ettirmoqdalar?” - deb hayron bo‘ladilar. Gap shundaki, talabalarni bilim olishga qiziqitirishda ofitser-o‘qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta’sir ko‘rsatadi.

Ofitser-o‘qituvchi faoliyatining boshqaruv mahorati uning shaxsi, xarakteri, talabalar bilan muomalasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Odatda bularning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Lekin tajribali pedagog uning xatti-harakati talabalarga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Bunday o‘qituvchilarning ilhombaxsh muammolaridan talabalarda o‘qishga intilish o‘zlarida yanada yaxshiroq o‘qishni uddalay olishiga ishonch hissi paydo bo‘ladi. Bu holda ta’lim va tarbiya metodlari pedagog shaxsida

mujassamlangan sifatlarni amalga oshirish va undan talabaga axloqiy fazilatlarini o'tkazish vositasiga aylanadi. Shuning uchun ham, pedagogik mahoratni ofitser-o'qituvchi shaxsi sifatlarining majmui sifatida qarab, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini e'tirof etish lozim.

Qobiliyat - shaxsning individual psixik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixologik sifatlar yig'indisidir. Qobiliyat insonni hayotiy faoliyati davomida shakllanadi. Taniqli olim Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb ta'riflagan. Bizga ma'lumki, bilim bu ilmiy mutoalalar natijasidir. Qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun shart-sharoit yaratadi. Tug'ma qobiliyat zehn deb atalsada, iqtidor, iste'dod, donolik-insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir.

Ijodkorlik bu sifat jihatidan yangi, original, takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyat. Ijodkorlik mahsuldor, evristik, kreativ turlarga bo'linadi. Mahsuldor ijodkorlikda har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi. Evristik ijodkorlik jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni o'zlashtirishni anglatadi. Kreyativ ijodkorlik yangi nazariyalarni yaratadi. Qobiliyat umumiy (aqliy faollik, tanqidiylik, tahlil qilish, diqqatni jamlash, e'tiborlilik), maxsus (tashkilotchilik, loyihalashtirish, matematik, ijodiy, badiiy, musiqiy) turlarga bo'linadi. Pedagogik qobiliyatning sifatleri: o'z kasbiga muhabbat, talabalarni seva olish; mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi; pedagogik odobga ega bolishi; bolalar jamoasiga singib keta olishi; o'z mehnatiga ijodiy yondashishi; javobgarlikni his qilishi; tarbiyaviy bilimlarni egallaganligidan iborat.

Shaxsning qobiliyatlari bilim va ko'nikmalarni egallash uchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki yo'qmi, bularning hammasi, juda ko'p sharoitlarga bog'liqdir. Bolada namoyon bo'lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo'lishiga kafil bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi unga maxsus ta'lim berilishi, qatilylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmay, so'lib ketishi ham mumkin. Talabada hali zaruriy ko'nikma va malakalar sistemasi hamda mustahkam bilimlar va tarkib topgan ish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirmay shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy xatosi bo'ladi. Bolalik paytida ma'lum qobiliyatlarning atrofdagilar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik shu qobiliyat tufayli shon-shuhrat topgan odamlar ko'p.

Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo'lishi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan aynan bir narsa bo'lmasa-da, ular bir-birlari bilan bog'liqdir[1]. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namoyon bo'ladi. Xuddi shu yerda yuzaga chiqadigan fikrlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish huquqini beradi.

Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan psixik sifatlar yig'indisining struktura natijasida konkret faoliyat talabi bilan belgilanadi va har xil turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo'ladi.

Tushuntira olish qobiliyati - o'qituvchining o'quv materialini talabalarga tushunarli qilib bayon etishi, material yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berish, talabalarda mustaqil ravishda faol qiziqish uyg'otish qobiliyatidir [1].

O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib talabalarga yetkaza olishi darkor.

O'qituvchi talabani mustaqil fikrlashini rag'batlantira oladi. Lekin ayrim hollarda shunday fikrlarni uchratamiz: “o'qituvchi opamiz hech narsaga yaramas edilar, yo'l-yo'lakay biror narsani mutlaqo tushuntirib bera olmasdilar”.

Talabalar ruhiyatini hisobga olib borish bu qobiliyatlarga asos qilib olinadi. Qobiliyatli pedagog talabalarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'yanliklarini tasavvur etadi. Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniqsa tajribasi katta o'qituvchilarga, o'quv materiali oddiy tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigandek tuyulmaydi.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini talabani o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsaning talabalarga tushunarsiz va mavhum bir narsa bo'lishi mumkin ekanligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishni xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

Qobiliyatli o'qituvchi materialni bayon etish jarayonida turli talabalarning tushuntirilayotgan

materialni qanday o'zlashtirayotganlarini qator belgilar asosida to'g'ri aniqlab oladi va zarurat tug'ilgan hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. Shuningdek, qobiliyatli o'qituvchi talabalarning saboqni o'zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlab, ularning dam olishdan ishga o'tishlari bo'shshish, lanjlik, loqaydliklariga barham berish uchun minimal darajada vaqt ajratish zaruratini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelmagunga qadar ish boshlamaydi. Masalan, darsning haddan tashqari zo'riqish bilan va kuchli boshlanishi talabalarda muhofaza qiluvchi tormozlanish deb atalmish holatiga sabab bo'ladi, miya faoliyati tormozlanadi va o'qituvchining so'zlari yetarli darajada idrok qilinmaydi.

Kuzatuvchanlik qobiliyati talabani tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati talaba shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Qobiliyatli o'qituvchi uncha katta bo'lmagan tashqi ko'rinishlar asosida talabani ichki holatidagi juda arzimagan o'zgarishlarini ham fahmlab oladi. Talabalarning ba'zan shunday gaplarini eshitamiz: “qaramayotganga o'xshaydi- yu, hamma narsani ko'rib turadi”, “o'qituvchimiz biror talabani xafa bo'lganini yoki dars tayyorlamaganligini ko'zidan biladi”.

Nutq qobiliyati - nutq yordamida shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha talabalarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotgan, talabani javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

Tashkilotchilik qobiliyati - birinchidan talabalar jamoasini uyushtirish muhim vazifalarini hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan o'z ishini to'g'ri uyushganligini nazarda tutadi. O'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtni o'ziga xos his etish ishlanmasini vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo'ladi. Dars davomida, kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash hollari uchrab turadi. Ammo tajribali o'qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o'zgartira oladi.

Obro' ortira olish qobiliyati - talabalarga bevosita emosional irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' ortira olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hoka- zolar asosida ham qozoniladi. Avtoritar qobiliyatlar o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokozolar) shuningdek talabalarga ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini his etishga o'zini haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni talabalarga yetkaza olish kabilarga ham bog'liq. Talabalar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, to'g'ri talab qo'ya oladigan o'qituvchini hurmat qiladilar.

Kommunikativ qobiliyat - to'g'ri muomala qila bilish qobiliyati. Bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan juda samarali o'zaro munosabat o'rnata bilish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda, talabani kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarini taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

Diqqatni taqsimlash qobiliyati - o'qituvchi uchun diqqatning barcha xusu- siyatlari hajmi, kuchi, idora qilina olishi ham taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

Muhokamalar va natijalar. Ofitser-o'qituvchi o'z shogirdlaridan doimo hech bo'lmaganda bir necha pog'ona yuqori turishi kerak, aks holda talabalar oldida uning obro'si bo'lmaydi, chunki kutilmagan savollarga o'qituvchi javob beraolmasdan qolish mumkin. Holbuki, tinglovchi sezgir bo'ladi va juda tez fursatda o'qituvchining kamchiliklarini bilib oladi. O'qituvchilar oldida yo'qotilgan obro'ni tiklash juda qiyin hatto ba'zi vaqtlarda mumkin ham emas. Demak, qobiliyatlar shaxsning (qobiliyatini) faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyat sanaladi. Agar shaxsning ma'lum sifatleri yig'indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oraliqida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga iste'dod deb ataladi. Iste'dod deb insonga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli mustaqil va orginal tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasiga aytiladi. Iste'dod mahoratning dastlabki sharti bo'lib, lekin mahoratning o'zidan ancha uzoqdir. Mohir usta bo'lmoq uchun juda ko'p ishlash kerak. Iste'dod mehnatdan ozod qilmaydi, balki katta, ijodiy va zo'r mehnatni taqozo qiladi. Iste'dodli kishilar, shubhasiz, mehnat orqali olamga mashhur bo'lgan mahorat darajasiga erishganlar. Haqiqiy mahorat inson iste'dodining faoliyatida nomayon bo'lishidir.

Xulosa. Darhaqiqat, har qanday yosh avlod tarbiyalash murakkab va olijanob vazifa bo‘lishi bilan birga ayni zamonda u g‘oyat darajada murakkab, mas’uliyatli ishdir. Bu vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish uchun, eng avvalo, o‘qituvchi o‘z ishining ustasi bo‘lishi, bolalarni sevishi, mas’uliyatlarini, burchlarini, xulqlarini anglab yetishlari lozim. Mustaqil O‘zbekistonimizda o‘zining pedagogik faoliyatini olib borayotgan har bir o‘qituvchi o‘z ustida tinmay ishlashi, doimiy izlanishda bo‘lishi, o‘zidan oldingi pedagoglarning ilg‘or tajribalari bilan doimiy tanishib borishi va shu yo‘llar bilan o‘z mahoratining tizimlarini kengaytirishi lozimdir.

Adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev O‘.J., Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2017 y. 320-bet.
2. Tolipov O‘, Ro‘ziyeva D., Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. “Innovatsiya-Ziyo” nashriyoti. Toshkent 2019-yil.
3. Xoliqov A Pedagogik mahorat. Darslik. “Iqtisod-Moliya” nashriyoti Toshkent 2011-yil.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBGA E‘TIQODNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Ramazonova Feruza Xudoynazarovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasida o‘qituvchisi*

Ushbu maqolada o‘qituvchi kasbiga bo‘lgan ishonchni rivojlantirishning mavjud misollari haqida fikr bildiriladi, uni takomillashtirish usullari va ko‘rsatmalarini batafsil ochib beradi. Shuningdek, maqolada qadimgi davrlardan e‘tiqot masalalari va uning rivojlanishi haqidagi olimlarning fikrlari tahlil qilingan. O‘qituvchilarning o‘z kasbiga bo‘lgan ishonchini takomillashtirish orqali pedagogik faoliyati va o‘z sohasida zarur bo‘lgan masalalarni chuqurroq o‘rganishni talab qiladi.

***Kalit so‘zlar:** kasb, e‘tiqod, oliy ma‘lumot, pedagogika, mehnat, talaba, tarbiya, o‘qituvchi, shogird, ustoz, pedagogik mahorat, ta‘lim.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРИВЕРЖЕННОСТИ ПРОФЕССИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Данная статья даёт представление о существующих примерах развития приверженности профессии учителя, подробно раскрывает методы и инструкции по ее совершенствованию. Также в работе анализируются вопросы приверженности в исламе в древние времена и мнения учёных о его развитии. Приверженность учителей своей профессии требует более глубокого изучения того, что необходимо в их педагогической деятельности и её сфере посредством её совершенствования.

***Ключевые слова:** профессия, приверженность, высшее образование, педагогика, работа, студент, образование, учитель, ученик, педагог, педагогическое мастерство, образование.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL CONFIDENCE DEVELOPMENT IN FUTURE TEACHERS

This article provides an idea of the existing cases of the development of faith in the profession in future teachers, reveals in detail the methods and instructions for its improvement. Also, in ancient times, the issues of faith in Islam and the opinions of its scholars for its development are analyzed in the work. The belief of teachers in their profession necessitates a deeper study of what is needed in their pedagogical activity and its sphere through its improvement.

***Keywords:** profession, faith, higher education, pedagogy, work, student, education, teacher, student, teacher, pedagogical skill, education.*

Kirish. Respublikamizda so‘ngi yillarda kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratilib, mutaxassislar sifatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan zamonaviy bilimga ega, jahon mehnat bozorida raqobatlasha oladigan, yuqori malakali, mustaqil fikrlay oladigan, tanlangan ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha erkin ishlay oladigan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo‘shishga qodir mutaxassislar tayyorlash izchil amalga oshirilmoqda.

O‘qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma‘lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega, ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs.

Ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak o‘qituvchining kasbga e‘tiqodini rivojlantirishi nafaqat ma‘lum bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish orqali, balki uning kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini takomillashtirishini ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun o‘z-o‘zini takomillashtirish va bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining kasbiy yo‘nalishini shakllantirish oliy ta‘limning eng muhim vazifasidir. Ushbu muammoni hal qilishda rivojlanishning psixologik jarayonini, uning turli bosqichlarida o‘zini takomillashtirish va shaxsni shakllantirishni tushunish muhimdir.

Asosiy qism. Psixolog B.V. Kaygorodov tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot jarayonida talabalar shaxsiyatining rivojlanishi tahlili shuni ko‘rsatdiki, birinchi navbatda talabalar jamiyatdagi o‘z o‘rnini aniqlashga, yangi hayotga moslashishga, turli xil ijtimoiy munosabatlarda faol pozitsiyani egallashga harakat qiladi, bu yerda ularning "men"i harakat qiladi boshqalar bilan teng ravishda, bu jamiyatda o‘z-o‘zini anglashning yangi darajasini rivojlantirishga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbga e'tiqodini rivojlantirish jarayoni, avvalo, pedagogik amaliyot bilan chambarchas bog'liqdir. Bu, birinchi navbatda, talabalarga nazariy mashg'ulotlar davomida olingan pedagogik o'zaro munosabatlarda pedagogik tajribasini real amaliyotda sinab ko'rish, o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini shu jihatdan o'qituvchiga qo'yiladigan talablar bilan bog'lash, muammolarini amalga oshirish imkonini beradi. Pedagogik amaliyot davomida ideal o'qituvchi “modeli” (kasbiy va shaxsiy faoliyati) va “original” jarayon bilan mos kelmasligi juda muhimdir.

Ideal o'qituvchi haqidagi nazariy g'oyalarni tushunish va o'z kuzatuvlari, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z kasbiy faoliyati natijalari asosida o'z-o'zini baholash natijasida talaba “optimal” o'qituvchi obrazini, ya'ni ma'lum bir shaxsning imkoniyatlariga mos keladigan obrazni rivojlantiradi. Bularning barchasi talabalarning kasbga e'tiqodini rivojlantirish, kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi takomillashtirish muammolarini belgilash va hal qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida keltirilgan fanlar bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini takomillashtirishning pedagogik asoslarini yanada optimallashtirish talab etiladi, unda konseptual modelni yaratish, shuningdek, o'qish va o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va kasbiy faoliyat xususiyatlarining ijobiy va salbiy ko'rinishlarini aniqlash yetakchi o'rin egallaydi.

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim bilan uzviylik va uzluksizligi ta'minlangan holda, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalari tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki va tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki kiradi.

Barcha ta'lim sohalari uchun nazariy va amaliy ta'lim hajmining kamida 85% umumkasbiy va ixtisoslik (maxsus) fanlaridan tashkil topgan majburiy va tanlov fanlari bloklaridan iborat bo'lishi lozim.

O'quv rejalariidagi majburiy va tanlov fanlari bloklarining hajmini ta'lim yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quv rejani ishlab chiqaruvchi oliy ta'lim muassasasi belgilaydi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan majburiy va tanlov fanlar. Majburiy fanlar: Pedagogika nazariyasi va tarixi – pedagogika nazariyasi; Xalq pedagogikasi; Yunagogika; Ijtimoiy pedagogika; Oila pedagogikasi; Inklyuziv ta'lim (Gospital pedagogika); Pedagogik mahorat; Tarbiya fanini o'qitish metodikasi; Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasi va korreksiyasi; Kreativ pedagogika; pedagogik texnologiya.

Tanlov fanlar: Milliy tarbiya asoslari, Evtagogik pedagogika; Pedagogik innovatika; Tarbiyaviy ish texnologiyalari; Pedagogik kompetentlik; Tarbiyaviy ishlarni boshqarish; Pedagogik ritorika; Art pedagogika; Komparativistik pedagogika; Ijtimoiy ish asoslari; Badiiy pedagogika; Raqamli pedagogika; Ta'lim tizimini boshqarish; Iqtidorli bollalarni o'qitish texnologiyasi; Tarbiyada kouch trening; Neyropedagogika; Pedagogik valeologiya; Pedagogik kvalimetriya; Muzey pedagogikasi; Pedagogik aksiologiya.

Majburiy fanlar: Pedagogika nazariyasi va tarixi – pedagogika nazariyasi bu pedagogik jarayonlar, hodisalar haqidagi pedagogik g'oyalar, qonuniyatlar, tamoyillar va tushunchalar ko'rinishida taqdim etilgan ilmiy bilimlar tizimi bo'lib, pedagogik jarayon va hodisalarning amal qilishi, rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlanishini yaxlit tasvirlash, tushuntirish va bashorat qilish imkonini beradi; pedagogika tarixi bu ta'lim amaliyoti va pedagogik bilimlarning tarixiy rivojlanishini ularning birligida, shuningdek, ta'lim va pedagogika fanining zamonaviy muammolari bilan bog'liq holda o'rganadigan fan sohasi.

Xalq pedagogikasi - ko'pchilikning tarixiy va ijtimoiy tajribasi mahsuli sifatida avloddan avlodga, asosan, og'zaki tarzda o'tkaziladigan, amaliyotda to'plangan va sinovdan o'tgan empirik bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir.

Yunagogika - yosh shaxsning ijtimoiy rivojlanishini pedagogik ta'minlashni o'rganadigan, yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyalari va usullarini ishlab chiqadigan pedagogikaning sohasi hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogika - bu pedagogikaning shaxs tarbiyasi va shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta'sirini o'rganadigan bo'limi; ijtimoiy muhitning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda shaxsni tarbiyalashni optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish

Oila pedagogikasi - bu oilada bolani tarbiyalash haqidagi fan bo'lib, bunday tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va ota-onalar uchun bola bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqadi.

Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika - uzoq muddatli davolanishda bo'lgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasalariga bora olmaydigan bolalar uchun ta'limni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan pedagogika bo'limi.

Pedagogik mahorat - kasbiy pedagogik faoliyatni o'z-o'zini tashkil etishning yuqori darajasini ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar majmuasi.

Tarbiya fanini o'qitish metodikasi – tarbiya fanini o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar, metodik jihatdan pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga oid amaliy ma'lumotlar majmui.

Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasi va korreksiyasi – o'quvchilarni ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishda tarbiyaviy diagnostika va korreksiya qilishning nazariy asoslari, ijtimoiy faoliyat jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlarida tarbiyaviy korreksiyalash metodlariga oid amaliy ma'lumotlar majmui.

Kreativ pedagogika - ijodiy o'rganish fani va san'ati, o'quvchilarni ijodiy o'rganishga, o'z-o'zini yaratuvchisi va kelajagini yaratuvchisi bo'lishga o'rgatadigan pedagogika fanining bir turi.

Pedagogik texnologiya - bu kontseptual jihatdan bog'liq bo'lgan ta'lim maqsadlarini, ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning turli shakllari, vositalari, usullarini birlashtirgan metodlardan iborat murakkab tizimdir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan tanlov fanlar:

Milliy tarbiya asoslari – ijtimoiy-tarixiy, qonuniy va ob'ektiv jarayon sifatida, O'zbekistonda milliy tarbiya g'oyasining tiklanishi va rivojlanishi, milliy tarbiya tizimini joriy qilinishining nazariy va amaliy yo'nalishlari haqida, milliy qadriyatlar mazmuni, milliy va ommaviy madaniyat tushunchalariga oid bilim berish.

Evtagogik pedagogika – 1) yunoncha so'zlardan tuzilgan: εϋρετικός (evretikos) kashf qilmoq, bilib olmoq, tan olmoq, εϋρεϋετικός (efevretikos), εϋρημα (evrema) “topmoq” ma'nosini bildiradi. 2) yunoncha αγω (ago) – “yetaklash” ga qaytadi. Evtagogika mualliflar tomonidan kattalar ta'limini tashkil etishga yangi yondashuv sifatida, o'z-o'zini tarbiyalash to'g'risidagi ta'limot sifatida, ya'ni XXI asrda mustaqil ravishda qanday o'rganish kerakligi haqidagi ta'limot.

Pedagogik innovatika - pedagogikaning ta'lim subyektlari bilan bog'liq holda pedagogik yangiliklarning tabiati, paydo bo'lish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan, shuningdek, pedagogik an'analar va kelajakdagi ta'limni loyihalash o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi sohasi.

Tarbiyaviy ish texnologiyalari – kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda innovatsion tarbiya texnologiyalari qonuniyatlarini, jahon tarbiya konsepsiyalari namunalarining qiyosiy tahlilini, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning mazmuni va mohiyati haqidagi fan.

Pedagogik kompetentlik - o'qituvchining muayyan qadriyatlar, ideallar va pedagogik ong tashuvchisi sifatida uning pedagogik faoliyati, pedagogik muloqoti va o'qituvchi shaxsining shakllanishini belgilovchi zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi.

Tarbiyaviy ishlarni boshqarish – tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish va boshqarish faoliyatiga sifatli tayyorlaydigan fan sohasi.

Pedagogik ritorika – bu ritorikaning bir bo'limi bo'lib, o'qituvchining to'g'ri, uyg'un, samarali nutq talaffuzi ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni o'rganish bilan shug'ullanadigan alohida ilmiy sohadir.

Art pedagogika - pedagogika va san'atning uyg'unlashuviga asoslangan, ta'lim va inson kamoloti qonuniyatlarini san'at orqali o'rganuvchi pedagogika fanining sohasi.

Komparativistik pedagogika - 1. Komparativistik pedagogika bilim sohasi va o'rganish predmeti sifatida (qiyosiy pedagogika tushunchasi, uning obykti, predmeti, vazifalari va funksiyalari, milliy ta'lim tizimi tushunchasi, qiyosiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari). 2. Komparativistik pedagogikaning metodologik asoslari. (Komparativistik pedagogikada uslubiy yondashuvlar, Komparativistik pedagogika usullari). 3. Komparativistik pedagogikaning bilim va fan sohasi sifatida rivojlanishining asosiy bosqichlari.

Neyropedagogika - Bu miyaning rivojlanishi, o'rganish va o'qitishning samarali usullari, o'quv materialini o'zlashtirish jarayonlarida miyani tashkil etish, o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda o'quv jarayonini qurishga qaratilgan amaliy fanlararo ilmiy sohadir. Talabalar va o'qituvchilarning miya rivojlanishi.

Pedagogik valeologiya - rivojlanishning turli yosh bosqichlarida salomatlik va sog'lom turmush tarziga qat'iy hayotiy munosabatda bo'lgan shaxsni tayyorlash va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Pedagogik kvalimetriya - (lat. *qualis* - nima, qanday sifat va *metor* – o'lchov) pedagogik innovatsiyalar va umuman pedagogik faoliyat sifatini miqdoriy baholash metodologiyasi va muammolarini o'rganuvchi fan.

Muzey pedagogikasi – muzeyni ta'lim tizimi sifatida ko'rib, muzeyshunoslik, pedagogika va psixologiya, muzeyni ta'lim tizimi sifatida ko'rib chiqish.

Pedagogik aksiologiya – bu pedagogik bilimlarning katta yo'nalishi bo'lib, u ta'lim qadriyatlarini shaxsning ichki qiymatidan ko'rib chiqadi va ta'limning o'ziga xos qiymatidan kelib chiqqan holda, umuman

olganda, ta’limga qiymatli yondashuvlarni amalga oshiradi.

Bo’lajak o’qituvchilarning zamonaviy ta’lim tizimida (pedagogik, kasbga yo’naltirish) psixologik moslashuvi, shuningdek, kasbga e’tiqodini shakllantirish muammosi bilan bog’liq shaxsiy munosabatlarini o’rganish jarayoni ushbu muammoning dolzarbligini oshiradi. Bunday muammolar qatoriga oliy ta’limning dastlabki bosqichlarida bo’lajak o’qituvchi shaxsining kasbga e’tiqodini rivojlantirish jarayonini pedagogik va psixologik o’rganish kiradi. Kasbga e’tiqodini rivojlantirish jarayonida talaba bir qator bosqichlardan o’tadi.

Dastlabki bosqich. Talaba tashqi tomondan hissiy munosabat, vaziyatli kasbga qiziqish, mavzuga munosabat, ma’lum bir kasbni egallashga qaror qiladi, lekin u mustaqillikka ega emas va tashabbus ko’rsatmaydi.

Ikkinchi bosqich. Talaba kasbga qat’iy munosabatda va barqaror qiziqishlarga ega; uning moyilligi bor, lekin u o’quv materialining amaliy jihatlari bilan ko’proq qiziqadi; shakllangan maqsad o’quv va kasbiy faoliyatining umumiy yo’nalishini beradi, u o’ziga ishonch, mustaqillik tuyg’usiga ega; mas’uliyat hissi shakllanadi.

Uchinchi bosqich. Talaba kasbga qat’iy munosabatda, unga doimiy qiziqish va moyillikka ega; o’quv materialining amaliy va nazariy tomoniga alohida ishtiyoq ko’rsatadi; kasbiy ish orqali shaxs o’zini o’zi taraqqiy ettirishi mumkin.

To’rtinchi bosqich. O’z kasbga bo’lgan ishtiyoqi kuchli; yuqori kasbiy mahorat va professional idealning mavjudligi qayd etilgan; o’z kasbining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatiga qat’iy ishonch bilan yondashadi.

Insonning kasbiy yo’nalishi, o’zini o’zi belgilash va o’zini o’zi takomillashtirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari kasbiy muhim fazilatlarini belgilaydigan motivlar, qadriyatlar, shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlarning murakkab ko’p bosqichli tuzilishi bo’lishi mumkin. Kasbga qiziqish ko’pincha ma’lum o’quv fanlariga qiziqish, shuningdek, har qanday kishiga, ba’zan kasbning tashqi tomoniga bo’lgan ishtiyoq sifatida qabul qilinadi. Yoshlar ko’pincha mutaxassis sifatida ularga qo’yiladigan aniq talablar, kelajakdagi ishning dunyoviy tomonlari haqida kam ma’lumotga ega. Ular ba’zan o’zlarining qarashlari, moyilliklari va qobiliyatlarini tushuna olmaydilar. Hozirgi vaqtda o’tkazilgan so’rovlarni shuni ko’rsatadiki, bo’lajak o’qituvchilarning katta qismi o’z kasbga salbiy munosabatda bo’ladi, ushbu vaziyatning sabablari ham subyektiv, ham obyektivdir. Eng kuchli omil bu kasbga e’tiqod g’oyasining oliy ta’limda o’qish jarayonigacha bo’lgan kasbga nisbatan o’zgarishi. Tanlangan mutaxassislikka qiziqish munosabatini tarbiyalash bo’yicha maqsadli ishlar hali oliy ta’limda tegishli darajada amalga oshirilmagan bo’lib, bu oliy ta’lim muassasasigacha bo’lgan kasbga yo’naltirishning bo’shliqlarini to’ldirmaydi, bu faqat shaxsning kasbiy yo’nalishini shakllantirishning dastlabki bosqichidir.

Kasbga e’tiqodni shakllantirish uchun o’qituvchilik kasbini egallash imkoniyatlariga ishonitirish, kelajakdagi istiqbollarga ishonchni uyg’otish, kasbning estetik jihatlari, uning ijodiy xarakterini ko’rsatish kerak. Yana bir usul bo’lajak o’qituvchilarning faoliyatini, o’qishini va ijtimoiy mavqeyini kelajakdagi kasbiy faoliyati talablarini hisobga olgan holda tashkil etishdan iborat.

Bo’lajak o’qituvchilarning kasbga e’tiqodini mustahkamlashda ularning ilmiy-tadqiqot ishlardagi ishtiroki muhim rol o’ynaydi. Ta’lim jarayonida, ilmiy-tadqiqot faoliyatida, ijodiy jamoalarda ishtirok etish, ushbu tadbirlarning muhimligini ko’rsatish, ularni amalga oshirish muvaffaqiyatini ta’minlash, xayrixohlik muhitini yaratish muhimdir.

Barkamol avlod ta’lim - tarbiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri har qanday jamiyatning zamonaviy taraqqiyot darajasi hamda uning kelajagini belgilovchi o’z ichki imkoniyatlari, ijodiy tashabbuskorlik salohiyati ila o’zligini namoyon qila bilgan, jamiyat tomonidan qabul qilinishi va tan olinishida o’z-o’zini isbotlay olgan, o’z taqdirining haqiqiy subyekt bo’la olgan izlanuvchanlik hamda yaratuvchanlik qobiliyatiga ega insonlarni kamol toptirishdir.

Pedagoglik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, pedagog yosh qalblar kamolotining me’moridir. Bugun yoshlarni g’oyaviy - siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o’rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb - hunar egallashlariga ko’maklashishi va jamiyat uchun muhim bo’lgan ijtimoiy - iqtisodiy vazifani hal etishga chog’lamog’i dardkor.

Buning uchun bo’lajak o’qituvchilardan doimo kasbiy mahorati ustida izlanish uchun, unga turli shart - sharoitlar yaratishi, kerakli moddiy va ilmiy - metodik yordam ko’rsatishi hamda o’qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ko’maklashadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, pedagoglik bilim berishdan iborat kasbgina emas, balki shaxsni shakllantiruvchi, insoniylikni tarkib toptirishdek, oliy maqsadni bajarishi lozim soha sifatida qaralmog’i

kerak. Shu nuqtai nazardan, pedagog o‘zida shartli ravishda, quyidagi ijtimoiy va kasbiy sifatlarni mujassam etishi, yuksak fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy faollik, bolalarni sevish, ularga o‘zini baxsh etish istagi va qobiliyati, ziyolilik namunasi, ma’naviy boy va madaniyatli bo‘lish, atrofdagilar bilan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish qobiliyatining mavjudligi, o‘z kasbining haqiqiy ustasi bo‘lishi, ilmiy pedagogik fikrlashda innovatsion yo‘nalishlariga ega bo‘lishi, yangiliklar yarata olishi va ijodiy qarorlar qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rishi, o‘z bilimini oshirib borishga ehtiyoj sezishi, jismoniy va ruhiy sog‘lom bo‘lishi, kasbiy jihatdan ishga yaroqli bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Педагогик атамалар луғати. Тузувчи: Р.Сафарова ва б. –Тошкент, 2016.
2. Лутфиллаев М.Х. Олий таълимда ахорот технологиялари интеграцияси. – Самарқанд, 2005. -135 б.
3. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореферат диссертации доктора педагогических наук. – Т.: 1995. – 43 с.
4. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий методик асослари. Дисс. .. педагогика фанлари доктори. – Т.:2007. – 315 б.
5. Наврўзова Гулчехра. Хожа Баҳоуддин Накшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Тошкент: Фан, 2021. – 244 б.
6. Рамазонова Ф.Х. Бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маданияти ва уни ривожлантириш масалалари. Тюркоязычные страны // Республиканский научно-методический и познавательный журнал. – Казахстан: 2020, № 4(36). – Б.8-9.
7. Рамазонова Ф.Х. Бўлажак ўқитувчиларда касбий эътиқодни шакллантириш педагогик муаммо сифатида. // Педагогик маҳорат. 2021 йил июн, Махсус сон. – Б.113-114 ISSN 2181-6833
8. Ramazonova F.X., Hojjeva M.Sh. Bo‘lajak o‘qituvchilarning e‘tiqodi va uni tarbiyalash masalalari // Тюркоязычные страны: Республиканский научно-методический и познавательный журнал. Казахстан. 2021. № 3(39).–С.11-13.

OLIV TA'LIM PEDAGOGLARINING KASBIY TARAQQIYOTIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING O'RNI

Raximov Bobur Azimboyevich,

Ma'mun universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

raximovbobur031@gmail.com

Mazkur maqolada shaxsning kasbiy rivojlanishida unga ta'sir qiluvchi psixologik, ijtimoiy, ma'naviy va motivatsion omillar hamda nazariy ma'lumotlar oliy o'quv yurti o'qituvchilari misolida yosh va pedagogik-psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, fikr-mulohazalar hamda xulosalar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: *Shaxs, o'qituvchi, kasb, motivatsiya, o'z-o'zini boshqarish, strategik loyihalashtirish, «karyera kompetensiyasi», kasbiy trayektoriya, «men mutaxassis» obrazi, kasbiy tayyorgarlik.*

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ ПЕДАГОГОВ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье анализируются психологические, социальные, духовные и мотивационные факторы, влияющие на профессиональное развитие личности, а также теоретические данные с возрастной и педагогико-психологической точек зрения на примере преподавателей высшего учебного заведения, излагаются мнения и выводы.

Ключевые слова: *личность, преподаватель, профессия, мотивация, саморегуляция, стратегическое планирование, «карьерная компетентность», профессиональная траектория, личность, образ «я специалист», профессиональная подготовка.*

THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION LECTURERS

In this article, the psychological, social, spiritual and motivational factors affecting the professional development of a person and theoretical data are analyzed from the point of view of age and pedagogical-psychology on the example of lecturers of a higher educational institution, providing feedback and conclusions.

Keywords: *personality, lecturer, profession, motivation, self-regulation, strategic planning, «career competence», professional trajectory, the image of "I am a specialist", professional training.*

Kirish. *Mustaqil O'zbekistonimizda ustozlarga, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar va ularni qo'llab-quvvatlash yo'lida olib borilayotgan sa'y - harakatlarning negizida ham ularning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish, ta'lim berish jarayonida ularning iste'dodini qo'llab-quvvatlash hamda kelgusida peadagoglik kasbining yetuk mutaxassisi sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga ko'maklashish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor berib kelinmoqda.*

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 20- apreldagi PQ – 2909- sonli «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida» gi Qarorida: oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'limda ilm – fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm – fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari professor – o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba – yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb qilish eng ustuvor masalalar sifatida belgilab berilgan [1].

Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan, yuqori intellekt va idrokka bolaga yoshlikdan to'g'ri tashkil qilingan ta'lim – tarbiya berish vositasida erishiladi. Pedagog tomonidan yuqori darajada tashkillashtirilgan ta'lim bolaga tabiat va jamiyat haqida haqqoniy ma'lumotlarni bersa, tarbiya axloqiy kamolotga erishishiga yordam beruvchi go'zal xulq – atvor hamda xatti – harakatlarni ongli muvofiqlashtira olishga yordam beruvchi ikkita asosiy ta'sir ko'rsatish yo'nalishlaridir. Ya'ni ta'limni tarbiyadan alohida tasavvur qilish qiyin hisoblanadi. [8]. Biroq bugungi kunda oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari kasbiy taraqqiyotida eng ko'p uchrayotgan salbiy psixologik holatlardan;

- Ulardagi kasbiy motivatsiya darajasining yuqori emasligi,

- Kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga ega emasligi,
- O‘z-o‘zini baholashning pastligi,
- Kasbiy va o‘quv faoliyatini strategik jihatdan loyihalashtira olmaslik,
- O‘z-o‘zini boshqarishning yetishmasligi

va boshqa faoliyat yo‘nalishlaridagi muammolarni e‘tirof etish mumkin. Mazkur muammo barcha oliy ta‘lim muassasalarida kuzatilmoqda. Aslini oladigan bo‘lsak, bunday holatlarga olib keluvchi sabablar bir emas, balki, bir nechta omillar ta‘sirida ma‘lum bir muddatlar mobaynida shakllanadi desak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Asosiy qism. Kasbiy shakllanish jarayonida inqirozlar, to‘qnashuvlar, destruktiv o‘zgarishlar bo‘lib o‘tishi mumkin. Mazkur jarayonning tezligi biologik va ijtimoiy omillarga, shuningdek tasodifiy holatlarga, turli xil hayotiy muhim kasbiy voqealarga bog‘liq bo‘ladi [2].

Hozirda professor-o‘qituvchilarning kasbiy taraqqiyoti yo‘lidagi mavjud bo‘lgan asosiy muammolar sifatida; uning nisbatan quyi motivatsiyasini ko‘rsatishimiz mumkin. Chunki motivatsion jihatdan yuksak insongina o‘z kasbini sidqidildan bajarish orqali o‘z mamlakatiga foyda keltirishi mumkin ekanligini ongli ravishda to‘liq anglay oladi, hamda harakatlarini ham shunga muvofiq moslashtiradi. Ilmiy adabiyotlarda pedagog – bu moxir tashkilotchi, o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish masalasini amalga oshira oladigan xodim hisoblanadi. U odamlar bilan ishlaydi, jamiyatni boshqaradi, jamoa tajribasiga tayanib ish ko‘radi, o‘z tanishlari va kasbdoshlarining maslahatiga quloq soladi, qo‘lga kiritilgan yutuqlarga tanqidiy yondashadi. Bunday kishi yuqori madaniyatli, keng mulohazali, tadbirli, o‘z ishining haqiqiy ustasi va jamiyatning haqiqiy ziyoli insonidir deya ta‘rif beriladi. [7].

Bundan tashqari, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘quv va kasbiy faoliyatini strategik jihatdan loyihalashtirish kabi bir qator muammolar mavjudligi ham o‘qituvchilarda kasbiy muvaffaqiyatga erishishlarida qiyinchiliklarga uchrashiga olib kelmoqda. Mazkur muammolarga yechim topish bir qator psixologiya fani sohalari xususan, pedagogik psixologiya, rivojlanish psixologiyasi qolaversa, kasbiy psixologiya fanlari oldiga yangi yechimlarni topish va amaliyotga bosqichma - bosqich tadbir qilish kabi g‘oyat zaruriy, kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarni qo‘ymoqda.

Jahon ilm – fanida ham bir qator psixolog va pedagog olimlar shaxslarning kasbga qiziqishi, ularni kasbga yo‘naltirish muammolarini o‘rganish uchun tadqiqotlar olib borishgan. Shuningdek kasb motivatsiyasi muammosini o‘rganish quyidagi chet el psixologlari tomonidan olib borilgan. Bular qatoriga J.Atkinson, G.Xoll, K.Madsen, A.Maslou, K.Levin, X.Xekhauzen, va boshqalarni kiritish mumkin. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining asosiy va eng murakkab tomoni – mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi.

G. Olport g‘oyasiga ko‘ra, psixologik yetuk shaxs oltita jihat bilan tavsiflanadi:

- 1) «Men» ning keng chegaralari;
- 2) ijtimoiy iliq munosabatlar;
- 3) o‘zi haqidagi ijobiy tasavvurlar;
- 4) realistik idrok;
- 5) o‘zini va hazil-mutoyibani tushunishga qodirlik;
- 6) barqaror hayotiy falsafaga ega bo‘lish.

Aslida har bir shaxsning yetuklik darajasi avvalo uning yashayotgan ijtimoiy muhiti va individual tipologik, psixologik, ma‘naviy xususiyatlari hamda uning taraqqiyoti uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan bog‘liqdir. Voyaga yetgan yetuk, komil shaxs asosan quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim ekan: mustaqil qaror qabul qila oladigan, axloqiy, ijtimoiy barkamol, samimiy, ishonchli va xaqqoniylik xususiyatlari va boshqalar. Professor-o‘qituvchilarda ham yuqoridagi sifatlarning mavjudligi, ularda yuqori natijalarga erishish sharti bo‘lishi mumkin. Chunki insonda axloqiy sifatlarni tarkib topishida u yashayotgan, ta‘lim olayotgan va shaxslararo munosabatlarga kirishayotgan muhit va undagi insonlar katta ahamiyat kasb etadi [6].

Bundan tashqari psixolog olimlar tomonidan yetuklik davri xususiyatlari tadqiq qilinib, turli xil ahamiyatli fikrlar bildirilgan. Shunday olimlardan biri O.G.Nosokovning ta‘kidlashicha, amerikalik psixolog olim K.Arjiris kamolga yetgan yetuk shaxsning yetilmagan infantil shaxslardan farqlashning 7 ta me‘zondan iborat farqlarini sanab o‘tgan. Bular; passivlik-faollik, tobelik-mustaqillik, xulq-atvorni ixtiyoriy boshqarishning rivojlanganlik darajasi, hayotiy maqsadlarning qisqa fursatlilik yoki uzoqni ko‘zlanganligi, qiziqishlarning kengligi hamda barqarorligi, shaxsning atrofdagilar bilan hamkorligi, tobelik yoki shaxslar bilan qarama-qarshi munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati, reaksiyaning rivojlanganlik darajasi va boshqalar. Ularga qo‘shimcha sifatida yana o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, tanqidiylik va atrof olamdagi voqealikalarni to‘g‘ri idrok qilish kabi xususiyatlarni kiritishimiz mumkin.

Kasbiy nuqtai-nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlar yetuk mutaxassis shaxsiga ham to‘la darajada mos kelishini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, yetuk mutaxassis shaxsi uchun bu xususiyatlardan tashqari mehnat subyekt sifatida; mehnatga motivatsiyalashganlik, uzoqni ko‘zlagan kasbiy maqsad, faoliyatning aniq bir turiga kasbiy yaroqlilik, qadriyatlar shakllanganligi, strategiyalarning anglanganligi kabi qator xususiyatlarning shakllanganligi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Shaxs rivojlanishining xususiyatlarini E.Erikson, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Ansiferova, B.G.Ananev, A.Maslou, K.Rodgers va boshqalarning tadqiqot predmetiga aylangan. Bunda, E.Erikson shaxs rivojlanishida ijtimoiy faktorlarni rolini yuqori baholab, psixosotsial nazariyani yaratadi. L.S.Vigotskiy esa rivojlanish jarayonini inqirozli davrlar bilan bog‘laydi. B.G.Ananev bo‘yicha shaxs rivojlanish xususiyatlarini qay darajada rivojlanganligini metodlar yordamida tadqiq qilish va olingan natijalarga qarab yondashish lozimligini ta‘kidlaydi. A.Maslou rivojlanishning muhim faktori sifatida shaxs ehtiyojlar tizimini ko‘rsatadi. Bunda asosiy ehtiyoj sifatida “o‘z-o‘zini anglash” ni o‘rnini yuksak baholagan. K.Rodgers rivojlanishning asosini shaxs “men” i bilan bog‘laydi.

Zamonaviy oliy ta‘lim tizimida so‘nggi vaqtlarda ko‘p qo‘llanilayotgan tushunchalardan biri “strategik loyihalashtirish” dir.

Strategik loyihalashtirish – bu yaratish va amalga oshirish jarayoni bo‘lib, shaxs faoliyat yuritayotgan muhitda o‘zining imkoniyatlari va vaqtni inobatga olgan holda strategik maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan harakatlarga nisbatan qo‘llaniladi [5].

Professor-o‘qituvchining ta‘lim va tarbiya berish jarayonidagi har qanday strategik loyihalashtirishi “karyera kompetensiyasi” tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Kasbiy kompetensiya – bu ma‘lum bir faoliyat turini amalga oshirish uchun yetarli bo‘ladigan bilim ko‘nikma va malakalar darajasini aks ettiruvchi mutaxassislarga xos bo‘lgan ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarining ajralmas xususiyatlari yig‘indisidir.

Nisbatan yaqin o‘tmishda xorijiy olimlar N.Betz, F.Borgen va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida “karyera kompetensiyasi” tushunchasi o‘rganilgan. Rus olimlaridan E.A.Mogilevkin, E.V.Sadon, T.Y.Todysheva, N.V.Nikitina, I.V.Yanchenkolar mazkur tushunchani tadqiq qilishgan [9].

Bunda oliy ta‘lim pedagogi kasbiy faoliyatining dastlabki bosqichlaridan boshlab o‘zining yaqin, oraliq va kelajak maqsadlarini to‘g‘ri anglagan holda, harakatlarini ana shu maqsadlari sari ongli tarzda yo‘naltirish ko‘nikmasiga va malakasiga ega bo‘la boshlashi nazarda tutilmoqda.

Shaxsning kasbiy faoliyatga nisbatan tayyor bo‘lib borishida uning o‘z-o‘zini anglashi ham muhim o‘rin egallaydi. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashining shakllanishiga asosan; atrofdagilarning shaxsiga bergan bahosi hamda tengdoshlar o‘rtasidagi status ta‘sir etadi. Mazkur jarayonlarni tadqiq qilgan V.S.Merlanning fikricha o‘z-o‘zini anglash – bu murakkab psixologik tizim bo‘lib, o‘z ichiga to‘rtta tarkibiy qismni qamrab oladi.

1. O‘z «Men» ligini anglash;
2. O‘zini aynan mosligini anglashi;
3. Shaxsiy psixik sifatlarni anglash;
4. Ijtimoiy – ahloqiy o‘z-o‘zini baholash tizimi. [3]

V.S.Merlanning mazkur tasnifi bo‘yicha shaxs shakllanishining ilk bosqichi “men” likni anglash vositasida boshlanib, keyin esa o‘sha menning o‘zi uchun qanchalik darajada mos ekanligini tushuna boshlaydi. Shunday keyin esa uchunchi bosqich ya‘ni, shaxs o‘zining shaxsiy psixik sifatlari va xususiyatlarini anglashni boshlaydi hamda, to‘rtinchi yakuniy bosqichda shaxsda ijtimoiy-ahloqiy jihatdan o‘z-o‘zini baholash tizimi yuzaga kelar ekan. Bu esa o‘z navbatida shaxsga turli xil hayotiy va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat va rivojlanishga erishishiga, yoki aksincha bo‘lishiga olib kelar ekan.

O‘z navbatida mehnat subyektining kasbiy shakllanishi, shaxsning mutaxassisga aylanish jarayonida faoliyatning operatsional tomonini egallash qobiliyatini qidirish va yaratish va faoliyatning psixologik tizimi hisoblangan komponentlarini o‘zaro aloqasi va mazmunini o‘zlashtirishini o‘z ichiga oladi.

Mazkur jarayonni boshqarishdagi asosiy mexanizmlardan biri bu o‘zi haqidagi tasavvurlarning («Men» konsepsiyasi), «Men mutaxassis» obrazi va mutaxassis modeli na‘munasining shakllanishi, shuningdek, bu tasavvurlarning muvofiqligi, ular o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash va tahlil qilish va boshqalar hisoblanadi. [4]

Professor-o‘qituvchilarda mavjud bo‘lgan yana bir asosiy muammoldan biri sifatida o‘z – o‘zini baholash jarayonini keltirishimiz mumkin. Chunki o‘qituvchining oldiga qo‘ygan maqsadlari yo‘lida shaxdam borishi va muvaffaqiyatlarga erishuvi ko‘p hollarda o‘z – o‘zini baholash hamda da‘vogarlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xulosa va takliflar. Shunday ekan, shaxsning kasbiy rivojlanishi va yetuklik darajasiga chiqishida psixologik omillar, asosan, motivatsiya, «men» konsepsiyasining shakllanishi, shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va anglashi hamda strategik jihatdan o‘z faoliyatini loyihalashtira olishi juda muhim ahamiyat kasb etar ekan. Shundagina professor-o‘qituvchilar kasbiy rivojlanish trayektoriyalariga mos bo‘lgan karyera kompetensiyalarini egallashlari va kasbiy muvafaqqiyatlarga erishishlari mumkin bo‘ladi. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, shaxs qanchalik o‘z-o‘zini va istaklarini anglagan holda biror bir faoliyat va kasb turiga yo‘nala olsa, u kelajakda ana shu tanlagan kasbi bo‘yicha yetuk mutaxassisga aylanishi mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqiga yangi yil tabrigi. Xalq ovozi. №1. 2018 -yil.
2. Aripova N.A., Xolmamatova L.A., Qurbonova N.B. Kasbiy psixologiya. Darslik. Toshkent. 2018 y.
3. Abduraxmonova F.R., Abduraxmonova Z.E. Kasb psixologiyasi. Toshkent 2018 y. 299 b.
4. Ж.алилова С.Ж., Хайдаров Ф.И., Халилова Н.И.. Касб психологияси. Ўқув кўлланма. Тошкент. 2010 й. 71 б.
5. Слестникова Н.Г.Руководство по стратегическому планированию для Центров карьеры. American University of Central Asia. Бишкек, 2015
6. Raximov B. (2023). Abu ali ibn sino asarlaridagi psixologik qarashlar tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 798-801.
7. Migranova E.A., Pozilova X.Sh. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2018.
8. Raximov B., Egamov Y. Shaxs rivojlanishida muhit va ta’lim tarbiyaning o‘rni borasida Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlari // Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 3. – С. 29-30.
9. Глушак Е.В. Построение траектории профессионального развития: учебное пособие / Глушак Е.В., Жуйкова Л.П. – Владивосток: Издательство Дальневосточного федерального университета, 2021. – [63 с.]. 28 с.

EKSTREMAL VAZIYATLARDA SHAXS O‘ZINI O‘ZI PSIXOLOGIK HIMOYA QILISH JARAYONINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

*Shomurodov Ibrohim Xusanmurot o‘g‘li,
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
ibrohimshomurodov93@gmail.com*

Maqolada ekstremal vaziyatlar davrida shaxs o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish mexanizmi haqidagi tasavvurlarni nazariy tadqiq qilinishiga bag‘ishlangan ishlarning bugungi kunda taqchilligi va shu bilan birga dolzarbligi ko‘rsatib o‘tildi. Ekstremal vaziyatlarning shaxs xulq-atvoriga ta‘siri muammosi jahon psixologlari, xususan, fransuz va rus olimlari tomonidan o‘rganilishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *aspekt, perseptiv, adekvat, kognitiv, generalizastiya, individualizastiya, interiorizastiya.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЦЕССА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ САМОЗАЩИТЫ ЛИЧНОСТИ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ

В статье указано на скудность и в то же время актуальность работ, посвящённых теоретическому исследованию представлений о механизме психологической самозащиты личности в период экстремальных ситуаций. Утверждается, что проблема влияния экстремальных ситуаций на поведение личности изучается мировыми психологами, в частности, французскими и российскими учёными.

Ключевые слова: *аспект, перцептивный, адекватный, когнитивный, генерализация, индивидуализация, интериоризация.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF PERSONAL PSYCHOLOGICAL SELF-PROTECTION PROCESS IN EXTREME SITUATIONS

In the article, it was pointed out the scarcity and at the same time relevance of the works devoted to the theoretical research of the perceptions of the mechanism of psychological self-protection of the individual in the period of extreme situations. It is stated that the problem of the influence of extreme situations on personal behavior is studied by world psychologists, in particular, by French and Russian scientists.

Keywords: *aspect, perceptive, adequate, cognitive, generalization, individualization, interiorization.*

Kirish. Shaxsning o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish haqidagi bilimlari, uning ijtimoiy tajribasi, xulq-atvor motivatsiyasi va o‘zini o‘zi tarbiyalashga, rivojlantirishga jiddiy yondashuvi asosida shakllanadi. Tabiiyki, bunday yondashuv zaif, sust bo‘lgan joyda psixologik himoya tizimi ham yetarli darajada shakllanmaydi. Bu shakllanmaslik zamirida esa shaxs ijtimoiy taraqqiyotiga, uning faolligiga va o‘z imkoniyatlaridan unumli foydalana olishga bir muncha to‘sqinlik qiluvchi omillar yotadiki, mazkur omillarni nazariy-ilmiy jihatdan o‘rganish, tadqiq qilish tadqiqotimizning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shunga muvofiq o‘zini o‘zi himoya qilish haqidagi tasavvurlar tizimini ochib berishga qaratilgan ilmiy-metodologik asarlarni va tadqiqotlarni tahlil qilish orqali ekstremal vaziyatlar davrida shaxs o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish mexanizmini bugungi kunda ahamiyati haqidagi tasavvurlarni uyg‘otishni maqsad qilib olgan edik.

Qolaversa, ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tanlash, tushunish va tadqiq qilish shaxsdagi psixologik himoya imkoniyatlarini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi, psixologik himoya haqidagi tasavvurlarning shakllanishi shaxsdagi psixologik imkoniyatlar ko‘lamiga jiddiy e‘tibor qaratishni taqozo etadi. Ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya ma‘lum ziddiyatli holatlarga tushmaslik uchun o‘zini o‘zi bilish va idora qila olish jarayonidir. Psixologik himoyaning asosiy vazifasi inson ongidagi turli xil salbiy ta‘sir etuvchi omillar bilan bog‘liq shaxs bezovtaligini bartaraf etishga xizmat qilishdir.

Asosiy qism. Psixologik himoya shaxsning har qanday xulq-atvor yo‘nalishlarida namoyon bo‘lishi va shaxsni turli xil noadekvat faoliyat illatlaridan saqlab qolishi mumkin (B.V.Zeygarnik, B.S.Bratus).

Ilmiy adabiyotlarda psixologik himoya mexanizmlarining o‘zini o‘zi adekvat boshqaruv, ongli “Menlik” kabi ko‘rinishlari haqida ko‘pgina nazariy-ilmiy mulohazalar mavjud (G.M.Andreva, A.V.Petrovskiy, O.A.Konopkin, J.Bruner).

Yana shuni qayd etish kerakki, psixologik himoya muammosi fan olamida ilk bor freydizm tomonidan ongsizlik va instinktiv holatlarni (asosan jinsiy) bartaraf etishga qaratilgan ongli “Menlik” (ichki “senzura”)ni namoyon qila olish jarayoni sifatida o’rganilgan va tadqiq qilingan [1]. Lekin bizning fikrimizcha “psixologik himoya” tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati, freydizmdan bir necha asrlar ilgariyoq Gippokrat, keyinchalik Ibn Sino, Beruniylar zamonida ilk bor tadqiq qilingan va bu borada tegishli ilmiy-amaliy mulohazalar qayd etib o’tilgan. Masalan, Gippokrat o’zining fan olamidagi ilk bor tadqiq qilingan individual farqlanishning tabiiy-ilmiy nazariyasida har bir insonning o’ziga xos va betakror hissiy boshqaruv xususiyatlari bo’ladiki, unda hayotda odamlar bilan muloqotda va biroz faoliyat jarayonlarida unumli foydalanish zarurligini va bu ma’lum ma’nodagi psixologik himoya vositasi ekanligini uqtiradi.

Buyuk mutafakkir Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida esa har bir insonning mijozi va bu mijozga mos harakatlar majmuasining batafsil ishlab chiqilganligini psixologik himoya vositasi sifatida talqin qilish mumkin [2].

Abu Rayhon Beruniy o’z asarlarida tabiat va jamiyatdagi barcha ziddiyatlarga nisbatan ijtimoiy - mantiqiy fikrlay olish va mantiqiy xulosalar chiqara olish xususiyatini har bir insonda tarkib toptirish lozim bo’lgan ijtimoiy himoya jarayoni sifatida talqin qiladi.

Darhaqiqat, Gippokrat, Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniylarning mulohazalaridagi nazariy-ilmiy mazmun o’zining amaliy qimmatini bugungi kunda ham yo’qotgan emas. Chunki tabiatan turli-tuman yaratilgan insonning xulq-atvori, hissiy kechinmalari, qiziqish va motivlari ham bir-biriga o’xshamagan, rang-barang holatda namoyon bo’lishi mumkin. Xuddi ana shu rang-baranglikni o’rganish, bilish va rivojlantirish insondagi psixologik himoyaning azaliy muhim sharti hisoblangan.

Taniqli psixolog J.Brunerning “yangi qarashlar” g’oyasiga asosan psixologik himoya “perseptiv himoya” vositasi sifatida, ya’ni insonning inson tomonidan adekvat idrok qilinishi bilan bevosita bog’lab talqin qilinadi. Albatta, bu o’rinda insonlar o’rtasidagi muomala, muloqot va munosabat mezonlari alohida o’rin tutadi.

Psixologik himoya mexanizmi har bir shaxsdagi faoliyat jarayonida sodir bo’luvchi xulq-atvor motivlarini muvofiqlashtiradigan va bir-biriga yaqinlashtirib “tenglashtiradigan” jarayonlarning kechishi bilan ham bevosita bog’liq. Bu muammo V.E.Chudnovskiy tadqiqotlarida shaxs xarakteridagi (individual va jamoa-guruh) motivastiyalarining shakllanishi va amalga oshirilishi, shuningdek, o’zaro hamkorlikka intilish nuqtayi nazaridan asoslab beriladi. Bunda asosan ikki jihat asosida tarkib topuvchi shaxs beqarorligi psixologik himoya vositasi (quroli) sifatida tadqiq qilinadi va asoslab beriladi. Chunonchi, psixologik himoya vositasi sifatida tarkib topuvchi barqarorlikning birinchi jihati - odamning o’z shaxsiy mavqeyini saqlab qolish sifatida hamda o’zining shaxsiy qarashlariga zid bo’lgan turli tavsiyalarga qarshi turish, ularga dosh bera olish jarayoni bilan bog’lansa, ikkinchidan, shaxs barqarorligi odamning o’z shaxsiy mavqeyini mustahkamlash sifatida vaziyatni hamda o’z shaxsiy xulq - atvorini o’zgartirishdan iborat ekanligi qayd etiladi. Shuning uchun, V.E.Chudnovskiy birinchi jihatni “(aspekti) himoyalash aspekti, ikkinchisini esa hujumkorlik (tajovuzkorlik) aspekti deb ataydi va uni empirik dalillarga tayanib asoslaydi.”

G’arb psixologiyasida psixologik himoya muammosiga ichki va tashqi “men”likda namoyon bo’luvchi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan real “men”likning namoyon bo’lishi sifatida qaraladi va bunda ko’pincha inson mazmuni va xarakteridagi psixanalitik neobixivoristik (xulq-atvor) qarashlar o’z aksini topgan .

Keyingi qo’lga kiritilgan ilg’or psixologiya ma’lumotlariga qaraganda psixologik himoya subyektning mukammal shaxs sifatida o’z atrofidagilar bilan hamkorlik faoliyatida namoyon bo’luvchi ziddiyatlarni qondirish jarayoni demakdir. Shuningdek, psixologik himoyaning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz turga bo’lish ham qiyin qilingan.

Muvaffaqiyatli psixologik himoya shaxsdagi keragidan ortiq asabiylik, hissiy zo’riqish va bezovtalik bilan bog’liq barcha kechinmalarni oldindan bartaraf etishga erishishi tushunilsa, muvaffaqiyatsiz psixologik himoyada esa mazkur kechinmalarning shaxs faoliyatiga, ya’ni faolligiga mudom salbiy ta’siri tugallanmaganligi bilan ifodalanadi.

Psixologik himoyaning ijtimoiy psixologik qiymatga ega bo’lgan empirik kafolati guruh a’zosi sifatida o’zini adekvat his eta olish, o’zini o’zi adekvat baholay olish, muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatish, keragidan ortiq bezovtalik, asabiylik va hissiy zo’riqishlarga duchor bo’lmaslik kabi xislatlarda yaqqol namoyon etiladi.

Mazkur fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, u yoki bu shaxsda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya imkoniyatlari haqida tegishli ma’lumotga ega bo’lish uchun, dastavval undagi me’yoriy-hissiy faollikning, o’zini o’zi anglashning, o’z-o’ziga munosabatlarning, o’zini o’zi muvaffaqiyatli idora qila olishning faoliyat jarayonida nechog’lik tarkib topayotganligini o’rganish va tadqiq qilishga to’g’ri keladi.

Ayni paytda, bu holat o‘smirlarda psixologik muhofaza haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki psixologik himoya har bir o‘quvchini o‘zini o‘zi anglashga, o‘zini o‘zi muvaffaqiyatli idora qilishga, o‘z-o‘zidan faxrlanishga va o‘z imkoniyatlarini to‘la-to‘kis ishga solishga ko‘maklashmas ekan bunday psixologik himoyaning ijtimoiy qiymati haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan o‘smirlardagi psixologik himoya imkoniyatlarini tahlil qilishga ehtiyoj sezildi. Shundan kelib chiqib, tegishli ilmiy adabiyotlarga asoslangan holda psixologik himoya samaradorligini belgilovchi mezonlar ustida o‘ylash, fikrlash va ilmiy izlanishlar olib borish lozim topildi. Bizningcha, psixologik himoya samaradorligini izohlovchi mezonlar tizimi psixologiya tarmoqlari kabi juda ko‘p va xilma-xil bo‘lishi mumkin. Masalan, shartli ravishda qiyin qiladigan bo‘lsak, psixologik himoya samaradorligini ijtimoiy psixologik mezonlari, tibbiy psixologik mezonlari, pedagogik-psixologik mezonlari va hokazolarga ajratish mumkin.

Ushbu shartli tuzilmaga asoslanib, o‘z tadqiqotlarimizda psixologik himoya haqidagi tasavvurlar samaradorligini u yoki bu darajada belgilovchi faqatgina ijtimoiy psixologik yondashuvga asoslangan psixologik xizmat mezonlari tizimini ishlab chiqdik va shu maqsad asosida psixologik himoya tizimini o‘rgandik, tahlil qildik va tegishli xulosalar chiqardik.

Chunki shaxsning psixologik xizmat jarayonida namoyon bo‘luvchi va rivojlantirib borilishi muqarar bo‘lgan o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga (shaxslararo) va faoliyatga nisbatan tarkib topayotgan munosabatlarning ijtimoiy saviyasini o‘rganmay, tahlil qilmay turib, uning o‘z-o‘zidagi noxush hislardan, o‘zgalalar bilan hamkorlik o‘rnatishi bilan bog‘liq ziddiyatli vaziyatlardan, faoliyatdagi muvaffaqiyatsizliklardan psixologik himoya qilishga qaratilgan tadbirlar ko‘lamini belgilab bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, munosabatning turli sohalaridagi ijtimoiy psixologik mezonlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar, psixofiziologlar va pedagoglar (B.G.Ananov, B.D.Parigin, G.M.Andreeva, A.A.Badalov, E.V.Shoroxova, F.V.Bassin, L.S.Vigotskiy, A.V.Vedenov, Y.M.Zabrodin, A.G.Kovalov, I.S.Kon, T.A.Kitvel, E.S.Kuzmin, M.S.Kagon, I.T.Levikin, V.S.Merlin, V.N.Myasishev, V.S.Magun, I.P.Pavlov, K.K.Platonov, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov, I.Aizun, M.Fischbuin, G.J.Kosunbukgning barchasi munosabatning ma‘lum sohalarini ilmiy jihatdan asoslab beradilar. Masalan, mazkur munosabat mezoni filosoflar talqinida shaxs va borliq o‘rtasidagi ko‘prik sifatida, psixologlar talqinida shaxsning “ichki” va “tashqi” faoliyati o‘rtasidagi emostional, kognitiv va xulq-atvor komponentlari asosida namoyon bo‘luvchi intilishlarning ma‘suli sifatida, sotsiologlar talqinida shaxsning ijtimoiy muhitiga nisbatan xayrixohlik yoki norozilikning ifodalanishi sifatida, psixofiziologlar talqinida shaxs oliy nerv faoliyatining aks ettirish vositasi sifatida, pedagoglar talqinida esa o‘quvchining o‘quv topshiriqlarini “bajonidil” (ixtiyoriy qiziqish orqali) yoki majburan (yuzaki) bajarishga bo‘lgan intilishlarining ma‘suli sifatida e‘tirof etiladi. Psixologik himoya jarayoni esa xuddi shu tadqiqiy yo‘nalishlarga tayangan holda shaxsning faoliyat jarayonida tarkib topayotgan munosabatlarini o‘rganishni, tahlil qilishni va shu asosda tegishli tadbirlarni belgilay olishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Bu o‘rinda professor E.G‘oziyevning nazariy-metodologik qiymatga ega bo‘lgan quyidagi fikrlarini qayd etish o‘rinlidir:

-Hozirgi kunda shaxsga subyektiv munosabat muammosini ijtimoiy jihatdan turmushda qaror toptirish uchun;

- odam – inson – shaxs – individuallik – subyekt – komillik iyerarxiyasiga rioya qilish;
- shaxsga subyektiv munosabat, ya‘ni unda robot sifatida barcha xususiyatlarni bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish, "subyekt-subyekt" aloqasini vujudga keltirish;
- har qanday subyekt-shaxs, lekin har qaysi shaxs subyekt emasligi muammosini yechish;
- shaxs subyekt bo‘lishi uchun mustaqillik, shaxsiy pozistiya, qat‘iy maslak, dunyoqarash va ularni hayotga tatbiq qilish imkoniyati mavjudligini tan olish" (manba) kabi muammolarning bartaraf etilishi shaxsning ijtimoiy munosabatlar majmuasini kamol toptirishga xizmat qilishi tayin.

Psixologik himoya uchun muhim bo‘lgan shaxs faolligi masalasida rus olimlari o‘zlarining qator nazariy-ilmiy fikrlarini bayon etganlar. Chunonchi, A.V.Petrovskiy tomonidan shaxsning tevarak atrofga munosabati, birgalikdagi faoliyati va ijodiy ish jarayonida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o‘zgarishlar qilish layoqatining ma‘suli sifatida tadqiq qilinsa, D.I.Feldshteyn tadqiqotlarida esa psixologik xizmat jarayonida qaror toptirilishi lozim bo‘lgan shaxs taraqqiyotining bosh maqsadi: insonning o‘zini o‘zi, o‘z qobiliyatlarini va imkoniyatlarini mumkin qadar ocha olishi va undan unumli foydalana olishiga ishora qilinadi va insonning o‘zini o‘zi ochishi esa uning ongli tarzda jamiyat ideallariga mos barcha layoqatlari va imkoniyatlarini rivojlantirishdan to‘la-to‘kis foydalanish uchun ko‘rsatilgan jadal faoliyat ekanligi uqtiriladi.

Demak, shaxs faolligi, avvalo, o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘z imkoniyatlari ko‘lamidan unumli foydalana olishga intilish jarayoni ekanki, bu jarayonni muntazam ravishda o‘rganish va rivojlantira borish shaxs taraqqiyotini ta‘minlovchi jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanmog‘i muqarrar. Umuman,

shaxs faolligini tushunish, tushuntirish va ilmiy jihatdan asoslashga bag‘ishlangan va ayni paytda psixologik himoya vazifalarini belgilash uchun muhim bo‘lgan izlanishlarni shartli ravishda ma‘lum yo‘nalishlarga bo‘lish mumkin. Zero, har bir yo‘nalish tadqiqotchilari shaxs faolligini u yoki bu g‘oyada turib tahlil qiladilar va tegishli xulosalar chiqaradilar.

Ayni paytda sog‘lom avlodda sof ruhiy holatlar, adekvat tasavvurlar bo‘lishi tayin, lekin ana shunday tasavvurlarning kelib chiqishini ilmiy asoslash, ularning rivojlanish dinamikasini o‘rganish hamda oilaviy muhitning bu jarayondagi ahamiyatini aniq ilmiy uslublar yordamida yoritib, kelajak uchun ilmiy bashoratlar qilish psixologiya fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Qolaversa, ijtimoiy tasavvurlar psixologiyasi, ularning tabiati, shakllanishi, rivojlanishi masalasi, xulq-atvoriga ta‘siri muammosi jahon psixologlari, xususan, fransuz va rus olimlari tomonidan o‘rganilgan (G.M.Andreeva V.S.Ageyev, A.J.Donstov, V.P.Trusov, T.M.Emelyanova, P.A.Petrovskaya, A.N.Leontev, S.Moscovisi, M.Hewston, I.Jaspars, Social representation, D.Jodelet, va boshqalar). Ularda shaxs psixologiyasining muhim qirrasini hisoblangan ijtimoiy tasavvurlarning atributiv roli empirik tadqiqotlarda to‘plangan ma‘lumotlar asosida isbot qilingan.

Shaxslardagi psixologik himoya uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasini ishlab chiqib, V.M.Karimova unga quyidagicha ta‘rif beradi: “Ijtimoiy tasavvurlar har bir shaxs tomonidan ijtimoiy borliqni o‘ziga xos tarzda qayd etish vositasi bo‘lib, subyektiv reallikni obyektivlik bilan bog‘lovchi psixologik mexanizmlardir. Bu ta‘rif orqali biz ijtimoiy tasavvurlarning bir necha muhim xususiyatlarini ajratamiz. Birinchidan, ijtimoiy tasavvurlar faol ijtimoiy muloqotlar mahsuli; ikkinchidan, ular shaxs uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy obyektlarga nisbatan uning ongli munosabatlarini ta‘minlaydi; uchinchidan, jamiyatda qilingan turli ijtimoiy me‘yorlar, xatti-harakat shakllari, qadriyatlar va baholarning interiorizatsiyasini ta‘minlaydi va nihoyat, ijtimoiy tasavvurlar shaxs ijtimoiy tajribasining asosidir”

Demak, shaxs faoliyatida va uning o‘zini o‘zi psixologik himoya qilishda ijtimoiy tasavvurlarning muhim o‘rniga alohida e‘tibor berish orqali muallif shunday xulosaga keladi.

Ijtimoiy tasavvurlar shakllanish jarayonining o‘zida asosan ikki xil jarayon ro‘y beradi:

1. Generalizatsiya umumlashtirish-turli ma‘lumotlarning shaxs tomonidan idrok qilinishi va shaxsiy ahamiyat kasb etganlarning aynanlik, o‘xshashlik prinsipiga ko‘ra, asosiy, yetakchi tushuncha atrofida birlashishi;

2. Individualizatsiya-shaxs ongiga singib, turli vaziyatlarda ham nisbatan o‘zgarimas, qaytarilmas bilimlarga, subyektiv tasavvurlarga aylanish jarayoni. Bu ikkala jarayonning oqibati o‘laroq, ijtimoiy tasavvurlar tizimida tabaqalanish ro‘y berib, shunga ko‘ra, shaxsda turli ijtimoiy obyektlarga nisbatan o‘ziga xos munosabatlar shakllanadi”.

Xorijiy va rus tadqiqotchilarining fikrlarini umumlashtirgan holda tadqiqotchilar shaxslardagi psixologik himoya jarayoni uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy tasavvurlarga quyidagicha ta‘rif beradi.

Ijtimoiy tasavvurlar - har bir shaxs tomonidan ijtimoiy borliqni o‘ziga xos tarzda qayd etish vositasi bo‘lib, subyektiv reallikni obyektivlik bilan bog‘lovchi psixologik mexanizmlardir.

Bu ta‘rif orqali tasavvurlarning quyidagi bir necha muhim xususiyatlarini ajratishga harakat qiladi:

Birinchidan, ijtimoiy tasavvurlar faol ijtimoiy muloqotlar, kundalik shaxslararo munosabatlarning mas‘uli;

Ikkinchidan, ular shaxs uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy obyektlarga nisbatan uning ongli munosabatlarini ta‘minlaydi;

Uchinchidan, ijtimoiy tasavvurlar bilish vositasidir;

To‘rtinchidan, jamiyatda qabul qilingan turli ijtimoiy me‘yorlar, xatti-harakatlar shakllari, qadriyatlar va baholarning, shu jumladan, oilaviy munosabatlar doirasidagi qadriyatlarining interiorizatsiyasini ta‘minlaydi;

Beshinchidan, ijtimoiy tasavvurlar shaxs ijtimoiy tajribasining asosidir.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxsdagi har bir ijtimoiy tasavvur va uning motivatsiyasi zahirida o‘zini o‘zi psixologik jihatdan himoya qilish jarayoniga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlar tizimini ko‘rish mumkin. Ushbu holat esa psixologik himoya mezonlarini yanada chuqurroq tadqiq qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, yuqoridagi tadqiqot yo‘nalishlarining tahlili, birinchidan, umumiy tarzda, ilmiy-nazariy jihatdan shaxs faoliyatiga va faolligiga ta‘rif berish imkonini bersa, ikkinchidan, tadqiqot maqsadiga mos psixologik himoya mezonlarini ishlab chiqish va uni psixologik xizmat davomida amaliyotda qo‘llash uchun ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Demak, psixologik himoya bu o‘zini o‘zi rivojlantirish va ijtimoiy ahamiyatga molik o‘zgarishlar qilish uchun ma‘lum darajadagi intilishlar mas‘ulidir. Shu boisdan, shaxs faoliyatining ijtimoiy psixologik taraqqiyoti talablari asosida qaror toptirilishi mazkur shaxsning o‘zi

uchun ham, ayni paytda jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adekvat psixologik himoya namoyon bo‘lishi psixologik “Men”likka asoslangan harakatlarning namoyon bo‘lishi bilan xarakterlidir. Chunki har bir shaxs u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanar ekan, avvalo, o‘z imkoniyatlari, emostional irodaviy xususiyatlarining sifatlarini shu faoliyat talablariga mos tomonlari haqida ma’lum darajada mulohaza yurita olishi, o‘z “Men” ligini real tarzdagi psixologik “oyna”da ko‘ra olishi kerak. Ayni paytda, bugungi psixologik himoyaga asoslangan “Men”siyosining uch tarkibiy qismi:

1) kognitiv (kishining bilishga asoslangan harakatlari, ongli faoliyat yo‘nalishlari);

2) hissiy baholash (o‘zini-o‘zi hurmat qilishi, o‘z-o‘ziga tanqidiy nuqtai nazardan yondashishi, o‘zini sevishi va hokazo);

3) xulq-atvor (o‘z mavqeyini kuchaytirish, o‘z galar hurmatini qozonish, o‘z kamchiliklarini anglash va hokazo) o‘zaro hamjihatlikda kamol toptirilishi yoki boshqacha qilib aytganda har bir shaxsning o‘tmishidagi “Men” i (o‘zlik), hozirgi “Men”i (o‘zlik), bo‘lg‘usi “Men”i (o‘zlik), ideal “Men”i (o‘zlik) va dinamik “Men”i (o‘zlik) o‘rtasidagi ijtimoiy mutanosiblikning ta‘minlanishiga jiddiy e‘tibor berilishi talab qilinadi. Demak, E.G‘oziyev tomonidan olib borilgan mazkur tadqiqotlar shaxsdagi psixologik himoya jarayonining nazariy metodologik asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa. Shunday qilib, aytish mumkinki, yuqorida qayd etilgan barcha nazariy metodologik asoslar bugungi kunda shaxslarda o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish jarayoni haqidagi tegishli tasavvurlarni o‘rganish uchun ijtimoiy psixologiya fanida ma’lum ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun tegishli ilmiy yo‘nalishlar imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Тимченко А. В. Психологические аспекты состояния, поведения и деятельности людей в экстремальных условиях и методы их коррекции. — Х.: Изд-во ХВУ, 1997. 168 с.

2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Tuzuvchilar: U. Karimov va b. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1-jild. –1992. – 298 b.

3. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений. Г.М. Андреева.– 5-э изд., испр. и доп. – М.: Аспект Пресс, 2003. – 364с.

4. Краткий психологический словарь / Под ред. А. В. Петровского, М. Г. Ярошевского. - Ростов н/Д: Феникс, 1999. - 512 с

5. Божович Л.И. Проблемы развития мотивационной сферы ребенка. Изучение мотивации поведения детей и подростков. М.: Педагогика, 1972.– 196 с.

6. Платонов К.К. Структура и развитие личности. - М.: Наука, 1986. - 255с.

BO‘LAJAK CHIZMACHILIK O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

*Sobirova Sharofat Umedullayevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti*

Maqolada kompetensiyaning mazmun-mohiyati, kompetentlikka bo‘lgan zaruratni yuzaga keltiruvchi omillar, chizmachilik fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish va kasbiy kompetensiya shakllari hamda ularning ta‘lim tizimiga samarali ta‘siri keltirilgan. Shuningdek, kasbiy kompetensiyaning shakllanishi muayyan individual va shaxsiy sifatlarning hamda ijtimoiy-madaniy faollik darajasiga bog‘liqligi haqida fikr yuritilgan.

Kalitso‘zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, chizmachilik, bilim, ko‘nikma, malaka, muhandislik grafikasi, konstruktorlik.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧЕРЧЕНИЯ

В статье представлены сущность компетентности, факторы, формирующие потребность в компетентности, повышение профессиональной компетентности учителей черчения, а также формы профессиональной компетентности и их эффективное влияние на систему образования. Также отмечается, что формирование профессиональной компетентности зависит от определённых индивидуальных и личностных качеств, а также от уровня социокультурной активности.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, черчение, знания, навыки, компетенции, инженерная графика, конструирование.

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE DRAWING TEACHERS

The article presents the essence of competence, factors that form the need for competence, improvement of professional competence of drawing teachers, as well as forms of professional competence and their effective impact on the education system. It is also noted that the formation of professional competence depends on certain individual and personal qualities, as well as on the level of sociocultural activity.

Keywords: competence, professional competence, drawing, knowledge, skills, competences, engineering graphics, construction.

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda ta‘lim-tarbiya jarayonini innovatsion yangilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, sohani rivojlantirish, yoshlarning ta‘limga qamrovini ko‘paytirish, ta‘limda axborotlashgan usullarni qo‘llash, ta‘lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlashning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta‘lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta‘minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish” ustuvor yo‘nalishlar etib belgilandi. Natijada bo‘ljak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

Ma‘lumki, bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatda mavjud u yoki bu ish yoki xizmat o‘rnini egallab turgan har bir mutaxassisning tegishli o‘ringa qanchalik munosiblik darajasi uning shu ish yoki xizmat egasiga qo‘yiladigan turli-tuman talablarga naqadar javob berishligi bilan o‘lchanadi. Keyingi yillarda ish yoki xizmat o‘rni bilan shu ish yoki xizmat o‘rniga talabgor shaxs o‘rtasidagi ana shunday munosiblik darajasini hisoblash asoslarini ishlab chiqish yo‘lida jahonning bir qator davlatlarida kasb kompetensiyalarini tadqiq qilish va ana shunday tadqiqotlar natijalarini amalda qo‘llashga oid bir qancha konsepsiyalar vujudga keldi.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha

va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan **“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”** qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olingan.

“Kompetensiya” so‘zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo‘lmoq” kabi ma’nomlarni anglatuvchi lotincha “competere” so‘zi asosida hosil bo‘lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi.

“Kompetensiya” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetensiya“ noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalga yuqori darajada qo‘llay olinishidir.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi[1].

Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi: - murakkab jarayonlarda, - noaniq vazifalarni bajarishda, - bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda, - kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetentlik negizida turli sifatlar shakllanadi. Bular:

Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakalarni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Shaxsiy kompetentlik– izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ektremal kompetentlik–favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzagakelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik[2].

Kompetentli yondashuv oliy ta’lim jarayonini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim sifatini bo‘lajak chizmachilik mutaxassislarning kompetentligini shakllantirish va grafik faoliyatlarini oshirish bilan ta’minlash mumkin. Muhandislik grafikasining tez rivojlanishi yuqori malakali muhandis xodimlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Buning asosiy negizi esa o‘z navbatida umumta’lim maktablarida chizmachilik fanlaridan dars beradigan chizmachilik fani o‘qituvchisi kasbini egallagan mutaxassislarga bo‘lgan talabni oshiradi. Chizmachilik fani yo‘nalishi bo‘lajak o‘qituvchisi grafik bilimlarga, grafik amallarni mustaqil tahlil qilishda ijodiy yondashishni bilishi zarur. U faqat bilimlarni o‘quvchilarga yetkazish bilan bir qatorda ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, loyihalash, konstruksiyalash hamda kasbiy pedagogik madaniyatga ega bo‘lishi kerak. Olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘z kelayotgan yosh avlodni konstruktorlik tayyorgarligini oshirish va grafik qobiliyatini rivojlantirish uchun har xil axborotlar va faoliyat turlarini o‘quv grafik faoliyat mazmuni orqali integratsiyalashgan holatda yetkazish asosiy sharti hisoblanadi. Chizmachilik faniga nafaqat ma’lumotlarni yetkazish, balki loyiha–konstruksiyalarga doir masalalarni chuqurroq anglab, yangi mazmundagi topshiriqlarni tavsiya qilish orqali o‘quvchilarning grafik faoliyatini rivojlantirish mumkin.

Kompetentlik sifatlarini o‘zida shakllantirgan mutaxassis o‘z kasbining yetuk ustasi bo‘ladi, barcha vaziyatlarda ham o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o‘z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni, ilg‘or pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o‘rganib, pedagogik kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib boradi. Shunday shaxsiy sifatlarga ega bo‘lgan mutaxassisning kasbiy faoliyati davomida zarur kompetensiyalari shakllanadi. Mehnat qilish madaniyatigagina emas, balki yuksak umuminsoniy madaniyatlar: odob-axloq, qadriyatlar va obro‘-e’tibor

egasi bo‘lishi o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi.

Malakali mutaxassisni tayyorlashda, ya‘ni tayanch, umumkasbiy (kasbiy-pedagogik) va kasbiy (maxsus) kompetensiyalarni shakllantirishda va rivojlantirishda ta‘lim mazmuni (davlat ta‘lim standartlari va o‘quv reja, dasturlar), shakli, metod, vositalari (darsliklar, elektron axborot ta‘lim resurslari va boshqa didaktik materiallar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, laboratoriya jihozlari va hokazolar) va ta‘lim texnologiyalari (ta‘lim metodlari, tashkiliy shakllari va boshqalar)dan foydalanib o‘quv-tarbiya jarayoni tashkil etiladi hamda kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish va auditoriyada olingan nazariy bilimlar hamda amaliy ko‘nikmalarni real sharoitda tajribadan o‘tkazish maqsadida malakaviy amaliyot tashkil etiladi.

Bunda ta‘lim jarayonida egallangan tayanch, umumkasbiy (kasbiy-pedagogik) va kasbiy (maxsus) bilim, ko‘nikma, malakalarini mehnat faoliyati amaliyotiga tatbiq etadilar. Kasbiy - pedagogik faoliyat natijasida - boy dunyogarashga, mustaqil, faol, tashkilotchi, qobiliyatli, ijodkorlik (kreativlik) ruhida, o‘zini o‘zi nazorat qila olish tartibida faoliyat olib boradigan, ma‘lum kompetentlik darajasiga ega, yetuk malakali kadrlarning tayyorlanganligini tekshirish va tahlil qilib borish uchun faoliyat monitoringi olib boriladi. Natijada yetuk, malakali kadrlarning mustaqil va rejali asosda o‘z ustida ishlashi, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini izchil rivojlantirib borishining ta‘minlanishi kuzatiladi. Yugorida sanab o‘tilgan kasbiy – pedagogik faoliyatlar tizim ichida kechadi, lekin bu tizim faoliyatini samarali bo‘lishi uchun uni o‘rab turgan muhit, ya‘ni ijtimoiy, madaniy, pedagogik muhit talab darajasida bo‘lishi zarur.

Oliy ta‘lim bitiruvchilarining kasbiy kompetentligini zamonaviy ilmiy-texnik bilimlar negizida shakllangan pedagogik va maxsus tayyorgarligi belgilaydi. Bitiruvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashdan ko‘zlangan maqsad – oliy pedagogik ta‘lim tizimida ushbu mutaxassislarning pedagogik va texnik konstruktorlik tayyorgarligini ta‘minlashdan iboratdir. Oliy malakali kadrlar tayyorlash klassifikatoridagi barcha sohalar bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan va pedagogik nugtayi nazaridan moslashtirilgan fanlar bo‘yicha ta‘lim olgan bo‘lib, o‘sib kelayotgan avlodni ta‘lim va tarbiya masalalarini hal etish kabi vazifalarni bajarishi zarur[4].

Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyalar va grafik faoliyatini rivojlantirish hamda shakllantirishning yakuniy maqsadi sifatida quyidagilarga e‘tibor qaratiladi:

- mutaxassis kadrlarni kasbiy-pedagogik kompetentligini va grafik faoliyatini shakllantirishda asosiy e‘tibor o‘quv fani vositalari, pedagogik faoliyat mazmuni va talabaning shaxsiy imkoniyatlari asosida shakllantirishga qaratiladi;

- kasbiy-pedagogik faoliyatning mazmuni, vazifalari, ushbu japayonda texnik topshiriqlarga muvofiq va avtomatlashtirilgan loyihalashning standart vositalaridan foydalangan holda, muxandislik inshootlarining qismlari va tarkibiy qismlarini hisoblash va loyihalashga ega bo‘lgan holda shaxsiy faollikka erisha olishiga asoslanadi;

- mutaxassis kadrlarni pedagogik nuqtayi nazardan tayyorlash aniq maqsad, ya‘ni pedagogik bilimlarning ta‘lim muassasasida tashkil etiluvchi kasbiy ta‘limning o‘ziga xosligi bilan belgilanadigan tuzilmasi va mazmuniga yo‘naltirilgan;

- mutaxassis kadrlarning kasbiy-pedagogik faoliyatidan kutiladigan va erishish mumkin bo‘lgan natijalar talaba shaxsi, uning yo‘nalganligi (talablari, qizigishi, qadriyatli yo‘nalishi, ishi, ongi, sabablari); ma‘lumot darajasi (bilim, malaka, ko‘nikmalari, bilimlarini doimiy ravishda boyitishga intilishi va mahorati); tarbiyalanganlik holati (ma‘naviy, estetik, jismoniy, mehnat va hokazolar jihatdan); ijtimoiylashuvi (faol kasbiy va ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga tayyorligi, bilim olishni davom ettirishi, ijtimoiy va qadriyatli qoidalarni qabul qilishi); madaniyatligi (ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini qabul qila olishi, intellektual, iqtisodiy, ekologik, madaniyat, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati, munosabatlari mazmuni va xulq)kabi holat bilan belgilanadi. Kutilayotgan natijalarning eng yuqori darajasi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligi hisoblanadi.

Yo‘nalish talabalarining kasbiy - pedagogik kompetentligi mazmunini loyihalashtirish jarayonining asosiy, yakuniy maqsadini aniqlashdan uning yakuniy natijasini loyihalashtirishgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oluvchi o‘zaro mantiqiy bosqichlar o‘z ifodasini topadi.

Talabalarining kasbiy faoliyatini modellashtirish mazkur loyiha doirasidagi tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta‘minlashga xizmat qiluvchi omillardan biri sanaladi. Shu bois talabalarining kasbiy-pedagogik faoliyatini modellashtirish, uning mohiyati va shartlari xususida ma‘lumotlarga ega bo‘lish talab etiladi.

Mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayoni murakkab xususiyatga ega bo‘lib, bu jarayonda maqsadning aniq belgilanishi, mutaxassis modelining tarkibiy asoslarini aniqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Yugorida keltirilgan faoliyat asoslari ma‘lum mutaxassis uchungina emas, balki barcha mutaxassisliklar vakillari

uchun ham zarur bo‘lgan kompetentlikni o‘z ichiga oladi. Masalan, bilim olishga moyillik, tashkilotchilik, jamoani boshqara olish, ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlik. Mutaxassis modelining ikkinchi va uchinchi tarkibiy asoslari hisoblanadigan faoliyat turlari ma‘lum kasb uchun qo‘yiladigan aniq talablar darajasini belgilaydi.

Mutaxassis kadrlar, avvalo, ta‘lim mazmunini loyihalashtirish bilan bog‘liq quyidagi mahoratlar tizimini egallab olishi kerak: o‘qitish maqsadlarini (ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish) konstruktiv tasvirlash; ta‘lim oluvchilarda ma‘lum kasb faoliyati bo‘yicha bilim, ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarni aniqlash; ushbu ko‘rsatkichlarning aks etishiga imkon beruvchi chizmalar, sxemalar, loyihalar, texnik-konstruktiv hamda tashkiliy-loyihalashga doir masalalar va ta‘lim metodlari, shaklini to‘g‘ri tanlash; ularning ketma-ketligini aniqlash; ta‘lim oluvchilar tomonidan nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarning shakllantirilishi va hokozolar borasidagi zarur ma‘lumotlarga ega bo‘lishni ta‘minlovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash[2].

Kasbiy kompetentlikni shakllanishi jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning individual xususiyatlarini o‘rganish, kompetensiyalarni o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish hamda uning natijalarini baholash muhimdir. O‘quv faoliyatining zarur tarbiyaviy natijasini aniqlashga xizmat qiluvchi kompetensiyalar alohida tizimni tashkil etadi. Ma‘naviy dunyoqarash va uning mohiyati hamda umumiy madaniyatlilik darajasiga qo‘yiluvchi talablarni ham o‘z ichiga oladi.

Tuzilishi nuqtayi nazaridan mutaxassis modeli uni o‘zgartirish va tuzatish imkonini beruvchi, faoliyat samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi va oson tashxis qilinadigan tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olishi zarur. Ikki qismli tuzilmaga ega bo‘lgan mutaxassis modeli eng ko‘p tarqalgan model hisoblanadi.

Mutaxassis modeli–bu oliy ta‘lim muassasida mutaxassislar tayyorlash jarayonini tartibga soluvchi o‘quv rejalari, dasturlar va boshqa hujjatlarning aks ettirilishidir. Ya‘ni mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi modeli eng umumiy ko‘rinishi o‘zida ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-boshqaruv, axloqiy bilimlarning, mehnat faoliyati uchun zarur bo‘lgan xususiyatlar, ko‘nikmalarning hajmi va tuzilmasining sxematik ifodalanishini aks ettiradi.

Mutaxassis modelini yaratishda kasbiy faoliyatning ma‘lum turi uchun muvofiq keladigan shaxsiy sifatlar to‘plami tartibga solinadi. Mutaxassis modelining turlaridan biri malakaviy tavsifnoma hisoblanadi. Uning mazmunida quyidagi holatlar aks etadi: turli lavozim va turli ish joylari uchun xos bo‘lgan kasbiy faoliyat turlari, vazifa va majburiyatlar, shaxsiy sifatlar, bilim va ko‘nikmalar. Bunday modellar kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularni attestatsiyadan o‘tkazish, shuningdek mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassis modeliga ko‘ra pedagogik, kasbiy hamda ixtisoslik fanlarni o‘qitishda ta‘lim mazmuni, shakli, metod, vosita va texnologiyalarini samarali qo‘llanishi orqali kasbiy kompetentli mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi ta‘minlanadi[5].

Kompetentli yondashuv asosidagi modulli ta‘lim, muammoli ta‘lim texnologiyalari, keysstadi metodi va pedagogik, texnik-konstruktorlik loyihalashga doir topshiriqlar bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy, ixtisoslik, pedagogik turkumi fanlari va kasbiy faoliyat uyg‘unligini ta‘minlab, kasbiy kompetentli mutaxassis tayyorgarligini yuqori sifat darajasiga ko‘taradi.

Mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllanishi muayyan individual va shaxsiy sifatlarning o‘zaro bog‘liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu sifatlar motivatsion, tashkilotchilik, mustaqillik, qobiliyat, hissiy-irodaviy, amaliy faoliyatli, kreativlik, o‘z-o‘zini boshqara olish layoqati kabilardan tarkib topadi.

Kasbiy kompetentli mutaxassisning faoliyatli modelida ta‘lim mazmuni uch darajada: tayanch kompetentlik (o‘quv rejasidagi barcha blok fanlari uchun); umumkasbiy kompetentlik (o‘quv rejasidagi pedagogik hamda umummuhandislik fanlari to‘plami uchun); maxsus kompetentlik (o‘quv rejasidagi kasbiy va ixtisoslik fanlari uchun) shaklida keltirilgan.

Shunday qilib, tayanch kompetentlik oliy pedagogik ta‘limning har bir bosqichi uchun ta‘lim bloklari va o‘quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta‘limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko‘nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi .

Kasbiy kompetentlik sifatlariga ega kadrlarni shakllantirishda yuzaga keladigan pedagogik hamda texnik-konstruktorlikka doir topshiriqlarni muvaffaqiyatli hal etilishini ta‘minlovchi, motivatsion xislatlar, intellektual salohiyat, hissiy-irodaviy sifatlar, predmetli-faoliyatli ko‘nikmalar hamda o‘z-o‘zini boshqara olish sifatlarini ta‘riflovchi, tashkilotchilik qobiliyatiga ega hamda kreativ fikrlovchi, kasb egasining mustaqil bilim olishi va o‘zini rivojlantirishini aks ettiruvchi andoza hisoblanadi.

Auditoriyadagi ta’lim, malakaviy amaliyotlar hamda mustagil ta’lim jarayonida bilim, ko’nikma va malakalar, faoliyat tajribasini o’zlashtirish hamda shaxsiy, kasbiy va individual sifatlarga ega bo’lishlik bitiruvchilarning tayanch, umumkasbiy va maxsus kompetentliklarining shakllanishini ta’minlaydi.

Xulosa. Mutaxassis kadrlarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida ta’lim oluvchining o’z-o’zini anglash, baholash va boshqarish kabi tarkibiy qismlarni rivojlantirish hamda ta’lim muassasalarida ishlashga tayyorlash hisoblansa-da, shu bilan birgalikda ularning umumkasbiy va ixtisoslik fanlari asoslarini o’rganish vazifalari quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

- yo’nalish mutaxassisining kasbiy faoliyatida pedagogik, umumkasbiy va ixtisoslikka oid bilimlarni o’zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabatda bo’lishga erishish;

- ta’lim va ishlab chiqarish jarayonlariga xos bo’lgan muammoli vaziyatlarda masalalarni ajratib olish hamda ularni hal qilish usuli sifatida pedagogik va grafik faoliyatini rivojlantirish;

- yo’nalish mutaxassisining kasbiy faoliyatida individual ta’lim metodini qo’llay olish, o’quv-pedagogik va ishlab chiqarish harakatlarining reproduktiv hamda ijodiy usullarini shakllantirish;

- kasbiy faoliyatida muhim kasbiy - pedagogik sifatlarni, ya’ni hamdardlik, bolalarni sevish va boshqalarni rivojlantirish, kasbiy va shaxsiy o’z-o’zini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirish[3].

Kasbiy kompetensiya va grafik bilimga ega mutaxassis quyidagilarga erisha oladi:

-grafik bilimlarga oid ma’lumotlarini to’plash, jamlash, qayta ishlash va ulardan o’qitishda foydalanish usullarini egallaydi va o’z -kasbiy faoliyatida ulardan mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni bilish; o’z bilim va malakalarini izchil boyitib boradi,

- yangi axborotlar, ma’lumotlarni o’zlashtiradi,

- bugungi ishlab chiqarish jarayonida mashina va mexanizmlarning ishlash prinsiplarini ifodalovchi sxematik chizmalarni bajarish va o’qiy olish ko’nikmalariga ega bo’ladi,

-grafik ta’limga oid yuqori darajadagi bilim, ko’nikma va malakalarni chizmachilik fanini o’qitishda qo’llashga ijodiy yondasha olish hamda yangi g’oyalar va bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o’z kasbiy amaliy faoliyatida samarali qo’llaydi.

Adabiyotlar:

1. Хуторский А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Ученик в обновляющейся школе: сб. науч. тр. / под ред. Ю.И.Дика, А.В.Хуторского. – М.: ИОСО РАО, 2002. – 488 с.

2. Хуторский А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения/А.В.Хуторский. –М.:Изд-воМГУ, 2003.– 416 с.

3. Хуторский А.В.Ключевые компетенции образовательные стандарты //А.В.Хуторский// Новостной сайт «Эйдос», версия для КПК [Электронный ресурс].–Режим доступа:<http://www.eidos.ru/journal/2002/0423.htm>

4. Хуторский А.В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций / А.В. Хуторский // Эйдос. – 2005. – 12 декабря [Электронный ресурс].–Режим доступа:<http://www.eidos.ru/journal/2005/1212.htm>

5. Бойцис Р. Компетентный менеджер: модель эффективной работы / Р.Бойцис;пер.сангл.//The Competent Manager: A Model for Effective Performance. – 2008.

6. Raven Dzh. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release Unionville. New York: Royal Fireworks Press, 1984, Revised 1997 – Pp.425.

7. Adizova S. Y. (2021). Mashinasozlik yo’nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyalar va texnik qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari: // Образование и инновационные исследования, международный научно-методический журнал, (3), 250-257.

8. G’aniyev Orif Abduxalikovich, Sanaqulova Zilola Abduxakimovna O’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish // Scientific progress. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-qituvchilarning-kasbiy-kompetentligini-rivojlantirish>

9. Чистякова С. Н. Профессиональные компетенции педагога и новые стандарты // Профессиональное образование. Столица. – 2013. – №. 4. – С. 14-17.

BO‘LG‘USI TARBIYACHILAR FASILITATOR SIFATI, KASBIY PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA TAMOYILLARI

Tairova Madinabonu Baxtiyarovna,

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.D.(PhD)

madinatairova1988@gmail.com

Ushbu maqolada bo‘lg‘usi tarbiyachilar fasilitator sifati, kasbiy pedagogik kompetensiyasini shakllantirish omillari va tamoyillari, shuningdek, ularning kasbiy faoliyati davomida nazariy bilimlari tizimini va ularni muayyan pedagogik vaziyatlarda qo‘llash usullarini, ularning qadriyat yo‘nalishlarini, shuningdek, uning madaniyatining integral ko‘rsatkichlarini (nutq, aloqa uslubi, o‘ziga va uning faoliyatiga munosabat, tegishli bilim sohalariga va boshqalar) o‘z ichiga olgan ko‘p faktorli hodisalar, "Kasbiy kompetentsiya" tushunchasining ta‘rifiga muvofiq, tarbiyachilarning kasbiy kompetentsiya darajasini baholash mezonlari va amalga oshirilishi keltirib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar:** bo‘lajak tarbiyachi, fasilitator sifati, kasbga tayyorlash, kasbiy kompetentsiya, rivojlantirish, takomillashtirish, pedagogik, muammo, dolzarb, maktabgacha ta‘lim, ahamiyati, ta‘lim va tarbiya jarayoni.*

ФАКТОРЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ, ФАСИЛИТАТОРСКИХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ

В данной статье рассматриваются факторы и принципы формирования качества будущих педагогов, профессиональной педагогической компетентности, а также система теоретических знаний в процессе их профессиональной деятельности и способы их применения в конкретных педагогических ситуациях, их ценностные направления, а также интегральные показатели их культуры (речь, стиль общения, отношение к себе и своей деятельности, смежным областям знаний и др.), в том числе многофакторные явления, критерии оценки уровня профессиональной компетентности педагогов и их реализация в соответствии с приведённым определением понятия «профессиональная компетентность».

***Ключевые слова:** будущий педагог, качество фасилитатора, профессиональная подготовка, профессиональная компетентность, развитие, совершенствование, педагогика, проблема, актуальность, дошкольное образование, значение, воспитание и воспитательный процесс.*

FACTORS AND PRINCIPLES OF FORMING PROFESSIONAL PEDAGOGICAL COMPETENCE, FACILITATOR QUALITIES OF FUTURE EDUCATORS

In this article, the factors and principles of the formation of the quality of future educators, professional pedagogical competence, as well as the system of theoretical knowledge during their professional activity and the methods of their application in specific pedagogical situations, their value directions, as well as integral indicators of their culture, are discussed in this article. (speech, communication style, attitude to oneself and one's activities, related fields of knowledge, etc.), including multifactorial phenomena, criteria for evaluating the level of professional competence of teachers and their implementation in accordance with the definition of the concept of "Professional competence" cited.

***Keywords:** future educator, quality of facilitator, professional preparation, professional competence, development, improvement, pedagogy, problem, actual, preschool education, importance, education and educational process.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturining birinchi bob, 3-bo‘limidagi pedagogning rovida har bir pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta‘lim tarbiya berishda o‘z bilim, ko‘nikma va malakalari yani kompetensiyasiga alohida to‘xtalib o‘tadi. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 16-dekabr 2019- yildagi Maktabgacha ta‘lim sohasidagi xalqaro tajribalari, O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentyabrdagi 637-sonli “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Birlashgan millatlar tashkilotining

O‘zbekistondagi xalqaro bolalar jamg‘armasi (UNICEF) bilan hamkorlik tashkilotlari kabi bir qator huquqiy hujjatlar ushbu mavzuning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Ilmiy yangilik sifatida bo‘lg‘usi tarbiyachilar fasilitator sifati, kasbiy pedagogik kompetensiyasini shakllantirish omillari va tamoyillari, oliy o‘quv yurtida talabalarni tarbiyachilikka tayyorlashning muhim shartlaridan - ularda kelgusida o‘z kasbini mohir pedagogik kompetensiyasini shakllantirishdir. Bunda, ayniqsa, fasilitatorlik sifatini quyidagi jihatlar bo‘lishi zarur:

Tarbiyachining fasilitatorlik sifati kasbiy kompetensiyasi-bu o‘z kasbiy majburiyatlarini samarali bajarish va ta‘lim faoliyati tamoyillari asosida yosh avlodni tarbiyalashni amalga oshirish qobiliyatidir.

Asosiy qism. Pedagogik kompetensiya tarbiyachining bilim, ko‘nikma, kasbiy faoliyat tajribasi, shaxsiy fazilatlarini, mahoratiga ega bo‘lishidan iborat bo‘lib, unga o‘zining kasbiy funksiyalarini samarali bajarishga imkon beradi.

Davlat ta‘lim standartiga muvofiq maktabgacha ta‘limning ta‘lim dasturi ishlab chiqilgan va joriy etilgan bo‘lib, unda nafaqat majburiy qism, balki ta‘lim munosabatlari ishtirokchilari tomonidan shakllantirilgan qism ham mavjud, shuningdek, inklyuziv ta‘limni o‘z ichiga oladi va milliy, etnik-madaniy vaziyatni hisobga oladi. Ushbu yangi umumiy ta‘lim dasturini amalga oshirish tarbiyachining kasbiy mahoratiga tayanishni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi huquqiy hujjatlarga tayanib, pedagogning fasilitator sifatida kompetensiyasi - mutaxassisning ma‘lum bir kasbiy muammolarni hal qilish uchun shaxsiy qobiliyati kompaniya xodimlarining shaxsiy, kasbiy va hokazolarga (yoki ba‘zi bir xodimlar guruhiga) rasmiy ravishda tavsiflangan talablar tushuncha beramiz.

Endi pedagogning fasilitator sifatida kasbiy kompetensiyasi deganda shunday tizimli hodisa tushuniladiki, bunda uning mohiyati pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga, kasbiy pedagogik aloqa jarayonini maqsadli tashkil etishga imkon beradigan, shuningdek, tarbiyachining shaxsiy rivojlanishi va takomillashishini o‘z ichiga olgan pedagogik bilim, tajriba, xususiyatlar va fazilatlarining tizimli birligidan iborat[7].

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha faoliyatni tashkil etish va mazmuni bo‘yicha vakolatli bo‘lishi va har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq vakolat ko‘rsatkichlarini namoyish qilishi kerak (1-jadval).

Faoliyat yo‘nalishlari	Kompetensiya mezonlari	Kompetensiya ko‘rsatkichlari
Ta‘lim faoliyati	· yaxlit pedagogik jarayonni amalga oshirish; · rivojlanayotgan muhitni yaratish; · bolalar hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilishni ta‘minlash.	- maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, tamoyillari, shakllari, usullari va vositalarini bilish; - bilimlarni samarali shakllantirish qobiliyati; - ta‘lim dasturiga muvofiq ko‘nikmalar; - maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyatiga rahbarlik qilish qobiliyati; - maktabgacha yoshdagi bolalar bilan muloqot qilish qobiliyati
O‘quv-uslubiy faoliyat	· o‘quv ishlarini rejalashtirish; · erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida pedagogik faoliyatni loyihalash.	- bolalarning turli xil faoliyat turlarini rivojlantirish bo‘yicha ta‘lim dasturi va metodologiyasini bilish; - yaxlit pedagogik jarayonni loyihalash, rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati; - tadqiqot, pedagogik monitoring, bolalarni tarbiyalash va o‘qitish texnologiyalariga ega bo‘lish.
Ijtimoiy-pedagogik faoliyat	· ota-onalarga maslahat yordami; · bolalarni ijtimoiylashtirish uchun sharoit yaratish; · bolalar manfaatlarini va huquqlarini himoya qilish.	- bolaning huquqlari va kattalarning bolalarga nisbatan majburiyatlari to‘g‘risidagi asosiy hujjatlarni bilish; - ota-onalar, maktabgacha ta‘lim muassasasi mutaxassislari bilan tushuntirish pedagogik ishlarini olib borish qobiliyati.

Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

intellektual va pedagogik kompetensiya-olingan bilimlarni, kasbiy faoliyatdagi tajribani samarali o‘qitish va tarbiyalash uchun qo‘llash qobiliyati, o‘qituvchining innovatsion faoliyat qobiliyati;

axborot kompetensiyasi-o'qituvchining o'zi, o'quvchilari, ota-onalari, hamkasblari to'g'risidagi ma'lumotlar hajmi;

tartibga soluvchi kompetensiya-tarbiyachining xatti-harakatlarini boshqarish, his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati, aks ettirish qobiliyati, stressga chidamliligi;

kommunikativ kompetensiya-nutq qobiliyatlari, tinglash qobiliyati, ekstraversiya (tashqi dunyoga katta qiziqish bilan ajralib turadigan odamning sifati), empatiya (hamdardlik, boshqasini tushunish) kabi muhim professional sifat.

Tarbiyachilar bolalarning ota – onalari bilan to'g'ri muloqot qilish qobiliyati asosiy va qiyin kasbiy faoliyatlardan biridir[6].

Rivojlangan davlatlar yani Germaniya, Italiya va Buyuk Britaniyada 48 ta sinfdagi 8-13 yoshli bolalarga shaxsiy xotiralarga oid hikoyalarni yaratish va almashishda fasilitatsion berish uchun seminarlardan foydalanishga asoslangan unda bolalar o'zlarining xotiralari bilan bog'liq fotosuratlarini olib kelishlari va bu xotiralar haqida hikoya qilishlari taklif qilindi. Bolalarning hikoyalar muallifligini rag'batlantiradigan joylarni ochish uchun fasilitatorlik sifati ko'rsatildi. Bundan ko'zlan asosiy maqsad yosh avlod nutqiy muloqoti va hotiralarini kuchaytirishda iboratdi.

Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi-bu tarbiyachilning nazariy bilimlari tizimini va ularni muayyan pedagogik vaziyatlarda qo'llash usullarini, ularning qadriyat yo'nalishlarini, shuningdek uning madaniyatining integral ko'rsatkichlarini (nutq, aloqa uslubi, o'ziga va uning faoliyatiga munosabat, tegishli bilim sohalariga va boshqalar) o'z ichiga olgan ko'p faktorli hodisa. "Kasbiy kompetensiya" tushunchasining ta'rifiga muvofiq, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiya darajasini baholash uchta mezondan foydalangan holda amalga oshirilishi taklif etiladi:

- 1) zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va ularni kasbiy faoliyatda qo'llash;
- 2) professional mavzu muammolarini hal qilishga tayyorlik;
- 3) o'z faoliyatini qabul qilingan qoidalar va qoidalarga muvofiq boshqarish qobiliyati kabi.

Tarbiyachining pedagogik kasbiy kompetensiyasi faoliyati davomida o'z bilimlari va ko'nikmalarini safarbar qilishning umumiy qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Uzluksiz ta'lim sharoitida doimiy ravishda yuqori darajadagi kasbiy malakaga erishish mumkin. Kasbga rasmiy mansublik emas, balki kasbiy kompetensiya, ya'ni mutaxassisning kasbiy faoliyat talablariga muvofiqligi birinchi o'ringa chiqadi. Kasbiy pedagogik kompetensiyani shakllantirish – bu butun kasbiy yo'l davomida davom etadigan jarayon, unga muvofiq doimiy to'liqsizlik tarbiyachining kasbiy kompetensiyasining xususiyatlaridan biridir. Kasbiy pedagogik kompetensiyani shakllantirishga ish tajribasi katta ta'sir ko'rsatadi[3].

Kompetensiya, shuningdek, shaxsning asosiy sifati, shu jumladan sifatli va samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq shaxsiy fazilatlar to'plami sifatida qaraladi. Kasbiy kompetensiya-kasbiy muammolarni hal qilishda amaliy tajriba, ko'nikma va bilimlar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir.

Tarbiyachining kasbiy mahoratini rivojlantirish yo'llarida asosiy kasbiy vazifasi bolalarning barkamol rivojlanishi uchun sharoit yaratishdir. Buning uchun maktabgacha ta'lim tarbiyachining quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak:

- 1) har bir bolaga, uning his-tuyg'ulari va ehtiyojlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- 2) har bir bola bilan muloqot qilish qobiliyati;
- 3) bolalar tomonidan faoliyatni, qo'shma faoliyat ishtirokchilarini erkin tanlash uchun sharoit yaratish qobiliyati;
- 4) bolalarning qaror qabul qilishi, his-tuyg'ulari va fikrlarini ifoda etishi uchun sharoit yaratish qobiliyati;
- 5) bolalarga direktiv bo'lmagan yordam ko'rsatish qobiliyati, turli faoliyat turlarida bolalar tashabbusi va mustaqilligini qo'llab-quvvatlash;
- 6) bolalar, shu jumladan turli milliy-madaniy, diniy jamoalar va ijtimoiy qatlamlarga mansub, shuningdek turli xil (shu jumladan cheklangan) sog'liqni saqlash imkoniyatlariga ega bo'lgan bolalar o'rtasida ijobiy, do'stona munosabatlar uchun sharoit yaratish qobiliyati;
- 7) tengdoshlar bilan ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishga imkon beradigan bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish qobiliyati;
- 8) faoliyatning madaniy vositalarini o'zlashtirish uchun sharoit yaratish qobiliyati;
- 9) fikrlash, nutq, aloqa, tasavvur va bolalar ijodiyotini rivojlantirishga, bolalarning shaxsiy, jismoniy va badiiy-estetik rivojlanishiga hissa qo'shadigan faoliyatni tashkil etish qobiliyati;
- 10) har bir bolaning individual rivojlanishini baholash qobiliyati;
- 11) ota-onalar bilan bolaning ta'limi masalalarida o'zaro munosabatda bo'lish, ularni ta'lim faoliyatiga,

shu jumladan oila bilan birgalikda ta'lim loyihalarini yaratish orqali jalb qilish qobiliyati[9].

Tarbiyachining malakasini sifatli shakllantirish uchun o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yaxshilanadigan asosiy bilim, ko'nikma va qobiliyatlar zarur.

Ammo tarbiyachining o'zini o'zi kasbiy mahoratini oshirish zarurligini anglamasa, sanab o'tilgan usullardan biri samarali bo'lmaydi. Faqat o'zi o'zgarishga tayyor bo'lgan, kasbda shaxsan rivojlanib boradigan, yuqori darajadagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, aks ettirish, dizayn faoliyati uchun rivojlangan qobiliyatga ega bo'lgan, ya'ni professional malakali o'qituvchi tarbiyachining bolalarni o'zgarishlarga tayyorlashi mumkin.

Oliy ta'lim professor-o'qituvchilari tomonidan olingan asosiy ta'lim faqat kasbiy kompetentsiyani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bundan 10 yil ilgari paytlarda maktabgacha ta'limda bakalavr darajasidagi, oily ma'lumotga ega bo'lmagan tarbiyachi, kasbiy tayyorgarligi maktabgacha ta'limning zamonaviy talablariga javob bermaydigan tarbiyachilar, ko'p kuzatilar edi[8].

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'z faoliyatini yuqori kasbiy darajada amalga oshirish, o'qitish va tarbiyalashning pedagogik asoslangan va yuqori sifatli shakllarini, usullarini qo'llash uchun kasbiy darajasini oshirish kerak.

Zamonaviy dunyoning talablari shundan iboratki, bir marta olingan bilimlar yetarli emasligi va bunda kasbiy mahoratini yaxshilash kerakligi unda bir qancha usullarni o'rganish talab etiladi. Bo'lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning asosiy usullariga quyidagilar kiradi:

- vaqti-vaqti bilan malaka oshirish kurslarida ishtirok etish,
- amaliyot jarayonida nazariy bilimlarni mustaxkamlab borish.
- ilmiy tadqiqot, eksperimental faoliyat bilan shug'ullanish (ustoz-shogirt an'analarini davom ettirgan holda),

- pedagogik tanlovlarda, mahorat darslarida faol ishtirok etish,
- uslubiy birlashmalarda ishtirok etish va kasbiy doirada o'ziga qulay bo'lgan o'qitishni joriy qilib borish, pedagogik tajribani umumlashtirish,

- o'z-o'zini tarbiyalash. Yakunidagi o'z – o'zini tarbiyalash jumlasiz uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas qismi-asosiy ta'lim va davriy malaka oshirish o'rtasidagi bog'liqlik vazifasini bajaradi.

Aksariyat tarbiyachilar o'zlarining professionalligini mustaqil ravishda oshira olmaydilar (va ba'zi hollarda xohlamaydilar). Tashqi omillar ta'sir qiladi (ish haqi, moddiy - texnik jihozlar, ishdagi ortiqcha yuk, kundalik qiyinchiliklar va boshqalar), ammo tarbiyachilarning o'zlariga bog'liq bo'lgan subyektiv sabablar ham mavjud. Ularda qat'iyatlilik, o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatlari yo'q.

Shuning uchun o'z-o'zini tarbiyalashning ahamiyatini tushunish va o'z rivojlanishiga intilish juda muhimdir. K.I.Chukovskiy aytganidek: "Faqat siz olgan bilim kuchli va qadrlidir, o'z ehtirosingiz tufayli...".

O'z – o'zini tarbiyalash - bu shaxsning o'zi tomonidan boshqariladigan maqsadli kognitiv faoliyat, har qanday sohada tizimli bilimlarni egallash. O'z-o'zini tarbiyalash mezonlari:

- kasbiy faoliyatning samaradorligi,
- tarbiyachining ijodiy o'sishi,
- ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish[3].

Shakl	Maqsad	Natijalar
Malaka oshirish kurslari	kasbiy mahorat, kasbiy madaniyatni rivojlantirish, yangi kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni yangilash	boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish, yangi normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish, o'z-o'zini o'qitish mazmunini aniqlashga ko'maklashish, sertifikatlashtirishga tayyorgarlik ko'rish va ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishda yordam va yordam ko'rsatish
Amaliyot (stajirovka)	kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish	bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish, innovatsion texnologiyalar, shakllar, usullar va vositalarni o'zlashtirish, faoliyatni takomillashtirish bo'yicha aniq takliflarni ishlab chiqish, ilg'or texnologiyalar bilan tanishish, takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish
Tadqiqot,	eksperimental ish jarayonida	o'qituvchilar va tarbiyachilarning tadqiqot

eksperimental faoliyat	ta'lim sub'ektlarining (ob'ektlarining) yangi xususiyatlarini, ta'lim sifati va mavjudligini oshirish uchun yangi sharoitlarni shakllantirish	vakolatlarini rivojlantirish, tarbiyachilar va bolalarning shaxsiy o'sishi, bilim va bilim darajasini oshirish
Pedagogik tanlovlarda, mahorat darslarida faol ishtirok etish	kasbiy o'zini takomillashtirish uchun sharoit yaratish, o'qituvchining individual uslubini shakllantirish	muayyan faoliyatda motivatsiya va kognitiv ehtiyojni shakllantirish, qiziqishni rag'batlantirish, rejalashtirish, o'zini o'zi tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish shartlarini ishlab chiqish
Metodik birlashmalarda ishtirok etish	kasbiy o'sishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish	Bilim almashish, yordam ko'rsatish, yagona talablarni ishlab chiqish, ta'lim sifatini yaxshilash
Pedagogik tajribani umumlashtirish	ommaviy ijobiy yuqori samaradorlik va optimallikdan farq qiladigan tajribadan bilim olish	tarbiyachilarning ta'lim va tarbiya darajasiga muvofiqligi, uslubiy ishlar va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish

Xulosa. O'z-o'zini tarbiyalashning turli shakllari mavjud: adabiyotlarni o'rganish, internetdagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish, ma'ruzalar maslahatlarni tinglash, seminarlar, konferentsiyalar, treninglarda qatnashish, shuningdek amaliy mashg'ulotlarga bevosita qatnashish. Bo'lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida kasbiy mahoratini rivojlantirish kabi faoliyatlar namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг буйруғи. Олий таълимнинг давлат таълим стандарти. Асосий қоидалар. 2021 йил 19 октябрь. 35-2021-сонли. <https://lex.uz/docs/5705038>
2. Азимова З.Э. Тарбиявий ишлар тизимини интеграл диагностик асосда такомиллаштириш. Дисс. док. пед. наук. Автореф. – Н.: 2018. –73 б
3. Таирова М. Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi. Darslik. T., 2023 yil. – 320 b.
4. Таирова М. Бўлажак тарбиячиларни болаларда математик тасаввурларни ривожлантириш бўйича касбий тайёрлаш жараёнларини такомиллаштириш”. - Монография. А., 2022 yil. – 100 б.
5. Зиямухамедов Б., Зиямухамедова С. Новая педагогическая технология. Изд-во медицинской литературы имени Абу Али ибн Сино – Т.: - 2010.–120с.
6. Кузьмина Н.В., Реан А.А. Профессионализм педагогической деятельности: методическое пособие/Международ. Акад. наук, НИИ профтехобраз. Рыбинск.: 2013. -54 с.
7. Слостенин В.А. и др. Педагогика Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. - М.: Издательский центр "Академия", 2013. - 576 с.
8. <https://infourok.ru/sovremennye-professionalnye-kompetencii-vospitatelej-detej-do-4434090.html>

BOLALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA GIPERAKTIV BOLALARNING PSIXOLOGIK, IJTIMOY MOSLASHUV XUSUSIYATLARINING O'RNI

Toshova Shaxnoza Tojinorovna,

*Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti “Pedagogika” kafedrasida o'qituvchisi
shaxnozatoshova11@gmail.com*

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalar tengdoshlaridan juda faolligi va diqqatining beqarorligi bilan ajralib turishi hamda bolalardagi giperaktivlik xususiyatlari maktabgacha ta'lim tashkilotida va uyda jismoniy faollikning yuqori darajada ekanligi va bu bolaning harakatga bo'lgan fiziologik ehtiyojlarining tabiiy ko'rinishi bo'lishi mumkinligi, ziddiyatlarga bog'liq travmatik vaziyatlar va tarbiyadagi nuqsonlar ta'sirida bo'ladi va hayotning birinchi yillaridan yoki, hatto, oylaridan boshlab aniqlanishi mumkin. Ta'lim berish jarayonida giperaktiv bolalar bilan ishlash va bu jarayonda bir qator muammolar yuzaga kelishi kuzatiladi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, giperaktiv bolalar boshqa tengdoshlariga nisbatan aqliy qobiliyati yuqori bo'lishi kuzatilgan. Ularning qobiliyatlarini aniqlash va yo'naltirish orqali sifatli talim-tarbiya olishlariga va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlariga zamin yaratilishi to'g'risida so'z borgan.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, rivojlanish, giperaktiv, psixologik, maktabgacha ta'lim tashkiloti, shaxsiy xususiyatlar, tarbiyachi, ijtimoiy moslashuv.

РОЛЬ ЛИЧНОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И СОЦИАЛЬНЫХ АДАПТАЦИОННЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ГИПЕРАКТИВНЫХ ДЕТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ ДЕТЕЙ

В данной статье идёт речь о том, что гиперактивные дети дошкольного возраста отличаются от своих сверстников высокой активностью и неустойчивостью внимания, а характеристикой гиперактивности у детей является высокий уровень двигательной активности в дошкольной образовательной организации и дома, что является естественным проявлением физиологической потребности ребёнка в движении, может находиться под влиянием конфликтных травмирующих ситуаций и дефектов воспитания и выявляться с первых лет и даже месяцев жизни. В процессе обучения и работы с гиперактивными детьми наблюдается ряд проблем в этом направлении. Однако следует отметить, что гиперактивные дети обладают более высокими умственными способностями, чем их сверстники. Было сказано, что, выявив и направив свои способности, они получают качественное образование и займут своё место в обществе.

Ключевые слова: воспитание, развитие, гиперактивность, психология, дошкольная образовательная организация, личностные особенности, воспитатель, социальная адаптация.

THE ROLE OF PERSONAL PSYCHOLOGICAL AND SOCIAL ADJUSTMENT CHARACTERISTICS OF HYPERACTIVE CHILDREN IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN CHILDREN

In this article, hyperactive children of preschool age are distinguished from their peers by their high activity and instability of attention, and the characteristics of hyperactivity in children are the high level of physical activity in the preschool educational organization and at home, and this is a natural manifestation of the child's physiological needs for movement can be influenced by conflict-related traumatic situations and educational defects and can be detected from the first years or even months of life. In the process of education, working with hyperactive children and a number of problems are observed in this process. However, it should be noted that hyperactive children have higher mental abilities than their peers. It was said that by identifying and directing their abilities, they will receive quality education and gain their place in society.

Keywords: education, development, hyperactive, psychological, preschool educational organization, personal characteristics, educator, social adjustment.

Kirish. So'nggi yillarda qo'zg'aluvchan, xayolparast, chalkash, hammadan oldin savolga javob berishga shoshiladigan yoki o'yinda o'z navbatini xotirjam kuta olmaydigan bolani “giperaktiv” deb atashadi.

Ko‘pincha ularni noto‘g‘ri yondashuv tarzida; dangasa, intizomsiz, yomon xulqli deb ham atashadi. Bu xususiyatlarning barchasi har qanday bolaga xos bo‘lishi mumkindir, har bir kishi vaqti-vaqti bilan qo‘zg‘aluvchan bo‘lishi yoki nimanidir unutishi, daftarlarini yo‘qotishi, yozishda harflarni o‘tkazib yuborishi, o‘yinda navbatni kutmasdan yig‘lab yuborishi va asabiylashishi mumkin. Ammo ba’zida yoki muayyan vaziyatlarda yuzaga keladigan yuqori harakatchanlik, e‘tiborsizlik yoki yuqori harakatchanlik bolalarga-giperaktiv deb nomlanishiga sabab bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘lim yoshdagi giperaktiv bolalar tengdoshlaridan juda faolligi va diqqatining beqarorligi bilan ajralib turadi. Giperaktivlik so‘zi yunon tilidan olingan ”giper” - juda ko‘p, lotinchada, “aktivus”-faol degan manoni anglatadi. Demak, giperaktivlik tom ma‘noda faollikni oshirishni anglatadi. Maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalardagi giperaktivlik-bu maktabgacha ta‘lim tashkilotida va uyda jismoniy faollikning yuqori darajasidir. Bu bolaning harakatga bo‘lgan fiziologik ehtiyojlarining tabiiy ko‘rinishi bo‘lishi mumkin, ziddiyatlarga bog‘liq travmatik vaziyatlar va tarbiyadagi nuqsonlar ta‘sirida bo‘ladi va hayotning birinchi yillaridan yoki hatto, oylaridan boshlab aniqlanishi mumkin. Bunday bolalar giperaktiv bolalar deyiladi. Bolalarda giperaktivlikning keng tarqalgan sabablaridan biri bu qarama-qarshi tarbiya turidir, chunki ularga hamma narsani qilishga ruxsat beriladi va bolalar dastlab hech qanday ta‘qiqnlarni bilishmaydi. Giperaktivlik tushunchasi G‘arbda 150 yildan beri o‘rganilib kelinmoqda. Giperaktivlik yoki uning konsepsiyasining tarixiy rivojlanishiga nazar tashlash, aslida qanchalik ko‘p yutuqlarga erishilganligini tushunishga yordam beradi. Ta‘lim berish jarayonida giperaktiv bolalar bilan ishlash jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelishi kuzatiladi. Lekin shuni alohida ta‘kidlash lozimki, giperaktiv bolalar boshqa tengdoshlariga nisbatan aqliy qobiliyati yuqori bo‘lishi kuzatilgan. Ularni qobiliyatlarini aniqlash va yo‘naltirish orqali sifatli talim-tarbiya olishlariga va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishlariga zamin yaratiladi. Sandberg va Barton (1996) hozirgi giperaktivlik kontsepsiyasining ildizlari haqida keng qamrovli sharh yozganlar, ushbu sharh metodologiyaning qisqacha xulosasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Asrning boshlarida Still (1902) va Tredgold (1908) biz hozir giperaktiv deb ataydigan bolalarning ilk tavsiflarini yozganlar.

Ta‘lim berish jarayonida giperaktiv bolalar bilan ishlash jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelishi kuzatiladi. Lekin shuni alohida ta‘kidlash lozimki, giperaktiv bolalar boshqa tengdoshlariga nisbatan aqliy qobiliyati yuqori bo‘lishi kuzatilgan. Ularni qobiliyatlarini aniqlash va yo‘naltirish orqali sifatli talim-tarbiya olishlariga va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishlariga zamin yaratiladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi giperaktiv bolalar psixologiyasi va ularga ta‘lim berish nazariyasi bo‘yicha bir qancha olimlar izlanishlari mavjud. Ron Kurtus, Russell L. Barkley, Christina M. Benton, Asqarova N.A, Rasulova Z.A, Yakubova G.A, Bryazgunov I.P, E.V. Kasatikova, Yu.B. Gippenreyter, M. Passolta, M.M.Bezrukix kabi olimlar giperaktiv bolalar psixodiagnostikasi, giperaktivlikning maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda kelib chiqishi sabablari va namoyon bo‘lish shakllarini tadqiq qilgan.

Tahlil va natijalar. Har bir bola faol va izlanuvchan, lekin tengdoshlari bilan solishtirganda faolligi oshgan bolalar ham bor. Bunday bolalarni giperaktiv deb atash mumkinmi yoki bu bolaning xarakterining namoyonmi? Va bolaning giperaktiv xatti-harakati normami yoki e‘tiborni talab qiladimi? Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki giperaktiv bolalarda ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik birmuncha murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni kuzatganda quyidagi belgilar yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatiladi:

1. Bola tez-tez o‘rnidan turadi.
2. Bola tashvishlansa, u oyoqlarini yoki qo‘llarini kuchli harakatga keltiradi. Bundan tashqari, vaqti-vaqti bilan stulda tebranaadi.
3. U bir joydan juda keskin ko‘tariladi va tez-tez yuguradi.
4. Unga tinch o‘yinlarda qatnashish qiyin hisoblanadi.
5. Faoliyatlar paytida u qichqirishi yoki shovqin qilishi mumkin.
6. Bola savolni to‘liq eshitishdan oldin javob beradi.
7. U dars paytida yoki o‘yin paytida o‘z navbatini kuta olmaydi.
8. Bola doimo boshqa odamlarning faoliyatiga yoki suhbatlariga aralashadi.

Giperaktivlik deb baho berilishi uchun bolada yuqoridagi belgilarning kamida 6 tasi bo‘lishi kerak va ular uzoq vaqt davomida (kamida olti oy) qayd etilishi kerak. Bolalikdagi giperaktivlik tinch o‘tira olmaslikda namoyon bo‘ladi Giperaktivlik erta yoshda qanday namoyon bo‘ladi. Giperaktivlik sindromi nafaqat maktab bolalarida, balki maktabgacha yoshdagi bolalarda va hatto bolalarda ham aniqlanadi.

Eng kichik yoshida bu muammo quyidagi alomatlar bilan namoyon bo‘ladi:

1. Tezroq jismoniy rivojlanish, tengdoshlari bilan solishtirganda. Giperaktiv bolalar ag‘dariladi, emaklaydi va tezroq yuradi.

2. Bola charchaganida injiqliklarning paydo bo'lishi. Giperaktiv bolalar ko'pincha yotishdan oldin hayajonlanadi va faolroq bo'ladi.

3. Qisqa uyqu muddati. Giperaktiv bola o'z yoshidagidan ancha kam uxlaydi.

4. Uxlab qolish qiyinligi (ko'p bolalarni silkitish kerak) va juda yengil uyqu. Giperaktiv bola har qanday shovqinga reaksiyaga kirishadi va agar u uyg'onsa, uning yana uxlab qolishi juda qiyin.

5. Baland ovozga, yangi muhitga va notanish yuzlarga yuqori reaksiya bo'ladi. Bu omillar tufayli giperaktivligi bo'lgan bolalar hayajonlanadi va yanada injiq bo'ladi.

6. Diqqatni tezda almashtirish kuzatiladi. Bolaga yangi o'yinchoq taklif qilgandan so'ng, ona yangi obyekt bolaning e'tiborini juda qisqa vaqt ichida o'ziga jalb qilishi payqaladi.

7. Onaga kuchli mehr va begonalardan qo'rqish.

Giperaktivlikda bolalar bilan shug'ullanishda uning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki giperaktivlik turli yoshda, turli ijtimoiy muhitda shakllanadi. Ota-onalar shunga amin bo'lishi lozimki, giperaktivlik - bu kasallik emas, balki bolaning shaxsiy sifatidir. Bola ataylab bezorilik qilmaydi shunchaki uning asab tizimi shunday ishlaydi. Sodir bo'lgan narsalarda hech kimning aybi yo'q: bolani xuddi shunday qabul qilish kerak.

Bolalarda giperaktivlik bo'lganda, to'g'ri yondashuv bilan kelajakda jismoniy va aqliy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Bolalar turlicha fe'l-atvorga egadirlar, kimningdir o'g'li yoki qizi qanchalik yaxshi bo'lishidan qat'i nazar, uning xatti-harakatlariga o'xshash bo'lishi shart emas. Shuningdek, u o'z yoshida ona va otadan juda boshqacha harakat qilishi mumkin. Kichkina odam aslida katta shaxs bo'lib, hatto, giperaktivlik orqali ham individuallik huquqiga ega. Ushbu fikrlarning ba'zilariga erishish oson emas. Ammo agar ota-onalar ularni qabul qilsalar, bolaning giperaktivligi yarmi nazorat ostida bo'ladi deb taxmin qilishimiz mumkin.

Tinchlik, kun uchun oldindan rejalashtirilgan dastur, kutilmagan hodisalarning yo'qligi nafaqat giperaktiv bola uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi, balki oiladagi umumiy hissiy fonni yaxshilaydi.

Giperaktiv bola, boshqa oddiy bolalar kabi ona va otaning yordamiga muhtoj. Shu sababli quyidagi tavsiyalar giperaktiv bolalar tarbiyalayotgan ota-onalar uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin:

-Bolaning ko'pincha xafa bo'lmasligiga ishonch hosil qilish kerak. Bu har qanday injiqlikka berilish degani emas. Siz shunchaki bolani salbiy his-tuyg'ulardan himoya qilishingiz kerak: uni uzoq vaqt yig'latib qo'ymang, uni jazo sifatida xonaga qamab qo'ymang, ular boshlanishi bilanoq uning qichqirig'i va shovqinni to'xtating. Bolani o'yinchoq bilan chalg'itish yoki deraza oldiga borish yaxshidir.

-Bolani tanqid qilmang va uni ayblamang, u hali ham shunchalik kichkinaki, u o'zini oqlay olmaydi va sizga bo'lgan sevgi haqida gapira olmaydi.

-Har qanday yoshda bolangizni maqtang va mukofotlang.

-Qattiqlik va kelishuv o'rtasidagi muvozanatni toping. Bola asta-sekin "yo'q" so'zini tushunishni boshlashi kerak.

-Bolani juda shovqinli muhitdan himoya qilish kerak. Masalan, begonalar, olomon, jamoat transporti. Bu uni izolyatsiya qilish degani emas. Ammo parkda, o'yin maydonchasida sayr qilish, oilaviy sayohat yaxshi choradir.

-Agar biror narsa noto'g'ri bo'lsa, bolaga yordam berishga doimo tayyor bo'ling. Giperaktiv bolalar muvaffaqiyatsizlikka juda sezgir va agar birinchi marta maqsadga erisholmasa, darhol xafa bo'lishadi. Bunga birgalikda erishib, bolani va uning harakatlarini, xotirjam va oqilona qo'llab-quvvatlang.

Boladagi giperaktivlikning namoyon bo'lishi bilan kurashish eng yaxshi usuli- kun tartibidir. U nafaqat asabiy jarayonlarni muvozanatlashtiradi, balki ota-onalarni ham tartibga soladi.

Ertalab uyg'onish va yotish soatlari har kuni bir xil bo'lsa yaxshi bo'ladi. Bu bolaning asab tizimini o'rgatadi va o'z ritmini rivojlantiradi.

Bolaning ko'p vaqtini o'tkazadigan xonada televizor yoki radio yoqilmasligi kerak. Yorqin ranglar, musiqa, ekrandagi doimiy o'zgaruvchan rasmlar asab tizimiga kuchli ta'sir qiladi. Agar bolalar xonasi yorqin rasmlar - stikerlar, plakatlar, katta o'yinchoqlar bilan bezatilgan bo'lsa, ularni olib tashlash kerak. Bola hali ham ularning ma'nosini tushunmaydi va yorqin dog'lar asab tizimiga hayajonli ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar xonasidagi qandil va lampalar muzli shishadan yasalgan bo'lishi kerak, ular yorug'likni muloyimlik bilan tarqatadi va bezovta qiluvchi porlashni bermaydi.

Giperaktiv bolalar har qanday yo'l bilan energiyasini tarqatishi lozim bo'ladi. Bunga gimnastika, massaj, ochiq o'yinlar yordam beradi. Faol o'yinlarning davomiyligini qat'iy nazorat qilish kerak. Giperaktiv bolalar charchoqni his qilmaydi va o'zlarini to'xtata olmaydi. Shuning uchun, yoshga qarab, ochiq havoda o'tkaziladigan o'yinlar vaqtlari tinch davrlar bilan ham almashtirilishi kerak.

Hurmatli ota-onalar, sizning farzandingiz nima bo'lishidan qat'iy nazar, mo'jizadir. Shuning uchun,

"Mening giperaktiv bolam bor, endi nima qilish kerak va ular bilan qanday yashash kerak" degan savolni berishning o'rniga, u bilan shaxsiyat shakllanishining ushbu qiyin davrini xotirjam va oqilona o'tkazishga harakat qiling.

Xulosa. Shuni aytish mumkinki, ijtimoiy xavf omillariga to'liq bo'lmagan oila, oiladagi tez-tez nizolar, turli xil tarbiya strategiyalari, ota-onalarning tarbiya uslubining buzilishi, ota-onalarning past ta'lim darajasi va boshqalar kiradi. Giperaktivlik alomatlarini rivojlanish ehtimoli disfunktsiyali oiladagi bolada yuqori bo'ladi, bu yerda uning tarbiyasiga tuzatuvchi ta'sir ko'rsatilmaydi. Ko'tarilgan nazorat ustunlik qiladigan ta'lim uslubi, onaning giperproteksiyasi ham noqulay omil hisoblanadi, chunki bunda bolada mustaqillik va o'zini-o'zi ta'minlash tuyg'usi shakllanmaydi, uning harakatlarini o'zboshimchalik bilan nazorat qilish shakllanmaydi. Ona va bola o'rtasidagi hissiy yaqinlik munosabatlarining buzilishi, ko'pincha bolani salbiy baholash va tanqid qilish bilan birga keladi va uning doimiy salbiy tajribalarining manbayi bo'lib, bu giperaktivlikning barcha ko'rinishlarini kuchaytirishi mumkin. Giperaktiv bolalar ko'pincha buzilgan yoki to'liq bo'lmagan oilalarda o'sadi va ko'pincha beixtiyor oilaning buzilishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, giperaktivlik noqulay oila sharoitida yanada aniqroq bo'lishi mumkin. Giperaktivlikda bolalar bilan shug'ullanishda uning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki giperaktivlik turli yoshda, turli ijtimoiy muhitda shakllanadi. Ota-onalar shunga amin bo'lishi lozimki, Giperaktivlik - bu kasallik emas, balki bolaning shaxsiy sifatidir. Bola ataylab bezorilik qilmaydi shunchaki uning asab tizimi shunday ishlaydi. Sodir bo'lgan narsalarda hech kimning aybi yo'q: bolani xuddi shunday qabul qilish kerak.

Giperaktivlik ko'pincha maktabgacha yoshda o'zini namoyon qiladi. Kichik maktab yoshida giperaktivlik belgilarini eng aniq namoyon bo'ladigan vaqti hisoblanadi. Giperaktivlikni bartaraf etishda birinchi qadam, avvalo, uni to'g'ri diagnostika qila olish hisoblanadi. Giperaktiv bolalarga va ularning ota-onalariga psixologik yordam ko'rsatishning jahon amaliyoti shuni ko'rsatdiki, agar oilada qulay muloqot uslubini tiklash mumkin bo'lsa, hatto, tarbiyaning juda qiyin muammolarini ham to'liq hal qilish mumkin. Kognitiv xulq-atvor terapiyasi doirasidagi usullar bolaning xulq-atvorini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, ota-onalar va bola o'rtasidagi hamkorlik g'oyasiga asoslanadi va ota-onalarga quyidagilarga imkon beradi: ammo buning narxi, qoida tariqasida, bola va ota-onalar o'rtasidagi hissiy aloqaning yomonlashuvidir.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o'quv-uslubiy qo'llanma). Qarshi: Nasaf, 2011. 7.
2. Axmedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish. Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi II xalqaro anjuman. – T.: 2009.
3. Asqarova D.Q. “Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi”. O'quv qo'llanma. Toshkent-2020 11-b.
4. Toshova Shaxnoza T. -“Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrab-avaylash, g'amxo'rlik qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali sog'lom turmush tarzini rivojlantirish”-Interpretation and research-2023.
5. Toshova Shaxnoza T.-“Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish”- // Analysis of world scientific views International Scientific Journal 1 (6), 56-61.2023.
6. Toshova Shaxnoza T.- “Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini rivojlantirish mazmuni” // Analysis of world scientific views International Scientific”, 2023.
7. Toshova Shaxnoza T.-“Oilaning maktabgacha ta'lim muassasasi bilan olib boriladigan faoliyatining hamkorligini tashkil etishi”-Golden Brain -2023.
8. Toshova Shaxnoza T- “Maktabgacha ta'limda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish”- International conference on learning and teaching 1 (6), 258-262-202.

OLIV TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK TARBIVACHILARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Turakulova Feruza Mamadaliyevna,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Maktabgacha ta'lim” kafedrasida o'qituvchisi

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda har bir bolaning yosh xususiyati hisobga olingan. Oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalarni keyingi ish faoliyatiga yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash uchun talabalarda, eng avvalo, bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish uchun ularni davlat standartlari, davlat dasturlari asosida shakllantirib borish zarurligi aytib o'tilgan. Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda ularni axborot-resurs markazlariga olib borish, talabalarda ilmiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabarga o'tilayotgan fanlar doirasida fan olimpidalar tashkil etish, va ularni moddiy-ma'naviy rag'batlantirishlar keltirib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, muassasa, bo'lajak, tarbiyachi, tadqiqotchilik, faoliyat, tayyorlash, pedagogik, shart-sharait, tajriba, intellektual rivojlanish, ijodiy fikrlash elementlari.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ К ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье описаны педагогические условия подготовки будущих педагогов, обучающихся в высших учебных заведениях, к научно-исследовательской деятельности. При подготовке к исследовательской деятельности учитывались возрастные особенности каждого ребёнка. Было отмечено, что для воспитания студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, как зрелых специалистов для дальнейшей работы, необходимо формировать их на основе государственных стандартов и государственных программ в целях приобретения знаний, навыков и квалификации. Приведены мнения о том, что важно подготовить будущих педагогов к исследовательской деятельности, привести их в информационно-ресурсные центры, сформировать у студентов навыки работы с научными ресурсами, организовать научные олимпиады в рамках предметов, преподаваемых студентам, обучающимся в высших учебных заведениях, а также предоставить им материальные и моральные стимулы.

***Ключевые слова:** высшее образование, учреждение, будущее, педагог (воспитатель), исследования, деятельность, подготовка, педагогический, условия, опыт, интеллектуальное развитие, элементы творческого мышления.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS FOR RESEARCH ACTIVITIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

This article describes the pedagogical conditions for preparing future teachers studying in higher educational institutions for research activities. When preparing for research activities, the age characteristics of each child were taken into account. It was noted that in order to educate students studying in higher educational institutions as mature specialists for further work, it is necessary to form them on the basis of state standards and state programs in order to acquire knowledge, skills and qualifications. Prepare future teachers for research activities, bring them to information resource centers, develop students' skills in working with scientific resources, organize scientific Olympiads within the framework of subjects taught to students studying in higher educational institutions, and also provide them with material and spiritual incentives.

***Keywords:** higher education, institution, future, educator(teacher), research, activity, preparation, pedagogical, conditions, experience, intellectual development, elements of creative thinking.*

***Kirish.** Rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qaysi bir mamalakatda ilm-fanni rivojlantirishga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish va shu asosida malakali kadrlar tayyorlashga yetarlicha e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, bu mamlakatlar taraqqiyotining oldingi qatorlaridan o'rin olgan.*

Jumladan, Yaponiya, Janubiy Kareya, Singapur, Malayziya kabi bir qator davlatlarda ilm-fanni rivojlanishi natijasida aholining turmush darajasi yaxshilandi, xalq farovonligi oshmoqda. Ilm-fan yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ilm-fanning maqsadi millatning intellektual salohiyatini, atrof-muhit, bepoyon olam sirlarini o‘rganib, ulardan kishilik jamiyatining ravnaqi uchun foydalanishdan iboratdir.

Bugungi globallashuv jarayonida fan bilan ta‘lim jarayoning aloqadorligini rivojlantirishga-ta‘lim va kadrlar tayyorlash sohasida amaliy va ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish, ta‘lim sifatini davlat ta‘lim standartlariga muvofiq bo‘lishini tashkil etish va ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi “Yangi O‘zbekiston-Uchinchi Renasans sari” g‘oyasi asosida o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Bunday sharoitda ilm-fan, texnika va texnologiyalarining rivoji, axborot almashuv jarayonining tezlashuvi, ijtimoiy munosabatlar mazmunining chuqurlashuvi, ta‘lim sohasining barcha turlari bo‘yicha, shu jumladan, bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi *Prezidenti* Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosasiga ko‘ra inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma‘lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi” [1].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual ma‘naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish, ularni umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlash muammolariga har jihatdan assosli ilmiy javoblar topish tadqiqot ishlarini olib borishni talab qiladi. Bugungi talaba – ertangi mutaxassis. Shu bois, bo‘lajak tarbiyachilarda o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, ilmiy izlanishlar olib borish, ularni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashga xayotiy extiyoj sezilmoqda.

Oliy ta‘lim muassasasida tahsil olayotgan talabalarni keyingi ish faoliyatiga yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash uchun talabalarda, eng avvalo, bilim, ko‘nikma, malaka hosil qilish uchun ularni davlat standartlari, davlat dasturlari assosida shakllantirib borish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “ Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori, 2022-yil 28-yanvar kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF- 60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida hamda ushbu sohaga tegishli boshqa meyoriy huquqiy hujjatlarda berilgan ilm-fanni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini yuqori pog‘onaga ko‘tarish borasidagi vazifalarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri ekanligi ko‘rsatilgan [2].

Demak, oliy ta‘lim tizimida bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish, turli xil tadbirlar va seminar, konferensiyalarda ishtirok etishlari bungi kunning o‘zi talab qilmoqda.

Bo‘lajak pedagoglarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash doimo dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Buyuk mutafakkirlardan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kaykovus, Mahmud Qoshqariy, Yusuf Hos Hojib, Alisher Navoiy kabi allomalar shaxsning aqliy tarbiyasida ilm-fanning o‘rni to‘g‘risida o‘z fikr - mulohazalarni bildirishgan. Hozirgi kunda ham ushbu fikrlar o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Respublikamizning yetakchi pedagog olimlari tomonidan talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash masalalari muayyan darajada o‘rganilgan. Jumladan, R.X.Djuraev, B.Asqarov, B.X.Raximov, R.G.Safarova, K.T.Suyarov, N.N.Karimova, U.Muslimov, B.Nazarova, SH,Xasanovalarni ilmiy-tadqiqot ishlarida, o‘quv va uslubiy nashrlarida bu jarayon o‘z ifodasini topgan. Tadqiqotchi B.Nazarova “Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalash asoslari” deb nomlangan monografiyasida yoshlarimizni kasbga yo‘naltirish va ularni ilmiy-ijodiy faoliyatini shakllantirish, iqtidorli talaba-yoshlar va tadqiqotchilar uchun ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalari o‘z aksini topgan. Muallifning ta‘kidlashicha: “Tadqiqot-arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan bo‘lib” “Tadqiq” so‘zini “to‘g‘ri ko‘plik” shaklidir. Ma‘nosi “maydalab o‘rganish”, “tadqiq” so‘zi “daqiqqa” fe‘li bo‘lib “aniq bo‘lmoq”, “aniqlamoq” kabi manolarni bildirad. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog‘langan ikki qism-tajriba va nazariyadan iborat”, -deb ta‘kidlaydi [3].

Chet el olimlaridan V.A. Dalinger talabalarning o‘quv-tadqiqot faoliyatini talabalar tomonidan ilmiy bilish usullarini, asosan, mustaqil ravishda qo‘llash jarayonida amaliy va nazariy bilimlarni olishdan iborat

bo‘lgan ta’lim faoliyati deb tushunadi va bu ularning tadqiqot ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish sharti va vositasidir deb biladi. Agar “talabalarning o‘quv-tadqiqot faoliyati”ni umumiy nazariy jihatdan ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda talabaning o‘rganilayotgan muammosi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar bilan tanishishi, ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘zlashtirishi va ilmiy-tadqiqot faoliyatini o‘quv jarayoniga moslashtirishi tushuniladi.

N.A. Fedotova talabalarning tadqiqotchilik faoliyati, ilgari noma’lum bo‘lgan ijodiy tadqiqot muammolarini hal qilishga yo‘naltirilganligiga ko‘proq e’tibor qaratgan. Ta’lim tadqiqot vazifalarini hal qilish jarayonida talabaning shaxsiyati rivojlanadi va u subyektiv ravishda yangi ilmiy bilimlarni kashf etadi. Talabaning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilishda nafaqat bilim, ko‘nikma va malaka, balki umuman shaxsiyatning shakllanishi ham ta’sir qilish mumkin. Shu munosabat bilan tadqiqotchilikning o‘zigagina xos, betakror, xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish kerak.

A.N. Poddyakov tadqiqotchilik faoliyatining ahamiyatini fikrlashning mustaqilligi, uning ijodiyligi va ilmiy aks ettirish qobiliyatini (refleksiya), shuningdek, izlanuvchan xatti-harakatini nazarda tutadigan ilmiy turdagi aqliy tuzilmalarni shakllantirish imkoniyatida ko‘radi. Olimning fikricha, tadqiqotchilik faoliyati ta’lim olish jarayonida olib boriladigan tadqiqot turlaridan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi talabalar tomonidan o‘rganilayotgan hodisaning haqiqiy holatini aniqlash, uni tahlil qilish va baholashdir. [4]

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Nomozova Lola Zokirovna o‘zining “Bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiyasida maktabgacha ta’lim yo‘nalishiga ta’lim olayotgan talabalarini tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarlik mezonlarini, bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash modellarini takomillashtirish, talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning didaktik ta’minotini boyitish yo‘llarini o‘rgangan, tadqiq qilgan, tegishli xulosalar chiqargan va tavsiyalar ishlab chiqqan”[5].

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasining “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” fani bo‘yicha tadqiqotchilikga tayyorligi bir nechta tarkibiy qismlardan iborat. Biz taklif qilayotgan tayyorgarlik strukturasi bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarligi hamda tarkibiy qism va mezon ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligini nazarda tutadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda fan dasturi asosida dolzarb mavzu tanlab olinishi lozim. Quyida tadqiqot davrida tavsiya etilgan mavzularni keltiramiz.

1-jadval. “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” fani bo‘yicha bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqot ishlarining taxminiy mavzulari

№	YO‘NALISHLAR	TADDIQOT MAVZULARI
1.	Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyati	<ol style="list-style-type: none"> 1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida turli yosh guruhlarida sahnalashtirish faoliyatining asosiy vazifalari . 2. Sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. 3. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xosligi . 4. Maktabgacha ta’limda bolalarni ijodiy faoliyatini tashkil qilish texnologiyasi .
2.	Qo‘g‘irchoq teatrining paydo bo‘lish tarixi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qo‘g‘irchoq teatrining paydo bo‘lish tarixi. 2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo‘g‘irchoq teatri persanajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish. 3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoq teatrini tashkil qilish etish va qo‘g‘irchoq yasash usullari. 4. Qo‘g‘irchoq teatri turlari Stol , Barmoq, Qo‘g‘irchoq-qo‘lqop.
3.	Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo‘l mehnatini tayyorlashga o‘rgatish.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qo‘g‘ozdan buklash yo‘li bilan o‘yinchoq yasash (Origami). 2. Applikatsiyada qirgishning xat xil usullarini bajarish. 3. Pape-mashe usulida o‘yinchoqlar yasash.

Tadqiqot ishini rejalashtirishda har bir talabaning individual rejasi tuziladi. Ishning bu bosqichi o‘qituvchining rahbarligida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, talabalarning tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar, internet manbalari (nazariy qism ustida ishlash) bilan mustaqil ishlashini tashkil etish shart.

Talabalarga tadqiqotning kirish va nazariy qismini yoritishda o‘qituvchi metodik ko‘rsatma berib boradi. Har bir talabaga tadqiqot kundaligini yuritish tavsiya etiladi, uning ahamiyati va tuzilishi tushuntiriladi.

Eksperimental tadqiqotlar faqat o‘qituvchi rahbarligida har bir talaba uchun individual ish rejasiga muvofiq olib boriladi. O‘qituvchi tadqiqot o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar beradi, har bir talabaga individual reja tuzishni o‘rgatadi. Har bir talabaga haftada 2-3 marta maxsus maslahatlar uyushtiriladi. Bir talabaga maslahat berish uchun jami soat 3–4 soat vaqt ajratiladi. O‘qituvchi rahbarligida tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash amalga oshiriladi, uning natijalarini tahlil qilish va ro‘yxatga olish amalga oshiriladi, xulosalar va ish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. O‘qituvchining uslubiy yordami talabalarga auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda tadqiqotchilik qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu esa talabalarining “ Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” fani bo‘yicha tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli kechishini kafolatlaydi.

Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash jarayonida fan mavzulari doirasida bir qancha izlanishlar borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan ijodiy faoliyatga o‘rgatish jarayonida she‘r, topishmoq, tez aytish, xalq og‘zaki ijodi orqali ham tadqiqotchilik faoliyati rivojlantirib boriladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotchilarni fikrlarini qo‘llab quvatlagan holda, bu jarayonni takomillashtirish uchun muommoning quydagi jihatlari e‘tiborini qaratish lozim deb o‘ylaymiz:

-bugungi kunda maktabgacha ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga o‘tiladigan umumkasbiy va mutaxassislik fanlari jumladan, “Umumiy pedagogika”, “Maktabgacha pedagogika”, “Ta‘lim tarbiyasi tashkil etish”, “Maktabgacha ta‘limda pedagogik diagnostika”, “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish”, “Maktabgacha ta‘limda menejment” kabi o‘quv modullarini bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashga oid nazariy va amaliy materiallaridan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

-bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda to‘g‘rak va auditoriyadan tashqari o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanish lozim;

-bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda ularni axborot-resrus markazlariga olib borish, talabalarda ilmiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirilsa;

- ilmga intilgan tadqiqotchilik layoqatiga ega bo‘lgan talabalarni moddiy-ma‘naviy jihatdan rag‘batlantirib borish tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilsa;

-bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish;

- buning uchun talabalarimiz xorijiy tillardan birini puxta o‘zlashtirib olishlari, ularni tadqiqot ishlari bo‘yicha rivojlangan davlatlarga ilmiy safarlarini tashkil etish muntazam ravishda yo‘lga qo‘yilsa, davlatimiz rahbarining hamda hukumatimizning maktabgacha ta‘limni yuqori pog‘onaga ko‘tarishdek, sohani malakali ilmiy-pedagogik kadrlar bilan ta‘minlashdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish joizki, bugungi kun davr talabidan kelib chiqqan holda talabarni turli xil mashg‘ulotlar jarayonida ijodiy faoliyatini rivojlantirib borish zarur. Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasasida tahsil olayotgan talabarga katta e‘tibor qaratilib bormoqda. Bugungi kun tadqiqotchisi har yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlari zarur.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2-26-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Nazarova B.A.Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalash assoslari. Monografiya-T.:T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti “Riso EZ 200 E” nusxa ko‘chirish moslamasida chop etilgan, 2015,133bet

3. Namazboyeva L. “Bo‘lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metyodikasi bo‘yicha Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktiri (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati-T-2023, 20 b

4. Ikramov Sh. “Maktabgacha ta‘limda keryativlik tushunchasi” Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot mavzusidagi ilmiy, masofaviy, onlayn konfrensiya materiallari. - January 20, 2023.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ОЦЕНОЧНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

*Саматова Муборак Каххоровна,
независимый исследователь Гулистанского государственного университета*

В статье рассматриваются особенности развития оценочной компетенции у учителей начальных классов в Узбекистане в условиях цифровизации образования. Проанализированы современные тенденции и вызовы, связанные с внедрением цифровых технологий в систему начального образования, а также представлены результаты эмпирического исследования, направленного на выявление уровня сформированности оценочной компетенции у учителей начальных классов. На основе полученных данных предложены рекомендации по совершенствованию процесса формирования оценочной компетенции в условиях цифровизации начального образования в Узбекистане.

Ключевые слова: оценочная компетенция, цифровизация образования, начальное образование, учителя начальных классов, Узбекистан.

RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA TA’LIM JARAYONINI BAHOLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maqolada ta'limni raqamlashtirish sharoitida O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida baholash kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilinadi. Boshlang'ich ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq zamonaviy tendensiyalar va muammolar tahlil qilindi, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining baholash kompetensiyasini shakllantirish darajasini aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqot natijalari taqdim etildi. Olingan ma'lumotlar asosida O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish sharoitida baholash kompetensiyasini shakllantirish jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: baholash kompetensiyasi, ta'limni raqamlashtirish, boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, O'zbekiston.

DISTINCTIVE FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF COMPETENCE FOR ASSESSING THE EDUCATIONAL PROCESS IN FUTURE TEACHERS IN A DIGITIZATION ENVIRONMENT

The article examines the features of the development of assessment competence among primary school teachers in Uzbekistan in the context of digitalization of education. The current trends and challenges associated with the introduction of digital technologies into the primary education system are analyzed, and the results of an empirical study aimed at identifying the level of formation of evaluative competence among primary school teachers are presented. Based on the data obtained, recommendations are proposed to improve the process of forming assessment competence in the context of digitalization of primary education in Uzbekistan.

Keywords: evaluative competence, digitalization of education, primary education, primary school teachers, Uzbekistan.

Введение. В условиях стремительной цифровизации системы образования в Узбекистане особую актуальность приобретает проблема подготовки учителей начальных классов, способных эффективно осуществлять профессиональную деятельность в новых реалиях. Одной из ключевых компетенций современного учителя начальных классов является оценочная компетенция, предполагающая способность адекватно оценивать результаты образовательного процесса с использованием цифровых инструментов и технологий [2].

Актуальность исследования обусловлена необходимостью подготовки учителей начальных классов в Узбекистане, владеющих навыками оценочной деятельности в условиях цифровой трансформации начального образования. При этом существующие исследования недостаточно

раскрывают особенности развития оценочной компетенции именно у учителей начальных классов с учётом специфики их профессиональной деятельности и реалий системы образования Узбекистана [3].

Научная новизна исследования заключается в уточнении понятия «оценочная компетенция учителя начальных классов» с учётом специфики профессиональной деятельности в условиях цифровизации начального образования в Узбекистане, выявлении особенностей и проблем её развития, а также разработке модели формирования данной компетенции у учителей начальных классов.

Методы и обзор литературы. Теоретическую основу исследования составили работы учёных Узбекистана и зарубежных авторов по проблемам внедрения цифровых технологий в начальное образование (А.А. Абдуқодиров, Г.А. Умарова, М.Х. Рахимова и др.) [1], формирования профессиональной компетентности учителей (Ш.С. Шарипов, Н.Н. Азизходжаева и др.) [9], оценочной деятельности педагога (М.Г. Давлетшин, Л.П. Мирзаева и др.) [3; 6].

Эмпирическое исследование проводилось на базе начальных школ города Гулистан. В нём приняли участие 80 учителей начальных классов. Использовались методы анкетирования, тестирования, наблюдения и математической статистики.

Результаты. Большинство опрошенных учителей (76%) осознают важность владения оценочной компетенцией, однако лишь 32% оценили уровень её сформированности у себя как высокий. Основные трудности связаны с недостаточным владением навыками применения цифровых инструментов для оценивания (58%), разработки оценочных материалов (48%), интерпретации результатов (44%).

Наблюдение за деятельностью учителей показало, что только 25% из них активно используют цифровые технологии при оценивании образовательных результатов младших школьников. Чаще всего применяются электронные тесты и онлайн-опросы, тогда как более сложные инструменты (электронные портфолио, адаптивные системы оценки и др.) практически не используются.

Анализ результатов тестирования показал, что у 42% учителей начальных классов оценочная компетенция сформирована на среднем уровне, а у 26% - на низком. Они испытывают затруднения в разработке критериев оценивания с учётом индивидуальных особенностей младших школьников (54%), использовании технологий формирующего оценивания (61%), организации самооценки и взаимооценки учащихся с помощью цифровых инструментов (67%).

• Интервью с учителями выявило следующие факторы, препятствующие эффективному развитию их оценочной компетенции:

- Недостаточная техническая оснащённость начальных школ (74%);
- Отсутствие методической поддержки по внедрению цифровых технологий оценивания (69%);
- Высокая нагрузка и дефицит времени на освоение новых инструментов (82%);
- Сложившиеся стереотипы в отношении традиционных методов оценки (58%).

Анализ. Полученные результаты свидетельствуют о недостаточном уровне сформированности оценочной компетенции у значительной части учителей начальных классов Узбекистана. Среди основных проблем можно выделить дефицит знаний и умений в области применения цифровых технологий для оценивания, недостаток практического опыта использования инновационных оценочных инструментов, отсутствие необходимых условий в школах [11].

Для преодоления указанных проблем необходимо модернизировать процесс профессиональной подготовки и повышения квалификации учителей начальных классов с учётом требований цифровизации [12], включив в программы обучения дисциплины по освоению современных технологий оценивания [8]. Важно обеспечить интеграцию цифровых инструментов в систему оценки образовательных результатов на уровне начальной школы, а также организовать обмен лучшими практиками между педагогами [1].

Выявленный уровень сформированности оценочной компетенции у учителей начальных классов Узбекистана может быть обусловлен преобладанием традиционных подходов к оцениванию в системе начального образования, недостаточной готовностью педагогов к инновационной деятельности в этой области [7].

Неготовность значительной части учителей к реализации индивидуального подхода в оценивании, использованию технологий формирующего оценивания и организации самооценки с помощью цифровых инструментов может негативно сказываться на качестве обратной связи и поддержке учебной мотивации младших школьников [10].

Указанные учителями барьеры согласуются с результатами других исследований, выделяющих в качестве основных проблем цифровизации образования в Узбекистане недостаточное техническое и методическое обеспечение, высокую нагрузку на педагогов и их психологическую неготовность к переменам [13].

Обсуждение. Выявленные в ходе исследования проблемы согласуются с результатами работ других учёных Узбекистана, отмечающих необходимость формирования у учителей начальных классов готовности к эффективной профессиональной деятельности в условиях цифровизации образования (Д.Ш. Матрасулова, Ф.А. Закирова и др.) [4; 5].

Для развития оценочной компетенции учителей начальных классов Узбекистана предлагается реализовать комплекс мер, включающий:

- Модернизацию программ подготовки и повышения квалификации педагогов с включением модулей по цифровым технологиям оценивания;
- Обеспечение начальных школ необходимой цифровой инфраструктурой;
- Организацию обмена опытом между учителями по применению инновационных оценочных технологий;
- Разработку стандартов и критериев оценки образовательных результатов младших школьников с учётом возможностей цифровых инструментов.

О необходимости специальной подготовки учителей начальных классов к реализации оценочной деятельности в условиях цифровизации свидетельствуют и работы зарубежных исследователей (M.S. Hussain, F. Zhu, J.J. Weindel и др.) [10]. Они подчёркивают важность формирования у педагогов умений разрабатывать и применять цифровые оценочные инструменты, адаптировать критерии и формы оценивания под индивидуальные потребности учащихся, вовлекать младших школьников в самооценку и взаимооценку.

При разработке модели развития оценочной компетенции учителей начальных классов Узбекистана следует предусмотреть:

- Диагностику исходного уровня сформированности компетенции и образовательных потребностей педагогов;
- Применение активных и интерактивных методов обучения, включая анализ кейсов, проектную деятельность, взаимообучение;
- Сочетание теоретической подготовки с практикой применения цифровых инструментов оценки в реальном образовательном процессе;
- Организацию сетевого взаимодействия учителей для обмена эффективными практиками;
- Систематический мониторинг развития оценочной компетенции и оказание адресной поддержки педагогам.

Реализация предложенных мер будет способствовать формированию у учителей начальных классов готовности к эффективной оценочной деятельности в условиях цифровой трансформации начального образования в Узбекистане.

Выводы. Проведённое исследование показало наличие проблем в развитии оценочной компетенции учителей начальных классов Узбекистана в условиях цифровизации образования. Их решение требует комплексного подхода, включающего модернизацию подготовки педагогов, обеспечение школ необходимыми ресурсами, обмен лучшими практиками. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования системы начального образования Узбекистана в соответствии с требованиями цифровой трансформации.

Таким образом, проведённое исследование выявило недостаточный уровень сформированности оценочной компетенции у значительной части учителей начальных классов Узбекистана, обусловленный преобладанием традиционных подходов, низкой технической оснащённостью школ, дефицитом методической поддержки и высокой нагрузкой на педагогов.

Полученные результаты обосновывают необходимость разработки и реализации целостной модели развития оценочной компетенции учителей начальных классов, предусматривающей диагностику образовательных потребностей, применение активных методов обучения, интеграцию теории и практики, сетевое взаимодействие и систематический мониторинг.

Перспективы дальнейших исследований связаны с апробацией предложенной модели и оценкой ее эффективности в развитии готовности учителей начальных классов Узбекистана к применению цифровых технологий оценивания образовательных результатов младших школьников. Полученные данные могут быть использованы для модернизации системы

профессиональной подготовки и повышения квалификации педагогических кадров в соответствии с требованиями цифровизации образования.

Литература:

1. Абдукодиров А.А., Астанова Д.К. Рақамли технологиялар асосида бошланғич таълим сифатини ошириш истикболлари // Бошланғич таълим. – 2020. – №4. – Б. 3-7.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Ташкент: ТГПУ им. Низами, 2005. – 200 с.
3. Давлетшин М.Г., Туляганова М.Ю. Замонавий педагогик технологиялар асосида таълим сифатини баҳолаш. – Т.: Навруз, 2017. – 136 б.
4. Закирова Ф.А. Бошланғич таълим ўқитувчиларида рақамли компетенцияни ривожлантириш зарурати // Педагогик маҳорат. – 2021. – №1. – Б. 75-79.
5. Матрасулова Д.Ш. Педагогические основы развития цифровых компетенций учителей начальных классов // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2020. – №2. – С. 309-313.
6. Мирзаева Л.П. Оценочная деятельность учителя начальных классов в условиях обновления содержания образования // Бошланғич таълим. – 2021. – №3. – Б. 32-35.
7. Рахимова М.Х. Рақамли технологиялардан фойдаланиш асосида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини тайёрлаш // Замонавий таълим. – 2020. – №6. – Б. 23-28.
8. Умарова Г.А. Внедрение инновационных технологий в образовательный процесс начальной школы // Молодой ученый. – 2019. – №24. – С. 56-59.
9. Шарипов Ш.С. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш технологиялари. – Т.: Фан, 2012. – 158 б.
10. Hussain, M. S., Zhu, F., & Weindel, J.J. Digital assessment literacy: A survey study of teacher readiness for digital assessment // Journal of Educational Technology Development and Exchange. – 2021. – Vol. 14: Iss. 1, Article 2.
11. Чоросова О.М., Герасимова Р.Э. Готовность будущих педагогов к оценочной деятельности в условиях цифровизации образования // Педагогическое образование в России. – 2020. – № 1. – С. 63-69.
12. Гриншкун В.В. Особенности подготовки педагогов в условиях цифровизации образования // Вестник РУДН. Серия: Информатизация образования. – 2018. – Т. 15. – № 3. – С. 265-273.
13. Уваров А.Ю., Гейбл Е., Дворецкая И.В. и др. Трудности и перспективы цифровой трансформации образования. – М.: Издательский дом Высшей школы экономики, 2019. – 342 с.

ЎСМИРЛАРДА МУСТАҚИЛ ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИШНИНГ ДИНИЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Содиқова Гулбарно Одилжон қизи,
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат
ўзбек тили ва адабиёти университети
Ижтимоий-гуманитар кафедраси катта ўқитувчиси, PhD*

Мазкур мақолада ўсмирларда мустақил қарор қабул қилишининг диний-психологик омиллари тадқиқ этилган бўлиб, қарор қабул қилишининг илмий-назарий ҳамда амалий жиҳатлари таҳлил этилиб, керакли хулосалар чиқарилган.

Калит сўзлар: қарор қабул қилиш, ўзига баҳо бериш, психотерапия, диний-психологик хусусиятлар.

РЕЛИГИОЗНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ У ПОДРОСТКОВ

В данной статье изучены религиозно-психологические факторы самостоятельного принятия решений подростками, проанализированы научно-теоретические и практические аспекты принятия решений и сделаны необходимые выводы.

Ключевые слова: принятие решений, самооценка, психотерапия, религиозно-психологическая характеристика.

RELIGIOUS-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INDEPENDENT DECISION-MAKING IN ADOLESCENTS

This article studies the religious and psychological factors of independent decision-making by adolescents, analyzes the scientific, theoretical and practical aspects of decision-making, and draws the necessary conclusions.

Keywords: decision making, self-esteem, psychotherapy, religious and psychological characteristics.

Кириш. Психологик тадқиқотларда ҳозирги кунга келиб, дин психологиясида ҳам фундаментал изланишлар изчиллик билан амалга оширилмоқда. Дин психологиясида диний-психологик хусусиятларни бирлаштирган ва шахс бирор масала олдидан уни қандай ечишга хизмат қилувчи қарор қабул қилиш билан боғлиқ амалий ишлар ҳаётий вазиятлар билан боғлиқ тарзда таҳлил қилинган. Бунинг асосий моҳияти шуни ташкил қиладики, инсон ҳаётида турли хил вазиятлар содир этилади ва бу вазиятларни ҳамма шахслар ҳар хил талқин қиладилар. Шундай ҳолатда қайсидир тоифадаги одамлар бу вазиятлар устидан якуний қарорларни қабул қилиш учун диний билимларига суянади. Шу жиҳатдан олиб қаралганда бу каби психологик хусусиятларнинг шаклланишига биологик, психологик ва ижтимоий омиллар таъсир кўрсатади. Бунинг натижасида шахсда биологик-психологик, ижтимоий ва маданий модел шаклланади. Бу омиллар албатта шахсга ижобий томонлама ўзининг таъсирини кўрсатади [1; 574].

Методика. Т.В.Корнилованинг “Қарор қабул қилиш сўровномаси” ва Карповнинг “Қарор қабул қилиш усулини аниқлаш сўровномаси”.

Эмпирик таҳлил. Ҳозирда жаҳон миқёсида ўсмирларда мустақил қарор қабул қилишга нисбатан тадқиқотларни амалга оширишга қизиқиш ошаётганлиги, таълим-тарбия тизими олдидаги энг устувор вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Ўсмирлик даврида қабул қилинадиган баъзи бир муҳим қарор шахсни бутун ҳаётига таъсир қилиши мумкин. Ўсмирлик даврида ўз режалари ва қарорларидан иккиланиш ҳисси тез-тез учраб туради. Ўзига баҳо бериш болалик давридан бошлаб ривожланади. Шу билан бир қаторда ўсмирларда мустақил қарор қабул қилишининг диний-психологик хусусиятларини тадқиқ қилишни ўрганиш бугунги кундаги энг долзарб вазифалардан биридир. Мазкур масала бўйича АҚШ, Европа ва россиялик психолог ва башқа етакчи олимлар томонидан айнан қарор қабул қилиш муаммоси бўйича қатор изланишлар, жумладан, қарор қабул қилишга маданий муҳит ва этнопсихологик хусусиятларнинг боғлиқлик жиҳатлари, қарор қабул қилишни диний-психологик хусусиятлар ва бихевиориал омилларнинг таъсири билан боғлаган ҳолда

ўрганилмоқда.

Замонавий психологик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ўсмирлар ва улар билан бўладиган асосий тўқнашувли можаролар асосан ота-она ва оилавий муаммолар ўртасида содир этилади. Россияда фаолият юритадиган олимлардан бири С.В.Дармодехиннинг фикрларига кўра, ота-оналар ва ўсмир ёшлар ўртасида кузатиладиган муаммоли вазиятларнинг асосий сабабларидан бири бу-диний дунёқарашнинг пастлиги билан баҳоланади. Шу билан бир қаторда диний саводхонликнинг психологик жиҳатдан мустаҳкам эмаслиги таълим жараёнида уларга бериладиган билимларнинг диний ва дунёвий манбалар билан ўзаро интеграциялашмаганлиги, ўқувчилар қарорлар қабул қилишида мустақилликнинг етишмаслиги ва диний тушунчаларни тўғри идрок эта олиш қобилиятининг пастлиги билан алоҳида характерланади. Бу каби мулоҳазаларни Дармодехин ўзининг “хукуматда оилавий сиёсат: методология, назария ва амалиёт” номли монографиясида ҳам келтириб ўтган. Бундан ташқари юқоридаги муаммоларга яна бир қатор сабаб ва омиллар, яъни жамиятдаги белгиланган нормаларга риоя қилишнинг пастлиги, ижтимоий-психологик муаммолар, иқтисодий қийинчиликлар ва таълим жараёнидаги ахлоқий хулқ-атвор қоидаларининг тизимли равишда жорий қилинмаганлиги билан ҳам изоҳланади [2 ; 31].

Психологиянинг бошқа тармоқлари сингари, психотерапияда ҳам диний амалларнинг шахсга психологик таъсири хусусида амалга оширилган илмий-амалий тадқиқотларни кўриш мумкин. Шундай тадқиқотлардан бирини Россиялик психолог олимлардан бири Ф.М.Шаньков тадқиқ этган. У диний ва маданий психологик хусусиятларни шахснинг қарор қабул қилиш жараёнлари билан боғлаган. Шу билан бирганликда диний-маданий психологик хусусиятларнинг инсонга психотерапевтик жиҳатдан таъсири қай даражада эканлиги таҳлил қилинган. Диний-маданий хусусиятларни психологик таҳлис қилишда Шаньков эмпирик методлар ва усуллар яъни конструктив-алтернатив суҳбат усули, диний-маданий психотерапевтик усул ва идеологик-конфронтация услубларини тадқиқ этган. Шаньков илмий-амалий изланишларини тадқиқ қилишда бихевиоризм ва функционал ёндашувларнинг маҳсулидан кенг равишда фойдаланган [3; 151-177].

Шахсдаги мустақил қарорларни тўғри қабул қилишда диний факторларнинг ўрни бекиёсдир. Шунинг учун ўсмир ёшларда қарорлар қабул қилишни таҳлил қилишда нафақат ижтимоий-психологик хусусиятлар балки, диний омиллар ҳам муҳим аҳамият касб этади. Француз файласуф ва социологи Э.Дюркгеймнинг таъкидлашича, инсон бирор бир вазият олдида қарор қабул қилиш учун аввало ўз фикр-қарашларига эътибор қаратиши ва шу билан бир қаторда ижтимоий-диний билимларига ҳам назар ташлаши муҳимдир деб эътироф этади. Г.Зиммелнинг фикрига кўра, шахс муҳим ҳаётий вазиятлар олдида мураккабликларга дуч келса унга, аввало, диний билимлари ва кечинмалари ёрдам бериши мумкин деб таъкидлайди. Бундан ташқари қарорлар қабул қилиш масаласи билан диний омиллар кесишувидаги тадқиқот ва изланишларни В.И.Гараджа, И.Н.Яблоков, А.Н.Красников, Э.С.Элбакян ва И.Я.Кантеровлар каби олимларнинг қарашларида ҳам кўриш мумкин [4; 225-227].

Ўсмирлар мустақил қарор қабул қилишига диний-психологик омиллар таъсири хусусиятлари таҳлилинини тадқиқ этишнинг психологик жиҳатларини комплекс даражада янада тизимлироқ ўрганиш учун ўсмир ёшидаги юқори синф мактаб ўқувчилари ва академик лицей ўқувчиларида мустақил қарор қабул қилиш жараёнида қийинчиликларга дуч келиш, турли қийинчиликларни енгиши, қарор қабул қилиш ва унинг диний-психологик омилларини ўрганиш давомида уларнинг умумий ўртача қийматлари билан биргаликда ўтказилган сўровномалар бўйича факторли таҳлил усули ҳам қўлланилган.

Тадқиқотни амалий жиҳатдан ўтказишда Т.В.Корнилованинг “Қарор қабул қилиш сўровномаси” ва Карповнинг “Қарор қабул қилиш усулини аниқлаш сўровномаси”дан фойдаландик.

Тошкент шаҳри 204-сонли умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчилари (100 нафар ўсмир) ҳамда Чирчиқ шаҳри 8-сонли умумий ўрта таълим мактаблари (90 нафар ўсмирлар) иштирок этди. Қуйида тадқиқот натижалари ҳақида маълумотлар келтирилади (1-жадвал).

1-жадвал.

Мактаб ўқувчилари ўртасидаги мустақил қарор қабул қилишининг психологик омиллари умумий ўртача кўрсаткичлари(Стъудентнинг t-мезони)

Шкалалар	Гуруҳлар	М	Стандарт оғиш	t-статистика
Хушёрлик	204 мактаб	14,63	1,950	-1,042
	Чирчиқ	15,13	1,807	
кочишга мойил	204 мактаб	11	1,915	-,161
	Чирчиқ	11,08	2,026	

Кечиктириш	204 мактаб	7,74	2,023	-1,291
	Чирчик	8,46	2,201	
жуда хушёрлик	204 мактаб	9,58	1,774	1,066
	Чирчик	9	2,182	
Хукмронлик	204 мактаб	109,16	12,505	-,712
	Чирчик	111,25	11,086	
муаммоли вазиятлардаги хулк	204 мактаб	94,79	11,844	-3,155***
	Чирчик	103,94	11,096	

Изох. * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; * – $p \leq 0,001$.**

1-жадвалдан кўришиб турганидек, ўсмирларда мустақил қарор қабул қилишнинг психологик омиллари “Хушёрлик” шкаласи бўйича 8-мактаб ўқувчиларида юқори кўрсаткич 15,13 ни ташкил этади. Мактаб ўқувчиларида эса бу кўрсаткич 14,63 ни ташкил этади. Бу кўрсаткичга эга бўлган ўсмирлар қарор қабул қилишдан олдин барча муқобил йўллари кўриб чиқишга, турли муаммоларнинг энг самарали ечимини қидиришга ва янги маълумотларни тўплашга ҳаракат қилишади. Ўз мақсадлари тўғрисида аниқ тасаввурга эга бўлишгани боис, ҳаётий масалаларга доир қарорларни қабул қилишда уларда қийинчиликлар юзага келмайди.

“Қочишга мойил” шкаласи бўйича ўртача кўрсаткичга эга бўлган 8-мактаб ўқувчилари 11,08 ни ташкил этади. Мактаб ўқувчиларида эса 11,00 ни ташкил этади. Бу кўрсаткичга эга бўлган ўсмирлар маълум бир вазиятларда ота-онасининг қарорларига, кўмагига, қўллаб-қувватлашига эҳтиёж сезишади, шунингдек, улар масъулият олишдан, ҳаётий қийинчиликларга дуч келиб қолишдан қўрқишади. Мустақил қарор қабул қилишга доир билим ва кўникмаларнинг камлиги тўғрисида улар мустақил қарор қабул қилишдан қочишга мойил бўлишади.

“Кечиктириш” шкаласи бўйича ўртача кўрсаткич 8-мактаб ўқувчиларида 8,46 ни ташкил этади. Мактаб ўқувчиларида эса бу кўрсаткич 7,74 ни ташкил этади. Бу кўрсаткичга эга бўлган ўсмирлар асосий қарорни қабул қилишдан олдин улар кўп вақтларини кичик ишларни бажаришга сарфлайдилар. Улар охириги дақиқагача қарор қабул қилишни кечиктиришга ҳаракат қилишади. Қарор қабул қилиб бўлганидан кейин ҳам уни бажаришни орқага суришади.

“Жуда хушёрлик” шкаласи бўйича ўртача кўрсаткичга эга бўлган 8-мактаб ўқувчилари 9,00 ни ташкил этади. Мактаб ўқувчиларида эса бу кўрсаткич 9,58 ни ташкил этади. Айнан “жуда хушёрлик” шкаласи академик лицей ўқувчиларига қараганда мактаб ўқувчиларида юқори натижани кўришимиз мумкин. Юқори кўрсаткичга эга бўлган мактаб ўқувчилари мустақил қарор қабул қилиш жараёнида, уларга вақт етарли бўлмайди, улар ўз қарорларини тез ўзгартиришади. Муаммога дуч келишганида яхши ечим тополмаслигига нисбатан уларда ишончсизлик ҳисси пайдо бўлади. Шунингдек, улар ўз қарорларини тўғри эканлигини ўзларига ишонтириш учун ҳам кўп вақт сарфлашади, шошилиш қарор қабул қилиш керак бўлганида эса улар аниқ фикрлай олишмайди.

“Хукумронлик” шкаласи бўйича ўртача кўрсаткичга эга бўлган 8-мактаб ўқувчиларида 111,25 ни ташкил этади. Мактаб ўқувчиларида эса бу кўрсаткич 109,16 ни ташкил этади.

“Муаммоли вазиятлардаги хулк” шкаласи бўйича ўртача кўрсаткичга эга бўлган 8-мактаб ўқувчиларида 95,24 ни ташкил этади. Мактаб ўқувчиларида эса бу кўрсаткич 103,94 ни ташкил этади. Қарорларни қабул қилиш сўровномасидан олинган натижалар ўртасидаги ўзаро фарқли тафовутлар асосан муаммоли вазиятлардаги хулк-атворни бошқариш фактори синалувчиларда фарқни намоён этганлиги муҳим аҳамият касб этади.

2-жадвал.

Мактаб ўқувчиларининг қарор қабул қилиш ва диний йўналганлик сўровномаларининг корреляцион кўрсаткичлари


Хушёрлик	Қочишга мойил	0,904***
	Кечиктириш	0,695**
	Жуда хушёрлик	0,791**
	Ташқи диний йўналганлик	0,086*
	Ички диний йўналганлик	0,367*
	хукумронлик	0,940***
	Муаммоли вазиятлардаги хулк	0,057*
Қочишга мойил	Кечиктириш	0,057*
	Жуда хушёрлик	0,069**
	Ташқи диний йўналганлик	0,415**

	Ички диний йўналганлик	1,000**
	хукумронлик	0,985***
	Муаммоли вазиятлардаги хулқ	0,952***
Кечиктириш	Жуда хушёрлик	0,574**
	Ташқи диний йўналганлик	0,920***
	Ички диний йўналганлик	0,011*
	хукумронлик	0,763**
Жуда хушёрлик	Муаммоли вазиятлардаги хулқ	0,880**
	Ташқи диний йўналганлик	0,004*
	Ички диний йўналганлик	0,566**
	хукумронлик	0,366*
Ташқи диний йўналганлик	Муаммоли вазиятлардаги хулқ	0,835**
	Ички диний йўналганлик	0,124*
	хукумронлик	0,763**
	Муаммоли вазиятлардаги хулқ	0,363*
Ички диний йўналганлик	хукумронлик	0,446**
	Муаммоли вазиятлардаги хулқ	0,826**
Хукумронлик	Муаммоли вазиятлардаги хулқ	0,529**

Изоҳ: * $p \leq 0,05$, ** $p \leq 0,01$.

Тошкент шаҳар 204-мактаб ўқувчиларида мустақил қарор қабул қилишнинг диний-психологик омилларини ифодаловчи шкалалар ва умумий кўрсаткичлари ўртасида ўзаро ўрта даражада боғланишга эга бўлган корреляцион алоқалар кузатилди. Бу корреляцион муносабатлар қуйидаги шкалалар орасида боғланди. Хушёрлик шкаласи билан қочишга мойил (0,904***), кечиктириш (0,695**), жуда хушёрлик (0,791**), ташқи диний йўналганлик (0,086*), ички диний йўналганлик (0,367*), хукумронлик (0,940**) ва муаммоли вазиятлардаги хулқ (0,057*) кўрсаткичлари, қочишга мойил шкаласи билан кечиктириш (0,057*), жуда хушёрлик (0,069*), ташқи диний йўналганлик (0,415**), ички диний йўналганлик (1,000*), хукумронлик (0,985***) ва муаммоли вазиятлардаги хулқ (0,952***), кечиктириш шкаласи билан жуда хушёрлик (0,574**), ташқи диний йўналганлик (0,920***), ички диний йўналганлик (0,011*), хукумронлик (0,763**), муаммоли вазиятлардаги хулқ (0,880**), жуда хушёрлик шкаласи билан ташқи диний йўналганлик (0,004*), ички диний йўналганлик (0,566**), хукумронлик (0,366*) ва муаммоли вазиятлардаги хулқ (0,835**), ташқи диний йўналганлик шкаласи билан ички диний йўналганлик (0,124*), хукумронлик (0,763*) ва муаммоли вазиятлардаги хулқ (0,363*), ички диний йўналганлик шкаласи билан хукумронлик (0,446**) ва муаммоли вазиятлардаги хулқ (0,826**), хукумронлик шкаласи билан муаммоли вазиятлардаги хулқ (0,529**) кўрсаткичлари орасида алоқадорлик намоён бўлди.

Ўсмирларнинг мустақил қарор қабул қилишнинг гистограмма кўрсаткичлари



Ўсмирларда мустақил қарор қабул қилишининг диний-психологик омиллари юзасидан олиб борилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, ўқувчилар дарс жараёнида тезлик билан қарор қабул қилиши ёки ҳаётий вазиятларда мустақил қарор қабул қилишини юзага келадиган турли ҳил тўсиқларни келтириб чиқарувчи психологик омиллар уларда нотўғри қарор қабул қилиш ҳолатларнинг келиб чиқишига сабаб бўлиши мумкин. Шу жиҳатдан ўсмирларда мустақил қарор қабул қилишининг диний-психологик омилларини психодиагностик жиҳатдан ўлчашга хизмат қилувчи сўровномаларнинг энг зарур бўлган факторлари гистограмма орқали намоён бўлганлигини кўриш мумкин. Ўсмирларда мустақил қарор қабул қилиш даражасини белгилаб берган омиллар юқори даражада ҳуқумронлик ва муаммоли вазиятлардаги хулқ-атвор кабилар белигилаб берган. Паст даражада аниқланган психологик омиллар: ҳушёрлик, қочишга мойил, кечиктириш, жуда ҳушёрлик, ташқи диний йўналганлик, ички диний йўналганлик, динга фалсафий концепция сифатида ёндашиш, афсун-сеҳрга бўлган муносабат, диндан нажот ва хотиржамлик излаш, диний рамзларга ва маросимларга риоя қилиш, ғайритабiiй ҳодисаларни илмiiй билимдан устун кўриш, дунёни яратувчи буюк кучларга ишониш, ташқи эҳтиёжларни англаш ҳамда динни ахлоқiiй хулқ атвор жиҳатдан тушуниш кабилар ташкил қилган.

Хулоса. Мустақил қарор қабул қилишларнинг асосiiй жиҳатлари шундаки, ўсмир ўқувчилардаги қарор қабул қилиш даражаси, мустақил қарор қабул қилиш, диний йўналганлик ва диндорликнинг индивидуал структураси билан боғлиқ муносабатлар факторли анализ ва ўсмир ўқувчиларнинг мустақил қарор қабул қилишини белгилаб берувчи асосiiй хусусиятларни ажратиб берувчи корреляцион таҳлил мезонлари орқали текширилганда уларнинг натижалари ўртачадан юқори даражадаги факторларга бирикганлиги, уларнинг келгуси фаолиятида асосiiй психологик хусусиятларни ташкил қилиши ва мустақил қарор қабул қилишни ривожлантирувчи психологик омиллар саналади.

Ўсмирларда мустақил қарор қабул қилишининг диний-психологик омиллари бўйича сўровномалардан олинган корреляцион таҳлиллар шуни кўрсатдики, ўсмир ўқувчиларда мустақил қарор қабул қилишни ўзаро уйғун равишда шакллантириш, улар учун асосiiй психологик шкалалар бир-бири билан боғланганлиги, яъни диний йўналганлик, диндорлик типлари ва қарор қабул қилиш каби психологик омиллар юқори даражада боғлинганлигини кўриш мумкин.

Адабиётлар:

1. Meneses R. A biopsychosocial-spiritual model in health // *Arquivos De CiêNcias Da saúde*. 2016. Vol. 23 (3). P. 01-02. doi:10.17696/2318-3691.23.3.2016.574.
2. Дармодехин С.В. Государственная семейная политика. Методология, теория, практика.-М., 2006.- С. 31. 187 с.
3. Шаньков Ф.М. Обращение к духовному и религиозному совладанию в психотерапии. Обзор западных исследований // *Консультативная психология и психотерапия*. 2016. Т. 24. № 5. С. 151-177.
4. Сибирцева Ю.А. Религия и политика в современной России / *Свеча* - 2000. Религия в гуманитарном измерении Баренцева региона: Сборник научных и методических статей по религиоведению культурологии. Вып.1. Ч.2./ сост. и отв. ред. Е.И. Аринин. Архангельск: Поморский государственный университет имени М.В. Ломоносова, 2001. С. 225-227.

ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ФАСИЛИТАТОРСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ВОСПИТАНИЯ

*Хамидова Сабрина Абдувахоб кизи,
Исследователь Гулистанского государственного
Педагогического института*

Актуальность исследования заключается в необходимости формирования фасилитаторских компетенций у будущих учителей для эффективного взаимодействия с учениками и создания благоприятной образовательной среды. Целью данной работы является изучение возможностей формирования фасилитаторских компетенций у студентов педагогических специальностей. В статье проанализированы теоретические основы фасилитации в образовании, рассмотрены методы и технологии развития фасилитаторских навыков, представлены результаты эмпирического исследования уровня сформированности фасилитаторских компетенций у будущих учителей. Научная новизна заключается в разработке модели формирования фасилитаторских компетенций и практических рекомендаций по её реализации в системе педагогического образования.

Ключевые слова: фасилитация, фасилитаторские компетенции, педагогическое образование, подготовка учителей, образовательная среда.

BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARIDA FASLITATORLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Tadqiqotning dolzarbligi kelajakdagi o'qituvchilar uchun talabalar bilan samarali muloqot qilish va qulay ta'lim muhitini yaratish uchun yordamchi kompetensiyalarni shakllantirish zarurligidadir. Ushbu ishning maqsadi pedagogik mutaxassisliklar talabalarida fasilitatorlik kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini o'rganishdir. Maqolada ta'limda fasilitatsiyaning nazariy asoslari tahlil qilinadi, fasilitatorlik ko'nikmalarini rivojlantirish usullari va texnologiyalari ko'rib chiqiladi, bo'lajak o'qituvchilarda fasilitatorlik kompetensiyalarini shakllantirish darajasini empirik o'rganish natijalari taqdim etiladi. Ilmiy yangilik pedagogik ta'lim tizimida fasilitatorlik kompetensiyalarini shakllantirish modelini va uni amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: fasilitatsiya, fasilitatorlik vakolatlari, pedagogik ta'lim, o'qituvchilar tayyorlash, ta'lim muhiti.

OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF OPERATIONAL COMPETENCIES IN FUTURE TEACHERS OF EDUCATIONAL SUBJECTS

The relevance of the research lies in the need for the formation of facilitator competencies among future teachers for effective interaction with students and the creation of a favorable educational environment. The purpose of this work is to study the possibilities of the formation of facilitator competencies among students of pedagogical specialties. The article analyzes the theoretical foundations of facilitation in education, considers methods and technologies for the development of facilitator skills, and presents the results of an empirical study of the level of formation of facilitator competencies among future teachers. The scientific novelty lies in the development of a model for the formation of facilitator competencies and practical recommendations for its implementation in the pedagogical education system.

Keywords: facilitation, facilitation competencies, pedagogical education, teacher training, educational environment.

Введение. В современной системе образования особую значимость приобретает проблема подготовки учителей, способных создавать условия для личностного развития и самореализации учащихся. Одним из ключевых факторов эффективности педагогической деятельности является владение учителем фасилитаторскими компетенциями, которые позволяют выстраивать субъект-субъектные отношения с учениками, стимулировать их активность и самостоятельность в процессе обучения [1].

Фасилитация (от англ. facilitate - облегчать, способствовать) в образовательном контексте

рассматривается как особый тип педагогического взаимодействия, направленный на создание благоприятных условий для личностного роста и развития учащихся [2]. Фасилитаторская позиция учителя предполагает отказ от авторитарного стиля общения, умение организовать совместную деятельность, стимулировать инициативу и творческую активность учеников [3].

Несмотря на *актуальность проблемы* формирования фасилитаторских компетенций у будущих учителей, в научной литературе недостаточно разработаны теоретические и методические аспекты данного процесса. Целью нашего исследования является изучение возможностей формирования фасилитаторских компетенций у студентов педагогических специальностей в рамках профессиональной подготовки в вузе.

Научная новизна работы заключается в разработке модели формирования фасилитаторских компетенций будущих учителей, включающей целевой, содержательный, процессуальный и оценочно-результативный компоненты, а также в обосновании комплекса педагогических условий её эффективной реализации в образовательном процессе педагогического вуза.

Методы и обзор литературы. Теоретико-методологическую основу исследования составляют идеи гуманистической психологии и педагогики (К. Роджерс, А. Маслоу, Ш.А. Амонашвили), концепции личностно-ориентированного и развивающего обучения (И.С. Якиманская, В.В. Сериков, Л.С. Выготский), теории педагогической фасилитации (Э.Ф. Зеер, И.В. Жижина, О.Н. Шахматова).

Проблема формирования фасилитаторских компетенций педагогов рассматривается в работах Е.Г. Врублевской, И.В. Жижиной, Л.С. Самохиной, Г.А. Сомовой и др. Авторы выделяют различные компоненты фасилитаторской компетентности учителя: коммуникативный, креативный, рефлексивный, эмпатийный, организационный [4; 5; 6]. При этом подчёркивается, что фасилитаторские навыки являются надпредметными и должны развиваться в процессе профессиональной подготовки педагога [7].

В качестве эффективных методов и технологий формирования фасилитаторских компетенций исследователи предлагают проблемное обучение, дискуссии, ролевые и деловые игры, тренинги, кейс-стади, рефлексивные практики [8; 9]. Особое значение придаётся созданию в вузе особой фасилитационной среды, предполагающей диалогичность общения, безоценочность, эмпатийное понимание, конгруэнтность [10].

Для достижения цели исследования нами использовались теоретические (анализ научной литературы, моделирование) и эмпирические методы (анкетирование, тестирование, наблюдение, педагогический эксперимент). В эксперименте приняли участие 60 студентов 3-4 курсов бакалавриата направления «Педагогическое образование».

Результаты. На констатирующем этапе эксперимента было выявлено, что у большинства студентов фасилитаторские компетенции сформированы на низком (43%) и среднем (50%) уровнях. Высокий уровень продемонстрировали лишь 7% будущих учителей. Наибольшие затруднения у студентов вызывали умения стимулировать активность и инициативность учащихся, организовывать групповую работу, предоставлять обратную связь, проявлять эмпатию и толерантность в общении.

На формирующем этапе эксперимента была апробирована модель развития фасилитаторских компетенций, включающая три взаимосвязанных блока:

- Теоретический - освоение студентами знаний о сущности и технологиях педагогической фасилитации в рамках учебных дисциплин психолого-педагогического цикла;
 - Практический - развитие фасилитаторских умений и навыков в процессе прохождения педагогической практики, участия в тренингах и семинарах;
 - Рефлексивный - осмысление собственного опыта фасилитационного взаимодействия, анализ трудностей и достижений, построение индивидуальной траектории профессионального саморазвития.
- Реализация модели осуществлялась при соблюдении следующих педагогических условий:
- Обогащение содержания профподготовки будущих учителей знаниями о психолого-педагогических основах фасилитации;
 - Применение интерактивных и рефлексивных технологий обучения, моделирующих реальные педагогические ситуации;
 - Создание в вузе фасилитационной образовательной среды, стимулирующей субъектную активность студентов;
 - Обеспечение психолого-педагогического сопровождения процесса формирования фасилитаторских компетенций.

На контрольном этапе эксперимента была выявлена положительная динамика уровня

сформированности фасилитаторских компетенций у студентов экспериментальной группы. Доля студентов с высоким уровнем выросла до 27%, со средним - до 63%, с низким уровнем - сократилась до 10%. Будущие учителя продемонстрировали умения организовывать учебный диалог, стимулировать активность и самостоятельность учащихся, создавать доброжелательную и творческую атмосферу на уроке.

Анализ и обсуждение. Полученные результаты подтверждают эффективность разработанной модели формирования фасилитаторских компетенций и созданных для ее реализации педагогических условий. Сочетание теоретической подготовки, практической деятельности и рефлексии позволяет обеспечить осознанное овладение будущими учителями фасилитаторскими навыками, их закрепление в реальных педагогических ситуациях.

Важным условием развития фасилитаторских компетенций является погружение студентов в особую образовательную среду, отличающуюся диалогичностью, сотрудничеством и сотворчеством субъектов. Такая среда позволяет будущим педагогам не только осваивать теоретические знания, но и приобретать личный опыт фасилитационного взаимодействия, навыки эффективной коммуникации и разрешения конфликтных ситуаций. Это согласуется с идеями К. Роджерса о необходимости создания в образовательном процессе условий для свободного и осмысленного учения, основанного на личном опыте и самоактуализации учащихся [1].

Значимым фактором формирования фасилитаторской позиции учителя выступает рефлексивная деятельность, позволяющая осмысливать собственные профессионально-личностные качества, анализировать педагогические ситуации с точки зрения фасилитации, проектировать стратегии профессионального самосовершенствования. Это находит подтверждение в работах отечественных исследователей, рассматривающих рефлексивность как механизм развития фасилитаторской компетентности педагога (Л.С. Самохина, Г.А. Сомова, Э.Ф. Зеер) [4; 5; 6].

Полученные нами данные о положительном влиянии интерактивных методов обучения на развитие фасилитаторских навыков студентов согласуются с выводами других авторов. Так, в исследованиях Е.Г. Врублевской, И.В. Жижинной, О.Н. Шахматовой показана эффективность применения деловых игр, дискуссий, тренингов для формирования готовности будущих учителей к фасилитирующему общению [2; 3; 10].

Наряду с этим, наше исследование позволило выявить некоторые проблемные аспекты процесса формирования фасилитаторских компетенций у студентов педагогических специальностей. В частности, было установлено, что у части студентов сохраняются стереотипные представления об авторитарной позиции учителя, недостаточно развиты навыки активного слушания, эмпатии, безоценочного принятия учащихся. Преодоление этих трудностей требует продолжительной и систематической работы по развитию личностных качеств и коммуникативных умений будущих педагогов.

Другой проблемой является недостаточная практическая подготовленность студентов к реализации фасилитаторских функций в реальном педагогическом процессе. Зачастую полученные в ходе обучения знания и умения носят формальный характер и с трудом переносятся в практическую деятельность. В связи с этим особую значимость приобретает интеграция теоретической и практической подготовки будущих учителей, увеличение объема и разнообразия форм педагогической практики, ориентированной на освоение фасилитаторских компетенций.

Проведенное исследование не исчерпывает всех аспектов рассматриваемой проблемы. Перспективы дальнейших исследований мы видим в разработке диагностического инструментария для оценки уровня сформированности фасилитаторских компетенций педагогов, изучении опыта реализации программ повышения квалификации учителей в области фасилитации, апробации модели формирования фасилитаторских компетенций студентов в условиях дистанционного обучения.

Таким образом, анализ результатов исследования позволяет сделать вывод о том, что формирование фасилитаторских компетенций будущих учителей является актуальной и многоаспектной проблемой, требующей дальнейшего теоретического осмысления и практической разработки в контексте модернизации педагогического образования. Внедрение разработанной нами модели в практику вузовской подготовки педагогов будет способствовать становлению нового типа учителя-фасилитатора, готового к реализации гуманистической образовательной парадигмы.

Выводы. Проведённое исследование позволяет сделать следующие выводы:

1. Фасилитаторские компетенции являются значимой составляющей профессионализма современного учителя и должны целенаправленно формироваться в процессе вузовской подготовки педагогических кадров.

2. Процесс формирования фасилитаторских компетенций будущих учителей должен носить системный и поэтапный характер, предполагать интеграцию теоретической, практической и рефлексивной деятельности студентов.

3. Эффективность формирования фасилитаторских компетенций обеспечивается за счет реализации комплекса педагогических условий: обогащения содержания профподготовки, применения интерактивных технологий, создания фасилитационной образовательной среды, психолого-педагогического сопровождения студентов.

4. Разработанная модель формирования фасилитаторских компетенций будущих учителей доказала свою результативность в ходе опытно-экспериментальной работы и может быть рекомендована к внедрению в практику педагогического образования.

Литература:

1. Rogers, C.R. Freedom to Learn for the 80's. - Columbus-Toronto-London-Sydney: Charles E. Merrill Company, A Bell & Howell Company, 1983. - 312 p.

2. Врублевская, Е. Г. Учитель как фасилитатор инновационного образовательного процесса в современной школе / Е. Г. Врублевская. - Текст : непосредственный // Педагогическое образование в России. - 2013. - № 1. - С. 173-178. [Vrublevskaya, E.G. Teacher as a facilitator of the innovative educational process in a modern school. Pedagogical education in Russia, 2013, no.1, pp. 173-178. (In Russian)].

3. Жижина, И. В. Психологические особенности развития фасилитации педагога : специальность 19.00.07 "Педагогическая психология" : диссертация на соискание ученой степени кандидата психологических наук / Жижина Инна Владимировна. - Екатеринбург, 2000. - 153 с. - Текст : непосредственный. [Zhizhina, I.V. Psychological features of the development of teacher facilitation. Ph.D. Thesis in Pedagogical Psychology. Yekaterinburg, 2000. 153 p. (In Russian)].

4. Самохина, Л.С. Структура фасилитационной компетентности учителя / Л.С. Самохина // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 29. – С. 294–297. [Samokhina, L.S. The structure of the teacher's facilitation competence. Scientific and methodical electronic journal "Concept", 2017, vol. 29, pp. 294-297. (In Russian)].

5. Сомова, Г.А. Фасилитативная компетентность как профессионально значимое качество педагога / Г.А. Сомова // Воспитание и обучение: теория, методика и практика : материалы VI Междунар. науч.-практ. конф. - Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 2016. - С. 257-260. [Somova, G.A. Facilitative competence as a professionally significant quality of a teacher. Education and training: theory, methodology and practice: materials of the VI Intern. scientific-practical conf. Cheboksary: CNS Interactive Plus, 2016, pp. 257-260. (In Russian)].

6. Зеер, Э.Ф. Психолого-педагогическая фасилитация как новая образовательная технология / Э.Ф. Зеер, И.В. Жижина // Инновационные проекты и программы в образовании. - 2017. - № 3. - С. 6-10. [Zeer, E.F., Zhizhina, I.V. Psychological and pedagogical facilitation as a new educational technology. Innovative projects and programs in education, 2017, no. 3, pp. 6-10. (In Russian)].

7. Димухаметов, Р.С. Фасилитация в системе повышения квалификации педагогов: диссертация ... докт ора педагогических наук : 13.00.08 / Р.С. Димухаметов. - Магнитогорск, 2006. - 398 с. [Dimukhametov, R.S. Facilitation in the system of teacher professional development. Dr. Sci. (Pedagogy) Thesis. Magnitogorsk, 2006. 398 p. (In Russian)].

8. Левитес, Д.Г. Педагогические технологии: учебник / Д.Г. Левитес. - М.: ИНФРА-М, 2017. - 403 с. [Levites, D.G. Pedagogical technologies: textbook. Moscow: INFRA-M Publ., 2017. 403 p. (In Russian)].

9. Хуторской, А.В. Современная дидактика: учебное пособие / А.В. Хуторской. - М.: Высшая школа, 2007. - 639 с. [Khutorskoy, A.V. Modern didactics: tutorial. Moscow: Higher School Publ., 2007. 639 p. (In Russian)].

10. Шахматова, О.Н. Психологические особенности педагогической фасилитации / О.Н. Шахматова // Образование и наука. - 2012. - № 3 (92). - С. 72-82. [Shakhmatova, O.N. Psychological features of pedagogical facilitation. Education and Science, 2012, no. 3 (92), pp. 72-82. (In Russian)].

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA MEDIATA‘LIM ASOSIDA KOGNITIV FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

*Atajonova Anorgul Jumaniyazovna,
Urganch davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi”
kafedrası mudiri, dotsent*

Mazkur maqolada oliy ta‘limda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivoj toptirish jarayonini axborot-ta‘lim muhiti bilan integrativligini ta‘minlash, pedagoglarda mustaqil media bilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, kreativlik hamda yangi mediavositalarni o‘zlashtirishga qobiliyatlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish yo‘llari ochib berilgan.

***Kalit so‘zlar:** media ta‘lim, axborot-ta‘lim muhiti, kreativlik, mediavositalar, mediasavodxonlik, metodika, mediakompetentlik, internet, televideniya, kino, radio, video, mobil aloqa, axborot xavfsizligi, medialog.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ У УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье речь идёт об обеспечении интеграции процесса развития медиакомпетентности будущих учителей начальных классов в высшем образовании с информационно-образовательной средой, развитии у педагогов навыков и умений самостоятельного овладения медиаобразованием. Выявлены также пути совершенствования дидактических условий развития креативности и способности к освоению новых медиасредств.

***Ключевые слова:** медиаобразование, информационно-образовательная среда, креативность, медиасреда, медиаграмотность, методология, медиакомпетентность, интернет, телевидение, кино, радио, видео, мобильная связь, информационная безопасность, medialog.*

THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF COGNITIVE ACTIVITY ON THE BASIS OF MEDIATIVITY IN PRIMARY SCHOOL TEACHERS

This article is about ensuring the integration of the process of developing the media competence of future primary school teachers in higher education with the information and educational environment, the development of teachers' skills and abilities to independently master media education. The ways of improving the didactic conditions for the development of creativity and the ability to master new media are also revealed.

***Key words:** media education, information and educational environment, creativity, media environment, media literacy, methodology, media competence, internet, television, cinema, radio, video, mobile communication, information security, medialog.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda O‘zbekistonda ta‘lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta‘lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga – ta‘lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta‘kidlab o‘tiladi. Shu munosabat bilan ta‘lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o‘quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar raqamli texnologiyalarga asoslangan o‘quv-metodik ta‘minotni yaratish va rivojlantirishning konseptual tamoyillarini aniqlashtirish, fanlar bo‘yicha integrallashgan o‘quv-ilmiy resurslarni yaratishga qo‘yiladigan talablarni takomillashtirish, fanlarning o‘quv-metodik resurslarini optimal taqdim etish, raqamli texnologiyalarga asoslangan o‘quv-metodik ta‘minotdan ta‘lim jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirishning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Respublikamizda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi 637-sonli “Ta‘lim

to‘g‘risidagi” Qonuni talablaridan kelib chiqib, uzluksiz ta‘limning barcha bosqichlari, jumladan oliy ta‘lim tizimi zimmasiga jahon andozalariga mos, ichki va tashqi mehnat bozori talablariga javob beradigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdek ulkan vazifa yuklatildi [1].

Asosiy qism. Oliy o‘quv yurtining bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari uchun mediata‘limning asosiy vazifasi dunyoda erkin amalga oshiriladigan ma‘lumot o‘zini o‘zi mustaqil shakllantirish va o‘zini o‘zi mustaqil ta‘minlovchi shaxsning mediakompetentligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratligi ayon bo‘ladi. Biz I.V.Grigorevaning, bunday shaxsni rivojlantirish muammosi kasbiy ta‘lim doirasidan ancha uzoqda va insonning uzluksiz ijtimoiylashuvining eng muhim jarayonlari sodir bo‘ladigan axborot muhiti bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish vazifasi bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda, degan fikriga qo‘shilamiz [2.210].

Biz N.A.Sidorinaning bunday yondashuv multimedia vositalarining jozibadorligi bilan nafaqat ta‘lim motivatsiyasini oshiradi, balki talabalarning media kompetentligini rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi, degan fikriga qo‘shilamiz.[3.15]

Oliy ta‘limda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish jarayonini axborot-ta‘lim muhiti bilan integrativligini ta‘minlash, pedagoglarda mustaqil mediabilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikma va malakalarini, kreativlik, yangi mediavositalarni o‘zlashtirishga qobiliyatlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mediata‘lim bo‘yicha rivojlanganlik darajasini tashxislashga qaratilgan metodikalarni yaratish, mediakompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslashni talab etmoqda.

Globalashuv jarayonlarini har bir jamiyat a‘zosining shaxsiy rivojlanishiga axborot nuqtayi nazaridan ta‘siri katta va kuchli bo‘lib bormoqda. Talabalarning axborot manbalarini baholash, ulardan foydalanish, axborotni tarqatishda xolislik, aniqlik, mas‘uliyatlilik, halollik kabi tamoyillarga asoslanganligini tahlil qila olishi – ulardagi media bilimdonlik rivojlanganligini belgilab beradi.[4]

Ma‘lumki, global miqyosida medianing roli shiddatli ravishda yildan-yilga ortib bormoqda. Media kirib bormagan soha qolmadi. Kundalik hayotni ham mediasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Media haqiqiy ma‘noda insonlar orasidagi “vositachi”ga aylanib ulgurdi. Shuningdek, media barcha kasbiy faoliyat turlariga to‘laqonli integratsiya bo‘lib bormoqda.

Ma‘lumki, aholi o‘rtasida, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, yon-atrofimizda bo‘layotgan voqea-hodisalar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida ommaviy axborot vositalari katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy onlayn ta‘lim tizimiga yana bir muhim vazifa — yoshlarni turli manbalardan, birinchi navbatda, televizor, internet va mobil telefoni kabi axborot uzatuvchi vositalardan olinayotgan turli axborotlarni to‘g‘ri qabul qila olishga o‘rgatish vazifasi yuklatilmoqda. Farzandlarimiz har qanday axborotlarning sifati va ishonchliligini baholay olishlari, axborotlardan to‘g‘ri foydalana bilishlari, foydalisini tanlay olishlari va har bir ma‘lumotga tanqidiy yondashishni o‘rganishlari zarur.[5,6] Shu bilan birga, internet, televideniya, kino, radio, video, mobil aloqasi, turli ma‘lumotlar aks etgan slaydlar va sur‘atlar kabi aloqa hamda ma‘lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o‘zgartirib, ko‘plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o‘sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta‘minlashdek muammolarini yuzaga keltirmoqda.


Muhokama va natijalar. Ma‘lumotlarda keltirilishicha, medialoglar media va mediatexnologiyalarni o‘rganib chiqib, ularni shartli ravishda 5 turga bo‘lganlar:

1. Dastlabki media — yozuv;
2. Bosma media — bosma nashrlar, litografiya, fotografiya;
3. Elektrik media — telegraf, telefon, ovozli yozuv;
4. Mass-media — kinematograf, televideniye;
5. Raqamli media — kompyuter, internet.

Media – bu jamiyatda to‘g‘ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo‘lib, insonlar bilan vaqtincha o‘zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqtiruvchi, chalg‘ituvchi makondir [7].

Mazkur jarayonda mediata‘lim bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborotni olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o‘rgatish, talabalarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi.

Bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida axborot madaniyati asosida quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi:



1-rasm.

Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga egadir. Har bir inson aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to‘g‘risida umumiy tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

Ma‘lumotlarda keltirilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga internetdan foydalanish uchun ko‘plab vaqt ajratadi. Biroq bugungi kun talabiga ko‘ra, zarur axborot va ma‘lumotlarni keraksiz va yaroqsizlaridan, soxtalaridan ajrata olish, ya‘ni media savodxonlik madaniyatiga ega bo‘lish zarurati yuzaga kelmoqda.

Avvalo, media savodxonlik madaniyatining o‘zi nima, nega unga bugun dunyo bo‘ylab talab ortib bormoqda kabi savollarga javob topish lozim. Chunki so‘nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma‘lumotlar bilan bir qatorda, salbiy xarakterdagi axborotning ko‘payishi media savodxonlik madaniyatiga ega bo‘lish zaruratini qo‘ydi. An‘anaviy tarzda media savodxonlik madaniyati bu shaxsning asarlarni tahlil eta olishi va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo‘lgan.

Bugungi axborot muhitini tushunishda media savodxonlik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda avvalo, OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilmoqda, unda kimning manfaatlarini aks ettirmoqda, degan tushunchalarni shakllantirish lozim. Mohiyati o‘rganilmagan, yolg‘on tarqatilayotgan xabar va axborotlarning hayotimizni tubdan o‘zgartirib yuborishi muqarrardir [8]. Aynan axborotni tahlil etmay, o‘z holicha qabul qilish oqibatida, dunyoning turli chekkalarida yoshlar jinoyatga qo‘l urmoqda, o‘zini kino qahramoni sifatida his qilganlar esa, “qahramon” xatti-harakatlarini takrorlagan holda qo‘llariga qurol olib, begunoh insonlar hayotiga zomin bo‘lishmoqda. Demak, aynan ana shu holatlarning oldini olish, axborotga ongli ravishda yondashish bugun zamon talabidir va buni yoshlarga media savodxonlik madaniyati orqali singdirish kerakdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv jarayoniga elektron ta‘lim vositalarining joriy etilishi, ulardan o‘qish va bilim olishda foydalana olsa, kasbga qiziqish va fazilatlarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Demak, yoshlar mediamatnlarni o‘qiyotganda, mediamahsulotni tomosha qilayotganda ularni qabul etish, tahlil qilish, baholash va yaratish, zamonaviy jamiyatda mediamahsulotlarning ijtimoiy, ma‘naviy, mafkuraviy, madaniy kontekstini tushunishlari kerak. Bu esa odamning mediamadaniyati qandayligiga bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. 2022-2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022- yildagi PF-134-son farmoni va uning 1-ilovasi – // Elektron manba. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.
2. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. – 210 b.

3. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - T.: Extremum-press, 20172. Babadjanov S.S. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi («Informatika va axborot texnologiyalari» o‘quv fani misolida): p.f.b.f.d (PhD) disser.... Toshkent, 2018. – B. 15
4. Mamatov O. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Psixologik xavfsizlikni ta’minlashning ijtimoiy psixologik imkoniyatlari. - Namangan, 2008.
5. Berkinov O.T. (2022). Ijtimoiy tarmoq: yoshlar va “kelajak” // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 3-son, -B.181-187.
6. Гаффарова Г.Г. (2021). Кластерный подход в стратегии действий: философский анализ. Педагогик таълим кластери: муаммо ва ечимлар: халқаро конференция. – Чирчиқ, 25 июнь, -С.53-58.
7. Rustamova N. Mediata’lim va mediamadaniyat: nazariya va amaliyot. –T. “Muharrir” 2015.
8. Mavlonova R.A., Vohidova N.H., Raxmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi. T.: Fan va texnologiyalar. 2010.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

Uchinchidan, zamonaviy dunyoda ijtimoiy, ekologik va boshqa muammolar fuqarolardan ko'plab sohalaridagi ma'lumotlarni birlashtiradigan asosli qarorlar qabul qilishni talab qiladi, shuning uchun maktablar o'quvchilarga murakkab muammolarni hal qilish uchun turli fan sohalaridagi bilimlarni qo'llash imkoniyatini berishlari kerak

Ijtimoiy fanlar, fan yoki texnologiya tsikllari doirasida o'quv fanlarini integratsiyalash o'rganish tajribasini chuqur va yaxlit tarzda integratsiyalash, o'quvchilarga bir vaziyatdan umumlashtirish va ushbu printsiplni boshqasiga qo'llash ko'nikmalarini berish orqali allaqachon to'lib ketgan o'quv dasturining doimiy kengayishini kamaytirishi mumkin.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda maktab fanlarini integratsiyalashuvining samaradorligi va uning kamchiliklari bo'yicha kamida ikkita nuqtai nazar mavjud. "Integratsiya" va "fanlararo" atamalaridan foydalanishda aniqlik yo'q. Nashrlar mualliflari maktabda integratsiyalashgan o'qitishni joriy etishdagi qiyinchiliklar va cheklovlar ro'yxatida birlashadilar

Adabiyotlar:

1. Галактионова Т.Г. Корчинская А. А. Предпосылки возникновения процессов интеграции в системе образования Финляндии // Человек и образование. – 2018. – № 4 (57). – С. 178–182.

2. Берулава М.Н. Интеграция содержания образования. – М.: Педагогика, 1993. – 172 с.
3. Данилюк А.Я. Теория интеграции образования. – Ростов н/Д: РостГПУ, 2000. – 440 с.
4. Zhanova K.S., Rule A. C., Montgomery S. E. et al. Defining the Difference: Comparing Integrated and Traditional Single-Subject Lessons // Early Childhood Educational Journal. – 2010. – V. 38. – P. 251–258. – URL: <https://doi.org/10.1007/s10643-010-0405-1>.
5. Lonning R.A., DeFranco T.C., Weinland T. P. Development of Theme-based, Interdisciplinary, Integrated Curriculum: A Theoretical Model // School Science and Mathematics. – 1998. – V. 98 (6). – P. 312–319. – URL: <https://doi.org/10.1111/j.1949-8594.1998.tb17426.x>.

TA'LIM OLUVCHILARNING KONSTRUKSIYALASH VA MODELLASHTIRISH KOMPETENSIYALARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Quliyeva Shahnoza Halimovna,

Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti

“Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va elektronika” kafedrasida dotsenti

kuliyeva_shakhnoza@mail.ru

Maqolada ta'lim oluvchilarning konstruksiyalash va modellashtirish kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni berilgan. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga texnologiya fanining “Servis xizmati” yo'nalishida konstruksiyalash va modellashtirish mavzularini o'qitilishi va professional ta'limning “Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari)” yo'nalishining “Keng assortimentdagi kiyimlarni andozasini tayyorlash, bichish va tikish” fanida hamda oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishining “Texnik konstruksiyalash va modellashtirish” fanlarida integrativ yondashuv asosida ta'lim oluvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari keltirilgan bo'lib, bunda fanlarning o'zaro aloqadorligi, integrativ yondashuv mazmuni hamda ta'lim oluvchilarning rivojlantiriladigan kompetensiyalari batafsil berilgan.

Kalit so'zlar: *texnologiya, integratsiya, kompetensiya, tayanch kompetensiyalar, umumiy kompetensiyalar, konstruksiyalash, modellashtirish, integrativ yondashuv.*

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПО КОНСТРУИРОВАНИЮ И МОДЕЛИРОВАНИЮ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

В статье представлено содержание развития конструктивно-моделирующих компетенций обучающихся на основе интегративного подхода. В общеобразовательных учреждениях учащимся преподаются предметы конструирования и моделирования по направлению технологической науки «Сервисное обслуживание» и области профессионального образования «Работа и технология изготовления изделий лёгкой промышленности (швейных изделий)» по направлению «Изготовление и изготовление изделий лёгкой промышленности (швейных изделий)», профессиональное образование «Широкие вопросы развития компетенций обучающихся на основе интегративного подхода по предметам «Изготовление выкроек, кройки и шитья ассортимента одежды» и «Техническое конструирование и моделирование» технологического образования в высших учебных заведениях, в которых проанализировано взаимодействие. Подробно изложены актуальность предметов, содержание интегративного подхода и компетенций, развиваемых у обучающихся.

Ключевые слова: *технология, интеграция, компетентность, базовые компетенции, общие компетенции, конструирование, моделирование, интегративный подход.*

DEVELOPMENT OF STUDENTS' CONSTRUCTION AND MODELING COMPETENCIES ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH

The article presents the content of the development of constructive-modeling competencies of students based on an integrative approach. In general educational institutions, students are taught subjects of design and modeling in the direction of technological science "Service" and the field of vocational education "Work and manufacturing technology of light industry products (garments)" in the direction of "Manufacture and production of light industry products (garments)". vocational education "Broad issues of developing the competencies of students on the basis of an integrative approach in the subjects "Making patterns, cutting and sewing assorted clothes" and "Technical design and modeling" of technological education in higher educational institutions, in which interaction The relevance of the subjects, the content of the integrative approach and competencies developed in students.

Key words: *technology, integration, competence, basic competencies, general competencies, design, modeling, integrative approach.*

Kirish. *Bugungi kunga kelib, insoniyat integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglash, uning rivojlantiruvchi funksiyalarini amalda qo'llay olish natijasidagina sayyoramizdagi muhim ekologik muammolarini hal qila olish, hayotni saqlab qolishi mumkinligini anglagan holda, unga ehtiyoj zarurligini*

sezmoqda. Bu muammolarni hal qilishda, ayniqsa, pedagogikaning, ta’limdagi integratsiya jarayonining muhimligini ko’pchilik mamlakat olimlari tomonidan tahlil qilinmoqda. XXI asr didaktika, shu jumladan o’qitish metodikasida chuqur islohotlar davrini boshlab berdi. Umumiy o’rta ta’limning maqsadlari o’zgardi, yangi ta’lim konsepsiyalari, o’quv rejalari standartlari yaratildi. Ta’lim mazmunini bayon qilish, ayrim o’quv fanlari orqali emas, balki yangicha integratsiyalashgan ta’lim asosida yondashishni ko’zda tutmoqda. Maktab o’quv rejasidagi o’rganiladigan fanlar sonining ortishi, ayrim predmetlar, jumladan, biologiya, geografiya, kimyo kabi tabiiy fanlarni o’rganishga ajratilgan vaqtning qisqarishiga olib keldi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog’lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog’lanish, ya’ni uzviylikni ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki fanlararo aloqadorlik ta’minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o’qituvchi o’quvchilarda o’zining faniga bo’lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o’zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o’quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. O’quvchilarda dialektik tarzda fikrlash ko’nikmalari shakllanadi. Shu bilan bir qatorda, o’quv fanlariga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim shartidir.

Asosiy qism. Ayniqsa, bugungi kunda umumiy o’rta ta’lim o’quv rejasidagi texnologiya fanining servis xizmati yo’nalishini o’quvchilarga o’qitishda quyidagi kompetensiyalar rivojlantiriladi:

1. **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi** go’zallik va san’atni idrok etadi; mustaqil ishlashga ijodiy yondashib, kreativ fikrlaydi; yakka va jamoa bilan hamkorlikda ijodiy faoliyat yuritadi; ijodiy faoliyatini to’g’ri rejalashtirib, erishilgan natijasini tanqidiy baholay oladi va o’z mehnatidan zavqlana oladi; muammolar yechimiga muqobil yondashadi va to’g’ri qaror qabul qila oladi; mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik hamda ishchanlik, faollik sifatlarini egallaydi; konstruktiv fikrlay oladi, g’oyalarni amaliyotga tatbiq eta oladi; loyihalash va tadqiqotchilik ko’nikmalarini egallaydi.

2. **O’z-o’zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi** kun tartibi, shaxsiy va jamoat gigiyena qoidalariga rioya qiladi; jismoniy mashqlarning inson salomatligi uchun ahamiyatini biladi va qo’llaydi; tanish va notanish vaziyatlarda o’zini boshqaradi; kundalik hayotida o’z-o’zining xavfsizligini ta’minlaydi; mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan o’yinlar orqali intellektini rivojlantiradi; turli asbob-uskunalardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qiladi; jismoniy sifatlarni mustaqil ravishda rivojlantiradi; sog’lom turmush tarziga rioya qiladi; shikastlanishning oldini olish qoidalariga amal qiladi; favqulodda vaziyatlar chog’ida o’zini muqobil boshqara oladi; zarurat bo’lganda o’ziga va o’zgalarga birinchi yordam ko’rsata oladi.

3. **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi** turli chizma, sxemalarni o’qiydi, tuzadi va kundalik hayotida qo’llaydi; amaliy ishlarni mantiqiy ketma-ketlikda to’g’ri bajaradi; o’z imkoniyatlarini to’g’ri baholab, faoliyatini oqilona rejalashtiradi; muammoning yechimini topishda mavjud resurslardan samarali foydalanadi; faoliyatining barqarorligi va o’zining farovonligini ta’minlay oladi; faoliyatini tanqidiy baholaydi, uni yaxshilash uchun o’z ustida ishlaydi; o’z faoliyatini texnik va texnologik taraqqiyot o’zgarishlariga moslashtira oladi; jamoada hamkorlikda ishlaydi; kasb turi va faoliyati yo’nalishini ongli hamda mustaqil ravishda tanlaydi; amaliy ko’nikmalarini o’zi va jamiyatni barqaror rivojlantirishga safarbar qila oladi.

Umumiy o’rta ta’lim tizimida o’quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Bunga ko’ra amaliy o’quv predmetlari bloki-modulini o’qitish jarayonida o’quvchilarda tayanch kompetensiyalar shakllantirilib boriladi. Umumiy o’rta ta’lim tizimida o’quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Tabiiy va iqtisodiy fanlar bloki yo’nalishidagi fanlar orqali o’quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ular o’zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko’nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo’llay olishga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiyalarni** shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o’zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, amaliy mashg’ulotlarni o’zaro bajarishda, ijodiy loyiha ishlarini bajarish malakalarini shakllantirishda, fikrini yozma va og’zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda amaliy fanlarga oid atamalarni to’g’ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o’rgatish zarur.

Fanlarni o’qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasini** samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o’quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko’nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar)lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O’z-o’zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo’lish,

Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lish, yangiliklarga intilish va o‘zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish, badiiy va san‘at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya fanini “Servis xizmati” yo‘nalishining “Mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasi” bo‘limiga 24 soat ajratilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilarga “Kiyim turlari. Milliy liboslarda ko‘ylak va uning turlari haqida ma‘lumot. Hisoblash formulasi. Gavdadan o‘lchov olish. Ko‘ylak old asos, orqa asos to‘r chizmasini chizish. Andaza tayyorlash. Andazani gazlama ustiga joylashtirish. Gazlamani bichishga tayyorlash va bichish. Ko‘ylakning bichiq bo‘laklariga ishlov berish. Dazmollash. Birinchi kiydirib ko‘rish. Bo‘yin va yeng o‘mizlariga ishlov berish. Ko‘ylak etagini tikish va oxirgi ishlov berish.” mavzularini o‘rganishda konstruksiyalash va modellashtirish b‘oyicha kompetensiyalar rivojlantiriladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida texnologiya fanining servis xizmati yo‘nalishidan o‘quvchilarda tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish tushunchalarining boshlang‘ich ma‘lumotlari o‘rgatiladi. Har qanday buyumni tikishga, ya‘ni uni bichishga, unga texnologik ishlov berishga kirishishdan oldin birinchidan, uning badiiy loyihasini, sodda qilib aytganda, eskizini yaratish kerak,— bu bosqichga badiiy modellashtirish deyiladi; ikkinchidan, asosiy konstruksiyani, soddarog‘i asosni hisoblash va chizish kerak, buni konstruksiyalash deyiladi; uchinchidan, hisoblashlar va maket yasash yo‘li bilan taxlamalarni, burmalar, koketkalar, cho‘ntaklar, qirqmalarni va hokazo ishlab chiqish kerak,— bunga texnik modellashtirish deyiladi.

Bu ishlarning birinchi qismini odatda modelyer-rassomlar, so‘nggi ikkitasini esa konstruktorlar bajaradilar (ularni ko‘pincha konstruktor-rassomlar deyishadi). Ular bir-birlarining ishini yaxshi bilishlari va tushunishlari kerak, chunki modelyerlar, konstruktorlar va texnologlarning mehnati o‘zaro bog‘liq va umumiy ishning pirovard natijasi uchun birdek muhim hisoblanadi.

Uzluksiz ta‘lim tizimini professional ta‘lim tizimidagi o‘rta maxsus professional ta‘limning “Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari)” yo‘nalishini “Keng assortimentdagi kiyimlarni andozasini tayyorlash, bichish va tikish” fanida o‘quvchilarga mehnat muhofazasi, ishchi o‘rinlarida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish. buyum turiga ko‘ra qo‘shimchalarni tanlash va asos konstruksiya chizmasini qurish, eskizga muvofiq kiyim modellashtirish jarayonini bajarish, kiyim detallari andozasini tayyorlash, andoza detallarini gazlamaga texnik talablarga binoan joylashtirish. O‘quvchilar o‘quv jarayonida olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash, o‘quvchilarda mutaxassisligi bo‘yicha zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni hosil qilishdan iborat. O‘quvchilarning dasturni o‘zlashtirish natijalari mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi qoidalari, buyum turiga ko‘ra qo‘shimchalarni tanlash va asos konstruksiya chizmasini qurish. eskizga muvofiq kiyim modellashtirish jarayonini bajarish. Kiyim detallari andozasini tayyorlash, andoza detallarini gazlamaga texnik talablarga binoan joylashtirish, bichish, buyumni yig‘ib tikish, buyumni uzil-kesil pardozlash, NII berish hosil qilishni o‘rgatishdan iborat.

Ta‘lim dasturini o‘zlashtirgan bitiruvchining umumiy va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar 50720701-Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuvchilik bo‘yicha) kasbi bitiruvchilari umumiy kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablar.

PTM bitiruvchisi quyidagi umumiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak:

UK-1. Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish;

UK-2. Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish;

UK-3. O‘zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish;

UK-4. Jamoada va ma‘lum vazifani bajarishga yo‘naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala va samarali muloqot qilish;

UK-5. Ta‘lim olgan tilida fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish;

UK-6. Umuminsoniy fazilatlariga ega bo‘lish, o‘z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarini hurmat qilish;

UK-7. Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo‘ladigan ma‘lumotlarni qidirish;

UK-8. Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llash;

UK-9. Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash;

UK-10. Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

UK-11. Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar

yetkazmaslik choralari ko‘rish va utilizatsiya qilish;

UK-12. Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish;

50720701-Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuvchilik bo‘yicha) kasbiy ta‘lim dasturini o‘zlashtirgan bitiruvchi quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak.

Texnik-texnolog kvalifikatsiyasi bo‘yicha:

KK-1.1. Ishlash jarayonida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni ta‘minlash;

KK-1.2. Zamonaviy moda tahlili asosida yoki ijodiy manbalardan foydalanib yangi model eskizlarini ishlab chiqish;

KK-1.3. Model eskiziga ko‘ra materiallar paketi va furnituralarni tanlash;

KK-1.4. Tipaviy va individul qomatlar uchun bazaviy konstruksiya chizmalarini bajarish va modellashtirish;

KK-1.5. Manekenda yoki gavdada detallarni qadash, nuqsonlarni aniqlash va bartaraf etish;

KK-1.6. Andoza turlarini tayyorlash va ularni gradatsiyasini bajarish, tayyor buyumlar o‘lchamlar jadvalini ishlab chiqish;

KK-1.7. Tajribali to‘shamalarni bajarish.

KK-1.8. Tikuvchilik ishlab chiqarishda ratsional texnologik ishlov berish usulini tanlash;

KK-1.9. Xomashyo va materiallar normasini belgilash, tejamkor to‘shamalarni bajarish;

KK-1.10. Tikuv mashinalari va namlab isitib ishlov berish jihozlarida ishlash;

KK-1.11. Ishlab chiqarilayotgan modelga ishlov byerish ketma-ketligini tuzish va normativ hujjatlar asosida mehnat taqsimotini bajarish;

KK-1.12. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini texnik nazorat qilish.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta‘limning davlat ta‘lim standartlari - bu ta‘lim mazmunini belgilaydigan mavzular va ularni o‘rganishga ajratilgan soatlar hajmini shunchaki sanab o‘tish emas, balki har bir sinfda amaliy ko‘nikmalarga asoslangan ta‘lim natijalarini yaxshilash uchun o‘qitish va ta‘lim mazmuniga qo‘yiladigan talablarni tizimlashtiruvchi qudratli pedagogik vositadir. U o‘quvchilarda borliqni yaxlit tasavvur qilgan holda nazariy tushunchalar, ta‘riflar va qonuniyatlarni kundalik hayotga bog‘lab o‘rganish orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan «spiralsimon» yondashuvni qo‘llash imkoniyatini beradi. Bunda aniq belgilangan hamda uzviy asosda oson o‘zlashtiriladigan va baholanadigan/o‘lchanadigan kompetensiyalar/talablarni inobatga olgan holda taklif qilinayotgan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta‘limning davlat ta‘lim standartlari o‘quvchilarning natijalarida uzviylikni ta‘minlashga ko‘maklashadi. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta‘limning davlat ta‘lim standartlari–kompetensiyaviy yondashuv va uzviylik asosida takomillashtirish natijasida ishlab chiqilgan muqobil (alternativ) yaxlit hujjat bo‘lib, uni bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish ilg‘or milliy va xorijiy tajribalarga tayanishni nazarda tutadi. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlari ko‘plab mamlakatlarda tajriba-sinovdan o‘tgan ilg‘or amaliyot, tajriba va ilmiy asoslangan ma‘lumotlarga tayangan holda ishlab chiqilishi bilan bir qatorda, mahalliy ustuvorliklar, ya‘ni O‘zbekistonning strategik rivojlanish tarektoriyasiga mos ravishda belgilangan maqsadlarga asoslanishi lozim. Bu esa O‘zbekistonga boshqa mamlakatlarning yutuqlari va xatolaridan o‘rganish, butun dunyodagi yetakchi ta‘lim tizimlarida o‘zining muvaffaqiyatli ekanligini isbotlagan yondashuv va resurslardan foydalanish hamda ularni mahalliyashtirish imkonini beradi. Shuningdek, bu milliy ta‘lim tizimining mas‘uliyatini sezilarli tarzda kuchaytirishga, milliy dasturlar va ustuvor maqsadlarga mos ravishda o‘zining boshlang‘ich ko‘rsatkichlariga nisbatan, shuningdek, qiyoslanadigan xalqaro indikatorlar asosida boshqa mamlakatlarga nisbatan qiyoslash imkonini beradi. Bu O‘zbekistonga ta‘lim sohasida nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda yetakchi sifatida rivojlangan davlatlar qatorida bo‘lishiga yo‘l ochadi.

Shuningdek, o‘rta maxsus, professional ta‘lim bilan oliy ta‘limning “Texnologik ta‘lim” yo‘nalishidagi davlat ta‘lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarida integrativ yondashuvni ta‘minlanishi ta‘lim oluvchilarda rivojlantiriladigan kompetensiyalarga ham alohida e‘tibor berilganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalarining oxirgi 5 yillik o‘quv reja va dasturlarining o‘rta ta‘lim, professional ta‘lim hamda oliy ta‘lim tizimlarining me‘yoriy hujjatlarida uzviylik, izchillik, tizimlilik tamoyillariga alohida e‘tibor berilgan.

Oliy ta‘lim muassasalarining “Texnologik ta‘lim” yo‘nalishida “Texnik konstruksiyalash va modellashtirish” fanidan rivojlantiriladigan kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- texnik masala yechimlarini topishning boshqa metodlari; buyumning badiiy loyiha konstruksiyasini yaratish; texnik obyektlarni loyihalash va tayyorlash; oddiy texnik obyektlarni konstruksiyalash va modellashtirish; avto modeli, kema modeli, avia model va qishloq xo‘jaligi mashina va uskunalari

modellash, qo‘llanishiga ko‘ra o‘quv va ishlab chiqarish texnik obyektlarini konstruksiyalash, o‘quvchilarning texnik ijodkorligini boshqarish tasavvurga ega bo‘lishi; o‘lchov olish, asos chizmalarni konstruksiyalash, modellash texnologiyasi haqida tasavvur va **bilimga ega** bo‘lishi;

- texnik masala yechimlarini topishning boshqa metodlari; buyumning badiiy loyiha konstruksiyasini yaratish. Texnik obyektlarni loyihalash va tayyorlash; oddiy texnik obyektlarni konstruksiyalash va modellash; avto modeli, kema modeli, avia model va qishloq xo‘jaligi mashina va uskunalarni modellash, qo‘llanishiga ko‘ra o‘quv va ishlab chiqarish texnik obyektlarini konstruksiyalash, o‘quvchilarning texnik ijodkorligini boshqarish; texnik ijodkorlik bo‘yicha sinf va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarni tashkil etish; o‘quvchilarning boshlang‘ich ijodiy uyushmalaridagi ishlar mazmuni va metodlari haqida; tikuvchilik buyumlari asos chizmalarini konstruksiyalash uchun gavdadan olinadigan o‘lchovlar haqida, asos chizmalarni konstruksiyalash, kiyimlarni turli fasonda modellash, maketlarni tayyorlash **ko‘nikmalarga** ega bo‘lishi;

- avto modeli, kema modeli, avia model va qishloq xo‘jaligi mashina va uskunalarni modellash, qo‘llanishiga ko‘ra o‘quv va ishlab chiqarish texnik obyektlarini konstruksiyalash jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo‘llay olish; bolalar, ayollar, erkaklar kiyimlari asos chizmalarini konstruksiyalash uchun gavdadan olinadigan o‘lchovlar haqida, asos chizmalarni konstruksiyalash, kiyimlarni turli fasonda modellash, maketlarni tayyorlash, texnologik xaritalarni tayyorlash **malakaga** ega bo‘lishlari kerak.

O‘quv materialini mavzular bo‘yicha tahlil etish yo‘li bilan turli o‘quv predmetlarini qaysi mavzulari bir-biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o‘quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm, xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o‘rnatiladi.

Predmetlararo aloqadorlik prinsipiga amal qilish ta‘lim-tarbiya sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ma‘lumki, bunday aloqadorlik o‘rganilayotgan obyektning har tomonlarga chuqur o‘rganishni ta‘minlaydi. U pedagogikada uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik va integrativ aloqadorlik darajalarida talqin etiladi.

Uzviylik - o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning asta-sekinlik bilan kengayib, chuqurlashib, mukammallashib borishini ko‘zda tutadi.

Predmetlararo aloqadorlik - o‘zining mohiyatiga ko‘ra keng tushuncha bo‘lib, o‘rganilayotgan obyektning turli jihatlari va xususiyatlarini har tomonlarga ochib berilishini nazarda tutadi.

O‘zaro aloqadorlik - mohiyatiga ko‘ra ikki o‘quv predmetlari orasidagi aloqadorlikni, ya‘ni birinchi o‘quv predmeti bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim va ish-harakat usullarini ikkinchisida qo‘llashni va aksincha qo‘llanishini ifodalaydi.

Integrativ aloqadorlik - nisbatan yuqori darajali aloqadorlik bo‘lib, avval zikr etilganlaridan o‘quv dasturiga va maqsadga muvofiq kiritilganligi bilan farq qiladi, albatta, uni ta‘minlashni talab etadi. Natijada obyekt haqida tizimli mukammal bilim, ish-harakat usullari shakllanishiga imkon yaratadi.

Predmetlararo aloqadorlik o‘rnatish uchun o‘quv materialini mazmuni mantiqan, psixologik, didaktik, metodik va boshqa jihatlardan tahlil etiladi. Pedagogik amaliyotda o‘quv materialini mavzular bo‘yicha va tarkibiy tahlil etish usullaridan keng foydalaniladi.

O‘quv materialini mavzular bo‘yicha tahlil etish yo‘li bilan turli o‘quv predmetlarini qaysi mavzulari bir-biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o‘quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm va xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o‘rnatiladi.

Xulosa. Aniqlangan predmetlararo aloqadorliklar sxematik jadval, verbal shakllarda qayd etiladi. Predmetlararo aloqadorlikning qanday shaklda qayd etilishi undan foydalanuvchining imkoniyatlariga bog‘liq.

Ta‘lim mazmunini integratsiyalash jarayoni albatta, ilmiy asoslangan bo‘lishi shart. Shuning uchun ham metodik turkum o‘quv fanlarining tanlangan kasbga yo‘nalganligi ta‘minlanadi. Integratsiyalash darajasi qancha yuqori bo‘lsa uni amalga oshirish ham o‘z navbatida shuncha yuqori darajali muammolarni keltirib chiqaradi.

Shuning uchun ham ta‘lim mazmunini integratsiyalash ta‘lim-tarbiya jarayonida muammoli rivojlantiruvchi funksiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Didaktik nuqtai nazardan cheklangan vaqt oralig‘ida bir nechta o‘quv fanlaridan bilimlarni bir butun integrativ tushunchalarni shakllantirish integratsiyaning bir butunlik vazifasini belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. Kuliyeva Shakhnoza, Karimova Makhbuba Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process. International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.
2. Muslimov N.A., Quliyeva Sh.H. Kasb ta’limi o’qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tizimli yondashuvni amalga oshirishga muammoli vaziyatlar. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007. – 54 b.
3. Кулиева Ш., Узоков О., Холматова К. Талабаларнинг креатив қобилиятларини шакллантиришда технологик таълимнинг узвийлигини таъминлаш - педагогик муаммо сифатида Общество и инновации 2 (6), 222-229.
4. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
5. Toshov M. Professional ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. O’quv qo’llanma. T. 2022.
6. Shakhnoza K, Makhbuba K Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process. International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.
7. Kuliyeva SH Improving teaching aids in the training of future technology teachers. International Journal of Early Childhood 14 (03), 2022.
8. El papel de las tecnologías pedagógicas modernas en la formación de la competencia comunicativa de los estudiantes. Halimovna K.S, Nurilloevna M.O, Radzhabovna K.D, Shavkatovna R.G Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades 4 (15), 261-266.
9. Choriyev R.K. Kasb-hunar ta’limi mazmunini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash muammolari. Kasb-hunar ta’lim ilmiy-metodik jurnal №1-2000. 15-b.
10. Haydarov B., Nuridinov B. va boshqalar Ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. – O’MKHTRI. Toshkent.: 2002.- 184b.

YOSHLARDA INFORMATSIYA QABUL QILISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

*Rajabov Otamurod Rayimberdi o‘g‘li,
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Mazkur maqolada talaba yoshlarda axborotlarni qabul qilish madaniyatini shakllantirish mazmuni, psixologik nuqtayi nazardan e‘tibor berilishi lozim bo‘lgan jihatlarini xususida fikr yuritilgan.

***Kalit so‘zlar:** talaba, axborot, madaniyat, g‘arb madaniyati, psixologik immunitet, psixologik himoya, o‘qituvchi, ta‘lim, tarbiya, bilim.*

ФОРМИРОВАНИЕ У МОЛОДЁЖИ КУЛЬТУРЫ ПОЛУЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ

В данной статье рассматривается содержание формирования культуры получения информации у студенческой молодёжи, аспекты, на которые следует обратить внимание с психологической точки зрения.

***Ключевые слова:** студент, информация, культура, западная культура, психологический иммунитет, психологическая защита, учитель, образование, воспитание, знания.*

FORMING THE CULTURE OF RECEIVING INFORMATION IN YOUTH

This article discusses the content of forming the culture of receiving information among young students, the aspects that should be paid attention to from a psychological point of view.

***Key words:** student, information, culture, western culture, psychological immunity, psychological protection, teacher, education, upbringing, knowledge.*

Kirish. Bugungi kunimizni internet tarmoqlarisiz tasavvur qilish amri maholdir. Fan va texnikaning rivojlanishi axborot texnologiyalarining misli ko‘rilmagan darajada taraqqiy etishini tezlashtirib yubordi. Bu hayotimizni yengillashtirishga benihoya tasir ko‘rsatishiga qaramasdan, shu bilan birgalikda u orqali turli salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma‘naviyatini asrash, yosh avlodning ongini turli zararli va yod g‘oyalar ta‘siridan himoya qilish hamda mafkuraviy immunitetini shakllantirish, mustahkamlash singari masalalar alohida e‘tiborga molik hisoblanadi.

Darhaqiqat, yoshlarni turli buzg‘unchi g‘oyalar ta‘siriga olishni xohlaydigan kuchlar juda ko‘p. Shu boisdan, yoshlarni yomon ko‘zlardan asrash, ularning buzug‘ g‘oyalar bilan zaharlanishining oldini olish har doim e‘tiborda bo‘lishi zarur. Sababi yoshlar katta hal qiluvchi kuch va Ona Vatanning kelajagi hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv davrida buzg‘unchi shaxslar internet orqali dunyoning turli joylaridan turib, yoshlarga o‘z g‘oyalarini singdirishga urinishmoqda va afsuski, ayrim yoshlar ularning bu kabi tuzoqlariga tushib qolishyabdi. Masalan, ISHID qisqa vaqt ichida 80 dan ortiq mamlakatdan kelgan kimsalarni o‘z safiga og‘dira oldi.

Qolaversa, din ortiga berkinib, dinni niqob qilib “xalifalik” yo “islom davlati” qurish kabi turli buzg‘unchi g‘oyalarni internet orqali butun dunyoda tarqatishmoqda. Jang maydonlaridagi ta‘sirli lavhalarni internetda tarqatib, odamlar ongiga bosim o‘tkazib, o‘z saflarini kengaytirmoqda. Shuning uchun butun dunyo islom ulamolari nazdida bu kabi da‘volarga ergashish botil ekanligini yoshlar tushunib olishlari zarur. Bunday fitnalar ortida turgan, jangarilar va ularni to‘daboshisini ham boshqarayotdan o‘rtadagi uchinchi shaxslar ham mavjudligini yodda tutishimiz kerak. Ular har ikki tomonni nizo va kurashlar ummoniga tashlab, o‘zlari bundan ustalik bilan g‘arazli maqsadi yo‘lida foydalanayotganlar to‘g‘risida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday fikr bildirganlar: - Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda,[1] ya‘ni endi yovuz xavf-xatarlarning oldini olishda ota-onaga, jamiyatga munosabatda ma‘naviy birdamlik, ijtimoiy-xavf xatarlarning psixologik xavf-xatarlarning holatini tahlil qila olishlari kerak bo‘ladi.

Metodlar. Tadqiqot obyektini sifatida yoshlarni informatсияlarni qabul qilish madaniyatini shakllantirish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va mulohaza. Bugungi kunda axborot olamida Internet, internet-televideniye, internet-radio, elektron pochta, onlayn- video kabi ko‘plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari tez sur‘atlar bilan

rivojlanib, ularning auditoriyasi va taʼsir doirasi tobora kengayib borayotganligiga guvoh boʻlmoqdamiz. Bunday axborot vositalariga asosan yoshlar juda katta qiziqish bilan qarashi va ulardan keng foydalanishini hisobga olsak, haqiqatdan ham, bu masalaning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas. Maʼlumki, aholi oʻrtasida, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, yon-atrofimizda boʻlayotgan voqea-hodisalar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida ommaviy axborot vositalari katta rol oʻynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy taʼlim tizimiga yana bir muhim vazifa — bolalarni turli manbalardan, birinchi navbatda, televizor, Internet va mobil telefoni kabi axborot uzatuvchi vositalardan olinayotgan turli axborotlarni toʻgʻri qabul qila olishga oʻrgatish vazifasi yuklatilmoqda. Farzandlarimiz har qanday axborotlarning sifati va ishonchligini baholay olishlari, axborotlardan toʻgʻri foydalana bilishlari, tanlay olishlari va har bir maʼlumotga tanqidiy yondashishni oʻrganishlari zarur. Shu bilan birga, Internet, televideniye, kino, radio, video, mobil telefoni, turli maʼlumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va maʼlumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan oʻzgartirib, koʻplab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda oʻsib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini taʼminlash muammolarini yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayonda Mediataʼlim oʻquvchini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga oʻrgatib, yoshlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi.

Yoshlarning informatsiyalar bilan ishlash madaniyati nafaqat psixologiyada, balki pedagogika, sotsiologiya, falsafa, axloqshunoslik, madaniyatshunoslik, dinshunoslikda turlicha talqinda oʻrganilmoqda.

Ayniqsa ochiq axborot tizimlari sharoitida axborot madaniyati xorijda va mamlakatimizda turli yondashuvlar asosida oʻrganilgan.

Gʻarb psixologlaridan L.Terman, R. Veys, E.Tiyd, G. Roland, Y. Burgess, M.Odema, P. Boennanlar etnik munosabatlarning psixologik talqinini ochib berishgan boʻlsa, K.Yang, A.Goldberg, M. Griffist, R. Devis, J.Groxol, K. Surrat, P.Shumaxer, J.Moreyxen-Martinlar shaxsning axborot psixologik xavfsizligiga xususiy yondashib, “internet-tobelik” tushunchasini izohlab berishgan.

Oʻzbekistonlik faylasuf, sotsiolog, pedagog siyosatshunos olimlari Q.Nazarov [10], V. Alimasov, A.Erkayev, G.Tulenova, kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tarixiy milliy qadriyat shakllanishi, milliy ong vatan tuygʻusini ongli his qilishga munosabatning yuzaga kelishi va “ommaviy madaniyat”ning salbiy omillari haqida toʻxtalib oʻtadilar.

“Axborot madaniyati” tushunchasi ikkita fundamental tushuncha: axborot va madaniyat tushunchalariga asoslanadi. Bundan kelib chiqib, bu tushunchani talqin qilishning “madaniyat” va “axborot” yondashuvlariga ajratib qarashlar mavjud. Madaniyat yondashuvi doirasida axborot madaniyatini axborotlashgan jamiyatda insonning yashash faoliyati usuli sifatida, insoniyat madaniyati shakllanishi jarayonining tashkil etuvchisi sifatida qaraladi. Axborot yondashuvi doirasida esa unga axborot talabini qondirishga qaratilgan barcha axborot faoliyati bilimlari majmuasi sifatida qaraladi.

Soʻnggi vaqtlarda esa axborot madaniyati tushunchasini shaxsning axborot va madaniyat komponentlarining integratsiyalashuvi vaziyatida yaxlit qarash tendentsiyasi kuchaymoqda. Buning natijasida esa axborot madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qirrası sifatida qaralmoqda. Aynan ana shu qarash axborot madaniyatining asl mohiyatini ochib berishga imkon beradi.

Axborot madaniyati shaxsning oʻquv, ilmiy-bilish, mustaqil taʼlim olish, dam olish va boshqa koʻrinishli faoliyati jarayonida paydo boʻladigan axborotga boʻlgan ehtiyojini qondirishga yoʻnaltirilgan, shaxsiy axborot faoliyatini samarali tashkil qilishni taʼminlaydigan bilimlar, malaka va koʻnikmalarning tizimlashtirilgan majmuasidir. Umuman olganda, axborot madaniyati axborotdan samarali foydalanish bilim va koʻnikmalari boʻlib, kerakli axborotni axborot resurslaridan axborot texnologiyalarining barcha koʻrinishlari (kompyuter va Internet tarmogʻi texnologiyalari) orqali qidirishning turli xil bilimlaridan iborat.

Bu taʼrifdan kelib chiqib, axborot madaniyatiga nima uchun ehtiyoj sezamiz degan savolga javob qidiraylik. Jamiyatda axborotning qimmatı ortib, u sanoat jamiyatidan axborotlashgan jamiyatga aylanib bormoqda. Hozirgi hayotning oʻta oʻzgaruvchanligi axborotlashgan jamiyatda bir qator yangi atributlarni yuzaga keltiradi: Axborot va bilim jamiyatning asosiy oʻzgartiruvchi kuchiga aylanadi; Ishlab chiqaruvchi va ijtimoiy texnologiyalarning yangilanish sikli 6-8 yilni tashkil etib, avlodlar almashinishi suratidan oʻzib ketadi; Uzluksiz taʼlim va yangi ixtisoslik olishga qobiliyat shaxsning ijtimoiy statusini saqlab qolishning ajralmas qismiga aylanadi; Har bir insonning taqdiri yangi axborotni oʻz vaqtida topish, olish, bir qiymatli qabul qilish va samarali foydalanish qobiliyatiga bogʻliq boʻladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining axborotlashgan jamiyatga qadam qoʻyishi — insonlarni yangi hayot sharoitiga va yuqori avtomatlashtirilgan axborot muhitida professional faoliyatga oʻz vaqtida tayyorlash, bu muhitda mustaqil ravishda harakat qilishga, muhit imkoniyatlaridan samarali foydalanish va salbiy

ta'sirlardan himoyalanişga o'rgatish kabi jiddiy muammolarni yuzaga keltira boshladi. Axborotlashgan jamiyat shakllanishidagi muammolar, avvalambor bu jamiyatda inson o'zni muammosi bugungi kunda xalqaro hamjamiyatning diqqat markazidagi mavzu bo'lmoqda. Axborotlashgan jamiyatda insonlarni hayotga maxsus tayyorlash zarurati nufuzli xalqaro tashkilotlarning sammitlarida ko'rib chiqilib, maxsus dasturlar qabul qilinmoqda. Bunga misol sifatida YUNESKO ning “Axborot hamma uchun” dasturi va IFLA ning “Axborot savodxonligi” bo'limi faoliyatini keltirish mumkin. Keltirilgan muammolar mazmuniy jihatdan axborot madaniyati ta'rifida o'z aksini topganligini ko'rish qiyin emas.

Yoshlarimizning axborot bilan ishlash, axborot qidirish, turli yolg'on ma'lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish, do'stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishni o'rganish kabilar asosida axborot madaniyati shakllanadi. Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchi aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda axborotlarni tahlil qila olish, axborotdagi asosiy xabarni ajratish, aloqaning yo'nalishini, uning yashirin ma'nosini to'g'ri tushunish, qisqa qilib aytganda, har qanday axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'limning barcha bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogikasida mediata'lim tushunchasi asosiy o'rinlardan birini egallasada, mediata'limga aniq tavsif berilmagan. Hozirgi kunda, mediata'lim resurslaridan butun dunyoda keng foydalanilmoqda. YUNESKO tashkilotining 1982-yil Germaniyaning Gryunvald shahrida, 1997-yil Parijda, 2002-yil Ispaniyaning Sevilya shahrida o'tkazilgan konferensiyalari rezolyutsiya va tavsiyalarida mediata'lim masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilsa, Finlyandiyada 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritilgan. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik mediata'lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. 1990-yillarda Rossiyada mediata'lim bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. 2002-yilda pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun mediata'lim ixtisosligi bo'yicha yo'nalish ochildi. Shuningdek, 2005-yil YUNESKO homiyligida «Mediata'lim» darsligi yaratildi va Rossiyada kinota'lim va mediapedagogika sayti ishga tushirildi. Mediasavodxonlik alohida bir fan sifatida kiritilmagan bo'lsada, Respublikamiz umumta'lim maktab-larida ham mediata'lim elementlari «Adabiyot», «Tarix», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari», «Informatika» va «Musiqqa» fanlari tarkibiga singdirilgan holda o'qitilmoqda. Umuman, ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri — yosh avlodga zamonaviy bilim berish bilan birga, ularni mustaqil fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlovchi, yuksak insoniy fazilatlariga ega vatanparvar inson sifatida tarbiyalash hamda yoshlar ongida turli mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan, xususan, Internetdan foydalanish, axborotlarni tahlil etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish muhim masala hisoblanadi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga Internetdan foydalanish uchun ko'plab vaqt ajratar ekan. Biroq bugungi kun talabiga ko'ra esa, zarur axborot va ma'lumotlarni keraksiz va yaroqsiz, soxtalaridan ajrata olish, ya'ni mediasavodxonlikka ega bo'lish zarurati yuzaga keldi. Avvalo, mediasavodxonlikning o'zi nima, nega unga bugun dunyo bo'ylab talab ortib bormoqda kabi savollariga javob topish lozim. Chunki so'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi.

«Media» — lotincha «media» so'zidan olingan bo'lib, «vosita», «vositachi» yanada aniqrog'i, «ommaviy axborot vositalari» degan ma'noni anglatadi. Shundan 3-Tashabbus (aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan)ni uni bajarilishni ta'minlash maqsadida Jismoniy madaniyat fakultetining Bir guruh talabalariga mutaxassislar bilan hamkorlikda ajoyib tadbir tashkil etildi.

Media uzluksiz ta'lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli o'tilishi va o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, modem, foto, video, kompyuter texnologiyalari, Internet bilan do'stlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi. «Lekin media yaxshilik bilan bir qatorda, yovuzlikka ham xizmat qilishga qodir. Bugun «o'rgimchak odam»ga havas qilib, o'zini pastga otgan bolalar, reklamalarda berilayotgan barcha axborotlarga ishonuvchi shaxslar, yot g'oyalarga ergashib ketayotgan kimsalar ham bor», — deydi jurnalist o'z fikrining davomida. Bugungi axborot muhitini tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda avvalo, OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan,

kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapti, o‘zida kimning manfaatlarini aks ettiryapti degan tushunchalarni shakllantirish lozim. Mohiyati o‘rganilmagan, yolg‘on tarqatilyotgan xabar va axborotlarning hayotimizni tubdan o‘zgartirib yuborishi muqarrardir. Yuqoridagi maqolada: «Aynan axborotni tahlil etmay, o‘z holicha qabul qilish oqibatida, dunyoning turli chekkalarida yoshlar jinoyatga qo‘l urmoqda, o‘zini kino qahramoni sifatida his qilganlar esa, «qahramon» xatti-harakatlarini takrorlagan holda qo‘llariga qurol olib, begunoh insonlar hayotiga zomin bo‘lishmoqda. ...Demak, aynan ana shu holatlarning oldini olish, axborotga ongli ravishda yondashish bugun zamon talabidir» — degan satrlar bayon etilgan. Qayd etganimizdek, globallashuv, global axborot jamiyati shakllanishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avvalambor, Internet bolalar va o‘smirlar rivojlanishiga ta‘sir etuvchi muhim omilga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya, internet-texnologiyalarining jamiyat hayotining barcha sohalariga keng miqyosda joriy etilishi yoshlarni axborot sohasidagi xavf-xatarlardan himoya qilish, chetdan kirib kelayotgan mafkuraviy xurujlardan, ularning ongini buzg‘unchilik ta‘siridan saqlash masalalarining dolzarbligini kuchaytirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o‘yinlari foydalanuvchilari, video va kinomahsulot iste‘molchilari ularning jismoniy va ma‘naviy-axloqiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi axborotlarga duch kelayotgan holatlari uchramoqda.

Bu borada, Germaniyada ushbu masalalar Yoshlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun, Inson qadr-qimmatini himoya qilish to‘g‘risidagi hamda teleradioeshittirish va telemediasizmatlar sohasida yoshlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi davlat shartnomalari orqali tartibga solinadi. Nosog‘lom axborot oqimlaridan yoshlarni himoyalashga oid dunyoda qator huquqiy mexanizmlar yaratilgan. Jumladan, xalqaro amaliyotda «Kiber jinoyatlar to‘g‘risida» Konvensiya, «Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to‘g‘risida» Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, «Bola huquqlari to‘g‘risida» BMT Konvensiyasini, «Yoshlarni himoyalash to‘g‘risida» Germaniya, «Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta‘siridan himoyalash to‘g‘risida» Litva va «Bolalarni sog‘lig‘i va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotdan himoyalash to‘g‘risida» Rossiya qonunlarini tilga olish mumkin. Ma‘lumki, milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog‘lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud.

Xususan, «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi Qonunda «O‘zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo‘ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi», «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunda «Pornografiya, shafqatsizlik va zo‘ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta‘sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi» belgilab berilgan. Tezkor Internet orqali qabul qilinayotgan, axborotlarning aksariyat foydalanuvchilari yoshlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Faxriddin Soliyevning «Internetdan foydalanish madaniyati» maqolasida shunday deyiladi: Global axborot makoniga real ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsak, hozirda keng jamoatchilikni xavotir va tashvishga solib kelayotgan muammolardan biri, shubhasiz, axborot makonida «nosog‘lom» manfaatlar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ta‘siridagi axborotlarning (o‘z joniga qasd qilishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi 9 ming, axloqsiz mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlar, kompyuter o‘yinlari zo‘ravonlik va yovuzlik, o‘ta jangari ruhdagi (beshafqat urushlar, o‘ldirishlar, otishmalar va hokazo) Internet saytlari mavjudligi), milliy axborot makonimizga kirib kelishidir.

Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchilarda shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish ijtimoiy-emotsional aql, empatiya va madaniy kompetensiyani tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchilar o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, sinfda o'ziga tegishlilik, hamdardlik va xilma-xillikka hurmat hissini tarbiyalaydi. Pedagoglar bu fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda o'quvchilar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi, ta'lim muassasalarida hissiy aql, shaxslararo munosabatlar va axloqiy qarorlar qabul qilish muhimligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari "Lifelong learning" konsepsiyasi asosida individual o'sish, kasbiy rivojlanish va ta'lim mukammalligi o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot uzluksiz ta'lim kontekstida shaxs rivojlanishining nazariy asoslarini o'rganib, bo'lajak o'qituvchilar ta'limning doimiy rivojlanib borayotgan manzarasida o'stirishlari kerak bo'lgan muhim sifatlar, malakalar va moyilliklarni yoritishga qaratilgan.

Adabiyot tahlili. Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi va bo'lajak o'qituvchilar uchun asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish turli tadqiqotlarda o'rganilib, dinamik ta'lim muhitida o'qituvchilarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muhim fazilatlar va moyilliklarga oydinlik kiritildi. Sahin, Akbasli, and Yelken (2010) uzluksiz ta'lim uchun asosiy kompetensiyalarning ahamiyatini, xususan, bo'lajak o'qituvchilarga e'tibor qaratishini ta'kidlaydi. Ularning o'rganishlari kelajakdagi o'qituvchilarni uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirish va moslashish, uzluksiz ta'lim tamoyillariga moslashish uchun zarur ko'nikma va sifatlar bilan jihozlash muhimligini ta'kidlaydi [3].

Xuddi shunga o'xshash tarzda, Cendon (2018) universitetlarda uzluksiz ta'lim sohasiga kirib, o'qitish va o'rganish uchun kelajak istiqbollarini taklif qiladi. Muallif talabalar va o'qituvchilar o'rtasida uzluksiz ta'limni rivojlantirishda universitetlarning o'zgaruvchan rolini ta'kidlab, innovatsion pedagogik yondashuvlar va kasbiy rivojlanishga intilish zarurligini ta'kidlaydi. Bu nuqtai nazar universitetlar o'qituvchilarning uzluksiz ta'lim madaniyatini tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi, degan tushunchaga mos keladi [4].

Pilli, Sönmezler va Gökten (2019) o'qituvchilarning uzluksiz o'sish va rivojlanishga sodiqligini shakllantiradigan munosabat va motivatsiyalar haqida tushuncha berib, o'qituvchilarning uzluksiz ta'limga bo'lgan tendentsiyalari va tasavvurlarini o'rganadi. Ularning tadqiqoti bo'lajak o'qituvchilarda uzluksiz ta'limga ijobiy munosabatni shakllantirish muhimligini ta'kidlab, ta'lim muassasalarining uzluksiz ta'lim tafakkurini tarbiyalashdagi rolini ta'kidlaydi [5].

Chiřba (2012) an'anaviy universitetlar uchun uzluksiz ta'lim muammolari va imkoniyatlarini o'rganib, ta'lim muassasalarining bilim iqtisodiyotining o'zgaruvchan talablariga moslashishi zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda o'qituvchilar ta'limi dasturlarining dolzarbligi va samaradorligini ta'minlash uchun universitetlarning o'quv rejasi va pedagogik amaliyotiga uzluksiz ta'lim tamoyillarini kiritish muhimligi ta'kidlangan [6]. Maksvell (2014) Buyuk Britaniyadagi uzluksiz ta'lim sektori stajyor o'qituvchilari uchun ish joyida ta'limni yaxshilashga e'tibor qaratadi va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini oshirishda ish joyidagi tajribalarning rolini ta'kidlaydi. Tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarni o'z rollarida ustunlik qilish uchun zarur ko'nikma va malakalar bilan jihozlashda tajribali o'rganish, murabbiylik va reflektiv amaliyot muhimligini ta'kidlaydi.

Birgalikda bu tadqiqotlar bo'lajak o'qituvchilar uchun uzluksiz ta'limning nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini har tomonlama ko'rib chiqishga, doimiy ravishda rivojlanib borayotgan ta'lim sohasida o'qituvchilarda tarkib toptirish zarur bo'lgan muhim fazilatlar, malaka va qobiliyatlarni yoritadi.

Metodlar. "Lifelong learning" konsepsiyasi doirasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, doimiy ravishda takomillashtirib borishda xalqaro hamda milliy dastur tajribalar asosida bir qator ta'lim

"Lifelong learning" konsepsiyasi ta'lim metodlari mazmuni

№	"Lifelong learning" konsepsiyasi ta'lim metodlari	Yo'nalishlar
1	Ochiq va masofaviy ta'lim	-onlayn kurslar, -vebinarlar, -masofaviy o'qitish platformalari.
2	Aralash ta'lim	-an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari va onlayn o'qitish birlashgan yondashuv; -mustaqil o'rganish, amaliy ishlar va o'qituvchi yordamidagi ta'lim.
3	Ishlab chiqarish shaklidagi o'qitish	-korxonada va tashkilotlardagi amaliy o'qitish; -kasbiy malaka oshirish; -kadrlar malakasini rivojlantirish.
4	Muammoli va loyihaviy o'qitish	-o'quvchilar tomonidan mustaqil muammolarni hal qilish; -loyihalar ustida ishlash, natijalarni taqdimot qilish.
5	Ijtimoiy ta'lim	-guruhli ishlar, hamkorlikdagi o'qitish; -tajribalarni o'rtoqlashish; -o'zaro yordam.
6	Evristik va individual yondashuv	-kreativ va o'ziga xos yondashuvlarni rivojlantirish; -o'quvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirish.
7	Andragogik yondashuv	-katta yoshdagi o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlariga moslashgan o'qitish; -o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi; -tajriba va ehtiyojlarni inobatga olish.
8	Tajriba asosida o'qitish	-o'quvchilarning amaliy va hayotiy tajribalariga tayangan o'qitish; -yangi bilim va ko'nikmalarni mavjud tajribalar bilan bog'lash.
9	Refleksiv yondashuv:	-o'quvchilarning o'z o'quv faoliyatini anglash va tahlil qilishi; -o'z-o'zini baholash, o'quv olqishlarini kuzatish va takomillashtirish.
10	Interfaol o'qitish	-o'quvchilar o'rtasidagi faol muloqot va o'zaro hamkorlik; -o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi mashg'ulotlar.
11	Faol va motivatsiyalashgan o'qitish	-o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni faollashtirish; -qiziqarli, mashg'ulotlarni tashkil etish.
12	Tafakkurni rivojlantiruvchi yondashuv	-tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish; -muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish.
13	Kompetensiyaviy yondashuv	-o'quvchilarning amaliy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish; -kasbiy va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish.
14	Modulli o'qitish	-o'quv materiallarni mustaqil o'rganiladigan modullar shaklida taqdim etish; -o'quvchilarning o'z sur'atida o'rganishlariga imkon berish.
15	Elektron ta'lim resurslari	-multimediali o'quv materiallari, interaktiv simulatsiyalar; -onlayn testlar, baholash tizimi va ma'lumot bazalari.

Bu bu tizimli qo'llanilgan bu metodlar "lifelong learning" tamoyillariga to'liq mos keladi va uzluksiz ta'lim jarayonini yanada samarali qilishni ta'minlaydi. Ushbu metodlar "lifelong learning" konsepsiyasining asosiy tamoyillariga mos kelib, yangi, texnologik va faol yondashuvlarini aks ettiradi hamda uzluksiz ta'limni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot o'qituvchilarning uzluksiz ta'limga oid tasavvurlari va tajribalarini o'rganish uchun sifatli tadqiqot loyihasi qabul qiladi. Sifatli usullar ishtirokchilarning dunyoqarashi, munosabati va xulq-atvorini chuqur o'rganish imkonini beradi, tekshirilayotgan hodisa haqida boy va nozik tushunchalarni beradi.

Ushbu tadqiqot ishtirokchilari turli universitetlarda o'qituvchilar tayyorlash dasturlarida tahsil olayotgan o'qituvchilardan iborat. Maqsadli tanlab olish usuli uzluksiz ta'lim bilan bog'liq turli xil kelib chiqishi, tajribalari va istiqbollari ifodalovchi ishtirokchilarni tanlash uchun qo'llaniladi. Qo'shilish mezonlari o'qituvchilar ta'lim dasturining so'nggi yilida bo'lish va tadqiqotda ishtirok etish istagini o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlar yig'ish. Ma'lumotlar ishtirokchilar bilan yarim tuzilgan suhbatlar orqali to'planadi. Suhbatlar ishtirokchilarning uzluksiz ta'limga oid tasavvurlari, ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishga jalb qilish motivlari va uzluksiz ta'lim tafakkurini tarbiyalashda duch keladigan muammolar haqida ochiq va samimiy munozaralar o'tkazish uchun yakka tartibda o'tkaziladi. Ma'lumotlarni transkripsiyalash va tahlil qilishda aniqlikni ta'minlash uchun suhbatlar ishtirokchilarning roziligi bilan audioyozuvga olinadi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish. Intervyu ma'lumotlaridagi mavzular va toifalarni aniqlash uchun tematik tahlil qo'llaniladi. Transkript o'qituvchilarning uzluksiz ta'lim bilan bog'liq takrorlanadigan g'oyalar, tushunchalar va istiqbollarni ochish uchun kodlanadi va tahlil qilinadi. Tahlil takrorlanuvchi va tizimli bo'lib, topilmalarning qat'iyligi va ishonchiligi ta'minlash uchun kodlash, turkumlash va izohlashning bir necha bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Natijalar. Tadqiqot turli millat va o'qituvchilar ta'limi dasturlari bo'yicha jami 20 nafar o'qituvchilarni o'z ichiga oldi. Ishtirokchilarning demografik ma'lumotlari jinsning mutanosib vakilligini ko'rsatdi, 50% erkaklar va 50% ayollar ishtirokchilar. Ishtirokchilarning yosh diapazoni 22 yoshdan 30 yoshgacha, o'rtacha yoshi 25,5 yoshni tashkil qildi. Ishtirokchilarning ko'pchiligi o'qituvchilar ta'limi dasturlarining so'nggi yilida bo'lib, turli darajadagi oldingi o'qitish tajribasi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlariga ega edi.

Suhbat ma'lumotlarining tematik tahlili o'qituvchilarning uzluksiz ta'lim haqidagi tasavvurlari va tajribalari bilan bog'liq bir qancha asosiy mavzularni aniqladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida quyidagi mavzular paydo bo'ldi:

1. Uzluksiz ta'lim uchun motivatsiyalar: Ishtirokchilar uzluksiz kasbiy rivojlanish va uzluksiz ta'lim bilan shug'ullanish uchun kuchli ichki motivatsiyani bildirdilar. Ular ta'limning hozirgi tendensiyalaridan xabardor bo'lish, ularning o'qituvchilik mahoratini oshirish va o'zgaruvchan ta'lim landshaftlariga moslashish uchun o'sish tafakkurini rivojlantirish muhimligini ta'kidladilar.

2. Uzluksiz ta'lim yo'lidagi to'siqlar: Ularning uzluksiz ta'limga bo'lgan ishtiyoqiga qaramay, ishtirokchilar ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qancha to'siqlarni aniqladilar. Umumiy to'siqlar orasida akademik majburiyatlar tufayli vaqt cheklovlari, kasbiy rivojlanish resurslariga kirish uchun moliyaviy cheklovlar va davom etayotgan ta'lim imkoniyatlari uchun institutsional yordamning etishmasligi kiradi.

3. Umrbo'yu ta'limning o'qituvchilik amaliyotiga ta'siri: Ishtirokchilar uzluksiz ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishlari o'zlarining o'qitish amaliyotiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatganini aytib berishdi. Ular o'qitishning innovatsion strategiyalarini amalga oshirish, texnologiyani o'z darslariga integratsiyalash va o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondiradigan inklyuziv o'quv muhitini yaratishga ishonchi ortgani haqida xabar berishdi.

Ishtirokchilarning demografik ko'rsatkichlari va ularning uzluksiz ta'lim haqidagi tasavvurlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun miqdoriy ma'lumotlar tahlili o'tkazildi. Korrelyatsiya tahlili ishtirokchilarning yoshi va ularning uzluksiz ta'lim olish motivatsiyasi o'rtasida sezilarli ijobiy korrelyatsiyani aniqladi ($r = 0,65$, $p < 0,05$). Keksa ishtirokchilar yosh ishtirokchilarga qaraganda uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun yuqori motivatsiyani namoyon etishdi.

Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning ta'lim samaradorligini oshirish va kasbiy o'sishini ta'minlash uchun o'qituvchilar o'rtasida uzluksiz ta'lim madaniyatini shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi. Belgilangan mavzular o'qituvchilar ta'limi dasturlari va ta'lim muassasalari uchun uzluksiz ta'limga to'siqlarni bartaraf etish va bo'lajak o'qituvchilar orasida uzluksiz ta'lim tafakkurini rivojlantirish uchun moslashtirilgan yordam mexanizmlarini ishlab chiqish uchun qimmatli tushunchalarni beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi o'qituvchilar o'rtasida uzluksiz ta'lim madaniyatini shakllantirishning muhim rolini ta'kidlaydi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish yo'lidagi motivlar va to'siqlarni tan olish va bartaraf etish orqali o'qituvchilarning ta'lim dasturlari bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ta'lim oluvchilar bo'lish yo'lida yaxshiroq qo'llab-quvvatlashi mumkin. Moslashuvchan ta'lim imkoniyatlari, moliyaviy yordam va murabbiylik dasturlari kabi strategiyalar doimiy o'rganish va o'sish uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi. Uzluksiz ta'lim tamoyillari va amaliyotlarini o'qituvchilar ta'limining o'quv dasturlariga integratsiyalashuvi o'qituvchilarni uzluksiz ta'lim tafakkurini qabul qilishga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini boshqarish, aks ettirish amaliyoti va hamkorlikdagi ta'lim hamjamiyatlari modullarini o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar ta'limi dasturlari o'qituvchilarni kasbiy faoliyati davomida uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va munosabatlar bilan jihozlashi mumkin [7].

Pedagoglar o'rtasida uzluksiz ta'limni rivojlantirish uchun o'qituvchilar ta'lim muassasalari va maktablar o'rtasidagi hamkorlik juda muhimdir. Seminarlar, seminarlar va murabbiylik dasturlari kabi doimiy kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yo'lga qo'yadigan hamkorlikni yo'lga qo'yish maktablarda o'qitish va ta'lim sifatini oshirishi mumkin. O'quv jamoalarining qo'llab-quvvatlovchi tarmog'ini yaratish orqali o'qituvchilar hamkorlikdagi amaliyotlarda ishtirok etishlari va talabalar natijalarini yaxshilash uchun ilg'or tajribalarni almashishlari mumkin.

Xulosa. Ushbu tadqiqot o'qituvchilarning uzluksiz ta'lim motivlari, to'siqlari va tasavvurlarini yoritib beradi. Natijalar bo'lajak o'qituvchilarni 21-asr sinfi talabalariga tayyorlash uchun o'qituvchilar ta'limi dasturlarida uzluksiz kasbiy rivojlanish madaniyatini tarbiyalash muhimligini ta'kidlaydi. Aniqlangan to'siqlarni bartaraf etish va uzluksiz ta'lim uchun ichki motivatsiyalardan foydalanish orqali institutlar o'qituvchilarga o'qitish samaradorligini oshirish va ta'lim tizimini umumiy takomillashtirishga hissa qo'shishlari mumkin. Oldinga qarab, o'qituvchilar ta'limi dasturlari va

ta'lim muassasalari uchun uzluksiz ta'lim tashabbuslariga ustuvor ahamiyat berish va o'qituvchilarni kasbiy faoliyatining barcha bosqichlarida doimiy qo'llab-quvvatlash zarur. Bir umrlik ta'lim oluvchilar hamjamiyatini rivojlantirish orqali biz o'qituvchilarning o'quvchilar va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlar bilan jihozlanishini ta'minlashimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Safarovich, Q. O., Jumaboyevich, S. O., & Maxmaisoyevich, S. A. (2022). Uzluksiz ta'lim tizimida pedagog-psixologlarning innovation kompetentligini takomillashtirish. // Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi, 821-825.
2. Axmadjonova, M. F., & Xaydarov, M. E. (2022, April). Uzluksiz ta'lim tizimida menejerlik kompetentsiyasini rivojlantirish masalalari. In E Conference Zone (pp. 185-187).
3. Sahin, M., Akbasli, S., & Yelken, T. Y. (2010). Key competences for lifelong learning: The case of prospective teachers. // Educational Research and Reviews, 5(10), 545.
4. Cendon, E. (2018). Lifelong learning at universities: Future perspectives for teaching and learning.
5. Pilli, O., Sönmezler, A., & Göktan, N. (2019). Pre-service teachers' tendencies and perceptions towards lifelong learning. // European Journal of Social Science Education and Research, 6(1), 153-164.
6. Chiřiba, C. A. (2012). Lifelong learning challenges and opportunities for traditional universities. // Procedia-social and behavioral sciences, 46, 1943-1947.
7. Qodirov, X. O., Norinov, M. U., & Ergashev, A. A. (2023). Uzluksiz ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasining insonparvarlashuv xususiyatlari. // Research and implementation, 1(6), 45-50.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING TASHKILY TUZILMALARI

*Abdullayeva Gulmira Abdullayevna,
Ajjiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida assistent o‘qituvchisi*

Boshlang‘ich sinf o‘qish hamda ona tili darslari davomida o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish o‘ziga xos texnologiya talab etuvchi yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu jarayonni tashkillashtirishda olib borish mumkin bo‘lgan metodologik jarayonlarning ilmiy jihatlarini ko‘rib chiqiladi. Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili hamda o‘qish darslarida olib boriladigan faoliyat turlari muhokama etiladi. Shuningdek, ayrim logopedik jihatlar ham maqolada tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, izohli o‘qish, ko‘nikma, metod, tahlil, texnologiya, ona tili.

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ СТРУКТУРЫ ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ У НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Формирование навыков чтения на занятиях по чтению в начальной школе и на родном языке – направление, требующее уникальной технологии. В данной статье рассматриваются научные аспекты методических процессов, которые могут осуществляться в этом процессе. В статье рассматриваются виды деятельности, проводимые в начальных классах на уроках родного языка и чтения. В анализе статьи задействованы и некоторые логопедические аспекты.

Ключевые слова: начальный класс, интерпретационное чтение, навык, метод, анализ, технология, родной язык.

ORGANIZATIONAL STRUCTURES OF TECHNOLOGY FOR IMPROVING PRIMARY CLASS READING SKILLS

Formation of reading skills during primary school reading and mother tongue classes are the direction that requires a unique technology. In this article, the scientific aspects of the methodological processes that can be carried out in this process are considered. The article discusses the types of activities carried out in the primary grade mother tongue and reading classes. Some logopedic aspects are also involved in the analysis of the article.

Keywords: elementary class, interpretive reading, skill, method, analysis, technology, mother tongue.

Kirish. “Boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat ta‘lim standarti” ga ko‘ra boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarning ona tili va o‘qish savodxonligi ta‘limi sohasi bo‘yicha tayyorlik darajasiga qo‘yiladigan talablar quyidagi uch parametrlil standart mezon orqali aks ettiriladi:

- a) o‘qish texnikasi;
- b) o‘zgaralar fikrini va matn mazmunini anglash;
- c) fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O‘qish texnikasi bolaning savodxonlik, yozma nutq belgilarini talaffuzda ifodalash ko‘nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr orqali o‘quvchining notanish bo‘lgan matnni ifodali o‘qiy olish ko‘nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko‘rsatkich sifatida ifodali o‘qish tezligi, ya‘ni berilgan matndan bir daqiqada nechta so‘z o‘qiy olish ko‘rsatkichi belgilangan. Sinfdan sinfga o‘tishda, miqdoriy ko‘rsatkichdagi belgilar soni oshishi bilan birga, berilgan matnni o‘qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi [1, B.5-6].

Adabiyotlar sharhi. O‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, yaxshi o‘qish malakalarini shakllantirish muammosi pedagogik jarayonning eng muhim muammolaridan biri bo‘lib kelgan. G.S.Kovaleva, E.A.Krasnovskiy, P.P.Blonskiy, D.B.Elkonin, N.A.Menchinskaya, L.Slavina, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish faolligini rivojlantirish muammolari bilan shug‘ullanishgan. Ushbu muammolar ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar M.Koul, J.Morton va boshqalar tomonidan ham ko‘rib chiqilgan.

Respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida mustaqil fikrlashga o'rgatish masalalari Y.Bobomurodova, R.Ibragimov, Sh.U.Nurullayeva, A.Q.Nisanbayeva, M.Z.Hamdama, innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi U.A.Masharipova, umumta'lim maktablarining yuqori sinf ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish masalalari N.G.Alovuddinova, T.U.Ziyodova, O.Oxunjonova, M.Saidov, N.X.Sattorova, R.G.Safarova, X.Q.Shoymardonov, Sh.J.Yusupova, N.A.Qosimova kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.

Natijalarni to'plashda ota-onalarga beriladigan anketa savollari quyidagilardan iborat.

1. Siz farzandingizni o'qishga tayyorgarlik jarayonini necha yoshdan boshlagansiz? (1 yoshgacha davrdagi bola bilan muloqot: kichik she'rlarni o'rgatish, sanamalarini o'rganish, nutq va harakat birligi, rasmlarni kuzatish, kitob o'qish, teleko'rsatuvlarni ko'rish, uydagi jihozlar haqidagi savollarga javob berish.)

2. Bolaning yoqtirgan she'ri, qo'shig'i, kitobi bormi (yoqtirgan kitobiga tez-tez qaytadimi, o'zi mustaqil ko'rib chiqadimi, yoki kattalar ko'magidan foydalanadimi)?

3. Bola ko'proq nimani yoqtiradi – kitob, kino, multfilm ko'rishnimi yoki ertak, hikoya, she'r tinglashnimi?

4. Ota-onalar bola bilan ko'rgani (kitob, rasm, filmlar) va eshitganlari (ertak, hikoya) haqida suhbat o'tkazishadimi?

5. Bolada o'qishga bo'lgan qiziqish necha yoshda paydo bo'lgan, kattalardek o'qishga taqlid jarayoni kuzatilganmi?

6. Bola maktabgacha davri qanday o'tgan MTTga borganmi, savodga o'rgatilganmi, kim tomonidan va qancha muddat davomida?

7. Maktabga kelgan vaqtida o'qishni bilganmi?

8. Bolaning somatik holati (kasal bo'lish davri, va interval)

9. Birinchi sinfning birinchi ikki oyli davrida va o'quv yili davrida necha soat dars qoldirgan.

Bolaning ilk rivojlanish davri to'g'risidagi to'plangan ma'lumotlar asosida mutaxassis bolaning nutqiy imkoniyatlari, nutqiy holati hamda bolaga tegishli ko'rgazmalarni tanlash bo'yicha xulosaga ega bo'ladi (ko'rgazmadan, AKTdan og'zaki va hokazo).

Bolaning o'qishga qiziqish davri uning ruhiy holatining tayyorligini baholaydi. Bola katta bo'lgan muhit uy - buva, buvi, ota-ona; maxsus MTT, yoki MTT ekanligi mutaxassisga bolaning nutqiga ta'sir ko'rsatgan faktorlar haqida tassavurni beradi. Bolaning somatik holatini inobatga olgan holda mutaxassis bola bilan korreksion rivojlantiruvchi ishni tashkil etishda inobatga olgan holda yondashadi.

Bolaga ta'sir etuvchi nutqiy faktorlarni inobatga olgan holda mutaxassis o'quvchining o'qish malakalarini tekshirishga o'tadi. Shartli ravishda mutaxassis diagnostik - korreksion ishni rejalashtiruvchi va tashkillashtiruvchi bosqichlarni qamrab oladi. Birinchi davrda bular ikki bosqichda tavsia etiladi [1, B.6].

Birinchi suhbat va muloqot jarayoni o'ta muhim sanaladi, shuning uchun tekshirish jarayonida topshiriqni tushuntirib, namuna shaklidagi javoblar bilan ko'maklashib, xushmomalalik bilan yondashib, bolani keyingi jarayonlarga jalb etish nazarda tutiladi. Birinchi qadamlardan boshlab bolaning qabul qilish, topshiriqni oxiriga yetkazish holatlarini o'rganish olib boriladi.

1-topshiriq. O'qing (harflarni o'qing: avval bosma keyin yozma shaklni)

a - o - u - i m - v - t - p r - l - m - n
a - o - u - i m - v - t - p r - l - m - n
A - O - U - I M - V - T - N R - L - M - N

2-topshiriq. Intervalga rioya qilgan holda harflarni o'qi.

sh - t, b - k, n - t
s - l, d - v, q - ch
(Nozik differentsatsiya)
j - z, sh - s, r - l, m - n,
k - x, g - k, ch - s - z
s,

3 - topshiriq. O'qi hamda harflarni yozma va bosma, bosh va kichik shaklini nomla.

j - z Sh - s R - L M - N K - N
K - x G - k Ch - s Sh - s V - f

4– topshiriq. Unli va undosh harflarni nomla. Bo‘g‘inlarni o‘qi.

um-	eq-iq	ob-o‘b
o‘m		
im-	pe-pi	bo-bo
yem		
mi-	qa-qo	do-do
me		

5– topshiriq. So‘zdagi yozma *a, u, n, ch* harflarni top va ko‘rsat. Firdavs bilan Malika maktabga kelishdi.

Rustam aka mashinasiga gaz berdi. Yomg‘ir birdaniga kuchaydi.
Shuchoq qo‘ngiroq chalindi.

6– topshiriq. Berilgan bosma harflarning yozma shaklini yoz. *A, u, m, n, v, t, k, l, b, d, ch, s.*

7– topshiriq. Berilgan yozma harflarning bosma shaklini ko‘rsat (bosma harflar beriladi).

G, J, z, I, O, P, r, s, F, x, sh, Ye, R, I, p, m.

8– topshiriq. O‘qituvchi tovushlarni nomlaydi o‘quvchidan mos rasmni ko‘rsatish talab etiladi.

Tovushlar

k, o‘, z

s, t, o, l

m, a, k, t, a, b mashina, manti, maktab

Rasmlar

ko‘z, ko‘za, kitob

stul, stol, soat



9– topshiriq. Rasmni nomla, so‘zdagi tovushlarni ketma-ketlikda ayt. (Ko‘rsatma: Rasmdagi nuqtalar tovushlar sonini anglatadi.)



10 – topshiriq. Rasmni nomla va so‘zdagi tovushlar ketma – ketligini ayt. (yordamchi nuqtalarning ko‘magisiz)

	100		
			A
			
			

11– topshiriq. So‘zlardagi tovushlarni ayt.

Choy, joy, tayoq, dala, sigir, etik, a‘lo, kitob, sinf, barg, fasl.

Natijalar. Eksperimental ish 3 ta 2-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazildi. Diagnostika jarayoni darsdan tashqari soatlarda yoki darslar orasidagi tanaffuslarda individual ravishda o‘tkazildi. Ish paytida hech qanday qiyinchiliklar bo‘lmadi. Bolalar bajonidil aloqa o‘rnatdilar, osongina muloqotga kirishdilar.

O‘qish texnikasini tekshirish jarayonida o‘quvchilarning bo‘g‘inlarni, so‘zlarni va matnlarni o‘qishlari, matnni tushunish darajasi DTS asosida tekshirildi 4 balli tizimda baholandi. DTS ga ko‘ra 2-sinf o‘quvchisi bir daqiqada 35-40 ta so‘zni o‘qishi, 3-sinf o‘quvchisi esa bir daqiqada 45-50 ta so‘z o‘qiy olishi lozim [4, B.23].

Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarda o‘qish malakalarini o‘zlashtirish psixologiyasi va kichik maktab yoshidagi bolalarda bu jarayonning afzalliklarini inobatga olindi. O‘qishda bola ruhiyatining turli mexanizmlari ishtirok etadi. O‘qish jarayonida ko‘ruv diqqati va harflarni tanish va farqlash orqali amalga oshiriladi. Buning asosida esa harfning tovush orqali ifodalanishi, shu orqali so‘zning tovushlardagi talaffuzi va o‘qish jarayoni amalga oshiriladi. Yakuniy jarayon so‘zning tovushli shakli orqali mazmuni va o‘quvchining o‘qiganini tushunishiga erishiladi.

Tekshirish natijalari bo‘yicha aniqlangan o‘quvchilar o‘ziga xos xarakterga ega ekanligi aniqlandi. 89 ta o‘quvchidan 12 nafar o‘quvchi vazifalarni bajarish jarayonida yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rsata oldi, 46 nafar o‘quvchi vazifalarni bajarishda ko‘pgina xatolarga yo‘l qo‘yib past ko‘rsatkichni ko‘rsatdilar.

Tadqiqot natijasida o‘quvchilarning fonematik eshituv qobiliyati, artikulyatsion motorika, so‘z hosil qilish, so‘zning tovush-bo‘g‘inli tarkibi jarayonining shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqladik. Berilgan topshiriqlarni oson bajara olgan o‘quvchilardan farqli ravishda og‘zaki nutqi rivojlanmagan o‘quvchilar ko‘pgina xatolarga yo‘l qo‘ydilar, savollarga javob berishda qiynaldilar, so‘zlarning, gaplarning talafuzida qiynaldilar. O‘qish buzilishi bo‘lgan bolalarda me‘yorda rivojlanayotgan o‘quvchilardan farqli ravishda o‘qish jarayonini shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlariga o‘qish tezligining sekin shakllanishi, o‘qishni tushunishning buzilishi kiradi.

O‘qishning buzilishi yosh maktab o‘quvchilari tomonidan to‘g‘ri, ifodali va mazmunli o‘qish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga ta’sir qiladi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida biz ilgari surgan gipoteza tasdiqlandi.

Olingan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki o‘quvchilarda o‘qish malakalari past ko‘rsatkichda. Bu esa o‘z navbatida bolaning DTSga javob beruvchi o‘quvchi sifatida shakllanishga to‘sqinlik qiladi.

O‘qishning buzilishi yosh maktab o‘quvchilari tomonidan to‘g‘ri, ifodali va mazmunli o‘qish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga ta’sir qiladi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida biz ilgari surgan gipoteza tasdiqlandi.

O‘qish jarayonining buzilishi mexanizmlarini hisobga olgan holda tanlangan diagnostika ishlari boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida disleksiyani aniqlashga yordam berdi. Olingan tekshirish natijalari tadqiqotning keyingi bosqichidagi ishlar ko‘lamini belgilaydi, rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirishda yo‘nalish belgilashga xizmat qiladi.

Disleksiya-bu yuqori aqliy funksiyalarning shakllanishining (buzilishi) yo‘qligi va takroriy doimiy xatolarda namoyon bo‘lishi natijasida o‘qish jarayonining qisman o‘ziga xos buzilishi [5, B.14] deb ta’rif bergan Volkova.

Xulosa va munozara. Shunday ekan biz o‘quvchining yuqori aqliy funksiyalarini shakllantirishga doir mashqlardan samarali ravishda foydalanishimiz korreksion ish mazmunini belgilab beradi. Hozirgi kunda ijtimoiy muhit bola rivojlanishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Axborot kommunikatsiya vositalarining rivojlanganligi, insonlarning texnikaga ruju qo‘yishi, bolalarning vertual hayotga kirib ketishi, bolalarning harakatli o‘yinlarni o‘ynamayotganligi aqliy funksiyalarning shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Biz o‘tkazgan tekshiruv va so‘rovnomalarda o‘ta past va past ko‘rsatkichni ko‘rsatgan o‘quvchilar, asosan, MTTga qatnamagan, texnikaga bog‘lanib vaqt o‘tkazgan bolalar bo‘lib chiqdilar. Demak, bu o‘quvchilarda aniqlangan bo‘shliqlardan kelib chiqqan holda, korreksion rivojlantiruvchi ta’limga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Ivanenko S.F. O‘qishda jiddiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarda o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish 2017.
2. Respublika Bolalar ijtimoiy moslashuv markazi “Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar diagnostikasi”. - 2019y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. - 47b.
4. Volkova Yozma nutqning buzilishi: Disleksiya. Disgrafiya. 2013 yil: 68 b.
5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi / 12 jildli. 6-j. – T.: “O‘ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 77-b.

6. G‘aniyeva B.I. Kutubhonalarda o‘quvchilar o‘qish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik rivojlanishi. Ped.fan.nomz.diss. – T.: 2018 yil. -15 b.
7. Djezheley O.V. O‘qish va adabiyot // Dasturiy va uslubiy materiallar: O‘qish. Boshlang‘ich maktab / Comp. T.V. Ignatieva. – M.: Bustard, 2020. – B. 28.
8. Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi M.N.Aminov, mas’ul muharrir A.M.Majidov. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2010. – 46 b.
9. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: “Fan”, 2018. – 163 b.
10. Usmonov S. Boshlang‘ich sinflarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. Nomz diss. avtoref. – T.: 2014. – 45 b.

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI TA‘LIMIDA O‘QUV-BILUV TOPSHIRIQLARI ORQALI O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna,

Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida tayanch doktoranti

h.g.himoyeva@buxdu.uz

himoyevasarvarbegim@gmail.com

Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili ta‘limida o‘quv-biluv topshiriqlari orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish va ona tili fanini o‘qitishning bosh maqsadi haqida fikr yuritilgan. Yoshlarimizning ijodiy-mustaqil, o‘z fikrini erkin va ta‘sirli, mazmunli, yozma va og‘zaki shaklda fikrlarini ifodalashga, o‘zbek tili qonun qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning ijodiy qarashlarini kengaytirishga oid biluv topshiriqlari ishlab chiqilgan, jumladan, ona tili va o‘qish fani, o‘quv-biluv topshiriqlarining boshlang‘ich sinflardagi o‘rni va bu orqali o‘quvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *ona tili, boshlang‘ich sinf, yozma va og‘zaki nutq, ijodiy qobiliyat, o‘quv-biluv topshirig‘i, mazmunli, mustaqil fikrlash, o‘quvchi, fan, metodika.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ЗАДАНИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

В статье идёт речь об основной цели обучения родному языку и совершенствовании творческих способностей учащихся посредством учебных задач в начальных классах обучения родному языку. Это позволит научить нашу молодёжь быть творческой и самостоятельной, свободно и эффективно, содержательно выражать свои мысли в письменной и устной форме, сознательно осваивать правила узбекского языка, а также разрабатывать познавательные задачи, связанные с расширением творческих взглядов. Разработаны задания, в том числе по родному языку и чтению, рассматривается роль учебных задач в начальных классах и формирование через них творческих способностей учащихся.

Ключевые слова: *родной язык, начальная школа, письменная и устная речь, творческие способности, учебная задача, осмысленное, самостоятельное мышление.*

IMPROVING THE CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS THROUGH EDUCATIONAL TASKS IN PRIMARY GRADE MOTHER TONGUE EDUCATION

The article reflects on the main goal of teaching native language science and improving students' creative abilities through educational tasks in primary grade mother tongue education. To teach our young people to be creative and independent, to express their thoughts freely and effectively, meaningfully, in written and oral form, to consciously master the rules of the Uzbek language, as well as to develop cognitive tasks related to expanding their creative views developed, including mother tongue and the subject of reading, the role of educational tasks in primary grades and the formation of students' creative abilities through it.

Keywords: *mother tongue, elementary school, written and oral speech, creative ability, learning task, meaningful, independent thinking.*

Kirish. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan da‘vatlari ta‘limning sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini

takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy qoidalarda mavjud darsliklarning eskirganligi, yangi avlod darsliklarini yaratish lozimligi borasida ko'rsatma berilgan. Darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo'lib qolayotganligi aytiladi. Yangi avlod darsliklarida esa asosan o'quvchilarning mustaqil fikrlashlariga qaratilgan asosiy mohiyat o'quvchilarning erkin, mustaqil fikrlashlariga yo'naltirilgan darsliklar hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'quv faoliyati o'ziga xos qator xususiyatlarga ega: o'quv faoliyati o'quvchilar uchun yetakchi faoliyat turi. Agar birinchi sinfga kelguncha o'yin yetakchi faoliyat bo'lsa, maktabda o'quv faoliyati yetakchi faoliyat maqomini oladi. Bu bola faoliyatining ayrim turlarini (masalan, o'yinni) ma'lum darajada chegaralashga olib keladi. O'quv faoliyatining poydevori boshlang'ich sinflarda qo'yiladi, binoning puxtaligi poydevoriga bog'liq bo'lganidek, boshlang'ich sinfdan keyin bolalar o'quv faoliyatining samarali amal qilishi boshlang'ich sinflarda hosil qilingan ko'nikma, malakalarga ham aloqador. Bolalar boshlang'ich sinflardan boshlab o'qituvchi rahbarligida o'qish-o'rganish bilan shug'ullana boshlashadi. O'quv faoliyatining katta kishilar rahbarligida o'tkazilishining qator ijobiy fazilatlarini bilan birga, ayrim salbiy xususiyatlari ham mavjud. Boshlang'ich sinfdan bolalar harakatchan bo'lishadi, ular bir faoliyat turidan ikkinchisiga zudlik bilan o'tishni yoqtirishadi.

Maktab ta'limi esa me'yoriy qoidalar asosida boshqariladi: oldin qo'lingni mana bunday qilib ko'tar, men ijizat bersam, gapir; o'rtog'ingdan ko'chirma, boshqalarga halaqit berma va sh.k. Bu xildagi me'yoriy yoki odatdagi talablar nihoyatda ko'p. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi, qiziqish va intilishlari rang-barang, turli-tumandir. O'ta aqlli, aytilganlarni tezda payqab oladigan bolalar bilan aqli bo'shroq, mavzularni o'rganishga katta qiziqish, diqqat bilan kirishadigan bolalar bilan parisonxotirroq, maslahatlarni tinglaydigan bolalar bilan nisbatan o'jarroq o'quvchilar ham uchrab turadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda bolalarning katta kishilarga ergashishi, katta obro'li kishilarga o'xshab faoliyat ko'rsatishga intilishi, turli kasblarga moyilligi (men askar bo'laman, o'qituvchi bo'laman)ni ham unutmaslik kerak.

Muhokamalar. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'quv faoliyati o'ziga xos qator xususiyatlarga ega: o'quv faoliyati o'quvchilar uchun yetakchi faoliyat turi. Agar birinchi sinfga kelguncha o'yin yetakchi faoliyat bo'lsa, maktabda o'quv faoliyati yetakchi faoliyat maqomini oladi. Bu bola faoliyatining ayrim turlarini (masalan, o'yinni) ma'lum darajada chegaralashga olib keladi; o'quv faoliyatining poydevori boshlang'ich sinflarda qo'yiladi, binoning puxtaligi poydevoriga bog'liq bo'lganidek, boshlang'ich sinfdan keyin bolalar o'quv faoliyatining samarali amal qilishi boshlang'ich sinflarda hosil qilingan ko'nikma, malakalarga ham aloqador; bolalar boshlang'ich sinflardan boshlab o'qituvchi rahbarligida o'qish-o'rganish bilan shug'ullana boshlashadi. O'quv faoliyatining katta kishilar rahbarligida o'tkazilishining qator ijobiy fazilatlarini bilan birga, ayrim salbiy xususiyatlari ham mavjud.

Boshlang'ich sinfdan bolalar harakatchan bo'lishadi, ular bir faoliyat turidan ikkinchisiga zudlik bilan o'tishni yoqtirishadi. Maktab ta'limi esa me'yoriy qoidalar asosida boshqariladi: oldin qo'lingni mana bunday qilib ko'tar, men ijizat bersam, gapir, o'rtog'ingdan ko'chirma, boshqalarga halaqit berma va sh.k. Bu xildagi me'yoriy yoki odatdagi talablar nihoyatda ko'p. O'quv-biluv muammosini qanday tushunmoq kerak? O'quv-biluv muammosini tushunish va tushuntirishda quyidagi ishchi ta'rifni asos qilib olamiz: o'zlashtirilayotgan o'quv materiallari hamda o'quvchilarning real o'quv-biluv imkoniyatlariga mos topshiriqlarni o'quv-biluv muammosi deb tushunamiz. Darslikda keltirilgan mashqlarning aksariyati o'quv topshiriqlarini tashkil qiladi. Ayrim mavzularda masalan o'tilganlarni takrorlash qismida biluv topshiriqlarini uchratishimiz mumkin, ammo har bir dars oxirida o'qituvchilar biluv topshiriqlaridan na'munalar keltirishsa, mavzu yanada aniq, tushunarli va tushunishlari oson bo'ladi.

1-sinf ona tili darsligida berilgan 17-mavzudagi 4-mashq.

Qaldirg'och bilan Qarg'a

Qaldirg'och bilan Qarg'a qay birimiz chiroyliroq, deb tortisha boshlashdi. Shunda Qarg'a va Qaldirg'ochga dedi: “Sening chiroying faqat bahorda ko'rinadi. Men bo'lsam qish ayoziga ham chidab yashayveraman”.

Qissadan hisssa shuki, uzoq umr ko'rish go'zallikdan afzaldir. Quyidagi mashq orqali turli xildagi biluv topshiriqlarini tuzishimiz mumkin: “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalanamiz: bu metod matnni hamda matndagi tushunchalarni qay darajada tushunganlarini o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashkil qilish maqsadida qo'llaniladi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Tushuncha	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’non anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Qarg’a	Yovvoyi qush	
Qaldirg’ch	Bahor elchisi	
Afzal	Biror kishidan yoki narsadan ustun ko’rish	
Ayoz	Qish faslida sodir bo’ladi	
Bahor	Yil fasli	
Tortishmoq	Bahslashib qolmoq	
Qish	Yil fasli	

Yuqorida keltilgan biluv topshirig’i o’qituvchi va o’quvchi hamkorligida amalga oshiriladi. O’quvchilarning o’quv-biluv faoliyatlarini tadqiq qilish bir qator olimlarning izlanishlarida kuzatiladi. Chunonchi: A. B. Larina, A.N. Leontevlarning ilmiy izlanishlarida o’quvchilarning bilish faoliyatlari psixologik aspekt sifatida o’rganilgan. B.K. Pashnev o’zining olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida bilish faolligining uch darajasini tavsiflagan. Bular:

- yuqori, yoshiga nisbatan yuqori bo’lgan me’yor;
- o’rta, yoshiga nisbatan mos bo’lgan me’yor;
- past, yoshiga nisbatan past bo’lgan me’yor

B.R. Adizovning izlanishlarida ta’limni ijodiy tashkil etish muammosi va o’quvchiga ta’lim jarayonining subyekti sifatida qarash g’oyasini asoslagan. M.H. Mahmudov esa ijodiy ta’limni loyihalash masalalarini “komil inson shaxsi” xususiyatlaridan kelib chiqib o’rgangan. Biz o’quv faoliyati va biluv faoliyatini yaxlitning ikki tomoni – faoliyatining ikki vektori sifatida qaraymiz. Ular bir nuqtadan chiqqan, bir-birini to’ldiradigan, shu bilan birga, bir-birini taqozo etadigan disparat – bir-birini inkor qilmaydigan hodisalardir. Agar o’quv faoliyatining psixologik zamini xotira hodisalari bo’lsa, biluv faoliyatining psixologik asosi tafakkur hodisalaridir. Ta’limning obyektiv borishida o’quv faoliyati biluv faoliyatiga, biluv faoliyati esa o’quv faoliyatiga o’tib turadi. O’quv faoliyati ham, biluv faoliyati ham bitta ijtimoiy institutga – ijtimoiy tajribani o’zlashtirishga daxldor.

Bu faoliyat turlarining har ikkalasi ham tarkiban maqsad, motiv, vosita, natijaga ega. Ammo shularga qaramasdan ularning o’zaro farqlari ham mavjud. Agar o’quv faoliyati bilim, ko’nikma, malakaga yo’налgan bo’lsa, biluv faoliyati bilim, ko’nikma, malaka bilan birga ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarni ham shakllantirishga yo’налgan. Binobarin, dastlabki farqni o’rganiladigan hodisalar mazmunida, biluv faoliyatining mazmun jihatidan boy va kengligida ko’ramiz. O’quv faoliyatida o’zlashtirish reproduktiv xarakterda bo’ladi. O’quvchi o’qituvchi aytgan topshiriqlarni ijro etadi, o’qituvchi va o’rtoqlarining faoliyatiga ergashadi, o’z g’alar faoliyatini takrorlaydi. Biluv faoliyatida o’zlashtirish produktiv xarakterda amalga oshadi. O’quvchilar o’qituvchi bilan hamkorlikda o’z oldiga topshiriqlar qo’yadi, qo’yilgan muammolarni mustaqil bajaradi. Demak, bu ikki faoliyat turining yana bir farqi bolalar faoliyatining amal qilish xarakteri bilan izohlanadi.

O’quv faoliyatida bola ta’limning obyekt, biluv faoliyatida esa ta’limning subyekti rollarida ishtirok etadi. Ikkinchi holatda ta’limda ishtirok etish o’quvchi shaxsini ta’lim jarayoni markaziga aylantiradi. Ta’limning obyekt yoki subyekti funksiyalarida ishtirok etish bu ikki xil faoliyatning navbatdagi farqidir. O’quv faoliyati va biluv faoliyati o’rtasidagi yana bir farqni ularda bolalar mustaqilligining har xil darajada ekanligida ko’ramiz. Biluv faoliyatida bolalar mustaqilligi eng yuqori darajada bo’ladi. Boshlang’ich sinflarda o’quvchilarning o’quv faoliyati o’ziga xos qator xususiyatlarga ega: o’quv faoliyati o’quvchilar uchun yetakchi faoliyat turi. Agar birinchi sinfga kelguncha o’yin yetakchi faoliyat bo’lsa, maktabda o’quv faoliyati yetakchi faoliyat maqomini oladi. Bu bola faoliyatining ayrim turlarini (masalan, o’yinni) ma’lum darajada chegaralashga olib keladi; o’quv faoliyatining poydevori boshlang’ich sinflarda qo’yiladi, binoning puxtaligi poydevoriga bog’liq bo’lganidek, boshlang’ich sinfdan keyin bolalar o’quv faoliyatining samarali amal qilishi boshlang’ich sinflarda hosil qilingan ko’nikma, malakalarga ham aloqador.

O’quv-biluv muammolarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish muammosi vaqt faktori bilan ham uzviy bog’langan. U yoki bu o’quv-biluv muammolari darsning qaysi tipi va bosqichi bilan, ta’lim jarayonining qaysi zvenosi, sikllari bilan daxldorligini o’rganmasdan, shuningdek, u yoki bu tipdagi muammolarni bajarish uchun sarflanadigan vaqtni aniqlamasdan turib, ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish mumkin emas. O’qituvchi ta’limga tatbiq etiladigan biluv muammolarining maqsadi, erishiladigan natijani oldindan qayd etishi zarur. Shu yo’l bilan o’quv muammolarini ta’limga

tatbiq etishning optimal variantlari tanlanadi. Optimal variantni tanlash esa o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Shunday qilib, biluv muammolarini ta’limga tatbiq etish o‘quv-tarbiya jarayonining juda ko‘p sohalari bilan bog‘liq. Umuman o‘quv muammolari, ayni holatda biluv muammolarini ta’limga tatbiq etish amaliyotining uch ko‘rinishi mavjud:

o‘quv mavzulari bo‘yicha bilimlar o‘rganilgach, biluv muammolaridan foydalanish;
biluv muammolarini darsning turli bosqichlari bilan biriktirish;

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imkoniyatlariga mos o‘quv-biluv muammolarini tayyorlash oraliq vosita bo‘lib, o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishning yetakchi omilidir. Ulardan unumli foydalanish o‘quvchilarda mustaqil ijodiy ishga layoqatini o‘stiradi. Biluv topshiriqlari dars jarayonida ta’limga tatbiq qilinadi. Shu tufayli maqolada dars turlari, ularning qurilishi tahlil qilindi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imkoniyatlariga mos o‘quv-biluv muammolarini tayyorlashning didaktik asoslari muammosini nazariy va amaliy o‘rganish quyidagi umumiy xulosalarga olib keldi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imkoniyatlariga mos o‘quv-biluv muammolarini tayyorlash masalasi noijodiy ta’limdan qator belgilariga ko‘ra farq qiladi. Bular:

- o‘quvchilar tafakkuriga mo‘ljallanganligi;
- ta’limda o‘quvchi maqomining o‘zgartirilganligi, uni ta’limning faol subyektiga aylanganligi;
- ta’limning dalil-bilim-amaliyot qolipida tashkil etilishi;
- o‘qish-o‘rganishning shaxsiy ahamiyat kasb etganligi;
- har bir axborotning bola uchun shaxsiy qimmatga egaligidir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining – 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 7- fevraldagi PF-4947 sonli “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” Farmoni.
3. Roziqov O., Adizov B., Najmiddinova G. Umumiy didaktika. –Buxoro: Durdona, 2012. -322 B.
4. Safarova R. Nutqiy ko‘nikmalarni tekshirish asoslari “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. T.: 1997. 5-son.
5. Matchonov S., G‘ulomova X. Nutq madaniyati. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. T.: 2013 yil. 1-son.
6. Hamroyev A. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish : Monografiya
7. www.ziyonet.uz
8. G‘ulomov A. Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish. – T.: O‘qituvchi, 1987. – 156 b

МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

*Шералиева Насиба Алимкуловна,
независимый исследователь*

Гулистанского государственного педагогического института

В данной статье рассматриваются современные методы эффективной организации уроков воспитания в начальной школе Узбекистана. Актуальность темы обусловлена важностью формирования личностных качеств и ценностных ориентаций учащихся младших классов в контексте национальной системы образования. В работе проанализированы теоретические и практические аспекты организации воспитательного процесса с учётом культурных особенностей Узбекистана, представлены результаты исследования эффективности различных методов и форм работы. Научная новизна заключается в адаптации современных подходов к организации уроков воспитания к специфике узбекской начальной школы и разработке рекомендаций по их внедрению в практику. Статья предназначена для педагогов, психологов и других специалистов, занимающихся вопросами воспитания в начальной школе Узбекистана.

Ключевые слова: *уроки воспитания, начальная школа, методы воспитания, личностное развитие, ценностные ориентации, культурные особенности Узбекистана.*

BOSHLANG'ICH SINIF TARBIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI

Ushbu maqolada O'zbekiston boshlang'ich maktabida ta'lim darslarini samarali tashkil etishning zamonaviy usullari muhokama qilinadi. Mavzuning dolzarbligi milliy ta'lim tizimi kontekstida boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy fazilatlarini va qiymat yo'nalishlarini shakllantirishning ahamiyati bilan bog'liq. Asarda O'zbekistonning madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, turli usul va ish shakllari samaradorligini o'rganish natijalari taqdim etildi. Ilmiy yangilik ta'lim darslarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarni o'zbek boshlang'ich maktabining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqola O'zbekiston boshlang'ich maktabida ta'lim masalalari bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar, psixologlar va boshqa mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: *tarbiya darslari, boshlang'ich maktab, tarbiya usullari, shaxsiy rivojlanish, qadriyat yo'nalishlari, O'zbekistonning madaniy xususiyatlari.*

METHODS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF ELEMENTARY SCHOOL EDUCATION CLASSES

This article discusses modern methods of effective organization of parenting lessons in primary schools in Uzbekistan. The relevance of the topic is due to the importance of the formation of personal qualities and value orientations of primary school students in the context of the national education system. The paper analyzes the theoretical and practical aspects of the organization of the educational process, taking into account the cultural characteristics of Uzbekistan, presents the results of a study of the effectiveness of various methods and forms of work. The scientific novelty lies in the adaptation of modern approaches to the organization of parenting lessons to the specifics of the Uzbek primary school and the development of recommendations for their implementation in practice. The article is intended for teachers, psychologists and other specialists dealing with issues of education in primary schools in Uzbekistan.

Keywords: *parenting lessons, primary school, methods of education, personal development, value orientations, cultural characteristics of Uzbekistan.*

Введение. Воспитание является неотъемлемой частью образовательного процесса в начальной школе Узбекистана. Именно в младшем школьном возрасте закладываются основы личности, формируются ценностные ориентации и модели поведения, которые во многом определяют дальнейший жизненный путь человека [1]. Эффективная организация уроков воспитания способствует гармоничному развитию учащихся, их социализации и адаптации к условиям

современного узбекского общества [2].

Актуальность темы исследования обусловлена необходимостью поиска новых подходов к организации воспитательной работы в начальной школе Узбекистана, отвечающих требованиям времени и учитывающих национальные особенности страны [3]. Научная новизна работы заключается в адаптации современных методов организации уроков воспитания к специфике узбекской начальной школы, а также в разработке практических рекомендаций по их внедрению с учетом культурных традиций и ценностей узбекского народа. Кроме того, в исследовании впервые проанализирована эффективность различных методов и форм воспитательной работы в контексте начального образования Узбекистана.

Цель данной статьи - рассмотреть методы эффективной организации уроков воспитания в начальной школе Узбекистана и проанализировать их результативность с учетом национальной специфики.

Методы и обзор литературы.

Для достижения цели исследования были использованы следующие методы:

- Теоретический анализ психолого-педагогической литературы по проблеме исследования.
- Наблюдение за учебно-воспитательным процессом в начальной школе Узбекистана.
- Анкетирование учителей начальных классов.
- Беседы с учащимися и их родителями.
- Педагогический эксперимент.

Методы математической статистики для обработки полученных данных.

Исследование проводилось на базе трёх общеобразовательных школ города Гулистан. В нём приняли участие 120 учащихся начальных классов, 30 учителей и 60 родителей.

Вопросы организации воспитательной работы в начальной школе Узбекистана рассматриваются в трудах многих отечественных исследователей. А.К. Мунавваров [4] подчеркивает важность учета национальных традиций и ценностей в воспитании младших школьников. В работах Ш.А. Амонашвили [5] и С.Н. Лысенковой [6] раскрываются психологические аспекты формирования личности ребенка в младшем школьном возрасте.

Современные узбекские исследователи (М.Х. Тохтаходжаева [7], Д.Ш. Гафурова [8], Г.Х. Ибрагимова [9]) отмечают необходимость применения личностно-ориентированного подхода в воспитании младших школьников с учётом культурных особенностей Узбекистана. Большое значение придаётся использованию интерактивных методов и форм работы, способствующих активизации познавательной деятельности учащихся и развитию их творческого потенциала [10].

В зарубежной литературе вопросы организации воспитательной работы в начальной школе рассматриваются в контексте формирования эмоционального интеллекта [11], развития социальных навыков [12] и становления гражданской позиции учащихся [13,14]. Особое внимание уделяется роли учителя в воспитательном процессе и необходимости создания благоприятной психологической атмосферы на уроках.

Таким образом, анализ литературы показывает, что проблема эффективной организации уроков воспитания в начальной школе Узбекистана является актуальной и требует дальнейшего изучения с учетом национальной специфики и современных реалий.

Результаты. В ходе исследования были выявлены следующие методы эффективной организации уроков воспитания в начальной школе Узбекистана:

Использование национальных игр и фольклора. Включение в уроки воспитания элементов узбекских народных игр, сказок и песен позволяет в доступной форме донести до учащихся важные нравственные ценности и модели поведения, характерные для узбекской культуры. В ходе эксперимента было установлено, что применение национальных игровых методов на уроках воспитания повышает интерес учащихся к обсуждаемым темам и способствует лучшему усвоению материала ($p < 0.05$).

Организация групповой работы с учётом культурных особенностей. Работа в малых группах позволяет учащимся развивать коммуникативные навыки, учиться сотрудничеству и взаимопомощи в контексте узбекских культурных традиций. Результаты анкетирования учителей показали, что 85% респондентов регулярно используют групповые формы работы на уроках воспитания и отмечают их положительное влияние на атмосферу в классе.

Проведение дискуссий на темы, связанные с национальными ценностями. Организация обсуждений, затрагивающих вопросы узбекской культуры, истории и нравственности, способствует развитию у учащихся чувства национальной идентичности, гордости за свою страну и

приверженности традиционным ценностям. Наблюдение за учебным процессом показало, что в классах, где регулярно проводятся такие дискуссии, учащиеся более активны и инициативны ($p < 0.01$).

Использование наглядных пособий, отражающих узбекскую культуру. Демонстрация видеороликов, презентаций и других наглядных материалов, связанных с национальными традициями и достижениями Узбекистана, позволяет сделать уроки воспитания более яркими и запоминающимися. В ходе бесед с учащимися было выявлено, что использование культурно-специфической наглядности повышает их интерес к обсуждаемым темам и способствует лучшему пониманию национальных ценностей.

Привлечение учащихся к подготовке и проведению национальных праздников. Участие младших школьников в планировании и организации мероприятий, посвященных узбекским праздникам и памятным датам, способствует развитию их самостоятельности, творческих способностей и чувства причастности к национальной культуре. Педагогический эксперимент показал, что в классах, где учащиеся активно вовлекаются в подготовку национальных праздников, наблюдается более высокий уровень сплоченности и взаимопонимания ($p < 0.05$).

Анализ и обсуждение. Полученные результаты свидетельствуют о том, что эффективная организация уроков воспитания в начальной школе Узбекистана требует комплексного подхода, учитывающего национальные особенности страны. Использование узбекских народных игр и фольклора, организация групповой работы с учетом культурных традиций, проведение дискуссий на темы национальных ценностей, применение культурно-специфической наглядности и привлечение учащихся к подготовке национальных праздников позволяют создать благоприятные условия для личностного развития младших школьников и формирования у них важных нравственных качеств в контексте узбекской культуры.

Результаты исследования согласуются с данными других авторов [15, 16], которые подчеркивают необходимость учета национальной специфики при организации воспитательной работы в начальной школе Узбекистана. Вместе с тем, полученные данные расширяют представления о конкретных методах и формах работы, адаптированных к узбекскому культурному контексту, и позволяют выделить наиболее эффективные из них.

Практическая значимость исследования заключается в том, что его результаты могут быть использованы учителями начальных классов Узбекистана при планировании и проведении уроков воспитания. Предложенные методы и формы работы могут быть адаптированы с учетом особенностей конкретного класса и образовательной ситуации.

Дальнейшие перспективы исследования связаны с изучением долгосрочных эффектов применения культурно-специфических методов организации уроков воспитания, а также с разработкой и апробацией новых подходов к нравственному воспитанию младших школьников в контексте узбекской национальной системы образования.

Важно отметить, что эффективность применения культурно-специфических методов организации уроков воспитания в начальной школе Узбекистана во многом зависит от профессиональной подготовки и личностных качеств учителей. Педагоги должны обладать глубокими знаниями узбекских национальных традиций, ценностей и особенностей менталитета, а также умением творчески адаптировать современные методы воспитания к культурному контексту страны [17].

Кроме того, важную роль в повышении результативности уроков воспитания играет активное вовлечение родителей в образовательный процесс. Совместная работа школы и семьи, основанная на общих ценностях и культурных традициях, создает благоприятные условия для нравственного развития младших школьников [18].

Также следует подчеркнуть, что эффективная организация уроков воспитания в начальной школе Узбекистана предполагает не только использование специфических методов и форм работы, но и создание общей атмосферы, способствующей личностному росту учащихся. Это включает в себя установление доброжелательных отношений между учителем и учениками, поддержание дисциплины и порядка на основе уважения к личности ребенка, создание ситуаций успеха для каждого ученика [19].

Результаты данного исследования открывают перспективы для дальнейшего изучения проблемы нравственного воспитания младших школьников в Узбекистане. В частности, представляется актуальным исследование возможностей интеграции уроков воспитания с другими предметами начальной школы, а также разработка системы методических рекомендаций для

учителей по организации воспитательной работы с учетом национальной специфики [20].

Таким образом, анализ результатов исследования позволяет заключить, что эффективная организация уроков воспитания в начальной школе Узбекистана требует комплексного подхода, учитывающего культурные особенности страны, профессиональную подготовку педагогов, взаимодействие школы и семьи, а также создание общей атмосферы, благоприятной для нравственного развития учащихся. Дальнейшие исследования в этой области могут быть направлены на разработку практических рекомендаций и методических материалов для учителей начальных классов Узбекистана.

Выводы. На основе проведенного исследования можно сделать следующие выводы:

Эффективная организация уроков воспитания в начальной школе Узбекистана является важным условием личностного развития младших школьников и формирования у них нравственных ценностей и моделей поведения в контексте национальной культуры.

Наиболее эффективными методами организации уроков воспитания в узбекской начальной школе являются использование национальных игр и фольклора, организация групповой работы с учетом культурных традиций, проведение дискуссий на темы национальных ценностей, применение культурно-специфической наглядности и привлечение учащихся к подготовке и проведению национальных праздников.

Комплексное использование различных методов и форм работы, адаптированных к узбекскому культурному контексту, позволяет создать благоприятные условия для нравственного воспитания младших школьников и способствует их гармоничному развитию с учетом национальной специфики.

Полученные результаты могут быть использованы в практической деятельности учителей начальных классов Узбекистана при планировании и организации уроков воспитания.

Литература:

1. Мунавваров А.К. Педагогика. - Т.: Ўқитувчи, 1996. - 336 с.
2. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика. - Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2009. - 304 с.
3. Тохтаходжаева М.Х. Теория и практика гуманной педагогики. - Т.: Ўқитувчи, 2006. - 163 с.
4. Мунавваров А.К. Оила педагогикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1994. - 224 с.
5. Амонашвили Ш.А. Здравствуйте, дети! - М.: Просвещение, 1983. - 208 с.
6. Лысенкова С.Н. Когда легко учиться. - М.: Педагогика, 1985. - 176 с.
7. Тохтаходжаева М.Х. Основы гуманной педагогики. - Т.: Ўқитувчи, 2001. - 221 с.
8. Гафурова Д.Ш. Нравственное воспитание младших школьников. - Т.: Fan va texnologiya, 2010. - 120 с.
9. Ибрагимова Г.Х. Педагогические условия нравственного воспитания младших школьников. - Т.: Fan va texnologiya, 2012. - 136 с.
10. Хасанбоева О., Тўракулов Х., Хайдаров М., Хасанбоев Ж. Педагогика. - Т.: Noshir, 2011. - 480 с.
11. Goleman D. Emotional intelligence. - New York: Bantam Books, 1995. - 352 p.
12. Gresham F.M., Elliott S.N. Social skills improvement system: Rating scales. - Bloomington, MN: Pearson Assessments, 2008. - 193 p.
13. Noddings N. Education and democracy in the 21st century. - New York: Teachers College Press, 2013. - 222 p.
14. Қодирова Ф.У. Бошланғич таълимда ахлоқий тарбия. - Т.: Тафаккур, 2013. - 176 с.
15. Хасанов Р.А. Халқ педагогикаси асослари. - Т.: Ўқитувчи, 1993. - 160 с.
16. Маллаев Д.М., Абдуллаева Ш.А., Ибрагимова Г.Х. Педагогика (педагогические теории, системы, технологии). - Т.: Fan va texnologiya, 2015. - 496 с.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA XALQ OG‘ZAKI IJODINI INTEGRATSIYALASH USULI

*Jabbarova Aziza Shixnazarovna,
Buxoro innovatsiyalar universiteti boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi,
Buxoro davlat universiteti erkin izlanuvchisi
jabbarovaaziza1990@gmail.com*

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning bugungi kun yoshlarining hayotida tutgan o‘rni, har bir fanni o‘qitishda integratsiyalash usullari haqida so‘z yuritilgan.

Umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatan maqol, topishmoq va ertaklarga nisbatan qiziqish yuqoriligi sababli o‘quvchilar xalq og‘zaki ijodiyotining namunalari yuqori qiziqish bilan o‘qib o‘rganadilar. Bu kabi kreativ holatlarni inobatga olgan holda “Ona tili va O‘qish savodxonligi” darsliklarida xalq og‘zaki ijodidan namunalar berilgan.

***Kalit so‘zlar:** xalq og‘zaki ijodi, ertak, maqol, topishmoq, tez aytish, latifa, didaktik, tabiiy fan, o‘qish savodxonligi, tasviriy san‘at, integratsiya.*

МЕТОД ИНТЕГРАЦИИ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

В данной статье рассматривается использование фольклора в начальном образовании. Обсуждалась роль современной молодёжи в жизни, пути интеграции каждого предмета в преподавание.

Учитывая высокий уровень интереса к пословицам, загадкам и сказкам среди учащихся младших классов, учащиеся с большим интересом изучают эти образцы народного творчества. С учётом таких творческих ситуаций в учебниках «Родной язык и грамотность чтения» приводятся примеры народного творчества.

***Ключевое слово:** фольклор, сказка, пословица, загадка, скороговорка, анекдот, дидактика, естествознание, грамотность чтения, изобразительное искусство, интеграция.*

METHOD OF INTEGRATING FOLK ORAL ART INTO PRIMARY EDUCATION

This article deals with the use of folklore in primary education. The role of modern youth in life, ways to integrate each subject into teaching were discussed.

Given the high level of interest in proverbs, riddles and fairy tales among junior school pupils, pupils study these samples of folk art with great interest. Taking into account such creative situations, the textbooks "Native Language and Reading Literacy" provide examples of folk art.

***Keywords:** folklore, fairy tale, proverb, riddle, quick telling, anecdote, didactic, natural science, reading literacy, visual arts, integration.*

Kirish. Bolalar kitobxonligining boy manbai xalq og‘zaki ijodi asarlaridir. Ular bolalar adabiyotini yaratishda yozuvchilar uchun katta material bo‘lib xizmat qilgan.

Xalq og‘zaki ijodi, kishilik jamiyatining eng sevgan va e‘zozlab asrab kelgan ijodiy mahsulidir. Otabobolarimiz o‘z farzandlarini tarbiyalashda undan unumli foydalanganlar. Xalq og‘zaki ijodi ayrim kishilar qalamiga mansub bo‘lmay, balki umumxalq mulkidir. Shuning uchun ham har bir maqol va ertak xalqning turmush tajribalari asosida maydonga kelgan. Har bir maqol yoki ertak xalq pedagogikasi namunasi sifatida bolalarni turmush tajribalari bilan tanishtiradi. Ularga axloq normalarini singdiradi.

Bolalar boshlang‘ich sinflardan oq ertak, maqol, topishmoq, tez aytish, latifa va hokazolar bilan tanishib boradilar. Bu hol bolalarning adabiyot nazariyasi bilan amaliy ravishda tanishib borishlariga imkoniyat yaratadi. Bu o‘z navbatida, yozma adabiyot materiallarini osonlik bilan o‘zlashtirishlariga keng yo‘l ochadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Buyuk so‘z san‘atkori A.M. Gorkiy avvalgi yozuvchilarni xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga, adabiyotning tarbiyaviy kuchini oshirishga da‘vat etishi bejiz emas. “Xalq ijodiyotida cheksiz boyliklar yashirilib yotibdi, -degan edi u.

-Sof vijdonli yozuvchi ularni egallab olishi kerak. Faqat shundagina ona tilini o‘rganish mumkin, tilimiz esa boy va sozdir”[1;9].

Xalq ogʻzaki ijodi qadimdan tarbiya vositalaridan boʻlib kelgan. Yosh avlod oʻz bobolari qoldirgan madaniy merosni sevgan, oʻrgangan, uni ardoqlab kelgusi avlodga taqdim etgan. Avvalgi oʻquvchilar ham xalq ogʻzaki ijodini sevadilar. Xalq ertaklari bolalarning sevimli asarlaridir. Ertak yengil oʻqilishi, syujetining dinamikligi va fantaziyasi bilan bolalar eʼtiborini tez jalb qiladi.

Keyingi yillarda oʻzbek xalq ogʻzaki ijodiga doir bir qator ilmiy ishlar yaratildi. M.I. Afzalov oʻzining “Oʻzbek xalq ertaklari haqida”[2;23] asarida xalq ertaklarining yaratilishi, ertak soʻzining kelib chiqishi, qadimda yaratilgan ertaklarning yozib olinishi haqida fikr yuritadi, ayrim ertaklarning tarbiyaviy xususiyatini chuqur tahlil etadi. Zubayda Husainovning “Oʻzbek topishmoqlari”[3;56] asarida esa xalq ogʻzaki ijodida topishmoqlarning tutgan oʻrni, topishmoq va ulardan foydalanish uslublari, bolalar tafakkurining kengayishida ularning muhim oʻrin tutishi bayon etilgan.

Ye. A.Adamovich, V.I. Yakovleva[4;183] esa ertaklarni qayta hikoya qilish haqida fikr yuritib, hikoya qilishda faqat mavzu tuzdirish bilan chegaralanmay, balki oʻquvchilarning ertak mazmunini toʻliq gapirib berishlariga erishmoq zarurligini taʼkidlaydi.

Natijalar. Oʻquvchilar oʻqituvchi nutqini diqqat bilan tinglaydilar. Ertakda gap kim haqida oʻzgarishlari, xarakterlarning xulq-atvori, oʻzaro munosabatlari ertak oʻqib boʻlingach yoxud u hikoya qilingandan keyin aniqlanadi.

Boshdan integratsiyalangan kurs bu — sinfdan tashqari oʻqish.

Bu yerda yaxlit jarayon kechadi:

a) kitob oʻqish asbobi sifatida oʻqish darslarida olgan oʻqish koʻnikmalarini takomillashtirish;

b) matn ustida ishlash;

d) suhbatdoshlar doirasini tanlash kabi kitoblarni tanlash. Matematika ham integratsiyalangan kurs — arifmetik materiallar oʻzlashtirishga imkon beruvchi arifmetika, algebra va geometriya elementlari, shu bilan birga algebra va geometriya, texnologiya asoslarini oʻrgatishga tayyorgarlik.

Boshidan integratsiyalangan kurs — tabiiy fan. Boshidan integratsiyalangan yuqoridagi kurslardan tashqari quyidagi fanlarning birikishi mumkin: oʻqish savodxonligi - rus tili, oʻqish - tabiiy fan, oʻqish savodxonligi-tasviriy sanʼat, oʻqish savodxonligi - musiqa, tabiiy fan - matematika, tabiiy fan -texnologiya taʼlimi, matematika - texnologiya, matematika - jismoniy tarbiya.

Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash oʻqituvchi (taʼlim berish) va oʻquvchi (taʼlim olish) harakatlarining mos kelishini koʻzda tutadi. Har ikki faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1. Maqsadli bosqichda oʻqituvchi umumiy maqsadni qoʻyadi. oʻquvchilar oʻqituvchi boshchiligida predmetlararo bogʻliqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari, bunda ular oʻz eʼtiborlarini faqat umumiy bilimlarni oʻzlashtirishga emas, balki koʻchirish, tahlil qilish, shaxsning belgilari, qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2. Isbotlash bosqichida oʻqituvchi oʻquvchilarning dunyoqarashini oʻstiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga ragʻbatlantiradi. oʻquvchilar oʻz irodalari, dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yoʻnaltiriladi.

3. Faoliyatning mazmun bosqichida oʻqituvchi yangi oʻquv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmuyi darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. Oʻquvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida oʻzlashtiradi.

4. Vositalar tanlash bosqichida oʻqituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi koʻrgazmali vositalarni — darsliklar, jadvallar, sxemalar savolnomalar, amaliy vazifalar. oʻquvchilar koʻchirish, umumlashtirish, birlashtirish xarakterlarini integratsion masalalarni hal qilishda koʻrgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. Keyingi bosqich — natija. Oʻqituvchi taʼlim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qoʻllaydi. Oʻqituvchi bilimlar tizimida umumlashtirishini amalda qoʻllaydi.

6. Nazorat qilish bosqichida oʻqituvchi bir-biri bilan bogʻlangan predmetlarga oʻquvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, oʻzlashtirish sifatida baholaydi. oʻquvchilar oʻz bilimlarini baholashni, turli predmetlar boʻyicha oʻz-oʻzini ham, ularni birlashtirish koʻnikmalarini nazorat qilishadi.

Tekshiruvlar koʻrsatishicha, integral yondashuvni amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalarga:

1. Evristik suhbatlar;

2. Umumiy suhbatlar;

3. Ekskursiyalar;
4. Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asarlar materiallari asosida nutq o‘stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar;
5. Ta’limning ko‘rgazmali metodlari;
6. Mustaqil ishlar;
7. o‘qish, matematika darslarida og‘zaki rasm chizish;
8. Imo-ishorali ko‘rinishlar (pantomimalar);
9. Tabiiy fan darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o‘qish;
10. Ona tili darslarida tabiiy fanga oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda);

11. Tabiiy fanida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar kiradi.

Ta’limni tabaqalashtirish rad etilmaydigan, uni to‘ldiradigan integratsiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o‘zidagi bor bilimlarni mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan’anaviy yondashish qobiliyatiga ega bo‘lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga an’anaviy predmetlarga bo‘lib o‘qitishga nisbatan ko‘proq yordam beradi. Ta’limni integratsiya qilish mohiyati nimadan iborat? Ta’limga bog‘liq “integratsiya” tushunchasi ikki ma’noga ega:

1. O‘quvchida atrofidagi olam to‘g‘risida yaxshi tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya — ta’lim maqsadi sifatida ko‘riladi).

2. Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda, integratsiya — ta’lim vositasi).

Muhokama. Integratsiya ta’lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog‘liqligini ko‘rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog‘liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o‘rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang‘ich maktab amalga oshirishi lozim. Integratsiya — predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to‘ldirish, ular orasidagi aloqalarni o‘rnatish lozim. U ta’lim oluvchining bilimni oshirishga, ta’limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta’limining klassik o‘quv predmetlari o‘rnini egallash kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyaning ta’lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida «hamma narsa to‘g‘risida ozgina bilish lozim bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko‘nikmalarni birlashtirish kerak bo‘ladi va oxiriga kelib “ozgina narsa to‘g‘risida hammasini bilish” kerak bo‘ladi, ya’ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

Xulosa. Xalq og‘zaki ijodi namunalari bolalarga kuchli ma’naviy ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega. Tez aytish, maqollar, ertaklar tajribada sinalgan, minglab yillar davomida jamiyat a’zolarini eng yaxshi fazilatlar sohibiga aylantirgan tarbiya vositalari hisoblanadi. Tez aytish, maqollar, xalq ertaklari mazmun jihatidan boy, shakl jihatidan xilma-xildir. Ularning paydo bo‘lishi ham uzoq o‘tmishdan boshlanib, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Xalqning umumiy dahosi mahsuli bo‘lgan folklor materiallari aynan bir xalq, bir millat tomonidan yaratilsa ham, umuminsoniy qiymati kuchli hisoblanadi. Shuning uchun ham tez aytishda, maqollarda, ertaklarda turli xalqlarda yaratilgan, mazmun jihatidan bir xil, yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan materiallar uchrab turadi. Bu hol xalq og‘zaki ijodini umumbashariy ta’siriga ega ekanligidan dalolat beradi. Tez aytishlar, maqollar, ertaklar mazmuniga qarab, yoshlarni tarbiyalashni turli yo‘nalishlarini, aqliy, axloqiy, jismoniy, ruhiy, estetik, mehnatsevarlik va boshqa xususiyatlarni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi. Inson kamolotining biror sohasi yo‘qki, unga tez aytish, maqollar, ertaklar ta’sir etmagan bo‘lsin. Tarbiya fanidagi ayrim materiallar yoshlarni tarbiyalashni qonun-qoidalari, printsiplari, metodlarini aks ettirish bilan ajralib turadi. Shunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanining asosiy mazmuni tarkibiga kiritilgan holda o‘rganib kelinmoqda. Folklorshunos olimlarning tadqiqotlarida xalq og‘zaki ijodi janr xususiyatlari, badiiy qiymati, paydo bo‘lishi va taraqqiyoti haqidagi qarashlari katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligini tan olish zarur.

Bolalarni ertakka qiziqtirish uchun ertak tanlashda bolalarning yoshiga ham qat’iy e’tibor berish talab qilinadi. Kichik yoshdagi O‘quvchilarga hajmi qisqa, ko‘proq dialog xarakteridagi, hayvonlar to‘grisidagi ertaklar tanlash maqsadga muvofiqdir. 3-sinfda esa hajmi kengroq xarakterdagi g‘oyaviy pishiq, mazmunan sodda ertaklarni so‘zlash va O‘qish yaxshi natija beradi. Shundagina ertakda bayon etilgan voqealar bolalar qalbida chuqur iz qoldiradi, bolalar uni uzoq vaqt esdan chiqarmaydilar. Ertaklarni ko‘proq o‘quvchilar o‘qiydilar (aytadilar). O‘quvchilar o‘zlari bilgan ertaklarni so‘zlab berishga qiziqadilar. O‘quvchilarning ertak so‘zlashlari esa ularning og‘zaki nutqini o‘stiradi. Ma’lum tema yuzasidan izchil, jonli so‘zlashga o‘rgatadi. O‘quvchilar ertak aytish bilan u haqdagi o‘z xulosalarini ham bayon qiladilar. Ertak qahramonlariga nisbatan o‘zlaricha hukm chiqaradilar. Har qanday holatda ham o‘qituvchining yakuniy

suhbati muhim ahamiyatga ega. Umuman, boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodi materiallarini o‘rganish eng yangi didaktik prinsiplar asosida dars olib borishni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. Alekseeva O.V. va boshqalar Bolalar adabiyoti. – M., Gosuchpedgiz, 1957.
2. Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. – T.: «Fan» nashriyoti, 1964.
3. Xusainova, O‘zbek topishmoqlari. – T.: «Fan» nashriyoti, 1966.
4. Adamovich E.A., Yakovleva V.I. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish, "Ma’rifat", M., 1967, 183-bet.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI TAKOMILLASHTIRILISHI, UNING HUQUQIY TALABLARI VA RIVOJLANISHI

*Ibodova Sevarabonu To‘xtasinovna,
Buxoro davlat universiteti*

*Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari mutaxassisligi
1-bosqich magistranti*

Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanining fan sifatida kirib kelish, fanni rivojlantirishga doir qabul qilingan bir qator huquqiy me‘yoriy hujjatlar tahlili, informatika va axborot texnologiyalari fanini umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinfidan boshlab o‘qitilishiga bo‘lgan talablar va ularning yechimlari, adabiyotlar tahlili, mavjud o‘qitish metodlari va ularni takomillashtirish usullari, 1-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish metodikasi va uni takomillashtirish usullari keltirilgan.

***Kalit so‘zlar:** informatika, axborot texnologiyalari, o‘qitish metodikasi, dars, metod, taqvim-mavzu, o‘quv reja, dastur, boshlang‘ich sinf, normativ-huquqiy, me‘yoriy, 3D, animatsion, innovatsion.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИСЦИПЛИНЫ «ИНФОРМАТИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ», ЕЁ ПРАВОВЫЕ ТРЕБОВАНИЯ И РАЗВИТИЕ

В данной статье рассматриваются введение информатики и информационных технологий как предмет, анализ ряда принятых нормативно-правовых актов по развитию науки, требования к преподаванию информатики и информационных технологий с начальных классов общеобразовательных школ и их решения, анализ литературы, существующие методы обучения и методы их совершенствования, разработка методики преподавания информатики и информационных технологий в 1-х классах, содержание дисциплины “Информатика и информационные технологии”, методика преподавания и методы её совершенствования.

***Ключевые слова:** информатика, информационные технологии, методика обучения, урок, метод, календарно-предметный, учебный план, программа, начальный класс, нормативный, критический, 3D, анимационный, инновационный.*

IMPROVEMENT OF THE DISCIPLINE “INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES”, ITS LEGAL REQUIREMENTS AND DEVELOPMENT

This article deals with the introduction of informatics and information technologies as a subject, analysis of a number of adopted normative-legal acts on the development of science, requirements for teaching informatics and information technologies from the primary grades of general education schools and their solutions, literature analysis, existing teaching methods and methods of their improvement, development of methods of teaching informatics and information technologies in the 1st grades, content of the discipline "Informatics and information technologies", teaching methodology and methods of teaching in the 1st grades.

***Keywords:** informatics, information technology, teaching methodology, lesson, method, calendar-topic, educational plan, program, primary class, regulatory legal, educational, 3D, animated, innovative.*

Kirish. Ta‘lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi o‘tib-ulg‘ayib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan, komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Bu jarayonda o‘qituvchining roli beqiyosdir. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o‘qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta‘minlash, ular faoliyatiga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o‘quvchilarning dastlabki egallaydigan bilimlarning poydevori mustahkam bo‘lishi, barcha fanlarni o‘zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Shuningdek, ta‘lim tizimida ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta‘lim olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta‘limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag‘lari bilan ta‘minlashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism. Hozirgi kunga qadar axborot texnologiyalarini rivojlantirishga doir 1985-yilda maktab dasturiga “Informatika va hisoblash texnikasi asoslari” fani kiritildi. 1986-yilda esa pedagogik oliy ta’lim muassasalari o’quv rejasiga “Informatika o’qitish metodikasi” kursi kiritildi va yildan boshlab “Информатика и образование” nomli metodik jurnal o’z faoliyatini boshladi. Ilmiy fanlar tasniflashiga asosan ushbu axborotlashgan jamiyat tomonidan qo’yilgan maqsadlarga mos ravishda rivojlanishining zamonaviy bosqichida informatikani o’qitish qonuniyatlarini o’rganuvchi yangi fan “Informatika va axborot texnologiyalarini o’qitish nazariyasi va metodikasi” degan nom oldi. Ammo o’quv kurslar, darsliklar va me’yoriy hujjatlarda fanning eski “Informatika o’qitish metodikasi” nomi ham ko’p qo’llanilmoqda.

Informatika va axborot texnologiyalarini o’qitish nazariyasi va metodikasiga uzluksiz ta’lim tizimining bo’g’inlaridagi: maktabgacha ta’lim, boshlang’ich ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, oliy ta’lim, informatikani mustaqil o’zlashtirish, masofaviy ta’lim va x.k. dagi informatikani o’qitish jarayoniga oid tadqiqotlarni kiritish lozim.

Olib borilayotgan bu islohotlar o’qituvchilar va o’quvchilar oldiga katta talablar qo’ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatligini oshirish hamda maktablardagi turli xil o’quv mashg’ulotlarining tashkil qilinishi va u orqali o’quvchilarning turli bilim va ko’nikmalarni egallab olishlaridir. Bugungi kunda ta’lim jarayonini to’g’ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o’rni beqiyosdir shu jumladan informatika fanini nafaqat maktablardagi 5-11 sinflarda, balki boshlang’ich sinflar uchun ham o’rni beqiyosdir.

Respublikamizda va jahonda ko’plab olimlarimiz axborot texnologiyalarini ta’limda qo’llash bo’yicha bir qator izlanishlar olib borganlar. Quyida ularning tahlilini ko’rib chiqamiz.

G.S.Turdiyeva, B.S.Qurbonov, G.Y.Bo’ronovalarning “Ta’limda axborot texnologiyalari” nomli o’quv qo’llanmasida ta’limda axborot texnologiyalarining tutgan o’rni va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan ta’lim jarayonida, xalq xo’jaligida foydalanish jarayonlari ko’rib chiqilgan. O’quv qo’llanmada fan doirasida talabalarga turli sohalarida mavjud axborot texnologiyalarini qo’llashda va joriy etishda bilimlar berish bilan bir qatorda ularda tizimli yondashuvni shakllantirish metodlari bayon etilgan.

Boymurodov Adham Xushimqulovichning “Umumiy o’rta ta’lim tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanini o’qitishning innovatsion klaster modeli” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani mazmunini klasterli yondashuv vositasida takomillashtirish orqali zamonaviy ta’lim texnologiyalarini aloqadorlik, uzviylik, zamonaviylik tamoyillari asosida joriy etish imkoniyatlari aniqlangan, umumiy o’rta ta’lim tizimida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o’qitishda innovatsion klasterlarni tashkil qilish shakllari sifatga ta’sir qiluvchi omillar (gorizontal, vertikal va geografik)ga ustuvorlik berish asosida ishlab chiqilgan, umumta’lim muassasalarida Kontentlarni boshqarish tizimi (CMS-content management system) texnologiyasi asosida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanni o’qitishning o’quv-metodik ta’minoti (elektron darsliklar, video va audio materiallar, test savollari, fanga doir qo’shimcha adabiyotlar) virtual o’quv muhitini tashkil etish imkoniyatlaridan foydalanish, iforimatika va axborot texnologiyalari fani mashg’ulotlarining o’quv-tashkiliy tuzilmasi o’qitish texnologiyalari (klaster tahlili, muammoli, kompyuter dasturiy ta’minotlari) hamda klaster obyekt va subyektlari o’rtasida integratsiyani ta’minlash asosida takomillashtirish usullari bayon etilgan.

Adabiyotlar tahlilidan ko’rinib turibdiki, axborot texnologiyalarining bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirishda roli beqiyosdir. Shunday ekan bejizga 2023-2024 o’quv yilidan boshlab boshlang’ich sinflarning 1-sinfida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o’qitish o’quv rejaga kiritildi.

O’zbekistonda 2023-2024-o’quv yilidan 1-sinf o’quvchilari uchun informatika va axborot texnologiyalari fani joriy etildi. Bu haqda maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o’quv yiliga mo’ljallangan tayanch o’quv rejani tasdiqlash to’g’risida”gi buyrug’ida keltirib o’tilgan. Unga ko’ra, Respublika ta’lim markaziga bir oy muddatda tayanch o’quv reja asosida tegishli taqvim-mavzu rejalarini ishlab chiqish, bir hafta muddatda 1-sinf informatika va axborot texnologiyalari fanini o’qitish metodikasi, o’quv dasturi, davlat ta’lim standartlari va taqvim-mavzu rejalarini amaliyotga tatbiq etish bo’yicha vazirlikka taklif kiritish topshirildi. Shuningdek, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o’rgatish milliy-tadqiqot institutiga:

- boshlang’ich sinf o’qituvchilari uchun 1-sinf informatika va axborot texnologiyalari fanini zamonaviy metodikalar asosida o’qitish va o’rgatish bo’yicha qisqa muddatli o’quv kurslarining dasturini ishlab chiqish;

- umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi 1-sinf informatika va axborot texnologiyalari fanini o’qitadigan boshlang’ich sinf o’qituvchilarini qisqa muddatli o’quv kurslariga qamrab olish grafiginini ishlab chiqish va tasdiqlash;

• 2023-yilning 25-avgustiga qadar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun informatika va axborot texnologiyalari fanining mazmun-mohiyati bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslarining samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirish vazifalari yuklatildi.

Tasdiqlangan rejaga binoan o‘quvchilar: axborot va uning turlari, ketma-ketlik, tabiatdagi qaytarib turuvchi voqea-hodisalar, obyekt, obyektning qismlari va ularni taqqoslash, qarama-qarshi xususiyatlar bo‘yicha chuqur bilimlarga ega bo‘lishadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun informatika fanining juda ko‘p avzalliklari mavjud. Masalan: informatika fani yordamida o‘quvchi tabiatdagi qaytarilib turuvchi voqea-hodisalar haqida ma‘lumotga ega bo‘lsa kelgusida uni takrorlanuvchi algoritmlar mavzusini tushunishi yanayam osonroq bo‘ladi.

Axborot texnologiyalarining o‘qitilishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, mehnat bozorining malakali IT mutaxassislarga bo‘lgan talabini qoniqtirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son) 2020 — 2023-yillarda informatika va axborot texnologiyalari yo‘nalishida uzluksiz ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 3-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

2. Prezident ta‘lim muassasalari agentligi, Xalq ta‘limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda:

- 2020/2021-o‘quv yilidan boshlab: ixtisoslashtirilgan va boshqa umumta‘lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining “Bir million dasturchi” loyihasiga oid o‘quv dasturlari bilan bosqichma-bosqich integratsiya qilinishini ta‘minlandi;

- o‘quvchilari “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan davlat umumta‘lim maktablarining 100 nafar eng yaxshi “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilarini Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi va IT-parkning mablag‘lari hisobidan har yili bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari miqdorida bir martalik mukofotlash tizimini joriy qilindi;

3. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Xalq ta‘limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va “O‘zstandart” agentligi bilan birgalikda 2021-yil 1-martga qadar “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilarini sertifikatlash milliy tizimini joriy qilindi.

4. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining axborot texnologiyalari yo‘nalishi bo‘yicha o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlaydigan texnikumlarga ishlab chiqarish korxonalarini birlashtirish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullandi. Bunda ushbu korxonalar tomonidan quyidagilar amalga oshirilishi nazarda tutiladi:

- texnikumlar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni kompyuter va boshqa jihozlar, darsliklar va zamonaviy adabiyotlar bilan ta‘minlashda doimiy asosda amaliy yordam ko‘rsatish;

- texnikumlarda o‘quvchilarni, shu jumladan axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha korxonalarining yillik tarmoq buyurtmasini shakllantirish;

- texnikumlarda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent shahridagi Inxa universiteti va Toshkent shahridagi Amiti universiteti o‘qituvchilarini jalb qilgan holda, shu jumladan masofaviy o‘qitish orqali o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishga ko‘maklashish.

5. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

❖ Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi bilan birgalikda 2021-2022-o‘quv yilidan Toshkent viloyatida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining filialini tashkil etildi.

❖ Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 1-yanvarga qadar Toshkent viloyatida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining filiali faoliyatini tashkil etish bo‘yicha Hukumat qarorini qabul qilindi;

❖ Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda har bir hududda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni tayyorlash uchun texnikumlar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kirildi.

6. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini

rivojlantirish vazirligining:

- oliy ta'lim muassasalarining tegishli ta'lim yo'nalishlari talabalarini o'rtasida informatika, dasturlash va axborot texnologiyalari sohalarida o'tkaziladigan respublika fan olimpiadalari g'oliblari, shuningdek, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan belgilanadigan nufuzli xalqaro olimpiadalar sovrindorlari bo'lgan talabalarni oliy ta'lim muassasalarining tegishli magistratura yo'nalishlariga ajratilgan kvota doirasida davlat grantlari asosida imtihonsiz qabul qilish;

- 2021/2022-o'quv yilidan boshlab informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishlarida kadrlar tayyorlayotgan barcha oliy ta'lim muassasalari tomonidan umumta'lim maktablari bitiruvchi sinflari o'quvchilari o'rtasida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo'yicha ko'p bosqichli (tuman (shahar) — viloyat — oliy ta'lim muassasasi) o'z olimpiadasini o'tkazishi va 1 — 3-o'rinlarni egallagan o'quvchilarni birinchi o'quv yili uchun to'lov oliy ta'lim muassasalarining mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan holda imtihonsiz o'qishga qabul qilish to'g'risidagi takliflariga rozilik berildi.

7.Shunday tartib o'rnatildiki, unga muvofiq 2021-yildan boshlab “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo'yicha xalqaro olimpiadalar g'oliblarini tayyorlagan professor-o'qituvchilarni oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bir oylik maosh miqdorida bir martalik mukofotlash tizimi joriy etildi.

Bunda, oliy ta'lim muassasasi o'z moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, olimpiadalarning g'oliblari tomonidan egallagan o'ringa qarab, ularni tayyorlagan professor-o'qituvchilarni qo'shimcha mukofotlash tizimini joriy etish huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasalarining informatika va axborot texnologiyalari bilan bog'liq ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtiyozli diplomga ega bo'lgan bitiruvchilari mazkur oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga kirish imtihonlarisiz to'lov-kontrakt asosida qabul qilinadi;

This study explores the pedagogical-psychological consequences of integrating Collaborative Educational Technology based on the 4K module in primary education. The study explores the impact of technology on teaching practice, student educational outcomes, and socio-emotional development. The findings suggest that technology integration increases student collaboration, critical thinking, and digital literacy skills. Equality, accessibility, and socio-emotional education appear as key considerations in the use of technology for educational purposes. The study highlights the importance of professional development and support of teachers to effectively integrate technology in the classroom.

Keywords: technology of cooperative education, module 4K, primary education, pedagogical influences, psychological development.

Kirish. Boshlang‘ich ta‘lim sohasida hamkorlikdagi ta‘lim texnologiyasining integratsiyasi o‘quv jarayonini yaxshilash va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun transformativ yondashuv sifatida paydo bo‘ldi. Bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlar kabi asosiy elementlarni o‘z ichiga olgan 4K modulining paydo bo‘lishi boshlang‘ich ta‘limda texnologiyadan foydalanish uchun keng qamrovli asosni taklif qilib, pedagogik landshaftni inqilob qildi. Ushbu maqola boshlang‘ich ta‘lim jarayonida 4K moduli asosidagi hamkorlikdagi ta‘lim texnologiyasidan foydalanishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini o‘rganadi, uning o‘quvchilarning o‘quv tajribasini boyitish va XXI asr uchun muhim kompetentsiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini yoritadi. 4K moduli ta‘lim texnologiyasini o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi bilan uyg‘unlashtirib, nafaqat bilimlarni egallashni, balki tanqidiy ko‘nikmalar, ijobiy munosabat va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashni ham o‘z ichiga olgan boshqaruvchi asos bo‘lib xizmat qiladi. 4K modulini boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga integratsiyalashgan holda, o‘qituvchilar an‘anaviy eslab qolish va passiv o‘rganishdan tashqariga chiqadigan o‘quv tajribalarini loyihalashtirib, o‘quvchilar o‘rtasida faol ishtirok etish, hamkorlik va ijodkorlikni rivojlantirishi mumkin. Ta‘limga bunday yaxlit yondashuv zamonaviy dunyoning murakkabliklarida harakat qilish uchun jihozlangan har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalash muhimligini ta‘kidlaydi [1].

Kooperativ ta‘lim texnologiyasi 4K moduli maqsadlarini amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va talabalar

o'rtasida hamkorlikda o'rganish, muammolarni hal qilish va bilim almashish uchun dinamik platformani taklif qiladi. Raqamli vositalar, interfaol platformalar va virtual muhitlardan foydalanish orqali talabalar jamoaviy ish, muloqot va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradigan mazmunli o'rganish tajribasi bilan shug'ullanishlari mumkin. Kooperativ ta'lim texnologiyasi o'quvchilarga umumiy maqsadlar sari birgalikda ishlashga imkon beradi, sinfda jamoaviylik, o'zaro hurmat va umumiy mas'uliyat hissini uyg'otadi. Pedagogik nuqtai nazardan, 4K moduliga asoslangan hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasining integratsiyasi o'qituvchilarga turli xil ta'lim uslublari va afzalliklariga mos keladigan o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim tajribasini loyihalash imkonini beradi. Interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratish uchun texnologiyadan foydalanish orqali o'qituvchilar individual farqlarni hisobga olishlari, o'z vaqtida fikr-mulohazalarini taqdim etishlari va o'quvchilarning o'quv yutuqlarini samarali ravishda rivojlantirishlari mumkin. Bunday yondashuv nafaqat talabalarning motivatsiyasi va faolligini oshiradi, balki mavzuni chuqur tushunishni rivojlantiradi va umrbod ta'lim odatlarini rivojlantiradi.

Adabiyot tahlili. Boshlang'ich ta'lim jarayonida 4K moduliga asoslangan kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning ta'lim natijalarini oshirish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik va psixologik imkoniyatlarni taqdim etadi. Bir nechta ilmiy maqolalar ushbu innovatsion yondashuvni ta'lim amaliyotiga integratsiyalashning oqibatlarini o'rganib chiqdi. Xorijiy olimlar Omar va boshqalar tomonidan olib borilgan bir tadqiqotda boshlang'ich ta'limda texnologiyani qo'llashni baholash, hamkorlikdagi raqamli ta'lim rejasidan foydalanishning qiyinchiliklari va imkoniyatlarini o'rganadi. Tadqiqot o'qituvchilarning VSB dan foydalanishini o'rganadi va hamkorlikda o'rganish tajribasini oshirishda texnologiyani qabul qilish rolini ta'kidlaydi [2].

Xitoylik olimlar 4K moduli kontekstida pedagogik texnologiyalar va ko'nikmalarining ahamiyati muhokama qilinadi. Tadqiqot aniq ta'lim maqsadlariga erishish va o'quv jarayonini yaxshilash uchun texnologiyani integratsiyalashning ahamiyatini ta'kidlaydi [3]. Ushbu tadqiqotlardan olingan g'oyalarni sintez qilish orqali o'qituvchilar raqamli asrda muvaffaqiyatga erishish uchun talabalarga yordam beradigan qiziqarli va hamkorlikdagi o'quv muhitini yaratish uchun texnologiyadan foydalanish bo'yicha qimmatli istiqbollarga ega bo'lishlari mumkin.

Metodlar. Boshlang'ich ta'lim jarayonida 4K moduliga asoslangan hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasidan foydalanishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini o'rganishda qo'llaniladigan tadqiqot metodologiyasi kompleks va tizimli yondashuvni o'z ichiga oladi. Ushbu bo'limda hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasining o'quvchilarning ta'lim natijalari va psixologik rivojlanishiga ta'sirini o'rganish uchun tadqiqot dizaynining asosiy tarkibiy qismlari, ma'lumotlarni yig'ish usullari va tahlil usullari ko'rsatilgan.

Boshlang'ich ta'limda kooperativ ta'lim texnologiyasini joriy etish bo'yicha ham miqdoriy, ham sifat ma'lumotlarini to'plash uchun aralash usullardan iborat tadqiqot loyihasi qabul qilindi. Bunday yondashuv 4K modulini o'quv jarayoniga integratsiyalashning pedagogik va psixologik oqibatlarini yaxlit tushunish imkonini berdi. Tadqiqot dizayni turli nuqtai nazar va tajribalarni qo'lga kiritish uchun so'rovlar, intervyular va sinfdagi kuzatishlarni o'z ichiga olgan. Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, o'quvchilar va ta'lim texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar ishtirok etdi. Sinfda hamkorlikda o'rganish strategiyalari va texnologiya integratsiyasi tajribasiga ega bo'lgan ishtirokchilarni tanlash uchun maqsadli tanlab olish usuli qo'llanildi. Qo'shilish mezonlari boshlang'ich ta'lim jarayoniga jalb qilingan manfaatdor tomonlarning turli vakilligini ta'minladi.

Ishtirokchilar javoblarining naqshlari va tendensiyalarini aniqlash uchun statistik dasturiy ta'minot yordamida so'rovlardan olingan miqdoriy ma'lumotlar tahlil qilindi. Suhbat va kuzatishlardan olingan sifatli ma'lumotlar tematik jihatdan tahlil qilindi va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasining pedagogik va psixologik ta'siri bilan bog'liq asosiy mavzularni ajratib ko'rsatdi. Ma'lumotlar manbalarining triangulyatsiyasi tadqiqot natijalarining haqiqiyliги va ishonchligini oshirdi [4].

Natijalar. Boshlang'ich ta'lim jarayonida 4K moduli asosidagi kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari texnologiya integratsiyasining o'quvchilarning ta'lim natijalari va psixologik rivojlanishiga ta'siri haqida muhim tushunchalarni ochib berdi. Ushbu bo'limda boshlang'ich ta'limda kooperativ ta'lim texnologiyasini joriy etish bilan bog'liq foyda va muammolarni ko'rsatib, ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida olingan asosiy xulosalar keltirilgan.

Talabalarning faolligi va hamkorligi: Boshlang'ich ta'lim jarayoniga kooperativ ta'lim texnologiyasini integratsiyalashning asosiy natijalaridan biri o'quvchilarning faolligi va hamkorligini oshirish edi. Interfaol 4K modullaridan foydalanish talabalarning faol ishtirokini osonlashtirdi, ularni vazifalar va loyihalar ustida birgalikda ishlashga undadi. Talabalar bilan o'tkazilgan so'rovlar hamkorlikda o'rganish tajribasidan qoniqish darajasini ko'rsatdi va motivatsiya va tengdoshlarning o'zaro ta'sirini asosiy foyda sifatida keltirdi.

Akademik samaradorlik: Kooperativ ta'lim texnologiyasini qo'llashdan oldin va keyin o'quv samaradorligi ma'lumotlarini tahlil qilish talabalarning yutuqlarida sezilarli yaxshilanishni aniqladi. 4K modulidan foydalangan holda hamkorlikda o'quv faoliyati bilan shug'ullangan talabalar an'anaviy sinf sharoitlariga nisbatan yuqori darajadagi akademik muvaffaqiyatlarni namoyish etdilar. Texnologiyaga asoslangan hamkorlikda o'qitish strategiyalarining integratsiyasi talabalarning murakkab tushunchalarni tushunishlarini yaxshilash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun aniqlandi.

Psixologik rivojlanish: Tadqiqotda, shuningdek, hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasining o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga psixologik ta'siri o'rganildi. Natijalar texnologiya takomillashtirilgan kooperativ ta'lim va ijtimoiy ko'nikmalar, empatiya va o'z-o'zini tartibga solishni rivojlantirish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi. Talabalar o'zlarining tengdoshlari va o'qituvchilari bilan ko'proq bog'langanliklarini, sinf muhitiga tegishli

bo'lish va jamiyat tuyg'usini kuchaytirganliklarini aytishdi. Ta'lim texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar 4K modulining o'quvchilar o'rtasida hissiy intellekt va chidamlilikni rivojlantirishdagi rolini ta'kidladilar.

O'qituvchilar nuqtayi nazari: Tadqiqotda ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fikr-mulohazalari kooperativ ta'lim texnologiyasini sinfda integratsiyalash bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlar haqida qimmatli tushunchalar berdi. O'qituvchilar 4K modulining interfaol va hamkorlik xususiyatiga ishtiyok bildirishdi va uning o'quvchilar faolligini oshirish va tabaqalashtirilgan o'qitishni osonlashtirish imkoniyatlarini qayd etishdi. Biroq, ba'zi o'qituvchilar, shuningdek, texnologiyaga asoslangan hamkorlikdagi ta'lim faoliyatini samarali amalga oshirish uchun doimiy kasbiy rivojlanish va texnik yordam zarurligini ta'kidladilar.

Texnologiya integratsiyasi muammolari: Kuzatilgan umumiy ijobiy natijalarga qaramay, tadqiqot boshlang'ich ta'limda kooperativ ta'lim texnologiyasini integratsiyalashuvi bilan bog'liq bir qancha muammolarni aniqladi. Texnik muammolar, qurilmalardan foydalanishning cheklanganligi, talabalar va o'qituvchilarning turli darajadagi raqamli savodxonligi samarali amalga oshirishga to'siqlar sifatida tilga olindi. Bundan tashqari, texnologiya talabalarni chal'itishi va sinfda yuzma-yuz muloqot qilishdan xalaqit berishi mumkinligi haqida xavotirlar bildirildi.

Kelajakda amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar: Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich ta'limda kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini oshirish bo'yicha bir qancha tavsiyalar berish mumkin. Bularga o'qituvchilar uchun texnologiyani hamkorlikdagi ta'lim faoliyatiga integratsiya qilish bo'yicha keng qamrovli treninglar tashkil etish, barcha o'quvchilar uchun qurilmalar va resurslardan teng foydalanishni ta'minlash, o'qitish amaliyotida hamkorlik va innovatsiyalarni qadrlaydigan qo'llab-quvvatlovchi maktab madaniyatini rivojlantirish kiradi.

Muhokama. Boshlang'ich ta'limda 4K moduliga asoslangan hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasidan foydalanishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari bo'yicha tadqiqot natijalari o'qituvchilar, siyosatchilar va texnologiya ishlab chiquvchilar uchun muhim fikrlarni keltirib chiqaradi. Muhokama bo'limi natijalarning oqibatlarini o'rganadi va texnologiyani boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiyalashning kengroq oqibatlarini o'rganadi. Tadqiqot natijalari kooperativ ta'lim texnologiyasining boshlang'ich ta'limdagi o'qitish va o'qitish amaliyotiga o'zgartiruvchi ta'sirini ko'rsatadi. Hamkorlik, tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali texnologiya integratsiyasi o'qitish samaradorligini oshirishi va o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlarini rivojlantirishi mumkin. O'qituvchilar turli xil o'rganish uslublari va qobiliyatlariga mos keladigan qiziqarli va interaktiv o'rganish tajribasini yaratish uchun 4K modulining interaktiv xususiyatlaridan foydalanishlari mumkin [5].

Tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy fikrlardan biri texnologiya integratsiyasi tashabbuslarida tenglik va kirish muammolarini hal qilishning muhimligidir. 4K moduli hamkorlikda o'rganish uchun innovatsion imkoniyatlarni taqdim etsa-da, mavjud ta'limdagi nomutanosibliklarning kuchayishini oldini olish uchun qurilmalar va resurslardan teng foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Siyosatchilar va maktab ma'murlari texnologiya vositalarining adolatli taqsimlanishiga ustuvor ahamiyat berishlari va talabalar va o'qituvchilarga raqamli ta'lim muhitini samarali boshqarishda yordam berishlari kerak. Tadqiqotning hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasi orqali o'quvchilarning psixologik rivojlanishiga qaratilganligi boshlang'ich ta'limda ijtimoiy-emotsional ta'limning ahamiyatini ta'kidlaydi. Texnologik takomillashtirilgan hamkorlikdagi o'quv faoliyati empatiya, muloqot qobiliyatlari va jamoada ishlashga yordam beradi va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadi. Pedagoglar o'quvchilarning emotsional intellektini va chidamliligini tarbiyalash uchun ijtimoiy-emotsional ta'lim kompetensiyalarini texnologiya asosidagi darslarga integratsiyalashuvini hisobga olishlari kerak. Tadqiqotda o'qituvchilarning fikr-mulohazalari texnologiya integratsiyasining afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun doimiy kasbiy rivojlanish va texnik yordam zarurligini ta'kidlaydi. O'qituvchilar texnologiyani o'qitish amaliyotiga kiritish va talabalarining turli ehtiyojlarini qondirish uchun samarali pedagogik strategiyalar bo'yicha treningni talab qiladi. Maktab rahbariyati o'qituvchilarni hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasini joriy etish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda qo'llab-quvvatlash uchun resurslar va yo'l-yo'riqlar bilan ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi [6].

Xulosa. Boshlang'ich ta'limda 4K moduli asosida hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasidan foydalanishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini o'rganish o'quvchilarning ta'lim natijalari va psixologik rivojlanishini oshirish uchun texnologiya imkoniyatlarini ko'rsatadi. Hamkorlik, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rag'batlantirish orqali texnologiya integratsiyasi talabalarni raqamli asrda muvaffaqiyatga tayyorlaydigan dinamik va inklyuziv o'quv muhitini yaratishi mumkin. Oldinga siljish uchun o'qituvchilar, siyosatchilar va texnologiya ishlab chiquvchilari boshlang'ich ta'limga texnologiyani integratsiyalash bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlarni hal qilishda hamkorlik qilishlari juda muhimdir. Tenglik, foydalanish imkoniyati va ijtimoiy-emotsional ta'limga ustuvor ahamiyat berish orqali manfaatdor tomonlar o'quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish va ta'limda innovatsiya madaniyatini rivojlantirish uchun hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasining to'liq imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin.

Ushbu tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim jarayoniga texnologiyani o'ylangan va qasddan integratsiyalashuvining muhimligini ta'kidlab, uzluksiz kasbiy rivojlanish, qo'llab-quvvatlash va o'qitish va o'qitishda o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Kooperativ ta'lim texnologiyasining pedagogik-psixologik imkoniyatlarini o'zlashtirib, o'qituvchilar o'quvchilarni tez rivojlanayotgan raqamli landshaftga tayyorlaydigan qiziqarli va boyituvchi o'quv tajribalarini yaratishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Nazira, T. (2024). 4K modeli asosida o'qitishning afzalligi. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 21(4), 62-63.
2. Omar, A., & Mansor, R. (2019, April). ICT influence in teaching and facilitation of Malay literature for increasing 4K thinking. In 8th UPI-UPSI International Conference 2018 (UPI-UPSI 2018) (pp. 185-190). Atlantis Press.
3. Zhan, Z., Shen, W., & Lin, W. (2022). Effect of product-based pedagogy on students' project management skills, learning achievement, creativity, and innovative thinking in a high-school artificial intelligence course. *Frontiers in Psychology*, 13, 849842.
4. Odiljonovna, S. R. (2024). Tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. // So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 7(1), 259-266.
5. Korkmaz, Ö. (2018). The Effect of Project-Based Cooperative Studio Studies on the Basic Electronics Skills of Students' Cooperative Learning and Their Attitudes. *Online Submission*, 10(5), 1-8.
6. Politis, D., & Stagiopoulos, P. (Eds.). (2019). *Advanced Technologies and Standards for Interactive Educational Television: Emerging Research and Opportunities: Emerging Research and Opportunities*.

MAKTABGACHA TA'LIM SAMARADORLIGIDA MULTIMEDIA
TEKNOLOGIYASINING O'RNI

*Teshayeva E'zoza Rahim qizi,
Buxoro davlat universiteti
«Amaliy matematika» mutaxassisligi magistranti*

Maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari, multimedia mahsulotlarining samaradorligi haqida so'z yuritilgan. Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga oid qabul qilingan qaror va farmonlar ijrosi sifatida yaratilgan multimediali platformaning samaradorligi, shuningdek, amaliyotda foydalanilganligi va samaradorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, multimedia, axborot texnologiyalari, platform, elektron darslik, maktabgacha ta'lim tashkiloti.

РОЛЬ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЭФФЕКТИВНОСТИ ДОШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ

В статье говорится об эффективности информационных технологий и мультимедийных продуктов в процессе дошкольного образования. Приводятся сведения об эффективности мультимедийной платформы, созданной во исполнение решений и постановлений, касающихся развития сферы дошкольного образования, а также сведения о её использовании и эффективности на практике.

Ключевые слова: дошкольное образование, мультимедиа, информационные технологии, платформа, электронный учебник, организация дошкольного образования.

THE ROLE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGY IN THE EFFICIENCY OF PRESCHOOL
EDUCATION

The article describes the effectiveness of information technology and multimedia products in the preschool education process. It provides information about the effectiveness of the multimedia platform created in fulfilment of decisions and resolutions concerning the development of preschool education, as well as information about its use and effectiveness in practice.

Keywords: preschool education, multimedia, information technology, platform, e-textbook, preschool organization.

Kirish. Hozirgi kunda respublikamizda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimlarida raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Elektron darsliklar, elektron ta'lim resurslari va o'quvchilar uchun mo'ljallangan maxsus multimedia dasturlari, elektron platformalar buning yaqqol dalilidir. Ammo ta'limning birinchi bo'g'ini bo'lmish maktabgacha ta'lim tizimi nisbatan ancha orqada qolgan. O'zbekistonda ushbu muammoning sabablaridan biri sifatida o'zbek tilidagi maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslarining juda kamligini va MTT lari axborot kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanmaganligini keltirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr PQ-4884-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa mafaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish vazifasi belgilangan [1]. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595 sonli qonunining 53-moddasida ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish-ishlab chiqarish, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalari belgilangan [2]. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar S.L.Novoselova [3], I.Yu.Pashiliti, G.P.Petko, Xanter [5] va M.I.Jumayevlarning fikrlariga ko'ra, ta'lim jarayonida kompyuterdan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar nafaqat kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati maqsadga muvofiqligini, balki bolaning intellekti va shaxsiyatini rivojlantirishda alohida o'rin tutganligini va bugungi

kunda multimedia o'qitish vositalaridan foydalanish maktabgacha ta'limtizimidagi ko'plab uslubiy yangiliklarni ishonchli isbotlamoqda [5]. Ularning fikriga qo'shilib shuni aytmochimanki multimedia mahsulotlari bolaning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi, fikrlash doirasi va intellektual salohiyatini o'stiradi va mustaqil bilim olishiga imkoniyat yaratadi.

Asosiy qism. O'zbekiston bugungi kunda rivojlangan davlatlar qatori raqamli davrga o'tmoqda, biz bunday o'zgarishlarni aksariyat hollarda ishlab chiqarish sohaslarida, savdo sohasida, maktab tizimida (onlayn maktab, kundalik.uz platformasi), oliy ta'limda (moodle tizimi) va boshqa sohalarda yaqqol ko'rmoqdamiz.

Hozirgi kunda ayrim maktabgacha ta'lim muassasalarida ham raqamli doskalar, kompyuterlar, proyektorlar va boshqa orgtexnika vositalari paydo bo'lmoqda va tarbiyachilar ulardan turli mashg'ulotlarni o'tkazishda foydalanmoqdalar. Zamonaviy bolalar raqamli media mahsulotlarini, raqamli tasvirlarni juda katta qiziqish bilan qabul qilmoqdalar, ularning ta'sirida qog'ozli ko'rgazmalar ularda media mahsulotlarga nisbatan uncha taassurot qoldirmayapti. Yuqorida aytib o'tilgan holatlar tobora ommalashib borayotganligini guvohi bo'lyapmiz [2,3].

Ammo maktabgacha ta'limni butunlay raqamlashtirish mumkin emas, ammo ta'limning ajralmas qismi sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanish yuqori natijalarni bermiqda.

O'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi - bu zamon talabi va ulardan oqilona foydalanish tarbiyachi va ota-onalar zimmasidadir. Unutmaslik kerakki, kichik va o'rta guruh yoshidagi bolalarning televizion ko'rsatuvlar va video filmlarni uzluksiz ko'rish vaqti 20 daqiqadan, katta va tayyorlov guruhlarida esa 30 daqiqadan oshmasligi kerak [4].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim faolligini oshirish vositasi sifatida axborot texnologiyalaridan foydalanish muammosi dolzarb masala bo'lib turgan va yurtimizning maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, jamiyatni axborotlashtirishni rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish sifatini yaxshilash uchun ijtimoiy ehtiyojlar, zamonaviy jamiyat sharoitlari yetarli darajada rivojlangan vaqtda bu borada to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatadigan uslubiy asoslar yetarli emas.

Ushbu muammoni inobatga olgan holda biz maktabgacha ta'lim tizimining “Ilk qadam” davlat dasturi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning elementar matematik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi elektron ko'llanma loyihasini tayyorladik. Bu ko'llanma elementar matematika mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan bo'lib, turli yosh guruhlariga ajratilgan, yosh guruhlarining “Ilk qadam” dasturi talablariga va vaqtmeyerlariga asosan mavzulashtirilgan mavzuni yorituvchi videoroliklar to'plami hamda mantiqiy rivojlantiruvchi kichik kompyuter o'yinlaridan iborat.

Dasturda har bir yosh guruhining talablari inobatga olingan holda, kompyuterdan foydalanish vaqt reglamentlari ham inobatga olingan. Ushbu loyiha Adobe Flash, Crazy Talk Animator va boshqa grafik dasturlardan foydalangan holda tayyorlangan, u takomillashtirilib borilmoqda va eng asosiysi o'zbek tilida. Hozirgi kunda bizda rus va ingliz tilida tayyorlangan elektron rivojlantiruvchi dasturlar mavjud, ammo ular ham “Ilk qadam” dasturi talablariga javob bermaydi, bizning mentalitetimizga mos kelmaydi.

5-7 yoshli bolalarning egallashi zarur bo'lgan “elementar matematik ko'nikmalari” ni o'zlashtirishga mo'ljallangan o'zbek tilidagi videoroliklarni, rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlarini, didaktik materiallarni va tarbiyachilar uchun mo'ljallangan elektron uslubiy ko'llanma uchun asos bo'lgan dasturga O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan №DGU 08018 raqamli guvohnoma olindi.

Yaratilgan dasturni amalda sinovdan o'tkazish va natijasini o'rganish maqsadida Buxoro viloyat Kogon shahar va Kogon tuman MTM tarbiyachilari ishtirokida “MTM tarbiyachilari kompyuter savodxonligini oshirish” mavzusida seminar-treninglar o'tkazilib tarbiyachilarga dasturdan foydalanish yo'riqnomalari tushuntirildi. O'tkazilgan sinov-tajriba mashg'ulotlarining natijalari umumlashtirilmoqda.

Davlat talablariga mos ravishda bola psixologiyasining yosh jihatlarini va o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda yaratilgan elektron manbalar, ta'limiy ertaklar, bosqichli o'yinlar, o'quv-uslubiy animatsion videoroliklar juda samarali vositalar hisoblanadi. Mashg'ulotlar an'anaviy usullarda tashkil qilinishidan farqli ravishda raqamli texnologiyalardan foydalanib innovatsion usullarda, elektron manbalar asosida tashkil etilsa, bolaga berilayotgan bilim va ko'nikmalarga nisbatan qiziqishning uyg'onishiga, diqqatini o'ziga jalb qilib va xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, axborot texnologiyalari bir qator yangi imkoniyatlar eshiklarini ochadi. Zamonaviy pedagogik raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning yutuqlarini kafolatlaydi va keyinchalik maktabda muvofaqiyatli o'qishini kafolatlaydi.

Ilmiy izlanishlarim natijasida men o'z tadqiqot ishimda asosiy e'tiborni maktabgacha ta'lim sohasida

raqamli texnologiyalarni qo'llash va “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi talablari asosida “Elementar matematika” mashg'ulotlarini o'qitishga mo'ljallangan elektron ta'lim resursini yaratishga qaratdik va ilmiy izlanishlar olib bordik. 2020-yilda “Maktabgacha ta'limda matematika mashg'ulotini o'qitishga mo'ljallangan amaliy dastur” nomli elektron ta'lim resursini yaratildi. Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvoxnomasi olindi. 2021-yilda “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi, “O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari” asosida shakllantirilgan elementar matematika mashg'ulotlar to'plamining kompyuter dasturi yaratildi dasturda to'liq kichik guruh, o'rta guruh, katta guruh, tayyorlov guruh bolalariga mo'ljallangan elementar matematika mashg'ulotlarining to'plamini qamrab oladi. Dasturda har bir mashg'ulotga mo'ljallangan multimediali o'quv video roliklar va mavzuni mustahkamlashga oid rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlari to'plami joylashtirilgan.



Dasturning bosh oynasi



Dastur oynalari

Dasturning asosiy qismi AdobeFlashPlayer dasturida yaratildi, animatsion videoroliklar an Animator, Camtaziya Studio, Format Factory, diktufon dasturlarida foydalanib ishlab chiqilgan, kompyuter o'yinlar tizimini yaratishda ActionScript dasturlash tilidan foydalanildi.

Ta'lim materialining tushunarli bo'lish tamoyili kompyuter xotirasiga kiritilgan va o'rganishga taalluqli materiallarni monitor ekraniga chiqarish va namoyish etilishi asosida amalga oshiriladi. Dasturchi elektron ta'lim resursini tayyorlashda ta'lim berish jarayonida o'quv materialining bolaga tushunarli bo'lish tamoyiliga alohida e'tibor berishi lozim. Tanlangan o'quv materiali murakkab bo'lmasligi, osondan qiyinga qarab bosqichma-bosqich amalga oshirilishi inobatga olingan.

Dasturda bolalarning yosh davrlari ajratilgan bo'lib, har bir yosh davri bo'yicha mavzular “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi asosida alohida joylashtirilgan. Har bir mavzu bo'yicha ma'lumot beruvchi animatsion video roliklar yaratilgan va yosh davriga mos ravishda platformaga joylashtirilgan, har bir mavzuni mustahkamlashga doir 15 ga yaqin interfaol kompyuter o'yinlari kiritilgan.

Elektron platforma orqali bilim berishning an'anaviy usullardan afzalligi shundaki, har bir videorolik orqali mashg'ulot mavzulari multafilmlar orqali bola tilida yoritiladi, bu orqali bolaning bilim olishga ishtiyoqi ortadi.

Kompyuter o'yinlari orqali bolalar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarishda xato javobni belgilasa-da unga kompyuter tanbeh bermaydi, do'stlari orasida izza qilmaydi natijada bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Qolaversa, bolaning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda ham ushbu elektron platformaning o'rni beqiyosdir. Zamonaviy kompyuterli animatsion, mukammal dasturiy vositalardan foydalanish, uchinchi renesans bolasining zamon talablariga mos ravishda bilim olishiga, mustaqil fikrining shakllanishiga, tafakkur doirasining ortishiga, kompyuter savodxonligiga ega bo'lishiga, aqliy salohiyatning yuksalishiga xizmat qiluvchi zamonaviy vosita hisoblanadi.

Xulosa. Mamlakatimiz uchun ta'limni raqamlashtirishning asosiy tahdidi global ta'lim muhitining asosini topishdir. Ushbu tahdid bir necha omillar natijasida amalga oshirilishi mumkin: jahon bozoriga kirishning kechikishi; mahsulot sifati yetarli emasligi; til to'sig'i; maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimi mutaxassislarining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'rsatkichining pastligi; til bilish ko'rsatkichining pastligidir. Hozirgi kunda rus va ingliz tilidagi bolalar uchun mo'ljallangan rivojlantiruvchi interaktiv tizimlar, kompyuter o'yinlari, multimedia mahsulotlari juda ko'p, tilni bilgan kishi esa ulardan bemalol foydalanishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganlarga asoslanib ta'kidlash joizki, raqamli texnologiyalarni joriy etish maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirish uchun juda muhimdir, ammo shu bilan birga

ularni amalga oshirishda ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirish zarur. Hozirgi kunda mamlakatimizda ham ushbu soha rivoji uchun bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda. O'zbek tilidagi bolalar uchun bo'ljallangan rivojlantiruvchi, yangi bilim beruvchi elektron portallar yaratilmoqda. Maktablarimizning boshlang'ich sinf darsliklariga ilova tarzida elektron multimedia darslari taqdim etilgan va ulardan dars jarayonlarida samarali foydalanilmoqda. Ta'lim makonini raqamlashtirishga o'tish zarurati bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, bugungi kunda deyarli barcha o'quvchilar raqamli mahalliy avlodga mansub bo'lib, ular yangi texnologiyalarni kundalik hayotida qo'llashga katta moyilligini namoyish etishmoqda. Ayniqsa, bu IT va Internet texnologiyalariga, shuningdek ularni nafaqat professional sohada, balki ijtimoiylashuv va aloqa uchun ham qo'llashga tegishli. Shunday qilib, raqamlashtirilgan ta'lim tizimidan foydalanish maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining kelajakda raqamlashgan jamiyatga kirishishi uchun maqsadli auditoriya a'zosi bo'lishi uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Bu, albatta, maktabgacha ta'lim tashkilotining va maktabning ta'lim bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga, qo'shimcha qiymat yaratishga va bolalarni jalb qilishga olib keladi. Bu birinchi navbatda raqobatbardoshlikni oshiradi; ikkinchidan ta'lim jarayonini jahon standartiga moslashtiradi.

Bunday sharoitda shaxsni shakllantirish avvalgi an'anaviy usullardan tubdan farq qiladi, bu globallashayotgan axborot makonida uni maktabgacha boshlang'ich ta'lim integratsiyasida tatbiq qilishning sifat jihatidan yangi modelini ishlab chiqishni, hozirgi sharoit uchun zarur bo'lgan va ularga mos keladigan mutlaqo yangi usullarini o'zida jamlagan metodik ishlarni shakllantirishni talab qiladi. Nima bo'lganida ham, zamonaviy pedagogik raqamli texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarning yutuqlarini kafolatlaydi va keyinchalik yuqori sinflarda muvaffaqiyatli o'qishini kafolatlaydi.

Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida multimedia mahsulotlarini qo'llash natijalari bo'yicha 2019-2021-yillar davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazgan tajriba-sinov natijalari asosida shunga amin bo'ldimki, raqamli texnologiyalar ta'limning ajralmas qismi bo'lib, ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimida mashg'ulotlarni tashkil etishda zarur vosita deb hisoblayman. Bunday sharoitda shaxsni shakllantirish avvalgi an'anaviy usullardan tubdan farq qiladi, bu globallashayotgan axborot makonida maktabgacha ta'lim tizimining sifat jihatidan yangi modelini ishlab chiqishni, hozirgi sharoit uchun zarur bo'lgan va ularga mos keladigan mutlaqo yangi usullarini o'zida jamlagan metodik ishlarni shakllantirishni talab qiladi. Nima bo'lganida ham, zamonaviy pedagogikada raqamli texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish maktabgacha yoshidagi bolalarning yutuqlarini kafolatlaydi va keyinchalik yuqori sinflarda muvaffaqiyatli o'qishini kafolatlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish, ularning aqliy rivojlanish salohiyatini dunyo tendensiyalari darajasiga ko'tarish davr talabidir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli Qonuni.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПҚ-4884-сон "Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги Қарори.
3. Новоселова С.Л., Петку Г.П. Компьютерный мир дошкольника. – М.: Новая школа, 2007. – 128 С.
4. Савченко Н.А. Использование мультимедиа-технологий в общем среднем образовании. Электронное пособие для педагогов. – М., 2016.
5. Макарова В.Н, Ставцева Е.А. Использование мультимедийных средств в развитии природоведческой лексики детей дошкольного возраста. "Наука и образование" 2018. – 271стр.
6. Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. *Интернаука*, 13-2, С. 78-79.
7. Khalikova U.M. (2020). Information and communication technology (ICT) in preschool education. // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. 10:4, pp. 877-885.
8. Холикова У.М. (2020). Эмоционально-методические системы обучения математическим концепциям в дошкольном образовании на основе информационных технологий. // *Academy*. 56:5, С. 65-67.
9. Boboeva M.N., Rasulov T.H. (2020). The method of using problematic equation in teaching theory of matrix to students. // *Academy*. 55:4, pp. 68-71.
10. Rasulov T.H., Rashidov A.Sh. (2020). The usage of foreign experience in effective organization of teaching activities in Mathematics. // *International Journal of Scientific & Technology Research*. 9:4, pp. 3068-3071.
11. Mardanova F.Ya., Rasulov T.H. (2020). Advantages and disadvantages of the method of working in small group in teaching higher mathematics. // *Academy*. 55:4, pp. 65-68.

12. Rasulov T.H., Rasulova Z.D. (2019). Organizing educational activities based on interactive methods on mathematics subject. // Journal of Global Research in Mathematical Archives, 6:10, pp. 43-45.
13. Расулов Т.Х. (2020). Инновационные технологии изучения темы линейные интегральные уравнения. Наука, техника и образование. 73:9, С. 74-76.
14. Расулов Т.Х., Расулов Х.Р. (2021). Ўзгариши чегараланган функциялар бўлимини ўқитишга доир методик тавсиялар. // Scientific progress. 2:1, 559-567 бетлар.
15. Расулов Т.Х., Умарова У.У. (2020). Мактабда дискрет математика ва математик мантик элементларини ўқитишга оид методик тавсиялар. // Физика-математика фанлари электрон журнали. 5-сон, 1-жилд, 14-20 бетлар.

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
 - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
 - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100350005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2024-yil 5-son (104)</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Nigora SAYFULLAYEVA Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 30.05.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 31.05.2024 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p>
--	--	--